ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

1-son
(maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

M. Atadjonov	6	Tarbiyada o'qituvchining o'rni va o'quvchilarda milliy qadriyatlar shakllanishining psixologik jihatlari
N. Jurayev	9	Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirishning metodik jihatlari
D. Yo'ldosheva	12	Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishda lingvodidaktikaning o'ziga xos jihatlari
H. Ernazarova	16	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilida ertaklarni o'rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari
Sh. Karimova	19	Oliy ta'lim muassasalarida ustoz-murabbiy va ota-onalar hamkorligini tarbiyaviy ahamiyati
D. Yusupova	22	Ta'lim muassasalarida etnografizmlar o'qitilishining nazariy-metodologik asoslari
Y. Shermatova G. Xotamqulova	25	Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari
M. Haydarova	28	Yosh avlodda milliy odob ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik negizlari

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. Djumaboyeva	32	Milliy o'yin-qo'shiqlarimiz asosida musiqa fanini o'qitishning samarali yo'llari
A. Maxmudjonov	35	O'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan kuchli motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi

TA'LIM SIFATI

N. Sultonova	38	O'quv jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlash muammolari
D. Xalqo'ziyeva	41	Innovatsion texnologiyalarning nazariy asoslarini ta'lim sifatining muhim omili sifatida

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

A. Abdurashidov	45	Masofaviy ta'lim – o'qituvchiga qo'yiladigan pedagogik va malakaviy talablar
A. Isakova	49	Oila pedagogikasining zamonaviy o'qitish texnologiyalariga ta'siri
M. Aliyeva	52	Ingliz tili darslarida multimediadan foydalanish – o'quvchilar faolligini oshirish omili sifatida
D. Yo'ldosheva	55	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyadan foydalanishning samaradorligini ta'minlash yo'llari

TA'LIM TARIXI

T. Akbarov	59	Yoshlarni tarbiyalashda milliy musiqaning o'rni
S. Asqarova	62	Yosh avlodni ma'naviy kamolotini shakllantirishda, ijodiy, intellektual rivojlanishida, milliy urf-odat va qadriyatlarimizni anglashida milliy musiqaning o'rni
O. Sobirova	65	Talabalarga folklor qo'shiqlarini o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish
O. Xaydarov	68	O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash muammosining rivojlanish tendensiyalari

E. Qobilova 72 Yosh avlodni tarbiyalashda xalq musiqa an'analarining o'rni



KASBGA YO'NALTIRISH

Sh. Sultonov, E. Sotvoldiyev 75 Kasb-hunar kollejlari faoliyatini mehnat bozori talablari asosida muvofiqlashtirish masalalari



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

S. Rasulova 78 Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismonan tarbiyalash – sog'lom avlodni tarbiyalashning muhim yo'nalishidir



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

D. Madg'afurova, D. Xoshimova, D. Yo'ldoshev 82 O'qituvchining ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

N. Madaminov 86 Yosh avlodning barkamol voyaga yetishishida musiqa ahamiyati

O. Sobirova 90 Inson ruhiyatini shakllantirishda musiqaning o'rni

Q. Fozilov 93 O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy musiqa san'atining o'rni

E. Qobilova 97 Shaxsni shakllantirishda musiqaning ahamiyati

D. Namozova 100 Musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativ texnologiyalarning o'rni



MAKTABGACHA TA'LIM

G. Nazirova 103 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish omillari

X. Ho'jamatova 106 Maktabgacha tarbiya tashkilotlari direktor va xodimlarida menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlari

O. Tolipova 109 Maktabgacha tarbiya jarayonida bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning o'ziga xos jihatlari

V. G'aniyeva 112 Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

D. Yo'lchiboyeva 115 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturini amaliyotga tatbiq etishning samarali usullari



TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATI

N. Erkaboyeva, M. Umaraliyev 119 Maktabgacha ta'limda bolalar kitobxonligining nazariy va amaliy asoslari



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

G. Radjabova, X. Saidova 122 Raqamli iqtisodiyot va ta'lim: o'zaro ta'sir muammolari



PSIXOLOGIYA

D. Saliyeva 126 O'smir shaxsining ijtimoiy dezadaptatsiya natijasida vandalizmning rivojlanish jarayonlari

Sh. Ibragimova 131 O'qituvchi shaxsini kasbiy yo'nalganligining psixologik tahlili



AXBOROT TAHDIDLARIDAN HIMOYA

D. Nosirov 134 Oilada yoshlar g'oyaviy – siyosiy madaniyatini shakllantirish shaxs kamolotining muhim mezoni sifatida

E. Ergashev 137 O'quvchi-yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali informatsion tahdidlarga qarshi kurashish ko'nikmasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

З. Мирзаюнусова 140 Научно–творческие и технологические способности учителей

TARBIYA BIZ UCHUN YO HAYOT – YO MAMOT, YO NAJOT – YO HALOKAT, YO SAODAT – YO FALOKAT MASALASIDIR

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom qilib tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, qadim zamonlardan boshlab axloq, odob masalalari har bir davrning, jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, shoirlar, buyuk allomalar va donishmandlarning asosiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin Ibn Faxriddin, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ko‘plab olim va yozuvchilar oila, odob-axloq masalalari yuzasidan o‘zlarining qimmatli fikrlarini bizlarga bayon qilib ketganlarki, ular hozirgi hayotimiz uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

O‘zbek pedagogikasining rivojiga katta hissa qo‘shgan, ma’rifatparvar Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shaxs, axloq-odob, oila munosabatlari haqida, jumladan, quyidagicha fikr yuritadi:

“Axloq, bu – xulqlar majmui. Xulq esa, ezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadi. Lekin bular kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq.

Ma’lumki, ta’lim va tarbiya shaxsni kamol toptirishning asosiy usullari bo‘lib, u turli ijtimoiy institutlar, muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga qaratilgan ijtimoiy faoliyat va tadbirlar tizimi bo‘lib hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya kishilar, avvalo, yoshlar ongi va ruhiyatiga ta’sir etish orqali inson shaxsini shakllantirishdan iborat yaxlit ijtimoiy jarayondir.

Tarbiya ajdodlarni avlodlarga, bugunni kelajakka bog‘lovchi vosita. Tarbiya – insonning shaxs bo‘lib kamol topishining muhim omili. Tarbiya tufayli odam voqelikka, boshqa odamlarga, jamiyatga, ijtimoiy tuzumga ongli munosabatda bo‘lishni o‘rganadi. Jamiyatda ishlab chiqilgan axloqiy, huquqiy, estetik me’yor va qoidalarni o‘zlashtirish orqali odam jamiyatning faol a’zosiga aylanadi.

Aytishlaricha, ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq-odobini o‘rganishga, ularni tadqiq qilishga bag‘ishlagan ekan. O‘sha olim bizning yurtimizga tashrif buyurib, Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘libdi. Yurtiga qaytib borgach: “Hozirgacha o‘rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o‘n besh yoshli o‘zbek qizalog‘ining o‘rnidan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha choy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim”, degan ekan. Biz shunday yuksak ma’naviyat va madaniyatli xalqning farzandi ekanligimizdan har qancha faxrlansak, arziydi. Darhaqiqat, xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo‘lgan. Ota-bobolarimiz farzand o‘stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so‘zlariga, kishilar oldida o‘zini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o‘z maqsadlarini boshqalarga qanday tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo‘rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi,

nojo‘ya ishlariga zinhor-bazinhor yo‘l qo‘ymaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Mamlakatimiz istiqboli, xalqimizning ertangi kuni ko‘p jihatdan farzandlarning qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya tizimi ma’naviy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamon talablariga javob bera oladigan barkamol insonni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ta’lim-tarbiya inson tafakkuri, ruhiyati va ma’naviyatiga ta’sir etishning qudratli vositasi, u tufayli ajdodlar to‘plagan bilim, ko‘nikma malakalar, hayotiy tajriba, jamiyatda yashash va faollik ko‘rsatish me’yorlari yangi avlod mulkiga aylanadi.

Ajdodlarimizdan qolgan yuksak ma’naviy an’analardan biri – o‘zi tug‘ilib o‘sgan xonadoniga, Vataniga cheksiz hurmat va ehtirom tuyg‘usidir. Xalqimiz o‘z yurtining chinakam fidoyilarini hamisha e’zozlagan va ular bilan faxrlanib kelgan. Vatandoshlarimiz kindik qoni tomgan tuproqning bir siqimini ham o‘zga yurtning olam-olam boyligi-yu, behisob zarlariga almashtirmaganlar.

Odam zoti tarbiyaga hamisha muhtojdir. Tarbiya bilan ta’lim o‘zaro uzviy bog‘liq hodisa bo‘lib, ta’lim yoki ma’lumot olishning vaqti turlicha bo‘lishi mumkin, biroq tarbiya berish yoshlikdan boshlanishi shart. Ko‘rinadiki, tarbiya ishi ota-ona, oila va o‘qituvchi-murabbiylar oldiga ana shunday ulkan hamda mas’uliyatli vazifalarni qo‘yadi.

Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish yoki o‘zgalardan olish jarayoni.

Tarbiyaning ko‘pgina turlari mavjud bo‘lib, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va boshqalardan iborat. So‘z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir alloma Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: Ki har ishni qilmish odamizot, Tafakkur birla yetmish odamizot. Odam biror ishni qilarkan, albatta tafakkur qilishi kerak. Ya’ni fikr chig‘irig‘idan o‘tkazib, o‘ylab ko‘rib, so‘ngra bajarishi lozim. Aksincha, atroflicha o‘ylamasdan, chuqur fikrlamasdan qilingan ish odamning boshiga kulfatlar keltirishi mumkinligi yuqoridagi satrlarda o‘zining she’riy ifodasini topgan. Ayni paytda, tafakkurning inson hayoti va faoliyati uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi uqtirilgan.

O‘zbek pedagogikasining rivojiga katta hissa qo‘shgan, ma’rifatparvar yozuvchi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida fikr tarbiyasi haqida to‘xtalib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdir. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga bog‘langan jon ila tan kabidir”.

Ma’rifatparvar bobokalonimiz fikr tarbiyasining asoslari haqida to‘xtalar ekan, uning o‘qituvchi-murabbiylarimizga bog‘liq, muallimlarning yordamiga muhtoj va vijdoniga havola etilgan muqaddas vazifa ekanini alohida qayd etgan.

Demak, yosh avlodning tafakkur tarbiyasi masalasi pedagoglar hamda o‘qituvchi-murabbiylar zimmasiga jiddiy va mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Har bir o‘qituvchi-murabbiy, qolaversa, har bir inson ushbu mas’uliyatni yuksak darajada anglab yetishi, o‘zining tafakkur dunyosini muntazam ravishda boyitib borishi va ularni o‘sib kelayotgan yosh avlod bilan baham ko‘rishi bugungi kunda har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Mamirjon ATADJONOV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

TARBIYADA O'QITUVCHINING O'RNI VA O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada tarbiyada o'qituvchining o'rni va o'quvchilarda milliy qadriyatlar shakllanishining psixologik jihatlari haqida yoritib berilgan. Shuningdek, qadriyatlarga yo'nalganlik sifatida tavsiflanishi va yo'naltirish jarayonining fazalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Demokratiya, insoniyat, milliy qadriyatlar, tarbiya, o'lchov, mezon, komillik.

В статье рассматривается роль учителя в образовании и психологические аспекты формирования национальных ценностей у учащихся. В нем также описывается ценностная ориентация и этапы процесса ориентации.

Ключевые слова. Демократия, гуманность, национальные ценности, образование, измерение, критерии, совершенство.

This article discusses the role of the teacher in education and the psychological aspects of the formation of national values in students. It also describes the value orientation and the stages of the orientation process.

Key words. Democracy, humanity, national values, education, measurement, criteria, perfection.

Demokratiya insoniyatning oliy qadriyati, lekin aynan ta'lim-tarbiya jarayonida uning so'ziga yarasha mezoni, o'lchovi, chek-chegarasi bo'lishi lozim. Me'yor, mezon, o'lchamga amal qilmasdan ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilingan "demokratiya" oxir-oqibat o'qituvchining obro'sini to'kilishiga sabab bo'lmoqda. Eng yomoni ota-onalar farzandlari oldida ochiqdan-ochiq ustoz-murabbiylarga, maktab rahbarlariga tanbeh berishi, oilada o'qituvchi shaxsini muhokama qilinishi, o'quvchilarning o'z ustozlarini hurmatini pasayishiga sabab bo'lmoqda, ba'zan esa yomon ibratning kasofati tufayli ochiqdan-ochiq ularni mensimaslik yo'liga ham o'ta boshlaydi. Aynan shunday munosabatlar yoshlarimiz tarbiyasining buzilishiga, ularning turli yot, zararli g'oyalar ta'siriga berilishlariga, turli ekstremistik, terroristik guruhlarga qo'shilib ketishlariga omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqimizda "Ustoz otangdan ulug'" degan naql bor, chunki ota-ona farzandni dunyoga keltiradi, ustoz unga tarbiya, ilm-ma'rifat berib yuksakka ko'taradi, komillik sari yetaklaydi. Demak, hammaning ko'z o'ngida ustoz-murabbiylarni qadrini pasaytirish yoki qadriga yetmaslik farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etib namoyon bo'lmoqda.

O'qituvchilarning qadrini yuksaltirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekistonda o'qituvchining obro'li inson bo'lishi shart", deb ta'kidlab, so'nggi ikki yilda qabul qilingan qaror va farmonlarning aksariyati, aynan ta'lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning samarasi ustoz-murabbiylarning o'z ustilarida ishlashlari,

faoliyatlariga ijodiy yondashishlari, ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos usullarini izlashlari, o'z shaxsiy ish uslublarining yaratishlariga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda e'lon qilingan PF-5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni aynan ana shu maqsadlarni amalga oshirishga huquqiy asosini yaratib berdi.

O'qituvchilar tomonidan yosh avlodga milliy qadriyatlarning singdirilishi, milliy yo'nalganlik, milliy ongni shakllantirish, dunyoqarashning kengayishi, iymonni, e'tiqodni mustahkamlash ularni komillik sari yo'naltiradi.

Milliy qadriyat tushunchasiga urg'u beradigan bo'lsak, "Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot'' nomli ilmiy ishlar to'plamida ''Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim'', deb ta'kidlab o'tilgan.

"Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at"da, "Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi" degan ta'rif berilgan. Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rsatadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi:

– narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emostional munosabatini ta'riflash;

– insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish;

– odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta'riflash.

"Qadriyat" tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarning turli ko'rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko'rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi. Qadriyatlar qachonki, insonda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va xulq-atvorini mo'ljalga olishga imkon beradi. Qadriyatga yo'nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq-atvordagi aniq qadriyatlarga yo'nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi.

Qadriyatli yo'nalganlik u yoki bu qadriyatlarga yo'nalganlik sifatida tavsiflanadi. Yo'naltirish jarayonining quyidagi bir-biriga tutash fazalari aniqlangan:

– shaxsiy qadriyatlarni o'zlashtirish;

– o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsni o'zgartirish;

– shaxsning o'z-o'zini loyihalash va o'z-o'zini bashorat qila olishi.

Qadriyatga yo'nalganlik shaxs yo'nalganligining mazmunli tomonini, uning borliqqa munosabatini aks ettiradi. Shu bilan birga, qadriyatli yo'nalganlik subyekt uchun shaxsiy ahamiyatga ega ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqlikda atrof-borliqqa subyektning bahosi sifatida qaraladi. Qadriyatga yo'nalganlik maqsadni ochib beradi, qiziqish, ehtiyoj, shaxsning e'tiqodini tavsiflovchi fikrlarni aks ettiradi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi insonparvarlik qadriyatlari tizimini o'zlashtirishni nazarda tutadi, u esa o'zida insonparvarlik madaniyati asoslarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish masalasi o'zida katta ijtimoiy ahamiyatni ifoda etadi. Uning muvaffaqiyatli yechimi ko'p holatlarda ta'limning insonparvarlashishiga bog'liqdir. Uning mazmuni shundan iboratki, shaxs

tomonidan ongli ravishda madaniy qadriyatlar tanlovini ta’minlash va uning negizida mustahkam, inkor etmaydigan, insonparvar qadriyatli munosabatlar individual tizimini shakllantirishdir.

Qadriyatli mazmunga ega ta’limda shaxsning xulq-atvori mo‘ljalga olinadi, ular esa uning insonparvarlikka yo‘nalganligini aniqlaydi va qadriyatli baholash asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Dunyoqarash shaxs qadriyatli munosabatining konseptual interpretastiyasi konteksti sifatida maydonga chiqadi, imperativ xulq-atvor – me’yor sifatida, qadriyatli munosabat – u yoki bu tizimga invariant sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan mana shunday ko‘rinishda dunyoni bilish aksi va qadriyatli munosabat ma’naviy boshqarilishi ham yo‘naltiriladi hamda mazmunan shaxs faoliyati va xulq-atvorini tashkillashtiradi. Shuning uchun tarbiya ijtimoiy-tashkillashtirilgan umuminsoniy qadriyatlar interiorizastiyasi jarayoni sifatida ko‘rilishi mumkin.

Demak, ma’naviy qadriyatlar qachonki, tarbiya ularning interiorizatsiyasi jarayoni sifatida tashkillashtirilsa, inson ehtiyoji obyektiga aylanadi. Ma’lumki, iymonlilik, insonparvarlik, diyonat, e’tiqodlilik kabi shaxs mafkuraviy tasavvurlarining asosida yotgan fazilatlar eng avvalo, oilaviy munosabatlar tizimida tutgan o‘rnidan, ota-ona, oiladagi boshqa katta avlod vakillarining ijtimoiy mavqelari va roli mazmunidan kelib chiqadi.

Majburiy va ixtiyoriy ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning norozilik xulqi asosan o‘qituvchiga yo‘naltiriladi, chunki aynan o‘qituvchi jamiyat va madaniyat tomonidan ishlab chiqilgan, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va sog‘lomligini ta’minlashga yo‘naltirilgan norma va qadriyatlar, xulq etalon matritsasini tashuvchilari va qo‘llovchilari bo‘lib hisoblanadi.

Ta’lim va tarbiya tizimida o‘qitishning eng zamonaviy vositalarini joriy qilish, maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim muassasasiga qabul qilinishi, ma’lum mutaxassisliklar bo‘yicha kasb-hunarga ega bo‘lishi hozirgi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Sir emas, ota-onalar ham asta-sekin menga maktab emas, bolarni o‘qishga o‘rgatadigan, ilmiy tilda aytganda o‘quv faoliyati motivatsiyasini shakllantiradigan o‘qituvchi kerak, degan fikrga kelishayapti.

Xulosa shuki, o‘qituvchi o‘qitishi emas, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatishi, ularning o‘qib-o‘rganishlari uchun qulay sharoit yaratishga harakat qilishi, tarbiyada milliy qadriyatlarni singdirish orqali, o‘quv faoliyatining qadriyatli motivatsiyasini shakllantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2000. – B.31-37.

2. Yuldasheva S.T. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2007. – B.26-27.

3. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Обшая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.2. – С.22.

Nurbek JURAYEV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
o‘quv ishlar bo‘yicha prorektori,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

BOSHLANG‘ICH SINF YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA O‘QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv motivlarini shakllantirishning metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif o‘quvchilarning o‘quv motivlari tarkib topishiga yordam beradigan korreksion tadbirlar va motivlarini shakllantiruvchi eksperiment bosqichlarini ochib bergan.

Kalit so‘zlar. Motiv, korreksion, eksperiment bosqichlar, emotsional, ustuvor, muvaffaqiyat, metodik jihat.

В статье освещены методические аспекты формирования учебных мотивов у учащихся младшего школьного возраста. Также автор раскрыл этапы эксперимента по формированию мотивов коррекционной деятельности, которые помогают участникам находить содержание учебных мотивов.

Ключевые слова. Мотив, коррекцион, экспериментальные этапы, эмоциональный, приоритетный, успех, методический аспект.

The article highlights the methodological aspects of the formation of educational motives in primary school students. The author also revealed the stages of the experiment on the formation of motives for correctional activity, which help participants find the content of educational motives.

Key words. Motive, correctional, experimental stages, emotional, priority, success, methodological aspect.

Hozirgi kunda bilim berish texnologiyalarining uzluksiz ortib borishi bilan o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan munosabatlar o‘zgarib, bu bilimlarning barchasini o‘zlashtirib olish imkoniyatini kamaytirmoqda. O‘quvchilarning o‘qishga nisbatan qiziqishini oshirish uchun ularga mavjud bilimlardan foydalanish, ularni qayta tiklash, o‘qishni takomillashtirish, qayta ishlash strategiyasini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Kichik maktab yoshidagi barcha o‘quvchilar ularning bilim va malakalari qanday baholanayotganiga juda sezgir bo‘lishadi. Salbiy baho o‘quvchining o‘qituvchiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib yuboradi, o‘qituvchi o‘quvchi uchun baho eng avvalo, emotsional jihatdan katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligi lozim. Salbiy emotsiyalar ustuvorligi (yomon baholar) o‘qish ishtiyoqi taraqqiyotiga nafaqat xizmat qilmaydi, balki uning rivojiga to‘sqinlik ham qiladi.

O‘quvchilar adolatparvar bo‘lishadi, ular ijtimoiy jihatdan mustaqil va muvaffaqiyatli

bo‘lishni xohlashadi, ular uchun adekvat real baho katta ahamiyatga ega. Odatda, o‘quvchining yutuqlarini qandaydir me’yorlar asosida belgilangan boshqalarning yutuqlari bilan qiyoslashadi. Real baho o‘quvchining bugungi yutuqlarini uning oldingi, xususiy yutuqlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunday holat uni boshqa omadliroq tengdoshlari bilan taqqoslanganda vujudga keladigan salbiy emotsiyalardan ozod qiladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni – kichik maktab yoshidagi o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ijobiy motivlari tarkib topishining asosiy shartidir. Ushbu motiv o‘zlashtirish bilan bevosita bog‘liq. Umuman, o‘qish ishtiyoqi, muvaffaqiyatga erishish bolaning o‘qituvchiga bo‘lgan ijobiy munosabati bilan belgilanadi. Ushbu jarayon qator bosqichlardan iborat:

1-bosqich – o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani uyg‘otish. O‘quvchilarning oldingi o‘quv faoliyatidagi yutuqlarini qayd etish, nisbiy qoniqmaganlik motivlarini paydo qilish, o‘quv faoliyatiga qaratilgan motivlarni kuchaytirish.

2-bosqich – o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani kuchaytirish va mustahkamlash. Bu bosqichda faoliyatning turli ko‘rinishlarini, turli darajadagi murakkablikka ega materiallarni, baholarni almashtirish (ular ham salbiy, ham ijobiy emotsiyalarni uyg‘otishi, qoniqqanlik va qoniqmaganlik hislarini paydo qilishlari lozim) o‘quvchilarning xususiy faolligini, o‘zini idora qilish mexanizmlarini tarkib toptirishi kerak.

3-yakunlovchi bosqich – o‘quv faoliyatini rivojlantirish. Har bir o‘quvchi darsni ijobiy tusga ega shaxsiy tajribani egallash bilan chiqishi kerak, ya’ni dars yakunidagi ijobiy ustanovka o‘quv faoliyati rivojiga imkon qoldirmog‘i shart.

O‘quvchilarning o‘quv motivlari tarkib topishiga yordam beradigan korreksion tadbirlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi maqsadga muvofiqdir:

– o‘quvchining maktabgacha bo‘lgan davrdan kichik maktab yoshi davriga o‘tish paytida o‘quv faoliyati samarasini belgilovchi asosiy psixik hosilalarni nihoyasiga yetkazish;

– kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat bo‘lgan o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishini ta’minlovchi psixologik salohiyatni yuzaga keltirish.

Motivatsiyaning tarkib topishi ikki xil mexanizm bo‘yicha kechadi.

Birinchisi shuki, stixiyali yuzaga kelgan yoki tarbiyachi tomonidan o‘qish faoliyatining hamda o‘zaro munosabatlarning ataylab paydo qilingan shart-sharoitlari ayrim o‘zgaruvchan mayllarni tanlab, sistemali ravishda ularning ahamiyatliligini oshira boshlaydi va natijada bunday mayllar asta-sekinlik bilan mustahkam motivatsiya mahsuliga aylanadi. Bu “pastdan-yuqoriga” deb nomlangan motivatsiyaning shakllanish mexanizmidir.

Ikkinchisi, “yuqoridan-pastga” mexanizmining mohiyati esa tarbiyalanuvchi tomonidan o‘ziga tayyor holda taqdim qilinadigan hamda shaxsning ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan mayllar va xohish-istaklarni o‘zlashtirishi bilan ifodalanadi. Bu maqsad va mayllar, tarbiyachining ta’limiy-tarbiyaviy maqsadiga ko‘ra, unda rivojlantirib borilishi hamda tarbiyalanuvchining o‘zi ularni asta-sekinlik bilan tashqi turtkilar tushunchasidan ichdan qabul qilingan va real harakat qiluvchi tushunchalarga aylantirishi kerak.

O‘quvchilarda o‘qishga nisbatan ongli motivlarni tarkib topishida o‘qituvchining roli katta, uning o‘quvchiga pedagogik ta’sir etish imkoniyatlari juda keng. Jumladan, tarbiyaviy soatlar o‘tkazish, bilimli bo‘lishning ahamiyati haqida suhbatlar uyushtirish, barcha o‘quv fanlari bo‘yicha qiziqarli darslar o‘tish, mashhur kishilar – o‘qituvchilar, fan arboblari, adabiyot va san’at namoyondalari va boshqalar bilan uchrashuvlar tashkil qilish singari tadbirlar ham shu maqsadga xizmat qiladi.

O‘qishning ongli va ijobiy motivlarini tarkib toptirishda psixologiya fanida sinovdan o‘tgan metodlardan biri – trening metodini qo‘llash o‘quv faoliyatidagi motivlarni o‘rganishda shaxsga oid treninglar asosida ishlab chiqilgan guruhiy trening metodidan foydalanish yuqori darajali samarani beradi.

O‘quv motivlarini shakllantirish uchun 1-sinflarda quyidagi o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Diqqat faolligini oshirish va taqsimlashni rivojlantirish maqsadida: “Tovushlarni eshit”, “Alifbo harflar”, “To‘rt she’r”, “Eshit va bajar”, “Sehrli so‘z” va boshqalar.

2. O‘quv jarayonida tafakkur va idrokni rivojlantirish uchun: “O‘yinchoqni aniqlash”, “Jumla tuz” va boshqalar.

3. Tafakkur va nutqni rivojlantirish uchun: “Qarama-qarshiliklar”, “Surat - topishmoq”, “Topishmoqni o‘ylab top”, “Qayerda bo‘ldik, nimalarni ko‘rdik?”, “Topib ko‘r-chi” va boshqalar.

4. O‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi qo‘zg‘aluvchanligini susaytirish uchun: “Kim ortidan kim” va boshqalar.

5. O‘quvchilarda o‘quv jarayonida o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, mustaqillik va erkinlikni rivojlantirish maqsadida: “Zerikib, zerikib shunday o‘tir”, “Ikki xo‘rozcha urishib qoldi”, “Igna va ip”, “Taqiqlangan raqam”, “To‘xta” va boshqalar.

Barcha o‘yin mashg‘ulotlari 25-30 daqiqa davom etadi.

Birinchi sinf o‘quvchisida o‘qish faoliyati jarayonining aynan o‘ziga qiziqish ko‘zga tashlanadi. Maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o‘tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik kerak bo‘lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajonidil bajarishga kirishganlar.

O‘quvchi shaxsiy faoliyatida erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o‘qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his-tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Masalan, yaxshi o‘qiy olish tuyg‘usi ayrim o‘quvchilarni u yoki bu matnni bir necha marta o‘qishga undaydi.

Boshlang‘ich sinflarda bolani yangi faoliyat, o‘quv faoliyati boshlanishining o‘zi ta’lim jarayoniga qiziqtiradi. Maktab formasi, tengdoshlar bilan birga o‘tirish, o‘qituvchining nutqi va boshqalar bolani o‘ziga jalb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining o‘quvchilar oldidagi obro‘yining kattaligi bolalarda ta’lim o‘qish motivlarini shakllantirish, motivlarni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik-psixologik eksperimentda biz o‘z oldimizga qo‘ygan vazifalar to‘liq yechimini topdi. Biz tuzgan dastur bolalardagi bilim egallash ehtiyojini uyg‘otib, uni tashqi omillar bilan bog‘lamay, ichki ma’naviy zaruriyat darajasigacha olib chiqdi. O‘quv faoliyatidan har bir o‘quvchi ijobiy mazmunga ega shaxsiy tajriba bilan chiqishi kerak, ya’ni dars yakunidagi ijobiy fikrlar o‘quv faoliyati rivojiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Венгер А.Л., Цукерман Г.А. Психологическое обследование младших школьников. – М.: Владос, 2004.– С.123.

2. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. – М.: Смысл, 2004.– С.512.

3. Ефимова Н.В. Диагностика и коррекция мотивации учения у дошкольников и младших школьников. – М.: Просвещение,1991.– С.172.

Dilorom YO‘LDOSHEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Fakultetlararo chet tilini o‘qitish”
kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA CHET TILINI O‘QITISHDA LINGVODIDAKTIKANING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishda lingvodidaktikaning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Xususan, lingvodidaktika insonning chet tilida muloqot qilish qobiliyatlari va ularni shakllantirish usullariga oid umumiy qonuniyatlarni ta’riflashi keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, metodika, mexanizm, takomillashtirish, lingvodidaktika, ta’lim.

В статье рассматриваются особенности лингводидактики в обучении иностранным языкам в высшей школе. В частности, лингводидактика описывает общие закономерности способности человека общаться на иностранном языке и способы их формирования.

Ключевые слова. Инновация, методология, механизм, совершенствование, лингводидактика, образование.

This article describes the specifics of lingvodidactics in foreign language teaching in higher education institutions. In particular, linvodidactics describes the general laws governing a person's ability to communicate in a foreign language and the methods of their formation.

Key words. Innovation, methodology, mechanism, improvement, linguodidactics, education.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan yaxshilash, davlat va jamiyatni har tomonlama rivojlantirishni ta’minlash, barcha sohalarni modernizatsiya va liberalizatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutilgan strategiyada til ko‘nikmalari asosiy rolni o‘taydi. Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishiga mos ravishda amalga oshirilgan mazkur tadqiqotda ijtimoiy strukturani rivojlantirishda ta’lim va fanni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash, chet tillarini chuqur o‘zlashtirish, ko‘zlangan maqsadga erishish borasida yangi innovatsion metodlardan foydalanish va ishlab chiqish, tillarning fanlarga integrallashtirilgan holda o‘rganilishiga alohida e’tibor qaratilgan.[1] O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori chet tillarini o‘zlashtirishning tubdan yangi yo‘nalishlarini belgilab berdi. Unga ko‘ra:

– chet tillarni o‘rganishning mavjud tizimini o‘zgartirish;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.

– har bir bosqich uchun xalqaro standartlarga muvofiq o‘quv-uslubiy majmualar (O‘UM) yaratish;

– baholashning milliy tizimini xalqaro talablarga tenglashtirish, ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish vazifalari va shu kabilar.[2]

Milliy dastur ijrosini ta’minlash chora-tadbirlaridan biri ta’limning fan hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdir. Ushbu vazifalar ijrosi ham ta’lim sifatiga bog‘liqdir. Ta’lim sifati tushunchasiga berilgan ta’riflarning mazmunini o‘rganish ushbu atama juda ham keng qamrovli bo‘lib, uning darajasiga juda ko‘plab omillar ta’sir etishini ko‘rish mumkin. Lingvistika ortidan tilga keng ma’noda o‘rgatishning qonuniyatlariga lingvodidaktika ham murojaat qiladi va o‘z oldiga tilni o‘qitish jarayonida egallash modeli tuzilishi va mazmunini ta’riflash vazifasini qo‘yadi.

Ma’lumki, lingvistika chet tiliga o‘qitish metodikasiga nisbatan bazaviy fan hisoblanadi. Shu boisdan chet tiliga o‘qitishning har qanday metodik tizimi tilning lingvistika fanida uning har bir aniq rivojlanish davrida mavjud bo‘lgan obrazi negizida quriladi.

Lingvodidaktika va metodika o‘rtasidagi munosabatlar nazariya va amaliyot o‘rtasidagi munosabatlar emas. Lingvodidaktika insonning chet tilida muloqot qilish qobiliyatlari va ularni shakllantirish usullariga oid umumiy qonuniyatlarni ta’riflaydi. Bir qator olimlar lingvodidaktikani o‘qitish sharoitlarida tilni egallashning umumiy nazariyasi deb hisoblashi bejiz emas. Metodika lingvodidaktik qonuniyatlarni amalda qo‘llaydi, ularni pedagogik qonuniyatlar pozitsiyasidan turib o‘zgartiradi va aniq darsliklar, mashg‘ulotlar tizimlari, o‘qitish vositalari hamda o‘quv jarayonida amalda qo‘llaydi.

Pedagogik psixologiya va lingvodidaktikaning jihati – til o‘rganishning turli jihatlari bo‘lib, ular til bilan turli qarashlardan kelib chiqqan holda shug‘ullanadi. Pedagogik psixologiyani til yordamida o‘qitish muammolari qiziqtiradi, bu esa har doim ham tilning o‘ziga o‘qitishni nazarda tutmaydi, u xoh ona tili, xoh chet tili bo‘lsin. Lingvodidaktika nuqtayi nazaridan til o‘zlashtirilayotgan chet tilidagi o‘quv jarayonida kommunikatsiya vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu har ikkala qarash bir-birini to‘ldirishi mumkin, chunki ulardan har biri o‘qitish jarayoni bilan bog‘liqdir.

Lingvodidaktik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri ona tili va o‘rganilayotgan tillarning mikrotizimlarini taqqoslash asosida tilni egallashning turli darajalari uchun talaffuz, leksik va grammatik minimumlarni aniqlashdan iborat bo‘lib, ular mikrotizimlarining barcha asosiy jihatlarini aks ettiradi.[3]

O‘qitish jarayonida ona tilining lisoniy darajasi bilan bir qatorda o‘rganilayotgan tilning nutqiy darajasi shakllanadi, qaysiki, xuddi shu tilning lisoniy darajasidan farq qiladi.

A.B. Builyev lingvodidaktikani chet tillariga o‘qitish nazariyasi va amaliyoti deb atab, u tillarga o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi, deya ta’kidlagan. Tadqiqotchi, talabaning lisoniy shaxsi rivojlanuvchi xususiyatga egaligini qayd etgan.[4]

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

[3] O‘sha manba.

[4] Буилев А.Б. Профессиональное владение иностранными языками-пререквизит Болонского процес-

Bu fikr ko‘pgina olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Masalan, O.L. Kamenskaya: “Lisoniy shaxs nazariyasi turg‘un konstant tushuncha emas. U ham vertikal (yangi darajalarni aniqlash hisobiga), ham gorizontal (mavjud darajalarni detallashtirish hisobiga) bo‘ylab diversifikatsiya qilinishi mumkin”[5], – deya fikr bildirgan.

Bularning barchasi N.D. Galskova pozitsiyasini tasdiqlaydi, qaysiki, lingvodidaktika fan sifatida lisoniy shaxsning lingvokognitiv tuzilishini anglashi va ta’riflashi lozim, uning rivojlanishi qonuniyatlarini asoslashi, shuningdek, ham o‘zlashtirish obyektining o‘ziga xos jihatlarini, ham bu jarayonning barcha subyektlarining o‘zaro ta’sirini asoslashi lozim deb hisoblaydi.[6]

Tilni o‘qitish metodikasida lingvodidaktika quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– ilmiy-nazariy (tilga o‘qitish jarayonini tadqiq qilish);

– konstruktiv-modellashtirish (ta’lim jarayonini takomillashtirish, o‘zgartirish);

– integrativ (tilga o‘rgatish jarayonini aniq asoslash maqsadida faylasuflar, lingvistlar, pedagoglar, metodistlar, kommunikatsiya nazariyasi va informatika bo‘yicha mutaxassislarning ilmiy yutuqlarini birlashtirish).[7]

Lingvodidaktika quyidagi vazifalarni hal qiladi:

– til ta’limi konsepsiyalari – lingvotsentrik va antropotsentrik yo‘nalishlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

– tillarga o‘qitishning mohiyatini va uning samaradorligi shartlarini ta’riflash va tushuntirish;

– tillarga o‘qitishning predmetli ta’lim maqsadlari, o‘quv materialini saralash va tizimlash tamoyillari, tilga o‘qitish vositalari, uslub va usullari, joriy va chegaraviy nazorat shakllari va usullaridan iborat metodik tizimlarini nazariy asoslash;

– tillarga o‘qitishning tashkiliy shakllarini, yangi o‘qitish tizim va texnologiyalari paydo bo‘lishini nazariy asoslash va anglash.

Professional lingvodidaktikaning chet tiliga kasbga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitish nazariyasi sifatida shakllanishi professional ta’limdagi yangi lingvodidaktik yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini shakllantiradi.

Professional lingvodidaktika chet tili professionalizatsiyasiga qaratilgan bo‘lib, u maxsus fanga murojaatsiz amalga oshmaydiki, u haqidagi bilimlarni kengaytirish chet tili vositalari orqali sodir bo‘ladi.[8]

Lingvodidaktikaning eng muhim muammolaridan biri – o‘quv materialining o‘rganilayotgan til fenomeniga mosligidan iborat, bunda terminologiyaning fan (mutaxassislik) tilining muhim tizimi sifatida funksional ta’riflash ko‘rsatilgan muammoning yechimiga yaqinlashish imkonini beradi.

Lingvistika fani obyekti tildan iborat, metodika fani obyekti tilga o‘rgatishdan iborat, didaktika obyektlari o‘qitish va o‘qish usullaridan iborat, lingvodidaktika obyekti esa tilga o‘rgatishning tamoyil va qonuniyatlarini tadqiq qilishdan iborat bo‘lsa, professional

---

са // www.портал auditorium.ru.

[5] См: Вишнякова С.А. Диалог лингводидактики и гносеологии Философия образования. Сборник материалов конференции. Серия “Symposium”, выпуск 23. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2002. – С.382-397.

[6] Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Academa, 2004. – С. 334.

[7] O‘sha manba.

[8] Крупченко А.К. Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании: Дис…..канд.пед.наук. – М., 2007.

lingvodidaktika obyekti professional maqsadlarda til o‘qitishni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Zamonaviy metodika uchun lingvistika asosiy ilmiy fan hisoblanadi. Unga tayangan holda metodika o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga chiqdi. Bunda bir qator metodik kategoriyalarni zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan anglash zarur.

Professional lingvodidaktikaning o‘zi esa chet tiliga mutaxassislarni o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqadi va o‘zining tadqiqot predmeti chet tiliga mutaxassislarni o‘qitish bo‘yicha faoliyatni tashkil etishdan iborat, deb hisoblaydi.

Professional lingvodidaktika qonuniyatlarini aniqlashda tadqiqot shundan kelib chiqdiki, ular chet tiliga kasbga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitishni belgilovchi asosiy qoidalar – professional lingvodidaktika tamoyillarida o‘z aksini topadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog-o‘qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta’lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.

2. Вишнякова С.А. Диалог лингводидактики и гносеологии Философия образования. Сборник материалов конференции. Серия “Symposium”, выпуск 23. – СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2002. – С.382-397.

3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Academa, 2004. – С.334.

4. Крупченко А.К. Профессиональная лингводидактика //Высшее образование в России – 2006 - № 5. – С.158-160.

Hilola ERNAZAROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Fakultetlararo chet tili’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILIDA ERTAKLARNI O‘RGATISHNING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilida ertaklarni o‘rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari yoritilgan. Xususan, keyingi yillarda bog‘cha va boshlang‘ich maktab sharoitida xorijiy tillarni integratsiyalashtirib o‘rgatish, ya’ni bolalarga til o‘rgatishda faqat amaliy maqsadlar bilangina chegaralanmay, bolaning tafakkurini rivojlantiruvchi vazifalarni rejalashtirish ham muhimligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar. Individual, lingvodidaktik, tafakkur, bog‘cha, maktab, psixologik.

В статье рассматриваются лингводидактические особенности обучения детей дошкольного возраста английским сказкам. В частности, в последние годы важность интеграции иностранных языков в детском саду и начальной школе, то есть обучения языку детей, не ограничивается практическими целями, но и планированием задач, развивающих мышление ребенка.

Ключевые слова. Индивид, лингводидактика, мышление, детский сад, школа, психологический.

This article discusses the linguodidactic features of teaching English fairy tales to preschool children. In particular, in recent years, the importance of integrating foreign languages in kindergarten and primary school, that is, teaching language to children, is not limited to practical purposes, but also to plan tasks that develop the child’s thinking.

Key words. Individual, lingvodidactic, thinking, kindergarten, school, psychological.

Ma’lumki, chet tillarini o‘rganishni barvaqt boshlash samarali kechishi hamisha tan olingan haqiqat. Biroq kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishda ularning yosh va psixologik – individual xususiyatlarini e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Shu bois bolalarni xorijiy tillarga o‘rgatishda, asosan, ularning so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish kabi amaliy maqsadlar ko‘zda tutiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida bu sohada qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, keyingi yillarda bog‘cha va boshlang‘ich maktab sharoitida xorijiy tillarni integratsiyalashtirib o‘rgatish, ya’ni bolalarga til o‘rgatishda faqat amaliy maqsadlar bilangina chegaralanmay, bolaning tafakkurini rivojlantiruvchi vazifalarni rejalashtirish ham muhimligi qayd etilgan. Bunday munosabat o‘quv materiallari va usullarning yangi turlarini jalb etishni taqozo etadi. Bu xorijiy tillarni o‘rgatish mazmunini yangilash, ta’lim berishda yuzaga keladigan ayrim psixologik qiyinchiliklarni yengib o‘tishga imkon yaratadigan eng samarali yo‘llardan biridir.

O.A. Denisenko, O.A. Trubaneva, O.Y. Yasenko kabi olimlar fikricha, mavjud muammolarning asosiy sabablari: 1) bola uchun ibrat bo‘ladigan rivojlantiruvchi o‘quv

materiallarining yangi turlarini ishlab chiqish zarurati; 2) bolaning ruhiy, emotsional, estetik jihatdan rivojlanishi va nutqining o‘sishida she’r, qo‘shiq, ertak, topishmoqlarning ahamiyati; 3) maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘quv materiallaridan foydalanish bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalarning ishlab chiqilmaganligidadir.[1]

Respublikamizda xorijiy tillarni o‘rganishga va o‘rgatishga e’tibor nihoyatda katta bo‘lsa-da, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o‘rgatishning didaktik tamoyillari to‘liq ishlab chiqilmagan. Bu boradagi muammolarni bartaraf etish va kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning samarali metodikasini ishlab chiqishni tadqiqot ishi mavzusi sifatida tanladik. Tadqiqot ishimizning obyekti sifatida she’r, qo‘shiq, ertak, topishmoqlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi lug‘atini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish va so‘zlashishga o‘rgatish jarayonini oldik.

Tadqiqot ishimizning maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tilidagi so‘z boyligini o‘stirish va so‘zlashishga o‘rgatishda she’r, qo‘shiq, ertak, topishmoqlardan foydalanishning ilmiy nazariy asoslari hamda samarali metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Qo‘yilgan maqsadga muvofiq quyidagi faraz shakllantirildi: kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish chet tillarini o‘rgatishning lingvodidaktik jihatlari e’tiborga olingan holda, shuningdek, kichik yoshdagi bolalarning lingvopsixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish, bolalarning so‘z boyligini oshirishda she’r, qo‘shiq va topishmoqlardan keng foydalanish, ertaklar va ularning multimedia tasvirlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi bog‘lanishli nutqini, fikrlash qobiliyatini o‘stirib borish, ularni savol-javob asosida ertak mazmunini so‘zlab berish, rolli ijro qilib berishga o‘rgatish kabi metodik usullardan foydalanish samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Buning uchun, albatta, chet tillarini maktabgacha ta’lim bosqichida barvaqt o‘rgatish tajribasiga murojaat etib, maktabgacha ta’lim va tarbiya berish amaliyotida keng foydalaniladigan metod va usullarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Qayd etish kerakki, kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda lug‘at ustida ishlash jarayonida she’r, qo‘shiq va topishmoqlardan foydalanish, ertaklar va ularning multimedia tasvirlari vositasida kichik yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi lug‘atini o‘stirish kabi masalalar xorijiy tilni o‘rgatish metodikasida ham hali keng miqyosda o‘rganilmagan.

R.I. Jukovskaya olib borgan tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalar she’r, topishmoq, tez aytish va boshqalarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning jarangdorligi, qofiya va vaznlari mos bo‘lishi sezilarli ahamiyatga egaligini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, she’rlar o‘z shakliga ko‘ra, mukammal bo‘lsagina, uni eslab qolish va mazmuniga nisbatan qiziqish uyg‘onishiga ko‘maklashadi.[2]

Ertak, she’r, qo‘shiq, topishmoqlar dunyoqarashni kengaytirish, tafakkur qilish qobiliyatini o‘stirish jihatidan ham, nutqni o‘stirish jihatidan ham nihoyatda noyob o‘quv materiali hisoblanib, ona tilini rivojlantirish borasida ularning imkoniyatlari ancha keng yoritilgan. Biroq, chet tillarini, xususan, ingliz tilini erta o‘rgatish metodikasida ertak, she’r, qo‘shiq, topishmoqlardan o‘quv materiali sifatida foydalanish masalalari hali yaxshi o‘rganilmagan. Ingliz tilini o‘rgatish mashg‘ulotlarida mazkur o‘quv materiallaridan foydalanish nutq o‘stirish jarayonida ta’limning rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va amaliy jihatlarini qo‘shib olib borishga ham katta imkoniyat yaratadi.

[1] Денисенко О.А. Методика раннего обучения английскому-166 языку на основе произведений детской англо-язычной литературы (для школьников шестилетнего возраста): Автореф. дис. . канд. пед. наук. Тамбов, 1995. – 20.С.

[2] Малкина Н. А. Методика использования сказки в обучении дошкольников устной речи на английском языке: Автореф. дис. ... канд. пед наук. М., 1996. – С.1.

Ma’lumki, she’r, ertak, qo‘shiq, topishmoqlar vositasida nutqqa o‘rgatishning o‘ziga xos lingvodidaktik jihatlari mavjud bo‘lib, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatishda ushbu muammolarga lingvopsixologik muammolar ham kelib qo‘shiladi. Biroq, chet tillarini, xususan, ingliz tilini erta o‘rgatish metodikasida aynan lingvodidaktika va lingvopsixologiya bilan bog‘liq jihatlarning yaxshi o‘rganilmaganligi, uning samarali metodlari ishlab chiqilmagani ushbu muammolarni barataraf qilish nechog‘liq dolzarbligini isbotlaydi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning xorijiy tildagi bog‘lanishli matnlar mazmunini anglash mexanizmlari tadqiq etilgan ishlarning umuman yo‘qligi esa ushbu masalalarning metodik yechimini yanada murakkablashtiradi.

Ayrim tadqiqot ishlarida bolalar tafakkurini rivojlantirishning asosiy predmeti sifatida ertak tanlangan bo‘lib, bu bejiz emas. A.M. Aranovskoy-Dubovis, Sh. Byuller, L.S. Vigotskiy, A.V. Zaporojetsskiy, N.S. Karpinskoy, K. Federshpil va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ertak bolalarning yosh xususiyatlariga eng muvofiq keladigan ijod namunasi sifatida qaraladi. Ushbu ishlarda ta’kidlanishicha, ertak tinglash bolaning xotirasini, diqqatini va tafakkurini rivojlantiradi. Ertak bolaning tasavvuri va xayolini, tahayyulini o‘stirishga ko‘maklashadi.

M. Arbutnot, R.I. Jukovskaya, B. Bettelxaym, A.P. Usovalarning ishlarida esa ertak bolaning nutqi va emotsional rivojlanishiga ta’sir etishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ularning ta’kidlashlaricha, ertak bolaga nihoyatda kerak, chunki u bolani ovutadi, ko‘p narsaga o‘rgatadi, bola uchun tevarak-atrofdagi hayotni hamda o‘zini bilish vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi.[3]

So‘nggi yillarda bolaning ruhiy rivojlanishida ertakning ahamiyatini nechog‘liq kattaligini tasdiqlovchi tadqiqotlar ham paydo bo‘la boshladi. Xususan, B. Bettelxaym, K. Federshpil asarlarida bolaning ertaklardagina mavjud bo‘ladigan, to‘qib chiqarilgan olam bilan o‘zaro munosabatining murakkab tizimi asoslab berilgan. Amerikalik psixolog B. Bettelxaym bolalar uchun ertakning psixoterapevtik ahamiyati nechog‘liq muhim ekanligini ham yoritib berishga harakat qilingan.

G‘arb olimlarining tadqiqotlarida paydo bo‘lgan “ertak yoshi” termini bola ertakni necha yoshidan boshlab yaxshi idrok eta olishini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar asosida yuzaga kelgan bo‘lib, Sh. Byuler bu yoshni 4 – 8 yosh, B. Bettelxaym 4 – 5 yosh deb belgilaganlar, K. Federshpil esa bolalar ertaklarni 5 yoshidan boshlab so‘zlab bera boshlashi kerakligini ta’kidlaydi.

Albatta, kichik yoshdagi bolalarni tilga o‘rgatish borasida, avvalo, bolalarning idrok etish, xotirada saqlash kabi psixologik xususiyatlari, bola nutqiy a’zolarining rivojlanishi bilan bog‘liq fiziologik xususiyatlari bilan ham tanishib chiqish, ularning bir-biriga ta’siri va rivojlanishining lingvodidaktik omillari ham atroflicha o‘rganilishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Денисенко О.А. Методика раннего обучения английскому-166 языку на основе произведений детской англо-язычной литературы (для школьников шестилетнего возраста): Автореф. дис. . канд. пед. наук. Тамбов, 1995. – С.20.

2. Запорожец А.В. Психология восприятия сказки ребёнком-дошкольником // Дошкол. воспитание. 1948. - N 9. — С.34-41.

[3] Малкина Н. А. Методика использования сказки в обучении дошкольников устной речи на английском языке: Автореф. дис. ... канд. пед наук. М., 1996. – С.1.

Shoira KARIMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Maktabgacha ta’lim’’ kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA USTOZ-MURABBIY VA OTA-ONALAR HAMKORLIGINI TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ustoz-murabbiy va ota-onalarning tarbiyaviy hamkorligi, oilada farzandning aqliy va jismoniy jihatdan yetuk bo‘lib shakllanishi uchun ota-onaning o‘rni va ularni tarbiya uslublari bilan qurollantirish, ustoz-murabbiy va ota-onalarning axloq-odobi, muomala madaniyati kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Oila, oliy ta’lim muassasasi, barkamol shaxs, pedagogik faoliyat, ilg‘or va ijodkor ustoz-murabbiy va faol ota-onalar.

В данной статье освещаются вопросы воспитательного сотрудничества родителей и учителей, проблеме гармоничного воспитания молодого поколения, их роль в семье вопросы научно-методического обеспечения нравственной и коммуникативной культуры.

Ключевые слова. Семья, высшее учебное заведение, гармонично развитая личность, педагогическая деятельность, современный и творческий учитель – наставник и активные родители.

The article discloses issues of educational collaboration between parents and teachers, the problems of harmonical upbringing of young deneration, tneirrole in tne families, scientific and methodolodical items providing etnical and communicative culture.

Key words. Family, higher educational institution, harmonically developed person, pedagogical activity, active and creative teacher and active parents.

Oliy ta’lim muassasasining tom ma’noda tarbiya markaz rolini o‘ynashi uchun ustoz-murabbiy bilan ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi shart. Bu borada oliy ta’lim muassasasining eng muhim vazifasi ota-onalarga tarbiya ishida va bolalarning mehnati va dam olishini ko‘ngildagidek uyushtirishda amaliy yordam berishdir.

Oliy ta’lim muassasasining ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqa qilishida ustoz-murabbiy va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo‘g‘in oliy ta’lim muassasasida ota-onalar yig‘ilishidir. Mazkur qo‘mita qabul qilingan umumiy qoidalar asosida ota-onalar jamoatchiligini oliy ta’lim muassasasi hayotidagi tarbiyaviy ishlarga jalb qilishi lozim.

Aholi va ota-onalar o‘rtasida ijtimoiy tarbiyaviy muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi ishlarni jonlantirish va takomillashtirish oila va oliy ta’lim muassasasi aloqasini mustahkamlovchi omildir. Tarbiyaviy madaniyatning samaradorligini oshirishda ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan ota-onalar majlisi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadga muvofiq, mazmunli tashkil etilgan majlislarda tarbiyaga oid munozaralar bo‘ladi, o‘zaro yoki jamoa ta’sir ko‘rsatishning yo‘l va usullari mehnatsevarlik, vijdonli bo‘lish, mustaqillik,

yaxshilikka mehr-muhabbat, do‘stlik haqida fikr yuritiladi.

Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda oliy ta’lim muassasasini oila bilan mustahkam bog‘lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o‘rtasida ta’lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni oliy ta’lim muassasasining faol yordamchilariga, talabalarning barcha ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Demak, farzandga oilada ota-ona, oliy ta’lim muassasasida ustoz-murabbiy tarbiya berar ekan, eng avvalo, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq bilimlar bilan ularning o‘zlari qurollangan bo‘lishlari talab etiladi.

Abdulla Avloniy oilada farzand tarbiyasida ota-onaning ilmli bo‘lishi borasida: “Tarbiyani kim qilur?”, “Qayda qilinur?” degan savolga birinchi javob:

– Uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. “Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir”, – degan edi. Demak, hozirgi mustaqillik davrida jamiyatni yangilashda oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va axloqiy ahamiyati ortmoqda, yosh avlodni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashda, ayniqsa, otaga nisbatan onaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tarbiyaning samaradorligi ko‘pincha oila bilan oliy ta’lim muassasasining talabaga nisbatan talabni teng qo‘ya bilishiga bog‘liq. Shuning uchun ham ustoz-murabbiy tomonidan talabaning ma’naviy – axloqiy tarbiyasi borasida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, muomalasiga katta e’tibor beriladi. Ustoz-murabbiylar ota-ona bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib talabani ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Oliy ta’lim muassasasi faqatgina oilada shakllangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni mustahkamlash yoki salbiy sifatlarni qayta tarbiyalash vazifasini bajarishi mumkin, xolos.

Talabalar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta’minlash orqali ota-onalarga ta’sir ko‘rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada ta’lim muassasasi va oila aloqasini ta’minlovchi ota-onalar majlislari, talabalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo‘lib hal etish va shu kabilarning rolini inkor etib bo‘lmaydi.

Shuningdek, farzand tarbiyasida axloqiy tarbiya muhim rolni bajarishi sir emas. Oilada farzand aqliy va jismoniy jihatdan yetuk bo‘lib shakllanishi uchun ota-ona uning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanib ko‘p harakat qilishi lozim. Ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat bu haqda: “Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo‘lsin”, - deb ta’kidlaydi.

Ustoz-murabbiy talabalar bilan o‘tkaziladigan ma’naviyat va axborot soatlar hamda amaliy mashg‘ulotlarda ota-onani hurmat qilish, itoatkorlik ko‘rsatish, qariganda suyab, ularga qarash, holidan xabar olish kabilar farzandning burchi, vazifasi ekanini uqtirib borishlari lozimdir. Shuningdek, talabalar bilan quyidagi savollar yuzasidan bahs-munozaralar olib borishlari ham maqsadga muvofiqdir:

– Ota-onaga nisbatan farzandlik munosabati nima bilan ifodalanishi mumkin?

– Ota-onaning mehri, muhabbati, mehnati, fidoyiligini qanday holatlarda qalban his qilgansiz? (betobligida, judolikda, boshga og‘ir ish tushganda, biron-bir kishining o‘z ota-onasini xo‘rlaganini ko‘rganda).

– Sizningcha, qanday paytlarda ota yoki ona hurmatga noloyiq hisoblanadi?

– Ota-onangizning qaysi jihatlari sizga yoqadi yoki aksincha?

– Onangizga o‘xshashni istaysizmi?

– Ota-onangiz bilan faxrlanasizmi?

– Marhum ota yoki onangiz ruhini shod etish uchun nimalar qildingiz, nimalar qilmoqchisiz? Ularning yaqin qarindoshlari, do‘stlari, o‘rtoqlari bilan munosabatni davom ettiryapsizmi?

– Ota yoki onangiz uyda yo‘qligini bildirmaslik maqsadida opangiz, ukalaringiz ko‘nglini ko‘tarish uchun nimalar qilish mumkin?

– “Onasini ko‘rib, qizini ol”, “Otasini ko‘rib, qiz ber” degan naqllarning mag‘zini chaqqanmisiz?

– Ota-onangizga achinasizmi? Og‘irini yengil qilish uchun nimalar qilish mumkinligini o‘ylab ko‘rganmisiz?

– Ota-onangizga qilgan muomala-munosabatingizning yaxshi, yomonligini o‘ylab ko‘rganmisiz?

– Jaxl ustida yoki bolalikka (yoshlikka) borib otangiz yoki onangizni ranjitganmisiz? Shunaqa paytlarda vijdon azobini tortganmisiz? Nohaq ekaningizni tushunganingizda kechirim so‘raganmisiz?

– “Ota tuzi”, “ona suti”ni oqlash iboralarini siz qanday tushunasiz? “Ota rozi – xudo rozi” naqlini-chi?

– Ota-onalar sha’ni madh etiladigan qanday she’r, qo‘shiq yoki ashulalarni bilasiz?

– “Onangga boshingni ham qil, otangga gapingni kam qil”, “Ota-onaning duosi o‘tga, suvga botirmas” hikmatlarini qanday tushunasiz?

– Ota-onangiz oldidagi farzandlik vazifangizni qanday bajaryapsiz? Bu haqda hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Demak, farzandi oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan oilalar bilan olib borilgan kuzatishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

– Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish omillaridan biri bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o‘rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yondashish, uni takomillashtirishdir. Yoshlarni har tomonlama o‘rganish ularni o‘qishga, mehnatga, o‘z-o‘ziga, o‘rab turgan muhitga, inson kamoloti uchun zarur bo‘lgan sifatlardan eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish imkonini beradi.

– Ota-onalar o‘rtasida tarbiyaga oid bilimlarni targ‘ib qilish, ayniqsa, oilaviy tarbiyada qiyinchilikka uchrayotgan ota-onalarga jamoatchilik yordamini kuchaytirish lozim.

– Oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritgan ota-onalarning tajribalaridan foydalanish uchun ularni oliy ta’lim muassasasining kengaytirilgan yig‘ilishlariga, ota-onalar qo‘mitalarining majlislariga taklif etish va o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashishni yo‘lga qo‘yish nihoyatda muhimdir. Ulardan unumli foydalanish uchun oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan ota-onalar kuni ishini jonlantirish.

– Talaba-yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani jonlantirishda keng shaxobchalarga ega madaniy-ma’rifiy tashkilotlar muzey, kutubxona, axborot-resurs markazlari, klub, istirohat bog‘lari, madaniyat saroylari, xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq tashkilotlar, turli xil to‘garaklar, zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tarmog‘i hamda Yoshlar Ittifoqi bilan uzviy faoliyat olib borish katta ijobiy natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008-y. 130 b.
2. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. 26-b.
3. Abdurauf Fitrat. Oila. –T.: Ma’naviyat. 1998. 83 – 84-b.

Dilnozaxon YUSUPOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Fakultetlararo chet tili” kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM MUASSASALARIDA ETNOGRAFIZMLAR O‘QITILISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’lim muassasalarda etnografizmlarning o‘qitilishining nazariy-metodologik asoslari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Etnografizm, muassasa, oliy ta’lim, xalqshunoslik, taraqqiyot, etnik jarayon, jurnallar, etnik birlik.

В статье представлена информация о теоретико-методологических основах преподавания этнографии в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Этнография, институт, высшее образование, этнография, развитие, этнический процесс, журналы, этническое единство.

In the state presented information about the theoretical and methodological bases of ethnography in educational institutions.

Key words. Ethnography, institution, higher education, ethnography, development, ethnic process, journals, ethnic unity.

Etnografiya (etno... va... grafiya), etnologiya, xalqshunoslik – jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma’naviy taraqqiyot darajasidan qat’i nazar, teng holda o‘zaro tafovuti yoki umumiyligi va o‘xshashligini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi maxsus fan sohasi. Etnografiya kelib chiqishi va shakllanishi, joylashishi va etnik tuzilishi, urf-odatlari, ma’naviy madaniyati va milliy xususiyatlarini tarixiy jarayon bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Tarixiy etnografiya yo‘qolib ketgan xalq va elatlar, o‘tmishdagi etnik jarayon, maishiy turmush va ma’naviy madaniyat xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Etnik bilimlar qadim zamonlardan paydo bo‘lgan bo‘lsada, lekin mustaqil fan sifatida 19-asrning o‘rtalarida shakllanib bo‘ldi. Dastlab, bu atamani 16-asrning oxirida nemis yozuvchisi I. Zummer ishlatgan, keyin esa 18-asrning oxirlarida va 1808-yilda maxsus jurnallar shu nom bilan chiqa boshlagan. Etnografiya so‘zi mashhur fransuz tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Amper taklifi bilan Parij antropologlari Kongressida alohida fan sifatida qabul qilingan (1839).

Etnografiya dastlab faktik bilimlarni to‘playdi, keyin ularni tahlil etish orqali mohiyatini tushunib olib, nazariy xulosalar chiqaradi. Etnografiya fani, boshqa fanlar singari o‘ziga xos maxsus tadqiqot usullari va maxsus atamalarga ega. Uning uslubi muayyan dunyoqarash va nazariyalar (metodologiya) bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z tadqiqotlarini ayrim fan sohalari antropologiya, arxeologiya, lingvistika, sotsiologiya, san’atshunoslik bilan aloqador holda amalga oshiradi.

“Etnografiya” so‘zma-so‘z “xalq”ning ta’rifini, ya’ni umumiy madaniyat bilan ajralib turadigan odamlar guruhini anglatadi. Dastlab “begona” xalqlar nazarda tutilgan. Etnografiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri eski “etnologiya” dan kelib chiqqan va chet el madaniyati va uzoq mamlakatlarga an’anaviy ravishda (va hozir ham) qiziqqan etnologiyaning ilmiy intizomidan kelib chiqadi. XX asrning boshlaridan boshlab, tadqiqotchilar o‘zlari qiziqqan mamlakatga sayohat qilishlari, u yerda yashashlari, mahalliy tilni o‘rganishlari va (shu paytgacha) chet el madaniyatini sinab ko‘rishlari etnologik tadqiqotlarni zamonaviy tushunish uchun juda muhimdir. “Mahalliylar” nuqtayi nazari bilan aralashish va madaniyatni ularning nuqtayi nazari bilan qayta qurish asosiy tamoyil edi. Shuning uchun “begona” madaniyatga tushuntirishlar berish yoki hatto o‘zlarining fikrlarini baholashdan saqlanish kerak, aksincha, etnologiya har doim o‘zga madaniyatining chet el madaniyatini o‘rganishda aniqlangan aniqliklaridan uzoqlashish bilan shug‘ullanadi. Chet el madaniyatini ilmiy jihatdan namoyish etish va mahalliy aholi uchun ma’lum darajada gapirish, shu jumladan “begona” madaniyatni ekzotizatsiya qilish muammosi – etnologiyaning bir qismidir.

Chet el madaniyatini o‘rganish, uzoq mamlakatlarda yoki o‘z muhitida bo‘lishning ushbu an’anasi, maktab darslari sharoitida kuzatuv amaliyoti bilan qanday aloqasi bor? Gap biz uchun eng yaxshi tanish bo‘lgan ijtimoiy vaziyat haqida bo‘lishi mumkin. Barchamiz ushbu sohada kamida 12 yoki 13 yillik shaxsiy tajribaga egamiz. U yerda kashf etish uchun yana nima bor? Maktab, ehtimol, o‘zining o‘ziga xos tavsiflarini ishlab chiqaradigan, shu jumladan ilmiy tabiatning aksariyat qismini ishlab chiqaradigan ijtimoiy amaliyot sohasidir: maktab nima, u nimani xohlaydi va u qanday ishlaydi, bu o‘quv yozuvlarida, darsliklarda, kundalik maktab hayotidan hisobotlarda, maktab dasturlari va o‘qishlarida yuzlab va minglab marta tasvirlangan. Bu haqda yana nima deyish mumkin? Tadqiqotni o‘qitish sohasida biz tanishish va tanishishga nisbatan ikki tomonlama, juda kuchli tarafkashlikka duch kelmoqdamiz, etnografik tadqiqotlar esa g‘alati bir dunyoni o‘rganish deb qaralishi mumkin emas. Aynan shu yerda metodik dastur paydo bo‘ladi, uni Amann va Xirshauer “o‘z madaniyatini begonalashtirish” deb ta’riflashlari mumkin. Mualliflar etnografik tadqiqotlarning chet elliklarga bag‘ishlanmagan shartlari va potensiallarini muhokama qiladilar, ammo (ko‘rinishda) ma’lum bo‘lgan va (hammasi) o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lgan yangi, “g‘alati” munosabatlarni o‘rnatishga intilishadi. Bu aslida tanish bo‘lgan narsaga “xuddi g‘alati kabi” qarash haqida. Chet elliklarga nisbatan etnologik-etnografik qiziqish, o‘z-o‘zidan ravshanligi va o‘z atrof-muhit va kundalik hayot odatlariga nisbatan yangi va begona qarashlarni olish uchun safarbar qilinishi kerak. Shu tarzda o‘ylab topilgan etnografik tadqiqotlar, shuningdek, begonalikni taxmin qilish bilan ishlaydi, garchi boshidan berilmagan bo‘lsa ham, lekin hech bo‘lmaganda birinchi navbatda, kundalik bilimlarning aniqliklaridan uzoqlashib, o‘rnatilishi kerak. Keyinchalik, men ushbu misoldan foydalanib, tadqiqot olib borishda qanday potensial bilimlar paydo bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatishga harakat qilaman. Ammo, avvalo, men masofani uzoqlashtirishning uchta asosiy strategiyasini tushuntirmoqchiman, bu kundalik o‘qitishni yangi va “begona” nuqtayi nazardan ko‘rish imkoniyatini beradi. Hozirgacha aytilganlarni umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, “etnografik kuzatuv” bu juda tanish bo‘lgan hodisada yangi narsalarni kashf etish uchun maktab darslariga “begona madaniyat” sifatida qarash bilan tavsiflanadi.

Etnografiyadagi tadqiqot jarayoni asosan turli xil yozish strategiyalarini ishlab chiqish va birlashtirishdan iborat. Keng yozish amaliyoti etnograf va tadqiqot

qilingan madaniyat vakillari o‘rtasidagi ikkinchi tub farqni tashkil etadi. Yozish odamni tushuntirishga majbur qiladi: kimki bu vaziyatda faqat intuitiv yoki “amaliy” tushungan bo‘lsa, protokol og‘zaki bayon qilishga harakat qiladi. Stefan Xirshauer “ijtimoiy og‘zaki nutqni” etnografik tadqiqotning muhim vazifasi sifatida belgilaydi. Bu kuzatuvlarni tilga aylantirish haqida odatda o‘q nuqtalari yoki jadvallar bilan ta’minlanmaydi, lekin batafsil matn va mos shartlar va formatlarni qidiradigan tavsifni talab qiladi. Protokollarni yozish jarayonida kuzatilgan voqealarni tasavvur qilish va uni qaytarib berishga harakat qiladi, u yerda bo‘lmagan odam uchun tushunarli. Ushbu talab (o‘z-o‘zidan) ongli mualliflikni va tasvirlash uchun aniq harakatlarni talab qiladi. Kuzatilgan voqealarni yozma ravishda yozish, boshqa jihatlarda uzoqlashish va begonalashishga imkon beradi. Keyin sahna yozuvlarini xohlagancha tez-tez, aniq va sekin o‘qish mumkin. Siz yozilgan voqealarni sekin harakat bilan ko‘rib chiqishingiz yoki ularni mikroskop ostiga qo‘yishingiz mumkin. Faqat har qanday kundalik suhbatning audioyozuvining stenogrammasi suhbatning yozma shaklga o‘tganligidan kelib chiqadigan ulkan begonalashtirish haqida o‘ylab ko‘ring. Xulosa qilib aytganda, kuzatuvni yozish qayta tahlil qilish va tahlil qilishga imkon beradi. Kuzatishlar “ma’lumotlar”ga aylantiriladi. Kuzatish protokollari kodlanishi, kesilishi, qayta joylashtirilishi, ma’lumotlarni sifatli tahlil qilishning eng xilma-xil protseduralariga bo‘ysunishi va shu bilan o‘zingizni tanish voqealar bilan yangi, uzoq va “begona” munosabatlarga qo‘yishi mumkin. Kuzatuvlarning yozib olinadigan sifat mezonlari, bir tomondan, yozuvning tafsilotlari va tafsilotlari darajasida, ikkinchidan, yozuvning aks etishi va diqqat markazining oshishi va analitik “kondensatsiyasi”. Yozish kuzatishlarni nafaqat og‘zaki qiladi, balki analitik jihatdan ham kirib boradi. Ta’rif qiziqarli voqeaga imkon qadar yaqin olib boradi, uni tushunarli qiladi va tom ma’noda o‘quvchini sahnaga va maydonga qo‘yadi; shu bilan birga, masofani ajratish va tahlil qilishning hal qiluvchi jarayonlari yozuv harakati bilan bevosita bog‘liqdir. Qizig‘i shundaki, aynan shu hodisaga yozma yondashish aks etuvchi masofani ta’minlaydi.

Etnografik tadqiqot jarayoni ma’lumotlarni tahlil qilishning turli usullarini biladi. Kodlash amaliyotida, bular bir tomondan ko‘pincha juda keng ma’lumotlar korpusiga murojaat qilishadi va uni takrorlanadigan naqshlar va qiziqarli mavzular bo‘yicha qidirishadi. Boshqa tomondan, analitik qarash individual, namunali kuzatuvlarni, ya’ni individual sahnalarni, o‘zaro ta’sirlar ketma-ketligini yoki tavsiflarini batafsil tekshirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan etnografik tadqiqotlarda ma’lumotlarni tahlil qilishning murakkab amaliyotini joriy etish juda uzoqqa olib keladi. Buning o‘rniga, men yana etnografik protseduralarning kundalik maktab hayotidagi kuzatuvlarga moslashtirilishi kerak bo‘lgan ba’zi prinsiplar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amann K., & Xirshauer, S. (Hrsg.). (1997). Die Befremdung der eigenen Cultur. Frankfurta. – M.: Suhrkamp.

2. Atkinson P., & Hammersley, M. (1995). Ethnography. Principles in Practice (2. Aufl.) London/New York: Routledge.

3. Bennewitz H. (2004). Helenas und Fabiennes Welt. Eine Freunds chafts beziehung im Unter-richt. Zeitschrift fir Soziologie der Erziehung und Sozialisation, 24(4), 393–407.

Yoqutxon SHERMATOVA,
Guljahon XOTAMQULOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Biologiya” kafedrasi o‘qituvchilari

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik texnologiya, ko‘nikma, ijtimoiy hayot, ta’lim sohasi, o‘quv-qo‘llanma, axborot, malaka.

В статье описаны особенности использования современных педагогических технологий в преподавании биологии.

Ключевые слова. Педагогические технологии, навыки, социальная жизнь, образование, учебники, информация, навыки.

The article describes the features of the use of modern educational technologies in teaching biology.

Key words. Teaching technologies, skills, social life, education, textbooks, information, skills.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi biologik ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan muammoli vaziyatlarda ta’lim-tarbiya jarayonida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z vaqtida maqsadga muvofiq samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish, mustaqil ravishda biologiya faniga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni orttirishga oid materiallarni to‘plash orqali ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish sanaladi.

Ta’lim sohasidagi fanlarni zamonaviy pedagogik va axborot-kompyuter texnologiyalari asosida o‘qitishga erishilishi ta’lim sifatini tubdan oshirilishi bilan birgalikda uning metodik ta’minotini kuchaytiradi.

Pedagogika ta’lim sohasida yangi ochilgan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish, belgilangan fanlarni o‘qitish metodikasi, yangi ta’lim yo‘nalishlariga kiritilgan fanlardan darslik, o‘quv-qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmualar mazmunini modernizatsiyalash hamda amaliyotga keng tatbiq etish choralari ko‘rilmoqda.

Ayni vaqtda, Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va ko‘p sohalarni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash

hamda tahsil oluvchiga yetkazib berishni jadallashtirishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biologiya fanini o‘qitish jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida keltirilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etishga xizmat qilishi darkor.

Bu muammoni hal qilish uchun, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi ilmiy va mas’ul xodimlari respublikamizning ko‘zga ko‘ringan pedagog olimlari bilan hamkorlikda ilmiy asoslangan ta’lim texnologiyasini tadqiq etish yo‘lida e’tiborli ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Xususan, majmualar nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mavjud pedagogik texnologiyalar tamoyillariga suyanib, pedagoglar va izlanuvchilarga tushunarli bo‘lgan hududiy xususiyatlar e’tiborga olingan pedagogik texnologiyaning milliy modeli yaratildi.

Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvni ifodalovchi tushunchalar orasida ommaviy ravishda qo‘llaniladigani “pedagogik texnologiya”dir. Bizning nazarimizda, mazkur tushuncha o‘quvchilarga ilmiy-nazariy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan jarayon mohiyatinigina emas, shu bilan birga ularda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan faoliyat mazmunini ham ifodalashga xizmat qiladi. Binobarin, respublika ta’lim tizimi oldida turgan asosiy, muhim vazifa ham – komil inson va yetuk malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

“Pedagogik texnologiya” so‘z birligi – bu inglizcha “an educational technology”– “ta’lim texnologiyasi” iborasining aniq bo‘lmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda o‘qitish nazariyasida yanada kengroq qo‘llanilmoqda. Aynan “texnologiya” atamasi va uning “o‘qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta’riflar berilgan.

“Pedagogik texnologiya” atamasi ilk bor pedagogika bo‘yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud.

1. Texnologiya – biror ishda, mahoratda, jarayonda, san’atda, sanoatda qo‘llaniladigan yo‘llar, usullar majmuasi (izohli lug‘at).

2. Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonini amalga oshirishning texnikasidir (V.P. Bespalko).

3. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalani qo‘yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olib o‘qitish va bilimlar o‘zlashtirish butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashga sistemali yondashishidir (UNESCO).

4. O‘qitish texnologiyasi – bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun so‘zsiz qulay sharoitlar yaratib berish uchun o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo‘yicha har tomonlama o‘ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M. Monaxov).

5. Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalar sistemali to‘plami va ishlatilishi tartibini bildiradi (M.V. Klarin).

Pedagogik texnologiya, uning ta’sirchan usuli, qo‘llanilishi lozim vositalari ta’lim sohasida tub burilishni kadrlar sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Ma’lumotlilik – ma’rifat asosini tashkil etuvchi bosh g‘oya hisoblanib kelayotgan tabiat va jamiyat aloqadorligini anglab yetish, avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechish, sabr-bardosh, qanoat, o‘zgalar fikrini hurmatlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash kabi sifatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu masalaning yechimi ma’lum darajada ta’limni texnologiyalashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Pedagogik texnologiyaning milliy modelini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo‘lida o‘quv fanlarning barcha turdagi mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish, o‘quv jarayonini loyihalash asosida modulli o‘qitishga nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, bugungi kunda uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmini yaratish eng dolzarb masaladir. Bu dolzarb masalaning yechimi sifatida, respublika ta’lim jarayonidagi fanlar o‘quv mashg‘ulotlarining ilk loyihalari namunalari ishlab chiqildi.

Aslida pedagogik texnologiya murakkab bo‘lib, an’anaviy dars berish usullarining yaxshi tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan, yangicha yondashuvi qo‘llagan holda eng zamonaviy pedagogik tadbirdir.

Pedagogik texnologiyada o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida amalga oshiriladigan ishlarning bosqichma-bosqich va daqiqama-daqiqa oldindan loyihasi tuzib olinadi. Shunda, o‘quv mashg‘ulotida yoritiladigan mavzular bo‘yicha tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari, qo‘llaniladigan interfaol vosita va didaktik materiallar loyihada belgilab olinadi. O‘quv mashg‘ulotlari bilim berish va ularni tinglovchilar tomonidan eslab qolish bilan chegaralanmay, talabalar berilgan bilimlar asosida amaliy mashqlarni bajara olishi, o‘zlashtirishi pedagog tomonidan doimiy nazorati ostiga olinadi, kerakli maslahatlar beriladi, asoslanadi hamda bilim va ko‘nikmalar hayotiyligi isbotlanadi va hokazo.

Pedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi, talabalarda o‘quv mashg‘ulotlarining ta’sirchanligi va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishligini kafolatlaydi. Chunki, bo‘lg‘usi dars loyihalarini olimlar yoki tajribali pedagoglar tuzib chiqqan bo‘ladi. Aslida ushbu jarayon pedagogning mahorati va mutasaddiligi, o‘quv adabiyotlar, izohli lug‘atlar va boshqa didaktik resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi bilan bog‘liq.

Bu muammoni hal qilish uchun, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi ilmiy va mas’ul xodimlari respublikamizning ko‘zga ko‘ringan pedagog olimlari bilan hamkorlikda ilmiy asoslangan ta’lim texnologiyasini tadqiq etish yo‘lida e’tiborli ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Xususan, majmualar (sistema) nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mavjud pedagogik texnologiyalar tamoyillariga suyanib, pedagoglar va izlanuvchilarga tushunarli bo‘lgan hududiy xususiyatlar e’tiborga olingan pedagogik texnologiyaning milliy modeli yaratildi.

Faqat shundagina oldimizga qo‘yilgan buyuk maqsadga yeta olamiz. Buning uchun, fan dasturlari va zamonaviy o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratilishi hamda pedagogik texnologiyaning ta’lim jarayoniga joriy etilishi barchamizni fidokorona hamkorlikka, orttirilgan tajribalar almashuvini yo‘lga qo‘yilishi, muntazam ochiq muloqot va mutaxassislar ishtirokidagi seminarlarni tashkil etilishiga erishilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. Raxmatov U.E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish (sitologiya va genetika asoslari). O‘quv-qo‘llanma Tafakkur avlodi, 2020. – 272 b.

Marg‘uba HAYDAROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Fakultetlararo pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

YOSH AVLODDA MILLIY ODOB KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK NEGIZLARI

Annotatsiya

Maqolada sharqona ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchasining o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy-madaniy fe’l-atvori, axloq qoidalari va milliylikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanganligi, xalq hayotining barcha jabhalari bilan chambarchas bog‘liqligi, hech kimdan kam bo‘lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayon ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya tushunchasi, axloq, milliylik, ma’naviyat, adolat, barkamol avlod, urf-odat, xulq-atvor, milliy odob.

В статье подчеркивается, что концепция духовно-нравственного воспитания на Востоке базируется на специфике национально-культурного характера узбекского народа, нормах нравственности и образовательных требованиях для укрепления национальности, тесно связанных со всеми сторонами жизни, формированием гармонично развитого поколения.

Ключевые слова. Концепция воспитания, нравственность, национальность, духовность, справедливость, гармонично развитое поколение, традиция, поведение, национальный этикет.

The article deals with the conception of spiritual and moral education in the East is based on the specific national and cultural character of the Uzbek people, the rules of morality and educational requirements for strengthening nationality, closely linked with all aspects of life, the formation of a harmoniously developed generation.

Key words. Concept of upbringing, morality, nationality, spirituality, justice, harmoniously developed generation, tradition, behavior, national etiquette.

Sharqona ma’naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi bu o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy-madaniy fe’l-atvori, axloq qoidalariga va milliylikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, xalq hayotining barcha jabhalari bilan chambarchas bog‘liq, hech kimdan kam bo‘lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayonidir.

Bizning jamiyatimizdagi milliy tarbiya – eng yaxshi umuminsoniy xulq me’yorlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Chunki, insonning barkamolligi uning ma’naviy dunyosi qandayligi bilan belgilanadi. Yaxshi tarbiya – kishining qimmatbaho boyligidir.

O‘zbek xalqining ma’naviyati haqiqatgo‘y va adolatli bo‘lish, jaholat va qabihlik yo‘lini to‘sish, insoniylik, mehr-shafqat, ma’rifat, do‘stlik, mardlik, birodarlik, mehmondo‘stlik, poklik, xushxulqlilik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

O‘zbek xalqining urf-odatlari, turmush-tarzi, ta’lim-tarbiya, madaniyat an’analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Hozirgi va kelajak avlodimiz kishilari

o‘zbek milliy ma’naviyatini yaxshi bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to‘q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e’tirof etilgan qoidadir.

Ota-ona bolani dunyoga keltirganliklari uchun emas, uni odobli, axloqli qilib voyaga yetkazganliklari uchungina olqishga sazovor bo‘ladilar.

Imom Ismoil Al-Buxoriyning “Al-adab Al-Mufrad” (“Adab durdonalari”) kitobi ota-onani hurmat qilish zarurligi to‘g‘risidagi so‘zlar bilan boshlanadi. Jumladan, kitobning 13-sahifasidagi hadisda shunday deyiladi: “Insonni ko‘zga ulug‘ qilib ko‘rsatadigan fe’l-atvori ham bu-odobdir”.

Buyuk mutafakkir, fors-tojik adabiyotining klassiklaridan Abulqosim Farruxiy ma’naviy-axloqiy hikmatini shunday ta’riflaydi:

Yaxshi xulq shoxlik va katta mamlakatdan yaxshiroq,

Sof tabiat tilla gavxar konidan ham yaxishroq.

Xusayin Voiz Koshifiy esa insonlarda oq ko‘ngillilik, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgo‘ylik, sahiylik, vijdonlilik, irodalilik, qat’iyatlilik kabi fazilatlar bo‘lishi shart va bular insonning barkamolligidan dalolat beradi, deydi. Ammo xasislik, ta’magirlik, ochko‘zlik, dilozorlik, pastkashlik, tuhmatchilik, xoinlik, yolg‘onchilik kishilarni beburd, axloqsiz qilib qo‘yadi. Bunday salbiy xislatlar ularni obro‘sizlantiradi, hayotini izdan chiqaradi, noto‘g‘ri yo‘lga boshlaydi.

Abu Nasr Farobiy “Inson o‘zining yaxshi – axloqi bilan baxt-saodatga erishishi mumkin”, deydi. Uning fikriga ko‘ra, inson ma’naviyati va axloqini shakllanishini tevarak-atrofdagi insonlarga, tabiat va jamiyatga uzviy bog‘laganligini ko‘rish mumkin. U inson odob-axloqi barkamollikka yetaklashini o‘z ta’limotida ko‘rsatib o‘tadi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida milliy odob, tarbiya haqida keng to‘xtalib o‘tilgan. Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” asarida axloqga oid g‘oyalar ilgari surilgan. Uning birdan-bir orzu-umidi ideal insonga bo‘lgan mehr-muhabbat, samimiylik edi. Uning quyidagi misralari fikrimizning yaqqol dalilidir:

Menga na yoru na oshiq, xavasdir,

Garchi men odam o‘lsam - ushbu basdir.

Alisher Navoiy bu misralari orqali odamiylikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Uning fikricha, odamiylik-insonga xos bo‘lgan fazilat. Ana shu fazilat ham uning odobida, axloqida shakllantirilishi lozim.

O‘tgan asrning yirik ma’rifatparvar Abdulla Avloniy inson barkamolligi uning aqlida, jismoniy sog‘lomligida hamda axloqi va xushxulqida, deb biladi. Abdulla Avloniy til va so‘z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday ta’riflaydi: “. . . so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadigan tarozidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvati, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar”. Uning fikricha esa, inson odobi va aqli uning so‘zlagan so‘zida bilinadi. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining “Haqqoniyat” deb atalgan bobida rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlik insonning eng yuqori sifatlaridan biri deb hisoblaydi va u to‘g‘risida shunday yozadi: “Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikka aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir...”. U inson odobidagi hayo va iffatni yuqori baholaydi. Hayo deganda ishda, so‘zda odobga rioya qilmoqni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi, deb biladi.

Abdulla Avloniy o‘z asarlarida axloq – bu xulqlar majmuasidir, ammo yaxshi xulq o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya

kerakligini aytadi. Avloniy bola tarbiyasida, u o‘sayotgan shart-sharoit va tarbiyaning roliga alohida e’tibor beradi. Bir so‘z bilan aytganda, odob-o‘zbek millati hayotining mag‘zi hisoblanadi. Qayerda, qaysi davrda, qaysi jamiyatda yaxshi xulq qaror topsa, o‘sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari piru-badavlat bo‘ladi.

Sobiq sovet tuzumi davrida xalqimiz o‘z ajdodlarining milliy qadriyat va madaniyatidan, urf-odatlaridan, tilidan, madaniy an’analaridan benasib qilib kelingan, ayniqsa, yoshlarimiz orasida ilmsizlik, ma’naviy qashshoqlik illatlarini yuzaga keltirdiki, bu ko‘p hollarda o‘zining nohush achchiq mevasini berdi. Bu boy milliy tariximizdan bexabar yoshlarimiz orasidagi ilmsizlik, odobsizlik, qo‘pollik, qo‘rslik, ma’naviy qashshoqlik kabi illatlarning ildizi bevosita salbiy holatlarga borib taqaladi.

Shunday ekan, biz yashab turgan jamiyat taraqqiyoti undagi har bir shaxsning o‘zbekona, milliy odob darajasiga bog‘liq. Buning uchun dono xalqimizning, mutafakkirlarimizning oqilona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan ko‘plab ajdodlarimiz tomonidan qo‘llab kelingan eng xalqchil milliy odob namunalarini o‘rgatib borishimiz zarur.

Hamma zamonlarda ham axloqli va ilmli kishilar jamiyatning eng baobro‘ kishilari hisoblangan. Odob har qanday ilmdan yuqori qo‘yilgan va bu bola tarbiyasida, uning kelajakda jamiyatga munosib kishi bo‘lib yetishishida o‘zining juda yaxshi samarasini bergan. Milliy odob yosh avlodlarda o‘z va o‘zga xalqlarga hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik, milliy va millatlararo muloqot odobi kabi fazilatlarni shakllantiradi va o‘zbek xalqini ma’naviy va moddiy jihatlardan boy millatga aylantirishga xizmat qiladi, deya olamiz.

Xalqimizda ota-onalarga qarata bola tarbiyasi borasida shunday milliy odobni shakllantirishga oid o‘gitlar aytiladi. Jumladan:

Ona odobi:

– bolalaringizni diqqat-e’tibor bilan tarbiya qiling. Fazilat, odob va go‘zal axloqni o‘rgatib, xulqlarini go‘zallashtiring, ust-boshlaridan ziyoda, aql-idroklarini tarbiya qiling;

– bolalaringiz ko‘p bo‘lsa, sevining, ularning yig‘laganlari, sho‘xlik qilganlari uchun achchiqlanmang, kulib, erkalab nasihat qilib shodlik bilan tarbiyalang;

– ularni issiq suv bilan tez-tez cho‘miltirib turing, so‘ngra yaxshilab arting. Ularni qavatma-qavat narsalar bilan o‘ramang, tor-qisiq kiyimlar kiydirmang, bolaning o‘sishiga zarar yetkazmasin;

– bolalar toza, xush havoga juda muhtoj bo‘lganlari uchun ularning yotoqxonalari toza, xush havoli bo‘lishi kerakligini esdan chiqarmang, zarurat bo‘lmaganda, ustlariga qalin og‘ir narsalar yopmang;

– olti oygacha sutdan boshqa oziq bermang, tishlari chiqmasdan ilgari go‘sht yedirmang. Hech vaqt ovqatni o‘zingiz chaynab bolaga yedirmang;

– sut emizgan vaqtingizda sutingiz buzilmasligi uchun piyoz, sarimsoq kabi narsalarni yeyishdan saqlaning. Xususan, ichkiliklardan zinhor hazar qiling. Ichkilik esa bolaning xulqi va salomatligiga zarar keltiradi.

– bolalaringizni haddan ziyod erka qilib o‘stirmang. Har narsani ularning o‘z ixtiyorlariga tashlab qo‘ymang, qarshi so‘zlashga o‘rgatmang, ular oldida o‘zingizni yaxshi tuting. Siz yaxshi bo‘lsangiz, ular ham sizga qarshilik ko‘rsatishga, so‘kishga o‘rganmaydilar.

– bahodir bo‘lib o‘sishlari uchun ularni qo‘rqoq qilib yetishtirmang, qo‘rqishga sabab bo‘luvchi kabi so‘zlarni aytib, qonlarini buzmang. Ko‘p kishilar bir xonada yolg‘iz

yotishdan, chuqurlik yoki ko‘prik yonidan o‘tishdan qo‘rqadilar. Buning sababi shuki, yoshlik paytlarida onalari qo‘rqitib, qonlari buzilgan. Shuning uchun bolalaringizni qo‘rqitmay o‘stiring.

Ota odobi:

– farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga odobini ham yaxshilang;

– bolalaringizni eng yosh vaqtlaridan boshlab tarbiya qiling, ularning pok-sof ko‘ngillariga go‘zal xulq urug‘larini soching, odamgarchilik va ezgulikning qanday ekanini bildiring. Kerak bo‘lsa, bir oz yumshoq yoki bir oz qattiq bo‘ling;

– bolalaringizni urib, behuda so‘zlar aytib, ko‘ngillarini ranjitmang, ularning yonida boshqalar haqida haqoratli so‘zlar gapirmang. Agar bolalaringizning bir kishi haqida yomon so‘z aytganini eshitsangiz, albatta tanbeh bering, bunday so‘zlarni man qiling, so‘kishga o‘rganmasinlar;

– bu dunyoda odamlarning qadr-qimmatlari faqat o‘z g‘ayrat va matonatlariga bog‘liq ekanini, har kim o‘z ishini o‘zi qilishi kerakligini bolalaringizga anglating. Yalqovlik, o‘zga kishilar kuchidan foydalanish yomon ekanini ular anglasinlar;

– foydali maqsadlarni hosil qilishda bolalaringizga yordam bering. Zarur bo‘lsa, bu yo‘lda pulni qizg‘anmang;

– bolalaringiz uchun mol yig‘ib, asrab yurmasdan, mol-dunyoyingizni ularni tarbiyalashga, ilm-u hunar egasi bo‘lishlari yo‘liga sarf qiling: bitmas-tuganmas meros go‘zal tarbiya ekanini tushuning;

– bolalaringizning hammasini birdek ko‘ring. Hadya berganingizda hammasiga bir tekis bering. Bittasiga yashirincha bir narsani berib: “Mana ol, aka-ukalaring bilmasin”, deb aytmang, chunki bunday qilish bolani jabr, zulm, aldash, xiyonat qilishga o‘rgatadi, uning ko‘ngliga baxillik, faqat o‘zining foydasinigina ko‘zlash kabi buzuqlik urug‘larini sochadi;

– kattaroq bo‘lganlarida o‘z ishlaringiz, hunarlaringizni o‘rgating, kundalik turmush qoidalarini bildiring, ular jamiyatning foydali a’zosi bo‘lib yetishsinlar, vaqti yetganda o‘g‘illaringizni tarbiyali oila qizlariga uylantiring;

– qizlaringizni ham shunday go‘zal tarbiya qiling, vaqti kelganda, yosh jihatdan o‘zlariga tengdosh va tarbiyali, odobli odamga bering. Ortiq takallufli, dabdabali to‘ylardan saqlaning. O‘g‘il, qizlaringizga bergan go‘zal tarbiyangiz to‘ylaringizdan, qoldirgan meroslaringizdan afzaldir.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ana shunday yuksak, insonga xos bo‘lgan fazilatlarni shakllantirishni avvalo, oiladan boshlanishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, milliy ongni tarkib toptirmay turib esa, milliylikni shakllantirib bo‘lmaydi. Bolaning odoblilik darajasini undagi intizomlilik, to‘g‘riso‘zlik, poklik, rahmdillik, sabr-toqatlilik, adolatlilik, diyonatlilik, yomon so‘zlardan o‘zini tiya olishi, boshqalar obro‘sini va hurmatini saqlay bilishi, o‘z izzatini saqlashi, insonga naf keltirmaydigan ishlardan yiroq bo‘lish, e’tiqodlilik, birovlarga zulm qilmaslik, masxaralamaslik, o‘zbekona milliy g‘ururida ko‘rinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyorov I. Ota farzandi uchun vaqt topadimi? Xalq so‘zi gazetasi 2001 y.

2. Qoraboyev A. Farzand tarbiyasiga hamma mas’ul. Ma’rifat gazetasi, 2001y.

3. Muhabbat O‘rinboy qizi va boshqalar. Tarbiya kitobi. –T.: Bekinmachoq plyus. 2010. 18-b.

Muqaddas DJUMABOYEVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti,
"Musiqa ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

MILLIY O'YIN-QO'SHIQLARIMIZ ASOSIDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING SAMARALI YO'LLARI

Annotatsiya

Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda milliy musiqiy merosimiz hamda qadriyatlarimizdan biri bo'lmish, harakatli o'yinlarning maxsus qo'shiqlaridan foydalangan holda samarali olib borish to'g'risida metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, milliy o'yinlar, qadriyat, meros, maxsus qo'shiqlar, harakatli o'yinlar.

Вот несколько советов, которые помогут вам извлечь максимальную пользу из уроков музыки, которая является одним из наших национальных музыкальных наследий и ценностей.

Ключевые слова. Музыка, национальные игры, ценности, наследие, особые песни, игры-боевики.

Here are some tips to help you get the most out of your music lessons, which is one of our national musical heritages and values.

Key words. Music, national games, values, heritage, special songs, action games.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida bo'layotgan izchil o'zgarishlar, nafaqat xalq ta'limi va oliy ta'lim vazirligi tasarrufidagi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, balki ta'lim jarayonining ilk bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassis va xodimlarining ham salohiyatini o'stirishga qaratilgan.

Ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimida, milliy musiqamiz ohanglarini eshittirish va xalq og'zaki ijod namunalarini o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimiz qanchalik milliy madaniy merosimiz, hamda qadriyatlarimizni o'zlashtirib, ularning og'ushida kamol topsa, shunchalik odob-axloqi va tarbiyasi ijobiy bo'lib voyaga yetadi.

Bundan tashqari, o'zbek xalqining azaldan turmush tarzi, mehnat faoliyati, bayram-sayllari, fasllar bilan bog'liq dala ishlarining barchasida qo'shiqlar kuylangan va bizga bu qo'shiqlar negizida xalqimizning nechog'liq mehnatsevarligi, shu bilan birga, musiqa bilan oshno qalb egalari bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Farzandlarimiz folklor qo'shiqlarni o'rganish bilan birga, ota-bobolarimizning mard va jasurlik, tabiat va jonzotlarga mehr va o'zbeklarga xos bo'lgan mehmondo'stlik kabi ijobiy fazilatlarini ham o'zlariga singdirishadi.

Folklor namunalar, xususan, harakatli o'yin-qo'shiqlar farzandlarimizda quyidagi ijobiy xislatlarni shakllantiradi:

– bolalarni milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz bilan tanishtiradi;

– bolalar ruhiyatini tarbiyalaydi va jismoniy faolligini rivojlantiradi;

– bolalarda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tushunchalarini shakllantiradi.

O‘zbek milliy xalq o‘yinlari folklor turlarining eng qadimiylaridan biri hisoblanib, uning tarkibiga jismoniy faollik bilan bog‘liq barcha turdagi xalq o‘yinlari va harakatli o‘yin-qo‘shiqlar kiradi. Bunda ko‘proq kuchlilik va chidamlilik, jismoniy chiniqish birlamchi hisoblansada, maxsus qo‘shiq ijrosi ostida ikki tomon bellashadi. O‘zbek xalq harakatli o‘yin-qo‘shiqlari:

– xalqimizning mardligi, jasorati va boy ma’naviyatini o‘zida aks ettiradi;

– bolalarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

– bolalar milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an’analarimizga sadoqat, g‘urur va mehr-muhabbat ruhida ulg‘ayadilar.

Har bir musiqa rahbarlari musiqa mashg‘ulotini olib borish uchun oldindan tayyorgarlik va beshta faoliyat turi bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasini ishlab chiqishi zarur. Ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etishda quyidagi xalq o‘yin-qo‘shiqlaridan foydalanish mumkin.

“Mushtmi, shapaloq?” harakatli o‘yin-qo‘shig‘i – musiqa mashg‘ulotida tarbiyalanuvchilar bir chiziqda saf tortib turishadi. Bitta bola jamoadan oldinga chiqib, o‘ng kaftini qulog‘iga qo‘yadi, chap qo‘l kaftini o‘ng qo‘ltiq orasiga qo‘yadi va orqaga ya’ni boshqa tengdoshlariga qaramay turadi. Qolgan bolalardan bittasi jamoadan chiqib, sezdirmasdan chap qo‘l kaftiga ohista uradi va tezlik bilan o‘rniga turib oladi. Zarb olgan bola orqaga qayrilib kim shapaloq yoki musht tushirganini topishi kerak. Agar topa olsa, huddi shu bola uning o‘rniga tura turib o‘yinni davom ettiradi. Agar topolmasa o‘rtadagi bola o‘zini joyida qoladi. O‘yin shu tarzda, qiziqarli mazmunda olib boriladi.

Bizga o‘rtoq qaramay turgin,
Sochsiz boshing taramay turgin.
Do‘stim sensan usta topoloq,
Qani topchi, mushtmi-shapaloq?

Topqirlikka fursat yetdi,
Kim tushirdi ko‘rsat endi.
Topolmasang lab burasan,
Yana sen joyinga turasan.

O‘yinimiz qizib borar,
Shu jo‘ramiz bezib borar.
Uning ko‘ngli vayron bo‘ldi,
Topolmasdan hayron bo‘ldi
Shapaloqning zarbi qattiq,
Yutqazishning dardi qattiq.
O‘ynaganning ko‘ngli to‘lar,
Sog‘lom bo‘lar bardam bo‘lar.

“KURASH” harakatli o‘yin-qo‘shig‘ining matni
(“Navro‘z” bayramiga bag‘ishlangan bayram ertaliklari uchun)

Birinchi polvonning ustozi sahnaga olib chiqadi va deydi:
“Ehye-hye-hye-hye-hyey, bog‘chamizga polvon
kelgan, kim talabgor davraga chiq!”

Ikkinchi polvonning ustozi sahnaga olib chiqadi va deydi:
‘‘Rustam’’dayin kuchga to‘lgan, kim
talabgor davraga chiq!
Kurashchi bolalar barobar sahnada aylanishib, bir-birining belbog‘idan tutishadi:
Ehe-he-he-he-hey!!!
Musiqa rahbari kuylaydi:
Bu damlarning damlarini dam dema,
Boshqalarni o‘zingdan hech kam dema.
Atrofdagi bolalar qaytaradi:
Bu damlarning damlarini dam dema,
Boshqalarni o‘zingdan hech kam dema.
Musiqa rahbari kuylaydi:
Bizning polvon zo‘r polvon, zo‘r polvonim bo‘sh kelma,
Atrofdagi bolalar qaytaradi:
Bizning polvon zo‘r polvon, zo‘r polvonim bo‘sh kelma,
Musiqa rahbari kuylaydi:
Bizning polvon sher polvon, sher polvonim bo‘sh kelma,
Atrofdagi bolalar qaytaradi:
Bizning polvon sher polvon, sher polvonim bo‘sh kelma,
Musiqa rahbari kuylaydi:
Ha-ha, bo‘sh kelma,
Atrofdagi bolalar qaytaradi:
Ha-ha, bo‘sh kelma,
Musiqa rahbari kuylaydi:
Biringa arpa, biringa bug‘doy bo‘sh kelma.
Atrofdagi bolalar qaytaradi:
Biringa arpa, biringa bug‘doy bo‘sh kelma.
Musiqa rahbari kuylaydi:
Belbog‘idan tut, orqaga sur!
O‘zinga tort, yota turib ot!
Barcha bolalar baravar g‘olibni olqishlaydi: Hye-yee-yee-yey!!!

Musiqa rahbarlari o‘z mashg‘ulotlarini o‘zbek milliy folklor musiqasi namunalari va folklor cholg‘ularidan foydalanib, shu bilan birga, o‘zbek xalq o‘yinlari asosida olib borar ekan, farzandlarimizning vatanparvarlik ruhida kamol topishiga hissa qo‘shgan bo‘ladi.

Shuningdek, harakatli o‘yin-qo‘shiqlar orqali bir mashg‘ulot davomida beshta faoliyat turining mujassamlikda olib borilishi, farzandlarimizning kommunikativ qobiliyatlarini o‘stirishga ijodiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning samarasi o‘laroq, tarbiyalanuvchilarda o‘zlikni anglash va faxr tuyg‘usi shakllana boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to‘plami. –T.: Yangi asr avlodi. 2002. 31-39-betlar.
2. Bekmatov S. Hofizlik san’ati. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. 2007.135-b.
3. Rajabov I. Maqom asoslari. –T., 1992.10-15-betlar.

Asrorjon MAXMUDJONOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

O‘QUVCHILARNING TA’LIM OLISHGA BO‘LGAN KUCHLI MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirishda oila, mahalla, maktab hamkorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, motiv, motivlashtirish, motivatsiya, psixologik ta’sir, oila, maktab, hamkorlik, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy-ma’naviy muhit.

В основное внимание уделяется партнерским отношениям между семьей, обществом и школой, чтобы повысить у учащихся сильную мотивацию к учебе.

Ключевые слова. Ученик, мотив, мотивационный, мотивация, психологическое воздействие, семья, школа, партнерство, общественные организации, социально-духовная среда.

This article focuses on family, community, and school partnerships to increase students strong motivation to learn.

Key words. Student, motive, motivation, motivation, psychological impact, family, school, partnership, community organizations, socio-spiritual environment.

Bugungi kunda respublikamizda milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz asosida oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e’tibordan chetda qolib kelgan bo‘shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo‘yayotgani bejiz emas. Jumladan, jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish; jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni qabul qilindi.

“Pedagogika” ensiklopediyasida “Motiv – 1) insonni o‘qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig‘indisi; 2) o‘quvchining ma’lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga moyilligi. Motivlashtirish – ta’lim oluvchilar faoliyatini ma’lum ehtiyojlardan kelib chiqib, psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga muvofiq yo‘naltirishdir. Motivatsiya esa inson faoliyatini boshqarishda uning axloqiy mayllaridan foydalanish” tarzida talqin qilingan.

Pedagogik hamkorlik oila, mahalla, maktabning birgalikdagi faoliyati asosida o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli qiziqishini, istak va xohishini, ya’ni jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini bajarishiga xizmat qiladi.

Ba’zi oilalar farzandlarining ta’lim-tarbiyasi uchun faqatgina maktab mas’ul deb, ularning fanlarni o‘zlashtirmasligi va o‘quvchining ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini rivojlanmaganligida o‘qituvchini ayblaydilar. Oila o‘zining asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan farzand tarbiyasi jarayonida ishtirok etmaydi. Oilada va maktabda tarbiyaga yetarli darajada e’tibor berilmaslik natijasida, bola shaxsining rivojlanishi, uning qiziqishlari to‘g‘ri yo‘naltirilmaydi. Bunday hollarda ota-onalar bilan yakka holda ishlash samarali natija beradi. Chunki o‘quvchilar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha muammolarni ham ota-onalar yig‘ilishida muhokama qilib bo‘lmaydi, yakkama-yakka suhbat esa o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasida iliq va ishonchli munosabatlarni o‘rnatishga va barcha muammolarni hamkorlikda hal etilishini ta’minlaydi. Har bir ota-ona va o‘qituvchi o‘quvchining kelajagi haqida qayg‘urayotganligini, uning bilim olishi, undagi qobiliyat, motivatsiyasini vaqtida ilg‘ab to‘g‘ri yo‘naltirishga birgalikda harakat qilishga tayyorligini his etishi muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “kichik yoshdan o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o‘sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish maqsadida hamda qiziqishlari va talablarini e’tiborga olgan holda yuqori sinflarda majburiy va tanlov asosidagi fanlarni joriy qilish” ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilab qo‘yilgan. Bu o‘z navbatida, mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan pedagogik mexanizm sifatida ko‘rib chiqish zaruratini izohlaydi.

Odamlarning jamoa bo‘lib yashash tamoyillariga “Avesto”da, qadimgi manbalarda, Suqrot, Aflotun, Arastu, O‘rta Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi allomalar merosida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Jaloliddin Davoniyning fikricha, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida ular bilan birgalikda tashkil etilgan munosabatlar jarayonida ijtimoiylashadi, degan fikrni ilgari suradi. “Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so‘ng muallim ham javobgar sanaladi”.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni ko‘zda tutadi:

– respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni bilan ota-onalarni o‘z vaqtida xabardor etib borish;

– yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalqning boy milliy, ma’naviy, tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalaridan, jumladan, xalq pedagogikasi va ajdodlarimiz merosidan foydalanish;

– o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, muntazam ravishda ota-onalarga mutaxassislar ishtirokida pedagogik-psixologik tushuncha, maslahatlar va ko‘rsatmalar berish;

– o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirish va barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi konsepsiyasini hayotga izchil tatbiq etish;

– o‘quvchilarni umumiy o‘rta ta’limdan keyingi ta’lim turiga izchil o‘tishlarini ta’minlash,

ularni kasb-hunarga yo‘naltirish masalasini hamkorlikda hal etish;

– yosh oilalar bilan ishlash, ularga farzand va uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy, psixologik tushuncha va maslahatlar berish bo‘yicha o‘quvlar o‘tkazish;

– o‘quvchi-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishlarini tashkillashtirishda hamkorlik qilish; o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirish uchun oilada darsxona va boshqa shart-sharoitlar yaratish;

– oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a’zolarining o‘z huquq va burchlarini anglab yetishlari va ularga rioya qilishlarini ta’minlash;

– oilada sog‘lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olib, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o‘rnak bo‘lishlari kerakligini ularga singdirish hamda o‘z farzandlarida ota-ona, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish;

– o‘quvchilarning ota-onalar orqali bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazaridan kelib chiqib, mazmunli va unumli tashkil qilish hamda qo‘shimcha to‘garaklar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga yo‘naltirish;

– ta’lim-tarbiya sohasiga ota-onalar e’tiborini yanada kuchaytirish, bu borada respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlari, yo‘riqnoma va ko‘rsatmalarning samarali bajarilishi uchun ularning maqsad, mazmun-mohiyatini tushuntirish kabilardan iborat.

O‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirishda zamonaviy oilaning modeli, umuman olganda, iste’molchilar tipiga mos keladi, oilaviy birgalikdagi faoliyat “uydan tashqarida” mehnat qilish orqali topiladigan ish haqi hisobiga tovarlarni iste’mol qilish va xizmatlardan foydalanish bilan qo‘shiladi. Ammo ayollar “ikki karra yuklanish”ni boshdan kechirishadi, chunki ular oilaviy xo‘jalik ishlarini ham olib boradilar. O‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirishda oilaning o‘rni oiladagi ayol va erkak rollarining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi, ijtimoiy mavqe merosga ega emas, ota-onalarning professional o‘zini-o‘zi anglashi geografik va ijtimoiy harakatchanlik tendensiyasini belgilaydi. Oilaviy qadriyatlarda ham jiddiy o‘zgarishlar mavjud: ota-onaning obro‘sidan tortib, burch, mas’uliyat, bolalarni tarbiyalashda mustaqillik, shaxsiy yutuqlarga qadar; oilalarda bolalar sonining kamayishi, nikohlarning buzilishi, ya’ni ajralishlar sonining ko‘payishi ana shular jumlasidandir.

Shunday qilib, oila, mahalla, maktab hamkorligida o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirish jarayoni bir necha omillarga bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan kuchli motivatsiyasini oshirishda quyidagi integrativ tashkil etuvchilar doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq: pedagogning kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarining bolaning ma’naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o‘zaro aloqadorligida shakllanishi, shuningdek oila, mahalla, maktab hamkorligida o‘quvchining mos sifatlarining rivojlanish kompleksining dinamik tizimlarini ishlab chiqish ana shularda o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni. https://lex.uz

2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild./ tuzuvchilar: Jamoa. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – 2015, 368-b.

Nurxon SULTONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘QUV JARAYONIGA ZAMONAVIY INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI TA’LIM-TARBIYA SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA’MINLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash jarayonidagi muammolar, innovatsion jarayonning rivojlanish bosqichlari haqida fikr bildirilgan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsiplari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, jarayon, samaradorlik, prinsiplar, muammolar.

В статье речь идёт о проблемах внедрения в учебный процесс современных инновационных педагогических технологий, об этапах развития инновационного процесса. Показаны основные принципы инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова. Инновация, процесс, эффективность, принципы, проблемы.

The article deals with the problems of introducing modern innovative pedagogical technologies into the educational process, the stages of development of the innovative process. The basic principles of innovative pedagogical technologies are shown.

Key words. Innovation, process, efficiency, principles, problems.

Bola tarbiyasi inson hayotida hamisha muhim ish bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. O‘z farzandini kelajakka munosib qilib tarbiyalay olmaydigan inson, kamolotga yetkaza olmaydigan jamiyat hech qachon rivojlanmaydi. Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishning muhim subyekti bo‘lgan yoshlar, ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish va ularni ta’lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqdaki, amaldagi an’anaviy o‘qitish tizimi o‘z faoliyatini ancha yo‘qotdi, ya’ni quruq og‘zaki so‘zlar yordamida o‘qitish yaxshi samara bermayapti. Xozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun, yangi axborotni o‘zlashtiradigan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir bo‘lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun, ularga uzluksiz mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, ya’ni interfaol uslublar, innovatsion texnologiyaning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar o‘quvchilarning bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Odatda, samarali texnologiyalarni qo‘llash yangi sifat va miqdor o‘zgarishlarga olib keladi. Texnologiyalarning bu xususiyati pedagogik texnologik jarayoniga ham bevosita aloqadordir. Pedagogik jarayonda takrorlanuvchi, qaytariluvchi siklni yaratish murakkabroq kechadi. Chunki o‘qitishning maqsadi, ta’lim vazifasining mazmuni, o‘quv materiallarning xilma-xilligi, bilish faoliyati, o‘zlashtirish darajasi o‘quvchining individual xususiyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liqligi kabi holatlar ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi. Lekin ta’lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun bu qiyinchiliklarni inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning qaytaruvchi – takrorlanuvchi aloqasini yaratish zarur bo‘ladi.

G‘oyalarni joriy etilgan yangiliklarga aylanishini ta’minlovchi mazkur jarayonning boshqarish tizimini shakllantiruvchi faoliyat innovatsion faoliyatdir.

Innovatsion jarayonning rivojlanishida quyidagi bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi.

- o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash;
- ma’lumotlarni yig‘ish va holatni tahlil qilish;
- mavjud yangilikni tanlash yoki mustaqil tarzda yangilikni ishlab chiqish;
- joriy etish (o‘zlashtirish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- joriy etish shu jumladan yangilikni tajriba sifatida ishlatish;
- yangilikni o‘zlashtirib olish yoki uzoq muddat davomida qo‘llash natijasida uni kundalik amaliyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish;

Yuqoridagi barcha bosqichlarning tartiblangan ketma-ketligi yaxlit innovatsion siklni tashkil etadi.

Ta’limga texnologik yondashuv tarafdorlarining fikricha, innovatsion ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos tomonlaridan biri – pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilar faolligining keskin ortishi va aksincha, ta’lim beruvchi faolligining susayishi bilan xarakterlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, o‘qitishning yakuniy natijasi dars beruvchining pedagogik mahorati bilan birga ilmiy jihatdan asoslangan, mukammal loyihalangan ta’lim texnologiyalaridan foydalansa har bir o‘qituvchi “a’lo” bo‘lmasa-da “yaxshi” dars bera oladi, ijobiy natijaga erishadi.

Hozirgi kunda o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishda, o‘qituvchi va o‘quvchilarni belgilangan maqsad sari aniq natijaga erishishlaridagi faoliyatlarini tizimlashtirishda, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarining mazmunini to‘liq o‘zlashtirishlarida, o‘quv jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligini belgilashda texnologik xarita yaxlit o‘quv jarayonini aks ettiruvchi me’yoriy hujjat hisoblanadi. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o‘qituvchi va o‘quvchiga darsni qiziqarli bo‘lishiga, ijobiy natijaga erishishlariga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

O‘quv jarayonida o‘quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar, zamonaviy uslublarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, tahlil qilish,

adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek, pedagogga nisbatan hurmatni kuchaytiradi. Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida turli yangi innovatsion texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llashni bilishlari zarur.

Yuqoridagi fikrni e’tiborga olgan holda, butun pedagogik jarayonning boshqaruvchisi, o‘quvchi bilish faoliyatining tashkilotchisi, beminnat maslahatchisi, yakuniy o‘quv natijasiga erishishning yo‘llovchisi – o‘qituvchi – ustozning pedagogik faoliyatini innovatsion ta’lim texnologiyalari tizimida oddiy kuzatuvchi sifatida qarash to‘g‘ri bo‘larmikan? O‘qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati inson ongi, xulqini shakllantirishga, provard natija – barkamol insonlar avlodini yaratishga bo‘ysindirilgan vazifalarni ijobiy hal qilish jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan, har qanday pedagogik tizimda, xususan, innovatsion ta’lim texnologiyalari tizimida o‘qituvchi-ustoz pedagogik faoliyatiga e’tiborsizlik, cheklash susaytirish samaraga olib kelmaydi. Aksincha, o‘qituvchi faoliyati qanchalik faollashsa, ta’lim oluvchilarning xatti-harakatlari qanchalik ijodiy, qiziqarli, istiqbolli tashkil eta olinsa, albatta, qo‘llanilayotgan ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ortadi. Loyihalashtirilgan o‘quv maqsadlari osonroq amalga oshadi, kutilayotgan natijaga tezroq erishiladi. Bu fikrdan kelib chiqib:

• innovatsion ta’lim texnologiyasi tizimida o‘qituvchining o‘rni va vazifalari aniq belgilanishi zarur;

• ta’lim jarayonini texnologiyalashtiruvchisi, o‘quv maqsadlarining loyihachisi, muallifi;

• o‘qituvchi yangi kasbiy lavozim – “o‘qituvchi-texnolog”, “pedagog-texnolog” darajasiga ko‘tarilishi kerak;

• “o‘qituvchi-texnolog” maxsus bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishlari kerak;

• “o‘qituvchi-texnolog”ning pedagogik jamoa o‘rtasida nufuzi, salohiyati orttirilishi, ma’naviy, moddiy manfaatdorligining ta’minlanishi bo‘yicha aniq tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lishi zarur.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ma’lum qonuniyatlarga, prinsiplarga asoslanadi.

Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, kompyuter texnikasining rivojlanishi natijasida uning ta’lim-tarbiya jarayonida keng qo‘llanilishi hamda turli darajalardagi axborot manbalari, shu jumladan, Internet tarmog‘ining ta’lim-tarbiya sohasiga jadal kirib kelishi jiddiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga, o‘z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog-o‘qituvchilarimiz, zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta’lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini davr talab etayotganligini tushunib yetishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1998. 48-b.

2. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2004.

Dilnoza XALQO‘ZIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARINI TA’LIM SIFATINING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovatsiya texnologiyalarining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va uning amaliyotda qo‘llaniladigan muhim omillari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, tashabbus, asos, o‘rganish, ta’lim, yangilik, jarayon, tadqiqotchilik.

В данной статье дается углубленное изучение теоретических основ инновационных технологий и важных факторов, которые применяют их на практике.

Ключевые слова. Инновации, инициатива, фонд, обучение, образование, инновации, процесс, исследования.

This article provides an in-depth study of the theoretical foundations of innovative technologies and the important factors that apply them in practice.

Key words. Innovation, initiative, foundation, training, education, innovation, process, research.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim-tarbiya sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardan biri – ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganligi hisoblanadi.

Innovatsiyalar ta’limga oid ilg‘or tashabbus va yangiliklarni to‘plash, ularni yanada yaxshilab, ta’lim sohasidagi muayyan o‘zgarishlarga, uning sifati va mazmunini transformatsiyalashga olib keladi. Innovatsiyalar ta’lim sohasidagi pedagogik faoliyatning istiqbolli shakl va vositalarini izlash, hayotbaxsh metodika va usullarni sinovdan o‘tkazish natijasida vujudga keladigan tabiiy jarayondir. Ta’lim taraqqiyotining innovatsion mexanizmlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– turli (barcha) ta’lim muassasalari va tuzilmalarida ijodiy muhit yaratish, ilmiy-pedagogik jamoatchilikka tashabbus va yangiliklar joriy etishga qiziqishni singdirish;

– turfa xil yangiliklarni qabul qilish va joriy etish uchun ijtimoiy-madaniy va moddiy (iqtisodiy) shart-sharoit yaratish;

– tadqiqotchilik ta’lim tizimi tashabbuskori bo‘lish va uning mexanizmlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

– real faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim tizimiga eng istiqbolli yangilik va mahsuldor loyihalarni integratsiyalash hamda to‘plangan innovatsiyalarni doimiy faoliyatdagi tadqiqotchilik va eksperimental ta’lim tizimi rejimiga o‘tkazish.

Ko‘rsatib o‘tilgan jarayonlar davomida ta’lim tizimiga xos innovatsion salohiyat

shakllanadi: ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish layoqati, shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun madaniy-ta’lim muhiti va sharoitining turliligi, birlashmalardagi ta’lim institutsiyalari turlarining xilma-xilligi va takomillashgan kommunikativ aloqalar.

Ta’limning innovatsion texnologiyalari o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan yangi, zamonaviy ta’lim usul, shakl va vositalarining izchil aloqador tizimi demakdir.

Shu o‘rinda texnologiya atamasi zamirini tashkil etuvchi tamoyillar mohiyatiga e’tibor qarataylik: bu, avvalo, o‘quv jarayonini tizimli yondashuv tamoyillariga tayanib loyihalash; istalgan etalonga muvofiq ta’lim oluvchining o‘quv maqsadiga maksimal darajada erishuvi; ta’lim oluvchilarning xatti-harakatlari asosida ta’lim berish; tuzatuvchi teskari aloqa asosida o‘quv jarayoniga muayyan tuzatishlar kiritib borish, ya’ni, nazorat - tuzatish va qayta nazorat; darajali nazorat (testlashtirish); bilim va ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirish; rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati; ta’lim samaradorligi kabilar demakdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv innovatsion texnologiyalarning amaliy mazmunini asoslab beruvchi, ularning mavjudligini kafolatlovchi hayotiy dolzarb yo‘nalishlar sirasiga kiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ya’ni insonparvarlik pedagogikasining asosini tashkil etuvchi, innovatsion texnologiyalarning barqarorligini ta’minlovchi muhim g‘oyalar esa quyidagilardan iborat:

– maktab dasturlarini tuzishda o‘quv jarayonini hissiy qo‘llab-quvvatlovchi muhitni hisobga olish; o‘quvchilarning tashabbuskorligini rag‘batlantirish; fanlararo yondashuv; ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini boshqarish va erkinlikni anglangan zarurat ekanligi tuyg‘usini tarbiyalash;

– ta’lim ishtirokchilari orasida iliq munosabatlar ustuvorligi;

– o‘quv jarayonining o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamfikrliligi asosida strukturalashtirilishi;

– o‘qituvchining maslahatgo‘y va hamisha yordamga hozir “bilim manbai” sifatidagi mavqeining cheklanishi;

– o‘qituvchining ta’lim oluvchida o‘z-o‘zini namoyon etishga intilishni rag‘batlantirish;

– ta’lim dasturlarining o‘quvchi ijodkorligi va kreativ tafakkurini tarbiyalashga muvofiq takomillashtirib borilishi;

– bahoning o‘quvchiga tazyiq o‘tkazish funksiyasidan voz kechilishi shular jumlasidandir.

Har qanday innovatsion ta’lim texnologiyasi ta’lim oluvchilarga bilim va tarbiya berish jarayonida yuqorida qayd etilgan g‘oyalarni u yoki bu darajada amalda tatbiq etish vositasi sifatida ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi.

Ta’limning innovatsion modellari o‘quv jarayoni samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siriga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalashga asoslangan innovatsion texnologiyalar;

– ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish samaradorligiga asoslanuvchi innovatsion texnologiyalar;

– o‘quv materialini metodik jihatdan takomillashtirish va didaktik qayta qurishga asoslanuvchi innovatsion texnologiyalar.

Respublikamizda yuqorida qayd etilgan innovatsion texnologiyalarning barchasi ham birdek keng o‘rganilgan emas. Fikrimizcha, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensifikatsiyalashga asoslangan innovatsion texnologiyalarni, xususan, tayanch signallar konspektiga tayanuvchi o‘qitish texnologiyalari va kommunikativ ta’lim texnologiyalarini chuqurroq o‘rganishimiz zarur.

Mazkur yo‘nalishlarda bizda hali yetarlicha tajriba to‘planmagan, xorijiy ilg‘or tajribalar ham yetarlicha o‘rganilmagan.

Innovatsion texnologiyalarning asosiy xususiyati o‘quv jarayoni ijtimoiy tashkil etishning tarixan yangi tipi sifatida zamonaviy jamiyat madaniy rivojiga mos kelishi, innovatsion o‘qitish jarayonida shaxsni rivojlantirishning zarur shart-sharoitlari yaratilishi, o‘quv jarayonida ta’lim oluvchining shaxsiy ijodiy ulush qo‘shish huquqi, tashabbuskorligi, o‘z-o‘zini rivojlantirish huquqi e’tirof etilishi bilan izohlanadi. Bunda eng asosiysi, ta’limning markaziy figurasi hisoblangan ikki shaxs, ya’ni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasida asrlar davomida qaror topgan reproduktiv ta’lim usulidan farq qiluvchi, teng huquqlilik, hamkorlik, demokratik munosabatning ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishidir. Shu sababli, innovatsion texnologiya bilim olishni ta’lim oluvchi shaxsi uchun quvonch, taraqqiyot, ishonch va hayot manbaiga aylantirishga intiladi. Aynan shuning uchun ham o‘yin texnologiyalari o‘qituvchi va pedagog olimlarning diqqatini eng ko‘p jalb etsa ajab emas. Olimlarimiz tomonidan o‘yin texnologiyalari o‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab keng o‘rganila boshlandi (U. Nishonaliyev, O‘. Tolipov, R. Djurayev, Sh. Abdullayeva, G. Maxmutova). Ayniqsa, mustaqillikka erishilgach, boshlang‘ich sinf darsliklariga o‘yin texnologiyalari faol tatbiq etildi (“Alifbe”, “Ona tili”, “O‘qish” darsliklari). Muammoli ta’lim bo‘yicha didakt olimlarimiz tomonidan ayrim ishlar e’lon qilindi (M. Ochilov, R. Safarova, U. Nishonaliyev). Ma’lumki, o‘qitishni tabaqalash uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlari majmui asosida turli gomogen guruhlarda ta’limning turli shart-sharoitlarini yaratish demakdir. Tabaqashtirilgan ta’lim muammolari yo‘nalishida Respublikamizda yagona pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti maxsus innovatsion loyiha asosida ayrim ilmiy ishlar e’lon qilinib, institut qoshida O‘zRXTV muassisligida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilgan bo‘lsa-da, hozirga qadar muammo o‘zining yetarlicha amaliy yechimini topgan emas.

Individual o‘qitish – bu o‘quv jarayonini tashkil etish shakllaridan biri bo‘lib, bunda pedagog ta’lim subyektlari bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, ular o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter) yordamida uzluksiz mustaqil ta’lim oladilar. Bunda pedagogning asosiy vazifasi ta’lim oluvchini zarur tavsiyalar bilan qurollantirish va egallangan bilimlarni nazorat etishdan iborat. Lekin aynan individual ta’lim sinf-dars tizimi sharoitida amalga oshirilishi murakkab hisoblangan ta’lim shakli hisoblanadi. Nafaqat respublikamizda, balki umuman jahon miqyosida keng tatbiq etilayotgan o‘qitishning sinf-dars shakli individual ta’limni amalga oshirishda qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Jamoa tarkibida har bir o‘quvchiga birdek e’tibor qaratish pedagogdan katta mehnat va mahorat talab etishi hech kimga sir emas. Demak, individual ta’limni amalga oshirishning hayotbaxsh yo‘nalishlarini o‘rganish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir.

O‘qitishning kompyuter texnologiyasi – yangi axborot texnologiyalarning bir turi hisoblanadi. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideniye, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida quyidagilar zarur hisoblanadi. Individual o‘qitish, muntazam ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o‘tkazish, o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonidagi o‘quvchining faolligini rag‘batlantirish didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. O‘quvchining faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta’sirlar va pedagogik muhitning

tashkil etilishi natijasidir. O‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi, o‘qitish texnologiyalaridan biri – pedagogik ishbilarmonlik o‘yini hisoblanadi.

‘‘Modulli o‘qitish’’ termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib (‘‘modul’’, lat. modulus), uning bitta ma’nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi.

Modul – bu muayyan jarayon yoki qonun, bo‘lim yoki keng ko‘lamli mavzuning o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhidir. Inson bosh miya faoliyatiga moslashtirilgan ta’lim turi sifatida modulli o‘qitish istiqbolli ta’lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Modulli o‘qitishning asosiy vositasi muayyan tugal mazmunga ega bo‘lgan axborot va ma’lumotlar bloki hisoblanib, modulli ta’limning asosiy tushunchasi ta’lim jarayonida uzatiladigan axborot va ma’lumotlarni muayyan o‘zaro bog‘liq qismlarga taqsimlab o‘quvchiga taqdim etishdan iborat.

Modulli o‘qitish-pedagogik jarayonini ilmiy va metodik jihatdan tartibi va maqsadga muvofiq bajarishga xizmat qiladi. Har qanday pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo‘laklari o‘zaro joylashuvi va pedagogik texnologiya jaraènlarini amalga oshirish ketma-ketligining oldindan belgilangan tartib-qoidalari algoritm deyiladi. Eng kichik bo‘lak pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos qismi bo‘lib, bunday kichik modullardan birlamchi modul tashkil topadi. Modullar to‘plami o‘qitish jarayonini ilmiy tashkil etishga va uning sifat hamda samarasini ta’minlash uchun qo‘llaniladi. Modullarning o‘zgaruvchan va modernizatsiyalanadigan tabiati tufayli ulardan dinamik ravishda foydalaniladi. Modulli o‘qitish – tartibli o‘qitish demakdir. Bunda o‘quv materiali 1 ta o‘quv mashg‘uloti hajmida, o‘quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo‘limi darajasida, ba’zan esa o‘quv fanining yirik tarkibiy qismida, ya’ni bloklar tarzida ham modullar yordamida o‘qilishi mumkin.

O‘quv materialini muammoli bayon etish, qisman izlanish faoliyati va mustaqil tadqiqot faoliyati kabi shakllarda namoyon bo‘luvchi muammoli ta’lim o‘quvchidan yuqori ijodiy eruditsiya, hissiyot va diqqatni talab qiladi. O‘qituvchi esa o‘z ishining ustasi, shaxsga yo‘naltirilgan insonparvarlik ta’limining chinakam namoyondasi bo‘lishi zarur. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. “Kasb-hunar kollejlarida kasbiy fanlarning modulli o‘qitish texnologiyalari”., – T., 2003-yil.

2. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya. 2003. – 168-b.

3. Olimov Q.T., Avliyoqulov N., Rustamov R. M. Kasbiy fanlarni o‘qitishning modul tizimi // Kasb-hunar ta’limi. – 2003-yil. –№2. –18-b.

Adhamjon ABDURASHIDOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Maktabgacha tarbiya” fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MASOFAVIY TA’LIM – O‘QITUVCHIGA QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK VA MALAKAVIY TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada ta’lim sifatini oshirishda masofaviy ta’limning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Mualif masofaviy ta’lim tizimida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirgan.

Kalit so‘zlar. Masofaviy ta’lim, zamonaviy o‘qituvchi, bilim, malaka, onlayn darslar, vebinar darslar, innovatsion yondashuv.

В статье рассматривается значение дистанционного образования в повышении качества образования. Автор высказал свое мнение о требованиях, которым должен соответствовать преподаватель в системе дистанционного образования.

Ключевые слова. Дистанционное обучение, современный преподаватель, знания, квалификация, онлайн-уроки, вебинары, инновационный подход.

The article discusses the importance of distance education in improving the quality of education. The author expressed his opinion about the requirements that a teacher must meet in the distance education system.

Key words. Distance learning, modern teacher, knowledge, qualifications, online lessons, webinars, innovative approach.

Ta’lim sifat samaradorligini oshirish, o‘qituvchini zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda. Ta’lim olishning optimallashtirish yo‘li hisoblangan masofaviy ta’lim ommalashtirilmoqda. Bu o‘qituvchi faoliyatiga talablar va vazifalar belgilab bermoqda.

Masofaviy ta’lim orqali malaka oshirish kurslarida onlayn darslar, vebinar darslar, metodik praktikumlar, maxsus pedagogik-psixologik adabiyotlarni muhokama qilish, attestatsiyaga tayyorlanish, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, o‘zining ish tajribasini umumlashtirish va baholash uchun xizmat qiladi.

Masofaviy ta’limni amalga oshirishda o‘qituvchining tizimli-pedagogik faoliyatida asosiy funksiyalarga: gnostik, loyihalash, konstruktiv, tashkiliy, aloqa va tarbiyaviy rollar deb tavsiflanadi.

Bunda gnostik vazifani amalga oshirishda o‘qituvchi quyidagi mahoratga ega bo‘lishi lozim: kundalik va so‘nggi pedagogik maqsad va vazifalarni shakllantirish, ularga erishish va yechimini topish shakl va usullarini topa olish, erishiladigan natijalarning rejasiga mos ravishda o‘quv jarayonini predmet jihatdan yaxlitligi va samaradorligini tahlil qilish, izlanish (evristik) faoliyatni amalga oshirish, o‘quv jarayoniga turli xildagi innovatsiyalar, ta’lim texnologiyalarini yangi shakl va metodlarini o‘rganish, umumlashtirish va joriy qilish, turli ma’lumot manbalari jumladan,

yangi informatsion texnologiya va ma’lumotlar bazasi bilan mustaqil ishlash, o‘quv jarayoni materiali uchun muhim bo‘lgan turli manbalardan olish, shu bilan birga shaxsiy tadqiqot natijalarni umumlashtirish va tizimlashtirish; o‘quv materialini tuzish va bayon qilishda muhim va asosini ajratib berish, o‘quv materialni mantiqan ketma-ket va asoslangan holda bayon qilish, xulosa chiqarish, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabat jarayonida sermahsul bilish hamkorlik muhitini yaratish, kasbiy va shaxsiy sohada uzluksiz mustaqil rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan maqsadni qo‘yish va unga erishish lozim.

O‘qituvchining bir qator muammolarini yechimini topish bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik loyihalashtirish vazifalarini joriy etishda: istiqbol rejani amalga oshirish, strategik, taktika va operativ vazifalarni to‘g‘ri qo‘yish va xulosa chiqarish metod va usullarni tanlash, rejalashtirilgan ta’lim olish davri mobaynida mavjud bo‘lgan pedagogik vazifalar yechimining natijalarini oldindan ko‘ra olish, ta’lim olishning yaxlit davri yoki u yoki bu bosqichning tugallanishida so‘nggi natijalarni aniqlash, talabalarga auditoriya va auditoriyadan tashqari (mustaqil) ishlarni umumiy guruh va individual maqsadni qo‘yish, talabalarni tayyorlashning umumiy dasturida o‘qitilayotgan kursning metod va usullarini o‘rni va ahamiyati, boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va ma’lum ixtisoslikdagi mutaxassisning kelajakdagi ish faoliyatini e’tiborga olgan holda, o‘quv materialning mazmunini modellashtirish, bosqima-bosqich qo‘yilgan maqsad asosida shaxsiy professional muvaffaqiyatlarini loyihalash va ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonida ularga erishishni rejalashtirish.

O‘qituvchining konstruktiv vazifalarni bajarishda: ishlab chiqilayotgan va yangilanayotgan o‘quv kurslar bo‘yicha ma’lumotlarni saralanishi va tuzilishi, alohida ma’ruza, seminar va boshqa turdagi mashg‘ulotlar doirasi, vaqtni cheragalanishi, shu bilan birga foydalaniladigan o‘quv material, ta’limning texnik vositalari, axborot texnologiyalar va ko‘rgazmali qurollarni mazmunini hisobga olgan holda kompozitsion aniqlash, ta’limning turli texnologiya, vositalari, metod va shakllarini qo‘llash va sinovdan o‘tkazish, talabalarning bilimi va o‘quv faoliyatining sifatini nazoratini amalga oshirish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtiriruvchi chora-tadbirlar tizimini belgilash, o‘quv jarayonini turli xil ichki omillar va tashqi sharoitlarga muvofiq korreksiyalash, pedagogik faoliyatning turli shakllari, metod va usullarini individual layoqati, o‘quv fani o‘ziga xos xususiyatlari va o‘quvchilar kontingentini inobatga olish.

O‘qituvchining tashkilotchilik vazifalarni amalda qo‘llashda: barcha omillar bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limning u yoki bu shakl, metod, vosita va texnologiyalarni e’tiborga olgan holda talabalarning guruhli va individual ishlarini tashkillashtirish, o‘quv mashg‘ulotlarida hamda auditoriyadan tashqari vaqtda talabalar bilan individual-tabaqalashgan ishlarni tashkil qilish, turli ishbilarmon, o‘quv-texnologik o‘yinlar, disskussiya, trening, ijodiy seminar, konferensiya va boshqalarni tashkil qilish va o‘tkazish, o‘quv mashg‘ulotlarda guruh va alohida talabaning ijtimoiy-psixologik holatini boshqarish, dastur talablariga mos ravishda o‘quv materialini o‘zlashtirish va talabalarning imkoniyatlar darajasiga mos ravishda, talabalarning bilish qobiliyatlarini tekshiruvini tashkil qilish, pedagogik, ilmiy va boshqa kasbiy faoliyat turlarini tuzish va tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qituvchining muloqotchanlik vazifalarni yuzaga keltirishda: ta’limning maqsadi, mazmuni, tashkil qilish shakllari va metodlari, shu bilan birga yaxlit pedagogik jarayonda erishilgan ijobiy natijalarga mos ravishda talabalar bilan o‘zaro ta’sir va o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, o‘rganilayotgan materialni ijodiy o‘zlashtirish darajasini

ta’minlaydigan o‘quvchi bilan ijtimoiy-psixologik o‘zaro aloqani o‘rnatish, talabalar bilan xayrixoh va ishonchli shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, o‘quv jarayoni va undan tashqari talabalar bilan o‘zaro individual yo‘naltirilgan aloqa almashinuvchi munosabatlar, kasbiy va boshqa masalalar bo‘yicha o‘qituvchi va talabaning o‘rtasida pozitiv va mustahkam o‘zaro aloqaning mavjudligi, oliy ta’lim muassasasida va undan tashqari o‘zining ilmiy va pedagogik faoliyati muammolari bo‘yicha keng, faol va turfa xildagi ijodiy muloqotni qo‘llab-quvvatlash kerak.

O‘qituvchining faoliyatida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda: talabada kelajak kasbiga ijodiy, fa bunyodkor yo‘nalishni, o‘z faoliyatining natijalariga fuqarolik his-tuyg‘usi va professional mas’uliyatni shakllantirish, uning dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasi, umumiy madaniyati, dunyoqarashining kengligi va xulq-atvor etikasi oliy ma’lumotli yuqori malakali shaxsni shakllanishi va rivojlanishi, o‘qituvchi shaxs sifatida mustaqil rivojlanishi, uning umumiy va kasbiy madaniyati, bilimi, xulq-atvor me’yorlari va hokazo.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talab va vazifalar masofaviy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Zero, masofaviy ta’lim tizimida ishlaydigan o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta sohadan xabardor bo‘lishi lozim: o‘zining predmetli sohasida, zamonaviy faol ta’lim metodlarida (hamkorlikda, loyihaviy, tadqiqot metodlarida ta’lim olish va bosh.), masofaviy ta’limda foydalaniladigan internet texnologiyalarda, internet sharoitida psixologik muloqot masalalarida, masofaviy kurslarni tashkil qilish, boshqarish va monitoring masalalarida.

Masofaviy ta’lim tizimida ishlaydigan o‘qituvchi o‘quv jarayonini yetakchi o‘qituvchisi sifatida: talabalar (tinglovchilar) bilan individual va jamoaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish, shuningdek, o‘quv kurslarga mos o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlash (o‘quv-amaliy qo‘llanmalar, audio-video materiallar) ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Maslahatchi sifatida: guruhli konsultativ mashg‘ulotlarni o‘tkazish, zarurat bo‘lsa o‘rganilayotgan o‘quv kursining borasida masalalar bo‘yicha talabalar (tinglovchilar) bilan individual konsultatsiya o‘tkazish, talabalar (tinglovchilar)ga kasbiy yo‘nalishini aniqlashga yordam berishi kerak.

O‘quv jarayonini tashkilotchisi sifatida: o‘zining o‘quv kursi bo‘yicha talabalar (tinglovchilar) uchun o‘quv jarayoni (mashg‘ulotlar, individual jadvalini tuzish, tinglovchilarning guruhli (muloqotli) mashg‘ulotlarni o‘tkazishni tashkil qilish, talabalar (tinglovchilar) ni joriy attestatsiyasini amalga oshirish kabilar.

Masofaviy ta’lim tizimida ishlaydigan o‘qituvchining vazifalariga quyidagilar kiradi: masofaviy ta’lim tizimi doirasida taqdimotlar, tyutorlar va boshqa chora-tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish, o‘quvchilarning tayyorgarlik sifatini nazorat qilish, o‘quvchilarning yozma ishini tekshirish, baholash va yozma ishlarini javobini qaytarib yuborish, tekshirilayotgan ishlarning qizil chizig‘ida va maxsus blankda ta’lim uchun batafsil va foydali tanqidiy mulohaza va sharhlarni berish, talabalar bahosini asoslab berish, nazorat (laboratoriya) ishlarini bajarish ko‘nikmalarini yanada mukammallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish;

– standart o‘quv materialini talabalarni oson idrok etishlari uchun shaxsiy misollar va topshiriqlar to‘ldirish;

– belgilangan o‘quv yuklamasi me’yorlari hajmida vaqt ajratib talabalarga maslahat olishga imkoniyati bilan ta’minlash, mustaqil tayyorgarlik guruh o‘quvchilarining ta’limini

qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, o‘quvchilarning adekvat o‘z-o‘zini baholashini ta’minlaydigan konstruktiv va xayrixoh aloqalarga imkon yaratish, o‘quvchilarning tayyorgarlik sifatini monitoringini o‘tkazish, nazorat ishining mazmuniga ko‘ra bilimlar darajasini baholay olish, asosiy xato va kamchiliklarni ajrata olish, ularni sharxlash va bartaraf qilish usullarini ko‘rsatish, maslahat o‘tkazish (guruhli maslahatlarni tashkil qila olish;

– o‘quvchiga individual maslahat berishda telefon va internet tarmog‘idan foydalanish ham mumkin).

Masofaviy ta’lim pedagogning kasbiy faolitiga nisbatan qo‘llab quvvatlovchi faoliyat olib boradi.

Masofaviy ta’lim faoliyatning alohida ko‘rinishi sifatida o‘z tuzilmasiga: motivlar, maqsadlar, vositalar, texnikalar, pedagogik faoliyat texnologiyalariga ega.

Pedagoglarning masofaviy ta’limga pedagogik ko‘mak berishni amalga oshirish davrida zamonaviy kommunikatsiya vositalari ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro munosabatlarining ikki tomon uchun qulay bo‘lgan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Ta’lim oluvchilarni masofaviy o‘qitishning asosiy maqsadi – ta’lim oluvchilar qaerda yashashligidan qat’i nazar ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonida ishtirok etish imkoniyatini yaratish, ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchilarning salohiyatlaridan foydalanish, ta’lim samaradorligini oshirish, tinglovchilarga uzluksiz ta’lim olishni ta’minlash va ta’limning turli shakllarini bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda masofaviy ta’limda o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar va vazifalar ta’lim sifat samaradorligini oshirishda, shuningdek o‘qituvchining kasbiy kompetentligini yanada takomillashtirishda muhim o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. 39-b.

2. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Олма-Пресс, 2001. – С.365.

3. Абдуназарова Н.Ф. Педагогические основы повышения квалификации преподавателей профессиональных колледжей в условиях информатизации образования дисс. к. п. н. – Т., 2008 – С.151.

Arofat ISAKOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

OILA PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIGA TA’SIRI

Annotatsiya

Maqolada oila pedagogikasining zamonaviy o‘qitish texnologiyalariga ta’siri haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, oilaviy muhitning bola ongiga salbiy ta’siri, uni bartaraf etish usullari keng ko‘lamda yoritilgan. Xususan, balog‘at yoshida bolalarda uchraydigan ayrim holatlarga tasnif berilgan.

Kalit so‘zlar. Sharqona tarbiya, milliy pedagogika, tafakkur doirasi, zamonaviy yoshlar qobig‘i.

В статье обсуждается влияние семейной педагогики на современные технологии обучения, негативное влияние семейной среды на сознание ребенка и способы его преодоления. В частности, есть некоторые случаи, которые возникают у детей в подростковом возрасте.

Ключевые слова. Восточное образование, национальная педагогика, кругозор, оболочка современной молодежи.

This article discusses the impact of family pedagogy on modern teaching technologies, the negative impact of the family environment on the child's mind, and ways to overcome it. In particular, there are some cases that occur in children during adolescence.

Key words. Oriental education, national pedagogy, scope of thinking, modern youth shell.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgach, pedagogika fanida ham salmoqli izlanishlar bilan dadil qadam qo‘ya boshladi. Xususan, milliy pedagogikamizning keng qamrovli o‘rganilishi, shaxsga ta’lim berish va tarbiyalash jarayonlarining jahon andozalariga mos holda tadqiq etilishi yurtimizda pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning debochasi sifatida yangi bosqichga ko‘tarildi.

Azaldan xalqimizda oila tushunchasi salmoqli o‘rinni egallab kelgan. Buning barobarida qadimdan yosh avlod tarbiyasida sharqona tarbiyaning ahamiyati va dolzarbligi saqlanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Yoshlar tarbiyasida kattalar eng kichik detalga ham e’tibor berib, balog‘at yoshida yoki undan kichik yoshda ham ularga milliy ong, milliy xarakter tushunchalarini ruhiy, jismoniy hamda aqliy tarbiya orqali singdira olishgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, yoshlar tarbiyani faqat oila muhitida sof holatda olishlari mumkin. O‘zbek oilalarining e’tiborli jihati shundaki, oiladagi har bir shaxs o‘zi uchun emas, balki oilaning boshqa a’zolari uchun ham mas’uldirlar. Bu esa insonning jamiyatdagi o‘rnini, uning dunyoqarashini,

madaniyatini, xarakterini ochib beruvchi muhim hodisa sanaladi. Oila insonni halol, pok bo‘lishga, keksalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lishga, diniy, dunyoviy tarbiyaning bola ongida muqim saqlanishida muhim rol o‘ynashiga sabab bo‘ladi. Oilada olingan tarbiyaning ahamiyati to‘g‘risida buyuk bobokalonlarimiz Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, Imom Termiziylar o‘z asarlarida yetarlicha asoslar bilan yoritib berishgan.

Bugungi kunda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarida yangi metodologik asoslar asosida ishlab chiqilayotgan darslik va qo‘llanmalar oila muhitidagi sof milliy pedagogikaning rivojlanishida muhim tarmoq sifatida qo‘llanilmoqda. Jumladan, farzand tarbiyasida ota va onaning birdek mas’uliyati borligi zamon talabi hisoblanadi. Negaki, sharq olamida ota tarbiyasining o‘ziga xos jihatlari qadimdan shakllangan bo‘lib, bu tushunchalar bola ongiga singdirilmaydigan bo‘lsa, unda bo‘shliq paydo bo‘la boshlaydi. Bu bo‘shliq esa boshqa manbalar bilan to‘ldiriladigan taqdirda kelajakda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ko‘pchilik ota-onalar farzandlariga so‘nggi rusumdagi telefon va kompyuter qurilmalarini olib berishyapti. Bu vositalar qaysidir ma’noda yosh avlodning tafakkur doirasi kengayishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, yana bir jihati ularda yoshiga nisbatan tez o‘sish xarakteristikasi shakllanmoqda. Bunday holatda ota-onalar farzandlariga bee’tibor bo‘lib, ularning kelajagini ham xavf ostiga qo‘ymoqda. Bola tarbiyasida oila muhitining roli keng qamrovli ekanligini quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin.

– yoshlar o‘rtasida turli yot g‘oyalarga aldanish;

– bugungi kun yoshlarida mutolaa madaniyatining susayganligi;

– yoshlarning tashqi olamdan uzilib, virtual olam qobig‘iga tushib qolayotganligi;

– erta nikoh qurish holatlari yoki qarindoshlar o‘rtasida tuzilayotgan nikohlarning ko‘payayotgani;

– ommaviy madaniyat ta’siriga tushib qolishayotgani.

Bu kabi misollarning bugungi hayotimizda turli ko‘rinish va misollar orqali his qilishimiz mumkin. Bunday holatlar oiladagi muhitning noto‘g‘ri shakllanganligida deb ayta olamiz. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan singadi”. Oila pedagogikasi aynan shu masalalarni hisobga olib, oilaviy muhitning sharqona tarbiyaga asoslangan turli metodlarini havola etmoqda. Buning natijasida kelajak avlod yoshlari oilaviy muhit sharoitida ham zamon bilan hamnafas holda yangi o‘qitish texnologiyalarining asosini yarata oladi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, asosan, o‘yin metodlari orqali amalga oshiriladi. Bunda bolalarda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini shakllantirish uchun individual yoki ko‘pchilik o‘rtasida o‘tkaziladigan o‘yinlar orqali ifodalanadi. Masalan, individual o‘yinlarda bolaning ichki xarakteri, uning ijodiy qobiliyati, tafakkurining darajasi aniqlansa, ko‘pchilik o‘rtasidagi interfaol o‘yinlarda bolaning topqirligi, hozirjavobligi, favqulodda iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ikkalasining ham asosi oiladagi muhitning qay darajada ekanligiga bog‘liq. Masalan, otasi yoki onasidan biri ichuvchi, chekuvchi yoxud boshqa illatlarga ega bo‘la turib, farzand buni anglab yetgan bo‘lsa, bolalarda bu ikki xil jarayon sifatida yuzaga chiqadi. Ya’ni ayrim bolalar bu kabi illatlardan hazar qilib, u yo‘ldan ketmaslikka harakat qilsa, otasi yoki onasining yomon fe’lidan nafratlanish darajasiga yetsa, ayrim bolalar esa ota-onasiga taqlid qilib, ular ham shu yomon illatlar qobig‘iga o‘ralib qoladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitning bola ongiga ta’siri nihoyatda kuchli singadi. Besh yoshdan o‘n yoshgacha

bo‘lgan bolalarda oilaviy muhitni anglash, ularga taqlid qilishni o‘rganish holatlari paydo bo‘ladi va rivojlanadi. O‘n yoshdan so‘ng esa bolalarda oilaviy muhitning turli taraflariga munosabat bildirish, fikrini o‘tkazmoqchi bo‘lish holatlari ham keng uchraydi. Bu yosh toifasi nisbiy olingan bo‘lib, ayrim bolalarda erta, ayrimlarida kech shakllanishi ham mumkin. Lekin shunisi aniqki, agar bola noto‘g‘ri muhitda ulg‘aysa, uning ongida kelajakda o‘zgartirib bo‘lmas xatolar yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda esa bolaning to‘g‘ri shakllanishida zamonaviy interfaol metodlar va psixolog maslahati bolalarda ijobiy xislatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin tayyorlaydi.

Oila pedagogikasining dolzarbligi xususida necha asrlardan beri tortishuv va yakdil qarorlar bayon qilinmoqda. Bunda G‘arb va Sharq olimlari o‘rtasida bahs-munozarali suhbatlar bo‘lsa, ularning o‘zlarida alohida oila pedagogikasi bo‘yicha yondashilgan konseptual birliklar mavjud. Masalan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo‘lgan va rivojlangan jadidchilik harakati a’zolari ham oiladagi pedagogik tabiyaning naqadar muhim ekanligini ta’kidlab o‘z asarlarida bayon etishgan. Jumladan, ma’rifatparvar jadid Ismoilbek G‘aspirali o‘zining maktab xususida yozgan asarlarida ayni oila muhitida berilgan tarbiyaning bolaning tafakkur doirasi va ijodiy mahsuli rivojlanishida katta odim ekanligini uqtirgan. Bu kabi misollar jadid namoyondalari orasida keng tarqalganini ko‘rishimiz mumkin. Demak, bola salohiyatining o‘sishida oilada olingan tarbiya va bilim ko‘nikmalarining o‘rni unumli hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, oilaviy muhitning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi bolaning yaxshi rivojlanishi uchun qanchalik darkor bo‘lsa, ota-ona zimmasida ham ayrim yuklar bo‘lishi tabiiy. Xususan:

– farzandlar oldida ota-ona o‘zaro urishmasligi kerak;

– bola bilan suhbat jarayonida yolg‘on ishlatmaslik kerak (chunki bolalar yolg‘onni tez fahmlaydi);

– bolaga biror voqea xususida salbiy munosabat berishda ota-onalar o‘zidan emas, boshqalar nomidan kelib chiqib, gapirishi zarur. Masalan, “O‘g‘lim, amakingning o‘g‘li kitob o‘qimas ekan, hozir dadasi undan xafa bo‘lib yuribdi”. Bu bolaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir vositasi hisoblanadi va bola otasi xafa bo‘lib qolmasligi uchun, albatta, ota bergan vazifalarni astoydil bajaradi;

– bolani uy sharoitida ijodiy qobiliyatini o‘stirish;

– bolaning har bir salbiy munosabatiga, qilgan noo‘rin ishlariga jahl qilmasdan, ibratli voqealar asosida ta’sir ko‘rsatish;

– iymon, e’tiqod masalalarida bolalalarda yoshligidan diniy tarbiya munosabatini shakllantirish kerak.

Bu borada ota-onalar o‘rtasida oila pedagogikasi sohasida ham yangi pedagogik va psixologik treninglar tashkil qilish va o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki jamiyatning kelajagi bo‘lmish farzandlarimizning porloq hayotiga befarq bo‘lishimiz, kelajakda o‘tmishdagi xatolarimizdan ham kuchliroq yanglishliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila pedagogikasi. –T.: Aloqachi, 2007, 384-bet.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T., 2005.

3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: Fan, 2006.

Mastura ALIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Fakultetlararo chet tili” kafedrasi o‘qituvchisi

INGLIZ TILI DARSLARIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH – O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatishda multimediadan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan. Muallif ingliz tili darslarida multemediadan foydalanish dars sifatini oshirishga yordam beradi deya ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar. Multimedia, ta’lim sifati, innovatsiya, axborot, texnologiya, axborotlarning ijobiy va salbiy jihatlari.

Статья посвящена проблемам использования мультимедии при обучении английскому языку в общеобразовательных учреждениях. Автор подчеркивает, что использование мультимедии на уроках английского языка.

Ключевые слова. Мультимедиа, качество образования, инновации, информация, технологии, плюсы и минусы информации.

The article is devoted to the problems of using multimedia in teaching English in General education institutions. The author emphasizes that the use of multimedia in English lessons.

Key words. Multimedia, quality of education, innovation, information, technology, positive and negative aspects of information.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ta’lim tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora oshib borayotganligi tufayli o‘z fuqarolarini, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘sib kelayotgan avlod va bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash ta’lim-tarbiya muassasalari pedagog-o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayonida keng joriy etish hamda ularni faol qo‘llanilishi ta’lim muassasalarining o‘qituvchi-pedagoglari oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Tabiiyki, hozirgi ta’lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi, uning ma’naviy-ma’rifiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kundagi o‘qituvchining pedagogik mahorati kundalik hayotda yuqori darajada axborotlashgan va texnokratlashgan jamiyatda voyaga yetayotgan o‘smirlar bilan mashaqqatli muloqotlar sinoviga duch kelmoqda.

Yagona axborot makonini yaratish media axborotni qabul qila olish va medialashgan muloqotni amalga oshira olishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda mediakompetentlik shaxsning muhim sifatlaridan biridir, uni shakllantirish esa – umumiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kompyuterlarning asosiy vazifalari axborotlar ustida amallar bajarish hisoblanib, jamiyatda axborot ham bilim manbai, ham eng asosiy muloqot vositasi bo‘lib hisoblanadi. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo‘lmas ekan, u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrardir.

Lekin shuni ta’kidlab o‘tish joizki, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda o‘quvchilar ko‘pincha foydaliroq ma’lumotlar olish o‘rniga foydasiz ma’lumotlarga chuqur berilib ketishlari, ayniqsa, internetdagi ma’lumotlarga qiziqishlari kundan-kunga ortib bormoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, axborotlarning ijobiy va salbiy jihatlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerakdir. Axborotlarning ijobiy tomoni shundan iboratki, o‘z vaqtida olingan to‘g‘ri va sifatli axborot insonlar, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishi imkonini beradi.

Mediata’lim yoshlarda mediamadaniyatni va savodxonlikni shakllantirib, ma’naviy-estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Darslarda multimediadan foydalanish – bir tomondan hozirgi kunning talabi hisoblansa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchi faoliyatidagi tub o‘zgarishdir. Axborot texnologiyalari asosida tashkillashtiriladigan darsga tayyorgarlik o‘qituvchidan ko‘p vaqtni talab qilsada, natija esa ko‘p kuttirmaydi.

Ingliz tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan grammatik va yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda (ingliz tili ona tilisi hisoblangan bolalar yoki shu tilda so‘zlashuvchi chet mamlakatlar bolalari bilan xat yozishmalari), o‘qishda (axborotga ega bo‘lish uchun internetda ishlaganda) va loyihaviy ishlarda foydalaniladi. Har kuni 2-3 soatini kompyuter oldida o‘tkazadigan o‘quvchilar uchun bu juda muhim va qiziqarlidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlarini ingliz tilining turli darslarida va har xil sinflarda ya’ni, internetdan foydalanish muhim kasb etadigan mamlakatshunoslik darslarida o‘quvchilarga imkon qadar aniq va esda qoladigan rasmlarni namoyish etish, mamlakat hayoti haqida qiziqarli va zamonaviy dalillarni yetkazish uchun qo‘llash mumkin. Bunday darslarda o‘rganilayotgan til davlatining diqqatga sazovor joylarini faqat slaydlar orqali taqdim etish emas, balki o‘quvchilarni turli yashash tarziga ega odamlar hayoti bilan tanishtirish yoki mamlakat siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan shaxslar, mashhur insonlar bilan bo‘lgan suhbatni ko‘rishlari va eshitishlari mumkin.

Axborot texnologiyalari vositalari asosida tashkillashtirilgan dars oddiy hisoblangan darsni ham qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi. “Travelling” mavzusini o‘rgatish jarayonida, darsning har bir qismini multimedia bilan ishlash asosida olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dastlab, o‘quvchilar ekranda dars rejasini o‘qishadi, bu o‘quvchilarning diqqatini qisqa vaqt ichida jamlashga yordam beradi. Undan so‘ng, o‘quv kitobidan vazifa beriladi: matnni o‘qing va tushirib qoldirilgan so‘zlarni kerakli formada qo‘ying (leksika bilan ishlash), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari o‘quvchilarni o‘sha vaqtning o‘zida xatolarni tekshirib olish imkoniyatini yaratadi. Matn munozaraga chaqiruvchi bo‘ladi, ya’ni zamonaviy insonga sayohat qilish unchalik zaruriyat bildirmaydi, u o‘zi sayohat haqida ko‘p ma’lumotga ega deyiladi. Albatta, bunday fikr o‘quvchilarga

yoqmaydi va ular o‘z fikrlarini ayta boshlaydilar, ular matn muallifiga nisbatan o‘z noroziliklarini bildirib, sharhlar keltirishadi, o‘zlarining sayohat haqidagi fikrlarini va uning inson sog‘lig‘iga ta’siri xususida fikr almashishadi.

Keyingi o‘quv kitobida berilgan topshiriq – Londonga yetib olishning eng oson yo‘lini topish. Internetdan foydalangan holda, biz London aeroporti sayti sahifasiga kiramiz. O‘quvchilar poytaxtgacha qanday yetib olish haqidagi ma’lumotlarni o‘qishadi, juftlikda narxlarni, vaqtni, marshrutni taqqoslashadi. Bundan so‘ng o‘quvchilar transport vositalarining qulayliklari va kamchiliklari xususida gaplashishadi (ularning vazifasi – sifat darajalarini takrorlash).

Darsning keyingi bosqichiga o‘tishda o‘quvchilarni tayyorlash uchun – dialog eshittiriladi. O‘quvchilarga katta ekranda aeroport zali rasmini ko‘rish taklif etiladi. Uni tasvirlash, rasmda tasvirlangan aeroportdagi odamlarning nima qilishayotgani, odamlar haqida hikoyalar o‘ylab topish vazifasi beriladi. O‘rganilgan material, yangi so‘zlardan foydalangan holda aeroport haqida mustaqil o‘zlari dialog tuzishadi.

Darsning oxirida o‘quvchilar o‘zlarining loyihalarini taqdim etadilar. Bu ish o‘quvchilarni nafaqat o‘quv materialiga bo‘lgan qiziqishiga, balki sinfdoshlari oldida ma’ruza qilish imkonini beradi, hamma uni katta qiziqish bilan eshitadi va qilingan taqdimot yuzasidan o‘zlarining fikrlarini bildiradilar. Loyiha o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rag‘batlantirish vositasi hisoblanadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: o‘quvchilar nafaqat dars mavzusiga, balki darsda foydalanilgan texnik imkoniyatlarga, hamda, ularning diqqatini jalb qilgan ijodiy mustaqil ishlashga qiziqish uyg‘otadi.

O‘qituvchining ijodiy ishlaridan (internetdan axborot qidirish, taqdimotlar tayyorlash, darsga qo‘yiladigan vazifalar) tashqari, darslarda AKTdan foydalanish o‘quvchilarning o‘zidan ham ijodiy ishlashni talab qiladi. Bunday darslar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Yuqori sinf o‘quvchilari ingliz tili darslarida dasturiy materialni o‘rganishda va sinfdan tashqari ishlarda qo‘shimcha multimedia o‘quv materialini yaratishda qatnashishlari mumkin:

– mamlakatshunoslik bo‘yicha loyihalarda “Great Britain, USA, Australia”;

– multimediali viktorina va krossvordlar.

Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, umumiy ta’limni modernizatsiyalashtiradi, o‘quvchilarning axborot va muloqot kompetensiyasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Chet tili metodikasi. –T., 1996-yil.

2. Hoshimov O., va b. Ingliz tili metodikasi. – T., 1993-yil.

3. Saydaliev S. “O‘rta maktabda ingliz tili o‘qitish metodikasidan ma’ruzalar”. – N., 1992-yil.

Dilorom YO‘LDOSHEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Fakultetlararo chet tilini o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA CHET TILINI O‘RGATISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga chet tillarni o‘rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining dars jarayonidagi afzalliklari, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining pedagogik mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Poydevor, tenglama, undoshlar, tahlil, taqlid, lider, test, samaradorlik, xorijiy xurujlardan foydalanish.

В статье рассматриваются преимущества информационно-коммуникационных технологий в обучении иностранным языкам младших школьников, педагогические навыки учителя в учебном процессе.

Ключевые слова. Фундамент, согласные, уровнение, анализ, подражание, лидер, тест, повышение качества, сохранение от внешных угроз.

This article is about using of ICT and it is prefers: And Teachter’s pedagogical ability in the Educational and upbringing process during the lessons.

Key words. Foundation, equation, consonants, analyse, imitation, lider, test, result, foreign attack.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga berilayotgan ta’lim sifatiga katta e’tibor berilmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har-bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan ham bu vazifalar kuchli mas’uliyat talab qiladi. Barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi ilk maktab yoshidan boshlanganda ijobiy natija berishini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki, boshlang‘ich sinf bamisoli poydevor, poydevori mustahkam bino esa pishiq va samaralidir. Oilasi, el-yurti tinch, Vataniga hurmat ruhida tarbiyalanayotgan bugungi kun yoshlari esa o‘z bilim va tafakkurlari, izlanish va intilishlari, hayot bilan hamnafas ekanliklari, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan boxabar ekanliklarini namoyon eta olishlari biz erishayotgan yutuqlarimizni sarhisob etib bera oladi.

Har bir dars jarayonida darsni qiziqarli va mazmunli tashkil eta olish, o‘quvchilar diqqatini jamlay olishda AKTdan foydalanish samarali natija bermoqda, chunki axborot

oqimidan oqilona foydalanish o‘quvchi fikr doirasini kengayishiga amaliy yordam beradi. O‘quvchilarda uzluksiz o‘z ustida mustaqil ishlash imkoniyati tug‘iladi. Ular o‘rgangan manbani “tahlil qilish” va “taqqoslash” xususiyatlarini ham mustaqil ong orqali bajarishadi.

Hozirgi kunda Respublikamiz maktablarining 80 foizidan ortig‘i eng zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalari, kompyuter sinflari, elektron darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar bilan jihozlangan.

Gap shundaki, kompyuter texnikasi faqatgina tor doirada “Informatika” fanidagina emas, balki uni boshqa fanlarni o‘qitish jarayoniga, ayniqsa, elektron darsliklar asosida harakatli, didaktik, ko‘rgazmalik, tovushli, sermazmun tarzda qo‘llash ustida ketmoqda.

AKTdan maktabda erkin foydalanish, ya’ni maktab kutubxonalarida tashkil etilgan axborot resurs markazlarini (ARM) zamonaviy texnika vositalari hamda kompyuter joylashtirib tashkil etilayotganligi, AKTdan maktab rahbariyati tomonidan ish yuritish tizimini boshqarishda foydalanish ko‘zda tutilgan.

Bu tabiiyki, xalqaro internet tizimi, elektron pochta, turli rasmiy ish yuritish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Fan xonalarida o‘qituvchining AKTdan foydalanishi, o‘z malakasini muttasil oshirib borishi va o‘quv jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishi, ko‘rgazmali qurollar va o‘quv materiallar tayyorlashi uchun yakka kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun o‘qituvchilar, mutaxassislar bevosita AKTdan foydalanishni mukammal bilishlari va o‘quvchilarni AKT imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishlari kerak.

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘p qismi maktabga chiqmasdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishmoqda. Ular kompyuter orqali har xil o‘yinlarni o‘ynashni, kompyuter qismlaridan qanday foydalanishni bog‘cha yoshidanoq o‘rganib olmoqda. Shularni e’tiborga olib, boshlang‘ich ta’limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda. Har yili o‘tkaziladigan avgust kengashlarining sho‘ba yig‘ilishlarida ham aynan muhokama qilinishi kerak bo‘lgan masalalar qatoriga “Boshlang‘ich sinflarda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusi kiritilgan. O‘qish, ona tili, matematika, tabiat, musiqa, mehnat, salomatlik darslari bo‘yicha dasturlar asosida tayyorlangan animatsiyali, syujetli, videoroliklardan, slaydlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, boshlang‘ich sinflarda atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik darslarida AKTni qo‘llash o‘quvchilar uchun o‘z hududi va bolani o‘rab turgan tabiatga bo‘lgan mehr va muhabbatini anglagan holda ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Ingliz tili darslarida mavzuning aniq ma’lumotlarini tushunib olishga, kalit so‘zlar bilan tanishishga, matnda asar qahramonlari, voqealar ketma-ketligi bilan tanishishga imkon beradi. Ingliz tili darslarida videoroliklar, slaydlar o‘quvchilarning mavzuni jonli o‘zlashtirishlari uchun samarali natija beradi. Ushbu yilda boshlang‘ich sinf, jumladan 1-sinflarning predmetlari uchun ta’lim markazi va multimedia markazi tomonidan multimediali elektron qo‘llanmalar tayyorlandi. Multimediali elektron qo‘llanmaning afzallik tomonlaridan biri mavzularga tegishli animatsiyalardan gipermurojaatlash yordamida foydalanish imkoniyati mavjud. Animatsiyalar harakat va ovoz bilan boyitilishi evaziga o‘quv materiallarining mazmunini kengroq va tushunarli tarzda yoritib beradi. Yosh bola, go‘dak telefondan taralayotgan kuyni tinglab, uni beixtiyor qo‘li bilan ushlashga intiladi yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari AKT orqali namoyish etilgan multfilmni ko‘rayotganlarida go‘yo o‘zlarini o‘sha olamga tushib qolgandek his etib qolishadi.

O‘quvchidan ko‘rganlarini aytib berish so‘ralganda u bemalol hikoya qilib berishi orqali bolada tasavvur rivojlanadi.

2-sinf o‘quvchilariga ingliz tili darsida mavzular kompyuter orqali tushuntirildi va o‘tilgan mavzu asosida vazifa qilib berildi. Doskadagi rasmlar orqali o‘quvchi kompyuterdan ularni topish va yozib olish huquqiga ega. O‘quvchi berilgan vazifani tez va to‘g‘ri bajarishga intildi va kompyuterdan tegishli matnni ko‘chirib oladi, so‘ng keyingi o‘quvchiga “sen ham uddalay olasanmi” degandek g‘ururlanib qarab qo‘ydi. Demak, ular bir-birlarini ham izlanishga majburlayapti (ixtiyoriy ravishda).

O‘qituvchi mustaqil tayyorlagan ko‘rgazmasini monitor (ekran) orqali namoyish etganda birinchidan eng orqadagi bola, o‘quvchi bemalol ko‘ra oladi va hamma bilan bir vaqtda uni bajarishga harakat qiladi. Masalan, do‘st, go‘sht, g‘isht... kabi so‘zlardagi talaffuzda tushib qoladigan undoshlar muammoli tarzda namoyish etilsa, o‘quvchi darhol uni ish daftarida bajarishga intiladi. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchining o‘z qobiliyatini yuzaga chiqarishga intilayotganini darhol sezadi va nisbatan o‘zlashtirishda qiynalayotgan o‘quvchilarni aniqlab, ular bilan alohida ishlash uchun o‘ziga reja tuzadi. Ingliz tili darslarida ko‘rib va eshitib o‘rganish, tahlid qilish orqali o‘quvchida bilim manbai o‘sib boradi. E’tiborli tomoni shundaki, o‘quvchi yangilikka qiziquvchan bo‘lganligi sababli monitorda berilgan savollarga do‘stlaridan oldin javob berishga intiladi.

Informatika xonasida test olish jarayonida o‘quvchilar garchi AKT olamiga endi kirib kelgan bo‘lsalarda bemalol savollarga javob berish va “keyingi” tugmasini bosib qisqa vaqtda aniq va to‘g‘ri javob berishga harakat qildilar. Chunki, o‘quvchi sinfda har sohada “lider” bo‘lishga intiladi.

O‘quvchilarga “Ziyonet” saytidan “Kutubxona” sahifasiga kirib elektron darslikdagi misol va masalalar ko‘rsatilganda, ular darslikdagi mavzularni monitorda ko‘rib boshqacha bir tasavvur bilan darsda faol ishtirok etdilar.

Demak, zamonaviy ta’lim berishning eng ilg‘or yo‘nalishidan biri deb AKTdan o‘z o‘rnida keng qo‘llay olish, foydalanishni ayta olishimiz mumkin.

“Kompyuter savodxonligi” yuqori deb ta’kidlab o‘tilayotgan ziyo maskanlarida avvalo, o‘qituvchi kompyuterni puxta bilishi va undan dars vaqtida mustaqil keng qo‘llay olishi o‘quvchilarni shu yo‘ldan borishga undaydi. Masalan, bir marta kompyuterda test bajargan o‘quvchi keyingi safar qachon test bajarishini intizor bo‘lib kutadi. Sababi, o‘qituvchi test natijalari (qog‘oz varianti)ni keyingi darsda e’lon qilsa, kompyuterda esa test yakunida o‘z balini biladi va hattoki, ijobiy ball to‘play olmasa qayta topshirib ko‘rishni so‘raydi. O‘quvchilar o‘rtasida dars jarayonida raqobat rivojlanadi. Raqobat bor joyda esa o‘sish bo‘ladi, o‘sish esa o‘z natijasini ko‘rsatadi.

Odatda, pedagog “bola yetaklovchi” deb e’tirof etiladi. Shunday ekan, u hamisha bolani yetaklashda uni zeriktirmay, charchatmay yetaklamog‘i lozim. Buning uchun pedagog yuksak saviyali, bilimdon, har qanday vaziyatda ham muammoli vaziyatdan chiqib ketishga shay turishi lozim.

O‘quv-tarbiya faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi. Kompyuter o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida vosita bo‘lib xizmat qiladi.

AKTdan foydalanishda o‘quvchilar yoshiga va fiziologik xususiyatlariga mos manbalardan foydalanishimiz o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida, 70-80 foizgacha samaradorlikka erishishimizga olib keladi. Shuningdek, imkoniyatdan kelib chiqqan holda DVD va VSD pleerlardan samarali foydalanishimiz orqali o‘quv materiali to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish mumkin.

Biroq, o‘quvchilarga axborot davrida yashayotganligimizni uqtirib o‘tish jarayonida internetning turli sayt va sahifalaridan ehtiyot bo‘lib foydalanish zarurligini, undan ezgu niyat yo‘lida va jahon andozasiga javob bera oladigan kuchli tafakkur egalari bo‘lib foydalanish zarurligini, undan ezgu niyat yo‘lida va jahon andozasiga javob bera oladigan kuchli tafakkur egalari bo‘lib yetishishlari uchun foydalanishlari kerakligini, kelajakda turmush tarzining manfaat keltiradigan sohalarida foydalanish mumkinligini, hayot uchun xavfli deb baholangan, axloqsizlik va bema’ni xorijiy xurujlardan saqlanish maqbul yo‘l ekanini qayta-qayta o‘quvchilarga uqtirib, yoshlikdan ular ongiga singdirib borish zarur ekanini yoddan chiqarmaslik kerak. Shundagina o‘quvchilar yuqori sinflarga o‘tganda (mobil telefonlardan foydalanmaydi deb ayta olmaymiz) internetdagi ma’lumotlarni to‘g‘ri anglab yetadi, vayronkor g‘oyalarga moyil bo‘lmay, aksincha, bunyodkor g‘oyalarning insoniylik tamoyillariga tayanib, bunyodkor g‘oyalar tasirida jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishlari, Vatan ravnaqi uchun muhim shaxs ekanliklarini anglab yetadilar, ijobiy yangiliklarning faol ishtirokchisiga aylanib, istiqbolli rejalarni amalga oshirish muhim ekanini anglab yetadilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsion texnologiyalari o‘quvchilarning mustaqillik va o‘zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi, o‘quvchining hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi. Asosiysi, u o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga va ular o‘rtasidagi hissiy muloqotni o‘rnatilishiga yordam beradi, kompyuter bilan ishlashga o‘rgatadi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish dars mavzusining muammoli masalalariga diqqatni qaratish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘quvchilarga ular maktabda ta’lim olishni boshlangan vaqtdan boshlab ommaviy ravishda o‘qitishni boshlash kerak, chunki bu davrda o‘quvchilarda ko‘nikmalar tez shakllanadi. Xullas dars jarayonini axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali tashkil etish o‘ziga xos sifat va samaradorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 13-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.

2. Otaboyeva M.P. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / M. P. Отабоева. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2017. – № 4.2 (138.2). – С.36-37. – URL: https://moluch.ru/archive/138/39058/ (дата обращения: 14.12.2020).

Toshpo'lat AKBAROV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
Farg'ona mintaqaviy filiali dotsenti

YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY MUSIQANING O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy kuy va musiqaning inson qalbiga ta'siri haqida ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, muallif musiqaning inson hayotida tutgan o'rni haqida ilmiy xulosalarni bayon etib o'tgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, tarbiya, estetika, ohang, nay, kuy, badiiy-estetik faoliyat, omil.

В этой статье проводится научный анализ влияния национальных мелодий и музыки на человеческое сердце. Представлены научные выводы о роли музыки в жизни человека.

Ключевый слова. Музыка, воспитание, эстетика, гармония, флейта, мелодия, художественно-эстетическая деятельность, фактор.

This article presents a scientific analysis of the influence of national melodies and music on the human heart. Scientific findings on the role of music in human life are presented.

Key words. Music, education, aesthetics, tune, tube, melody, artistic and aesthetic activity, factor.

Musiqaning tarbiyaviylik xususiyati nafaqat insonga yoki biror shaxsga, balki umuman jamiyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, musiqa kishilar qalbiga ruhiy jihatdan ta'sir etishi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu sababli, akademik Said Shermuhammedov bu jarayonni badiiy-estetik faoliyat bilan bog'laydi. Ya'ni, "Adabiyot va san'atning, butun badiiy madaniyatning rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, – deydi olim, – ijodkor ideali asar mazmunida qanchalik umuminsoniy ko'lamlarda, qanchalik yorqin individuallashgan – jonli betakror obrazlarda gavdalangan bo'lsa, insonparvarlik ruhi qanchalik teran bo'lsa, badiiy-estetik, axloqiy-ma'naviy jihatdan yuksak bo'lsa, jahon madaniyati xazinasiga shunchalik ulkan hissa bo'lib qo'shiladi". Demak, musiqani inson qalbiga ta'sirini inobatga olsak, yuqoridagi fikrlar aynan musiqa san'atiga bevosita daxldor ekanligini ko'ramiz.

Musiqa nazariyasi muammolari ustida tadqiqot ishlarini olib borgan ko'pgina allomalar nomlari tarix zarvaraqlarida saqlanib qolgan. IX-X asrlarda yashab o'tgan buyuk faylasuf olim Abu Nasr Forobiy o'zining musiqaga bag'ishlagan risolalarida milliy musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari "Kitabul musiqiy al-kabir" ("Musiqaga doir katta kitob"), "Kalam fil musiqa" ("Musiqa haqida so'z"), "Kitab-ul musiqa" ("Musiqa kitobi"), "Kitabun fiihsa'ilulum" ("Fanlar tasnifiga doir kitob")ning musiqaga bag'ishlangan qismi, "Kitabun fiihsa'il – iqo' ("Musiqa ritmlari – iqo' tasnifi haqida kitob") va boshqalardir.

Farobiy "Kitabulmusiqiy al-kabir" kitobida musiqiy cholg'u asboblarga katta e'tibor

qaratgan. Shu bilan bir qatorda, Abu Ali ibn Sinoning (X asr) “Kitab ush-shifa’” (“Shifo kitobi”), “Donishnoma” (“Bilim kitobi”), “Kitab-un najat” (“Najot kitobi”) kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalat-un fiilmilmusiqiy” (“Musiqiy ilmi haqida risola”) kabi risolalari Abu Nasr Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Al-Xorazmiyning “Mafotihul-ulum” (“Ilmlar kaliti”) kitobining musiqaga bag‘ishlangan qismi ham alohida o‘rin tutadi. Xorazmiyning bu asari O‘rta Osiyo xalqlari fan va madaniyati tarixini yoritishda muhim manbalardan biridir. Xususan, bu asarning musiqaga doir qismida o‘sha zamonlarda mavjud musiqa asboblari to‘liq tavsiflanadi va ularning har biri haqida mufassal ma’lumot beriladi.

Musiqaning tarbiyaviylik xususiyati fan – inson – jamiyat – tabiat munosabatlarida qator jihatlar bilan namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, musiqa, adabiyot, san’atga davlatimiz tomonidan berilayotgan e’tibor ham uning ta’sir kuchi nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlari yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori ham muhim ahamiyatga egadir.

Birinchidan, musiqa sog‘lom turmush tarzini shakllantiradi, mustahkamlaydi. Hozirgi kunda tibbiyot ilmiga musiqa terapiya sohasining kirib kelishi fandagi yangi yo‘nalish bo‘lib, u insondagi xastaliklarni musiqa bilan davolashda, musiqa orqali ta’sir ko‘rsatishda o‘zining samarali natijasini bermoqda.

Ikkinchidan, odamlarning xarakteridagi va xalqlarning mentalitetidagi ayrim illatlarni bartaraf etadi.

Uchinchidan, tarbiya jarayonlarida musiqaning ohangi muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, shovqinli musiqa insonning asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi tibbiyotda isbotlangan.

To‘rtinchidan, musiqani eshitish ham mumkin, tinglash ham mumkin. Bundan tashqari, musiqaning tarbiyaviy ta’sirini oshiradigan subyektlardan biri – bu musiqiy asboblardir. Musiqiy asboblarning musiqaviy tarbiya jarayoniga ta’siri shunisi bilan ahamiyatliki, har qanday musiqa asbobi ham inson tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatavermaydi. Bu bir qator omillarga bog‘liq.

Birinchisi – musiqiy cholg‘uning estetik ko‘rinishida shakl va mazmunning uyg‘unligi.

Ikkinchisi – musiqiy me’rosning yaratilishi uchun zarur bo‘lgan cholg‘uning tarbiyaviylik xususiyati.

Masalan, musiqiy asboblar ichida eng soddasi va eng qadimiysi hisoblanmish nay san’atkorning nafasi va vujudidan chiqayotgan ovoz bilan sozlanadi va qalb nolasi bo‘lib jaranglaydi. Musiqachi nay orqali o‘zining qalb nidolari, dardu alamlarini, muhabbatini izhor qiladi. Shuning uchun ham buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy “Ma’naviy-masnaviy” asarini Tingla nay andoq hikoyatlar qilur Ayriliqlardan shikoyatlar qilur, deya oddiy nay ta’rifi bilan boshlagani bejiz emas. Bu borada ayrim o‘xshatishlarga e’tibor qaratish o‘rinlidir. Chunonchi, nay kesilmasdan avval qamishlik vaqti haqiqiy hayot nash’u namosini surgan bo‘lsa kesilganidan so‘ng quriydi. Orif inson ruhi ham shunday. Naydan oshiqona sadolar chiqsa, orif insondan ham oshiqona va orifona so‘zlarni eshitish mumkin. Nayning sadosi orif so‘zlari kabi ko‘ngilni ravshan qiladi. Nayning san’ati botiniy, ya’ni ichidan bo‘lgani kabi orif kamoloti ham botiniydir. Nayning qomati kabi orifning dili ham to‘g‘ridir. Bu nayga nisbatan berilgan qator ta’riflarning bittasi, xolos. Shuning uchun ham nay navosi eshitgan kishini befarq qoldirmaydi.

Uning ovozi shu qadar sehrliki, bugungi texnika nayning ohangini o‘xshatishga ojiz. Ikkinchi yana bir o‘ziga xos musiqiy asboblarimizdan biri bu tanburdir. Tanbur aslida “tan” va “bura” bo‘lib, qadimiy sozlardandir. Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri his, tuyg‘u va hayajon (emotsiya)dir. Kishi o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo‘ladi. Buning natijasida shodu-xurramlik, qayg‘u va g‘am, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, jahl va g‘azab, hayratlanish, xafa bo‘lish kabi boshqa ko‘plab mayl va tuyg‘u (obyektiv dunyoga subyektiv munosabat kechinmalari insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

Emotsiya (tuyg‘u kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Ijobiylari: shodu-xurramlik, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg‘u va g‘am, jahl va g‘azab, xafa bo‘lish kabilaridan tashkil topadi.

Ijrochi sozandaning faoliyati his-hayajon va emotsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ijodkor tomonidan yaratilgan asardagi fikr va maqsadni undagi badiiy emotsional qiyofalar tizimini tinglovchiga yetkazib bera olishi zarur. Bunda sozanda asar kayfiyatiga mos, cholg‘u sadolanishiga o‘ziga xos ravishda qizg‘inlik, ifoda va joziba baxsh etgan holda ijro qiladi. Cholg‘u asari hech qanday emotsiya va his-hayajonsiz chalingan bo‘lsa, tinglovchi yuragiga yetib bora olmaydi, uni befarq qoldiradi va u ijrodan ham cholg‘uchidan ham norozi bo‘ladi. Shuning uchun sozanda har bir asarning badiiy-emotsional timsollar mazmuniga chuqur kirib bora olishi, undagi qayg‘urish, zorlanish, quvonish, tantana, hazil va boshqa kayfiyat turlarini ishonchli yoritib bera olishi kerak. Musiqiy ruhshunoslikda badiiy obraz uch omil asosida ochib ifodalanib beriladi. Bularning birinchisi moddiy, ya’ni nola matni, cholg‘u tovushi, kuy, garmoniya, usul, dinamika, tembr, registr va h.k. Ikkinchisi ruhiy, ya’ni kayfiyat, tasavvur, ifoda, iroda, hissiyot. Uchinchisi mantiqiy, ya’ni shakl, janr, mazmun kabi omillardir. Sozandaning ijrochilik amaliyotida intellektual va estetik, ya’ni eng nozik va go‘zal oliy nafosat emotsiya shakllanadi. Ushbu his-tuyg‘ular sozanda ijrochilik faoliyatida o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yib ongli ravishda turli vosita va yo‘llardan foydalangan holda musiqiy asardagi badiiy obrazni ochib berish uchun xizmat qiladi. Ijrochilik jarayonining jismoniy va ruhiy asoslarini chuqur o‘rganish bo‘lg‘usi o‘qituvchi, tarbiyachi va sozanda uchun juda muhim shartlardan biridir. Musiqaning ilohiyligi, uning ruhiyatga bog‘liqligi, ohanglarning sirli olami insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan. Xonandaning qo‘shig‘i dardlarga malham bo‘lib, shodlikni oshirsa, sozandaning kuyi g‘amni aritib, ko‘ngillarga xush kayfiyat bag‘ishlaydi. Shuning uchun musiqaning chinakam sehriga har ikki subyekt birdek daxldor bo‘ladi. Shunday ekan, insonni kamolga yetkazishda musiqa san’atining ahamiyati beqiyosdir. Musiqa hayotni insonlarning his-tuyg‘ularini va orzu istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016-y.

2. Darvesh Ali Changiy. Risolayi musiqiy. O‘zR FA Inv. № 468/1. 26-b varoq. Forschadan tarjima B.Ashurovniki.

3. Shermuhamedov S. Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot. –T.: Fan, 2005.

4. Jaloliddin Rumiy. Uchmoqqa qanot yo‘q, vale uchgayman. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994-y.

Sohibaxon ASQAROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Musiqa ta’limi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

YOSH AVLODNI MA’NAVIY KAMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA, IJODIY, INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA, MILLIY URF-ODAT VA QADRIYATLARIMIZNI ANGLASHIDA MILLIY MUSIQANING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etishda milliy musiqa namunalaridan foydalanish, bolalar ijodkorligini va ularda asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari, bolalarda milliy musiqiy qadriyatlar vositasida o‘zlikni anglash hissini shakllantirib borish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy musiqa, qadriyat, kompetensiya, intellektual rivojlanish, ma’naviy kamolot, tarbiya.

В статье рассматривается использование образцов национальной музыки при организации занятий музыкой в образовательных учреждениях, пути развития детского творчества и базовых компетенций, формирование у детей чувства идентичности через национальные музыкальные ценности.

Ключевые слова. Национальная музыка, ценности, компетентность, интеллектуальное развитие, духовная зрелость, воспитание.

The article examines the use of samples of national music in organizing music lessons in educational institutions, ways of developing children's creativity and basic competencies, the formation of a sense of identity in children through national musical values.

Key words. National music, values, competence, intellectual development, spiritual maturity, education.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish davrida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan olamshumul o‘zgarishlar, keng qamrovli tub islohotlar, albatta, hayotning o‘zi taqozo qilgan u yoki bu muammolar va masalalar bilan to‘qnashadi. Bu qonuniy va tabiiy rivojlanish jarayonidir. Shu bois, ta’limining barcha bosqichlaridagi boshqaruvchilarning vazifasi mazkur muammolarga o‘z vaqtida yechim topish orqali butun tizimning rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadimiy tarixga ega. Ajdodlarimiz bizga minglab kishilar zakovatining mahsuli bo‘lgan san’at, fan, adabiyot namunalarini meros qilib qoldirganlar. O‘sha davrlarda yaratilgan olamshumul me’morchilik namunalari: mavzoleylar, observatoriyalar va boshqalar shu kungacha salobat bilan turibdi va kelajakda ham albatta saqlanib qoladi.

O‘zbek xalq musiqa ijodi har bir yosh avlodni ma’naviy kamolotini shakllantirishda,

ijodiy, intellektual rivojlanishida, milliy urf-odat va qadriyatlarimizni anglashida muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'zbek xalq musiqa ijodiyotida xalqimizning tili, ohangi, urf-odatlari, qadriyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning mazmunida ezgulik g'oyalariga hurmat-ehtirom, sog'lom turmush tarzi, mehr-oqibat, o'z yeri, tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, sof muhabbat va sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlar o'z aksini topgan. Bolalarda musiqiy tarbiya jarayonida o'zbek xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borish, ijro qilishga o'rgatish natijasida ularda o'zbek xalq musiqa ijodiga nisbatan muhabbat va qiziqish uyg'onadi.

O'zbek xalq musiqasi keng ko'lamli, xilma-xil shakl va tur(aytim, cholg'u kuy)lardan tarkib topgan. Xalq qo'shiq-kuylari avloddan – avlodga og'zaki shaklda meros qolib, bizga qadar ijtimoiy ong xotirasida saqlanib kelingan.

Yosh avlodni milliy musiqamizga muhabbat ruhida tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim Davlat o'quv dasturida bolalar rivojlanishi bo'yicha quyidagi asosiy kompetensiyalar belgilangan:

1) Bilish kompetensiyasi – atrof-muhitdagi borliqni ongli tarzda anglash va egallangan bilim, mahorat, ko'nikma va qadriyatli yo'l-yo'riqlarni o'quv hamda amaliy vazifalarni bajarishda qo'llash;

2) Kommunikativ kompetensiya – turli xil vaziyatlarda muloqot vositalaridan foydalana olish mahorati;

O'yin kompetensiyasi – o'yin jarayonida va uni tashkil etishda bola tomonidan o'z tajribasi, bilimi va ko'nikmalarini ijodiy qo'llash. O'yin kompetensiyasi bolaning o'quv-tarbiyaviy faoliyati uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu Davlat dasturida "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalarida 6-7 yoshli bolalarda "Ijodkorlik" bo'yicha quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan:

– san'at va madaniyatga qiziqish;

– milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;

– san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi.

Musiqa mashg'ulotlari bolalarning eng sevimli mashg'uloti hisoblanadi. Chunki bu mashg'ulot bolalar ruhiyatiga ko'tarinkilik, zavq bag'ishlaydigan o'yin faoliyatidir. Inson tug'ilishi bilanoq musiqani his qilish va qabul qilish imkoniyatiga ega. Ona allasi yoki sokin musiqa tinglaganda chaqaloqning orom olishi, ilk yoshli bolaning qo'shiqlarga nisbatan raqs bilan javob qaytarishi, hattoki o'zining sevimli qo'shig'ini tanlashi va tanib qolishi buning isbotidir. MTM tarbiyalanuvchilari bo'lmish yosh avlodga shu davrida, ya'ni 3-7 yosh oralig'ida ko'proq milliy musiqa namunalarini eshittirish, kuylatish, o'rgatish bolalarda milliy o'zligini anglab borishiga poydevor bo'ladi. Shu yoshda o'rganilgan xalq ashulalari va raqslari bolalar yodida bir umr saqlanib, qalbiga singadi.

MTT tarbiyalanuvchilarini milliy an'analar va qadriyatlar bilan tanishtirishning samarali vositalaridan biri – xalq musiqa ijodi namunalaridir. Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy faoliyatlarni barcha turlari orqali tarbiyalanuvchilarni o'zbek xalq musiqa ijodi namunalari bilan tanishtirishning keng imkoniyatlari mavjud. Musiqa mashg'uloti jarayonida musiqiy-ritmik faoliyatda ritmik harakatlarni "Do'loncha", "Qari navo", "Lazgi", "Dilxiroj", "Qora dali", "Yallama yorim" musiqalari asosida harakatlarni bajarish, musiqa tinglash jarayonida "Tanovar", "Cho'li iroq", "Ali qambar", "Yangi tanovor", "Rohat", "Asp bo'laman", kuylash jarayonida "Binafshalar ochildi oh, bolajon", "Muchal qo'shig'i",

“Chuchvara qaynaydi”, “Voh-voha sumalak”, “Ufo‘-jaqala”, “Turna keldi”, “Lolachaga ishim bor”, “Lolajon” kabi folklor qo‘shiqlarni, bolalar cholg‘ularida ijro qilishga o‘rgatishda “Changqobiz”, “Sibizg‘a”, “Shillovuq”, “Do‘mbira”, “Zang”, “Qayroq” kabi cholg‘ulardan, musiqiy didaktik o‘yin faoliyatida “Oq terakmi – ko‘k terak”, “Chori chambar”, “Zuv-zuv borag‘ay”, “Chitti gul”, “Oshxo‘rakam kaptar”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Laylak keldi” kabi bolalar qo‘shiqlaridan foydalanish bolalarda xalq musiqa namunalariga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg‘otish qatorida milliy musiqalarimiz haqida tushuncha va bilimlar egallashlariga ham zamin yaratadi.

Bolalar folklor namunalaridan ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlar sifatida qo‘llash yaxshi natija beradi. Bolalar folklori o‘z ichida qadimgi milliy o‘zbek bolalar o‘yinlarini ham jamlagan. Shuningdek, bolalar folklor qo‘shiqlari ichida qo‘shiq-o‘yinlar, sanamalar, tez aytishlar, topishmoqlar, taqlid o‘yinlar kabi ko‘rinishdagi qo‘shiqlar ham mavjud. “Oq terakmi ko‘k terak”, “Chori chambar”, “Zuv-zuv borag‘ay” kabi qo‘shiqlar shular jumlasidandir. Yuqorida nomlar keltirilgan bolalar folklor namunalarini musiqa mashg‘ulotlarida o‘rgatish juda oson va samaralidir. Musiqa mashg‘uloti katta zalda o‘tilganligi bois xalq bolalar qo‘shiqlari asosida harakatli didaktik o‘yinlar tashkil etish ham mumkin. “Oq terakmi ko‘k terak”, “Zuv-zuv borag‘ay” bolalar qo‘shiqlarini ijro etib “meni tutib ol”, “kim epchil-u kim chaqqon” kabi, “Chori chambar” qo‘shig‘iga moslab “bekinmachoq” yoki “sanashni bilasanmi” kabi, “Chitti gul”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Laylak keldi” qo‘shiqlarini o‘rganish jarayonida esa badiiy-obrazli harakatli didaktik o‘yinlarni sahnalashtirish bolalarga o‘zbek xalq qo‘shiqlarini qiziqish bilan oson o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

Aynan yosh avlod orasida milliy musiqamizni qanchalik ko‘p targ‘ib etsak, ularda milliy o‘zlikni anglash hissi yana chuqurroq shakllanib boradi. Ular milliy urf-odat va qadriyatlarimiz, an’analarimizni asrab-avaylashga, hurmat qilishga o‘rganadilar. Zeroki, o‘zligini anglagan insongina yurtimizning buyuk kelajagiga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. – T., 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari. – T., 2018.

3. Atabayeva G. Laparlar. – T.: Navro‘z, 2017. 83-b

4. Toshmatov O‘. Folklor qo‘shiqlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, – 2003. 34-b.

5. Qodirov. R.G. Musiqa pedagogikasi. –T.: O‘zDK Musiqa nashriyoti, 2011.139-b.

Oygul SOBIROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARGA FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarga folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari va turlari haqida bayon etilgan. Shuningdek, muallif yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini umumnazariy tamoyillari asosida o‘rganishni aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Talaba, innovatsion texnologiyalar, folklorshunoslik, musiqa, qo‘shiq, ijro, san’at turlari, ma’naviyat.

В статье описаны методы и виды использования инновационных технологий в обучении школьников фольклорным песням.

Ключевые слова. Студент, инновационные технологии, фольклор, музыка, песня, перформанс, искусство, духовность.

This article describes the methods and types of using innovative technologies in teaching folklore songs to students.

Key words. Student, innovative technologies, folklore, music, song, performance, arts, spirituality.

Musiqa jamiyat ma’naviy taraqqiyotida san’atning boshqa qirralariga nisbatan global ta’sir qilish qudratiga ega kuchdir. “Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda”.

Milliy-madaniy meros, shu jumladan, adabiyot va san’at barcha davrlarda ham yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularga ajdodlar an’analarini yetkazish vositasi bo‘lib kelgan. Ayni vaqtda ular yoshlarga milliy o‘zlikni anglatish, ularda Vatan va millatga bo‘lgan mehr-muhabbatni qaror toptirish, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Biroq, totalitar tuzum davrida milliy ozodlik harakatlarining qayta yuzaga kelishidan qo‘rqqan ayrim ideologlar milliy-madaniy merosni o‘rganishda qat’iy cheklovlar bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi taklifni ilgari surdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan musiqa san’atiga milliy-estetik qadriyat sifatida yondashish, uning go‘zal an’analarini rivojlantirish, musiqaning an’anaviy va zamonaviy yo‘nalishlarini yanada rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori, 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” PQ-3990-son qarori ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qarorlardan kelib

chiqib turli festivallar, tanlovlar o‘tkazilmoqda buning natijasi o‘laroq, mumtoz va zamonaviy musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, folklor hamda mumtoz musiqa qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan xalqaro anjumanlar o‘tkazilmoqda. Aytish mumkinki, endilikda musiqa nafaqat san’at turi balki, u tarbiya vositasi, jamiyat barqarorligini ta’minlovchi kuchga aylandi. Musiqaga shu nuqtayi nazardan qaralganda, bugungi kunda uning tarbiyaviy mohiyatini o‘rganish, tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon, o‘z navbatida, musiqaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini umumnazariy tamoyillari asosida o‘rganishni taqozo etadi.

Bu holat birinchidan, bugungi kunda milliy meros namunalari bilan ya’ni folklor ijro san’ati va milliy qo‘shiqchilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil etish va uni bugungi zamon tamoyillari asosida boyitishni talab etmoqda.

Ikkinchidan, folklor qo‘shiqchiligi va milliy musiqa san’atining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish, uning jahon musiqiy merosidagi o‘rnini tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarimizning nafis va go‘zal jihatlarini namoyon ettirish g‘oyatda zarurdir.

Uchinchidan, san’at turlari ichida o‘zbek xalq an’anaviy qo‘shiqchilik san’ati o‘ziga xos shakl va mazmunga ega. Uning o‘rnini boshqa san’at turlari bosolmaydi: u nodir va betakrordir. Unda ohang birikmalari, shakl va janrlar, xilma-xil va murakkab usullar majmuasi, shuningdek, xalq poetik ijodiyotini, xilma-xil kuylar boyligini muayyan tartibga soladi. Shuning uchun ham u xalq madaniyatining ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, o‘zbek xalq an’anaviy musiqasi bo‘lmish maqomlar, marosim musiqalari, folklor qo‘shiqlari o‘ziga xos badiiy-estetik janr tizimidir.

Beshinchidan, hozirgi kunda talabalarni musiqa sirlarini puxta egallagan har tomonlama bilimli kadrlar qilib tarbiyalash ustuvor ahamiyatga ega.

Oltinchidan, musiqaning nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog‘liq bir necha sohalaridan, jumladan kuylash, cholg‘u asboblarida ijro etish, jamoaviy ijroni tashkil qilish va boshqarish, musiqa tarixi kabi sohalarini nafaqat nazariy jihatdan balki uning amaliy ahamiyatini o‘rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu nuqtayi nazardan musiqiy merosimizni o‘rganish, ilmiy-nazariy tadqiq etish va ularni kelajagi buyuk barkamol avlodlarga yetkazish hozirgi davr talabidagi va ehtiyojlaridagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mamlakatimizda yosh avlodni barkamol avlod qilib tarbiyalash, jahon hamjamiyatiga mos mutaxassislar tayyorlashda jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buning uchun Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan 5 ta tashabbus ham yoshlarni tarbiyalashda san’at va madaniyatni ardoqlashga o‘rgatish asosiy dasturulamal vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, yoshlarning musiqiy savodini oshirish, xususan, mumtoz kuy-qo‘shiqlar vositasida ularda milliy qadriyatlarni mustahkamlash, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat uyg‘otishda bir qator ishlar amalga oshirilayotgani ham bunga yorqin misol bo‘la oladi. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Folklor va etnografiya” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan folklor qo‘shiqlarining hududiy o‘ziga xos jihatlarini o‘rgatishda bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Masalan, har bir hudud o‘qituvchisi o‘zining “Yakkaxon qo‘shiqchilik”, “Folklor jamoa ijrochiligi” fanlari doirasida talabalarga folklor qo‘shiqchilik san’atining o‘ziga xos usullarini o‘rgatib kelmoqda. Folklor

qo‘shiqchiligi 4 hududga bo‘lib o‘rganiladi. Har bir hududning o‘ziga xos bo‘lgan ijro yo‘li bor. Demak, talaba folklor ijrochiligining qonuniyatlarini o‘rganar ekan, nafaqat ijro mahorat balkim folklor qo‘shiqlari negiziga yashiringan so‘zlarning ramziy ma’nolarini ham o‘rganib boradilar. Masalan,

O‘ng qobog‘im uchdi-ya,
Sochim belimga tushdi-ya.
Ulla-bulla shu bugun
Og‘am esimga tushdi-ya

Bu o‘zbek xotin-qizlarining to‘n bichib, tikayotganlarida aytilgan qo‘shiqlardan bir namuna. O‘ng qoboq uchishi – xosiyatli irim. Belga tushgan soch esa balog‘at ramzi. To‘n tikish jarayonining o‘zi oila qurishga tayyorgarlik, yorga yetish istagidir.

Yuqoridagi misoldan ham ko‘rinib turibdiki, demak talabalar yashirin ramziy ma’nolarni o‘rganish bilan birga folklor qo‘shiqlarining yangicha yashash tarzini ham taxminlaydilar. Yuqoridagi kabi misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Fan o‘qituvchilari folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishda bevosita kafedra tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan ilmiy seminarlar hamda konferensiyalar fan o‘qitishda yangi innovatsiyalarni olib kirishga yaqindan ko‘mak berayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish joyizki talabalarga folklor qo‘shiqlar orqali ularga millat hayoti, o‘tmishi, kelajagi uchun dahldor bo‘lgan omillar to‘g‘risida ma’lumotlar beradi, ular tomonidan milliy mentalitet xususiyatlarining to‘la anglanishi uchun imkoniyat yaratadi, talabalarda milliy urf-odat, marosim va an’analarning avlodlar tomonidan davom ettirilishi, ularning mazmunan boyitib borilishi yo‘lida amaliy harakat ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘tmishning aks sadosi, bugungi kunning jarangdor ovozi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. /Xalq so‘zi, 2019-yil 7-aprel №68 (7298).

2. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2008.

3. Sharipova G., Najmeddinov G‘. Musiqa o‘qitish metodikasi. – T., 2018.

Oxunjon XAYDAROV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHI-YOSHLARNI OILAGA NISBATAN MA’NAVIY-AXLOQIY VA QADRIYATLI MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MUAMMOSINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma’naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash muammosining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, oila, oilaviy munosabatlar masalasi, oilaviy qadriyatlar, uning shaxs kamolotiga ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Oila, oilaviy munosabatlar, o‘quvchi-yoshlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, qadriyatli munosabat, jamoat tashkilotlari.

В статье анализируются тенденции развития проблемы подготовки учащихся к духовно-нравственным и ценностным отношениям с семьей. Также обсуждается семья, проблема семейных отношений, семейные ценности, их влияние на развитие личности.

Ключевые слова. Семья, семейные отношения, студенты, духовно-нравственное воспитание, ценностные отношения, общественные организации.

This article analyzes the development trends of the problem of preparing students for spiritual, moral and value relationships with the family. It also discusses the family, the issue of family relations, family values, its impact on personal development.

Key words. Family, family relations, students, spiritual and moral education, value relations, public organizations.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev milliy va ma’naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e’tibordan chetda qolib kelgan bo‘shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo‘yayotgani bejiz emas. Jumladan, jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish; jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni qabul qilindi.

Oila va oilaviy munosabatlar, ularni jamiyatning, oilaning tamaddunidagi o‘rni haqida

tarixiy manbalar mavjud. Qur'oni karim, Hadisi shariflar, shuningdek, "Avesto" kabi muqaddas manbalarda bu haqida ibratli hikmatlar mavjud. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari bu masalaga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Minerologiya", "Geodeziya", "Hindiston", Abu Ali ibn Sinoning "Axloq fani", "Oila xo'jaligi", Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Mahbub ul-qulub", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Abdurauf Fitratning "Oila" asarlarini bu e'tibor va e'tirof yo'lidagi say-harakatlar natijasi sifatida tan olinadi.

Oila, oilaviy munosabatlar masalasi tasavvuf falsafasida ham alohida o'rin tutadi. Xususan, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida oilaviy munosabatlar, jumladan, ota-onalar munosabatlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, oila tarbiyasiga oid qimmatli fikrlar ulug' mutafakkirlarimiz Imom al-Buxoriy, at-Termiziylarning asarlarida ham zikr etilgan.

Keyinchalik oilaviy qadriyatlar shakllanishi g'oyalari, to'g'ridan-to'g'ri talqin etilmagan bo'lsa-da, A.Avloniy, Behbudiy va boshqa ma'rifatparvarlar asarlarida rivoj topdi. Ularning kitoblarida ushbu qadriyatlarning asosiy qonunlari: ota-onaga hurmat, oilada axloqiy me'yorlarga rioya qilish ochib berildi. Ko'plab pedagog-insonparvarlar oilaviy qadriyatlar shakllanishi tarafdorlari bo'lib chiqishdi. Chunki ilk ijtimoiy munosabatlar va aloqalar tajribasini bola oilada egallaydi, ota-ona, qarindoshlar, qo'shnilar, ota-onaning tanishlari va do'stlari, shuningdek, hovlida o'ynovchi bolalar – bu dastlabki mikrososium, bu yerda sotsial tajriba shakllanadi.

Oxirgi yillarda xorijda va mamlakatimizda rivojlanish psixologiyasi deb ataluvchi ta'limotga qiziqish oshgani kuzatilmoqda. Bu fan ota-onalarning qarashlari, tasavvurlari, e'tiqodlari, ularning bolalar rivojiga ta'sir mexanizmlarini o'rganadi. Tarbiyaning noodatiy tizimlari ham katta qiziqish uyg'otmay qolmaydi. Bu an'analar oilalarning turli pedagogik g'oyalarni targ'ib qiluvchi va hayotga ko'chiruvchi norasmiy birlashmalari sifatida ifodalanadi. Oilaning qurilishi, oilaviy munosabatlarning modelini tahlil etarkan, psixolog va pedagoglar ota-onalar nuqtayi nazarlari, yo'l-yo'riqlari, ota-ona (ko'pincha ona) munosabati turli variantlarini ko'rib chiqadi. Bu variantlar oilaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar qaror topishi, shakllanishi va rivojiga ta'sir o'tkazadi.

Qadriyatli munosabat – shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasidir. Oilaning asosiy qadriyatlari: bolalar, barcha oila a'zolarining sog'lig'i va birgalikda bo'sh vaqtlarini o'tkazish; bu yerda oilaning barcha subyektlarining ruhiy faoliyatlari namoyon bo'ladi va uyg'unlashadi. Psixologik muhitning mavjudligi, ota-ona muhabbati, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ishonch oila qadriyatlarini shakllantiradi. Oilaviy qadriyatlar tizimida oila mavjudligiga mo'ljallangan qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Umuman olganda, tadqiqotchilarning oila tarbiya muhiti sifatida bolalarning kattalar bilan doimiy va faol muloqot qilish uchun optimal imkoniyatlarga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining betakror yaqinligiga asoslangan, boshqa holatlarida qayta ishlanmaydigan, emosional-psixologik mikroiqlimning manbasi hisoblanadi.

Pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy izlanishlarda mustahkam oila doim davlat barqarorligining kafolati hisoblanadi, shu bois, "xonadonning yaxshi boshlig'i yoki bekasi" bo'lish kabi tavsif esa bo'lg'usi oilaparvar insonni tarbiyalashda xalqlar va davlatlar mavjudligining shartlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatimizda iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir paytda hozirgi bolalik bilan bog'liq o'zgarishlarning o'ziga xosligi haqidagi masala kun tartibiga chiqadi.

Maktab davrida o‘quvchi-yoshlar shaxsining kamol topishi omillariga quyidagilar mansub: bolaning shaxsga oid xususiyatlari, tarbiyachisi, tengdoshlari, oila. Shu bois, oilaning pedagogik-psixologik tavsifini o‘rganish masalasi tadqiqotimiz uchun muhim hisoblanadi, chunki ilk ijtimoiy institut sifatida oila bola rivojidagi o‘zgarishlarga doimiy ta’sir etadi.

Oilaviy qadriyat – bu oilaning o‘zi haqidagi tasavvuri, allaqanday murakkab oilaviy bilim, ko‘pincha oila a’zolari o‘rtasidagi anglab bo‘lmas o‘zaro kelishuv, murosa. Ushbu parametrni o‘rganish angliyalik olim, oila tizimlari nazariyasi bo‘yicha mutaxassis S.Xolland tomonidan boshlab berilgandi. Uning fikricha, avloddan-avlodga o‘tib borgani sari oilaviy tarixda disfunksional pattern (namuna)larning akkumulyatsiyasi ro‘y beradi va oxir-oqibat bu oila a’zolarining anomalligiga olib keladi. S.Xollandning qayd etishicha, oila bu emotsional maydon, qaysiki, o‘zaro muloqotning turli darajalarida oila a’zolari tomonidan uzatiladigan va qabul qilinadigan emotsional stimullarning murakkabligiga ishora qiladi.

An’ana va urf-odatlar takrorlanuvchi qonunlashgan xatti-harakatlar bo‘lib, ular ramziy ma’noga ega, tizim hosil qiluvchi oilaviy qadriyat – muhabbat, bu eng muhim vaziyat bo‘lib, u tizimni barqarorlashtirish, oilani mustahkamlashi va uning a’zolari tashvishini bartaraf etishi mumkin. An’ana va odatlari yetarlicha bo‘lmagan oilalarda, odatda, bir-birini yaqinlashtiruvchi umumiy jihat mavjud emas, bunday oilalarning subyektlari esa yakkalanib qolish va xavotirni boshdan o‘tkazadi.

Psixolog va pedagoglar oilaning qurilish va oilaviy munosabatlarning modelini tahlil etar ekanlar, ota-onalar nuqtayi nazarlari, yo‘l-yo‘riqlari, ota-ona munosabatining turli variantlarini ham ko‘rib chiqadilar. Bu variantlar oilaviy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning qaror topishi, shakllanishi va rivojiga ta’sir o‘tkazadi.

N.K. Radina, T.N. Pavlochevalar tomonidan “Ota-ona – bola” munosabatlarining quyidagi aspektlari ajratib ko‘rsatilgan: ta’sir etuvchi e’tibor (simpatiya, hurmat, yaqinlik). Ota-ona oilaviy tarbiyasining qonuniyatiga asos solingan: “bolangiz baxtli bo‘lishi uchun siz ham buni xohlashingiz va unga bu borada yordam qo‘lini cho‘zishingiz zarur”.

Yiroqlashtirilgan muhabbat (simpatiya, hurmatni saqlab, ammo bola o‘rtasida katta masofada turib). “Mening farzandim ajoyib, biroq u bilan muloqot qilishga mening vaqtim yo‘q”.

Amaliy rahmdillik (simpatiya, yaqinlikni saqlab, biroq hurmat qilmaslik). “Mening farzandim boshqalarnikidek emas. Ehtimol, farzandim u qadar aqlli va jismoniy rivojlangan emasdir, lekin men uchun asosiysi, bu mening bolam va shu sababli uni yaxshi ko‘raman”.

Zaif chetlatish tipidagi muhabbat (simpatiya, hurmatsizlik, shaxslar o‘rtasidagi katta masofa). “Farzandim yetarlicha aqlli va jismonan barkamol emasligiga uni ayblash mumkin emas”.

Xo‘rlash (antipatiya, hurmatsizlik, orada katta masofa saqlash). “Bu bolani ko‘rsam jinim qo‘ziydi, u bilan muloqot qilishni istamayman”.

Nafratlanish (antipatiya, hurmatsizlik, orada kichik masofa). “Farzandim shunchalik noqis, aqlsiz, qaysar, qo‘rqoq, boshqa odamlarga yoqmasligidan qiynalaman, juda azob chekaman”.

Ta’qib qilish (antipatiya, hurmatsizlik, yaqinlik). “Farzandim tanbal va yaramas. Men buni uning o‘ziga isbotlayman!”.

Rad etish (antipatiya, orada katta masofa saqlash). “Bu yaramasga qarashni ham istamayman”.

Ota-onalarning eng yaxshi pozitsiyasi – uch asosiy shartga javob berishi kerak: adekvatlik, qayishqoqlik va bashorat qilishlik. Katta yoshli kishi pozitsiyasining adekvatligi o‘z farzandining fazilatlarini real aniqlikda baholash, uning individualligini ko‘ra olish, tushunish va hurmat qila bilishga asoslanadi. Ota-ona holatining ko‘nishga moyilligi muloqot tarzi, bolaning ulg‘ayishiga qarab hamda oila turmushi sharoitlari turli o‘zgarishlariga bog‘liq ravishda unga ta’sir etish usullarini o‘zgartirishga tayyorlik va qodirlik sifatida ko‘rib chiqiladi. Pozitsiyaning bashorat qilishligi bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ga va ertangi kun vazifalariga uning mo‘ljalni olishida ifodalanadi. Bu katta yoshli kishining ortda qoldiruvchi tashabbusi bo‘lib, bolaning kamoloti, istiqbollarini hisobga olgan holda unga umumiy yondashuvni o‘zgartirishga qaratilgan.

Ta’kidlash joiz, mavjud ijtimoiy tarbiya oilaviy tarbiya ahamiyatini kamaytirmaydi. Ko‘plab buyuk pedagoglar nazariya va amaliyotda oiladagi tarbiya masalasiga e’tibor qaratishgan. XVIII-XIX asrlarda yashab o‘tgan yirik pedagog-gumanistlardan biri I.G.Pestalossining qayd etishicha, “yaxshi tarbiya asosi onalik hissi, otaning ta’sir kuchi, oiladagi ezgu amallar hisoblanadi...”. Oila va oilaviy tarbiya masalalari shaxsiy tasavvurlarni hisobga olgan holda, shuningdek, turli o‘zlashtirishlar orqali shakllanadi.

Oilada ota-ona, bobo, buvi shunday avtoritet darajasida bo‘lishi mumkin, ammo birinchi navbatda, bolaga eng yaqin inson bu onadir, u bolani to‘g‘riso‘zlikka, samimiylikka o‘rgatadi va shu bilan inson xarakteri rivoji uchun ishonchli asos bo‘ladi. Qayd etishimiz joizki, hozirgi vaqtda oilaviy pedagogika o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda turli fan va sohalar o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlar shaxsni tarbiyalash omili sifatida oilaga qiziqish kuchli bo‘lib, turli tarbiyaviy resursga ega oilalarning turli tiplari ajratildi, pedagoglarning ota-onalar bilan ishlashida tabaqalashgan yondashuv zaruriyati vujudga keldi. Ota-onalar sinflari quyidagi ma’lumotlar asosida shakllantirildi: pedagogik madaniyat darajasi, o‘zini tuta bilish qobiliyati, bolalarining o‘zlashtirishi, oila tipi. Ota-onaga pedagogik ta’sir etishning nazariy asoslari kuzatiladi, amaliyotda oila bilan hamkorlik qilish shakl va metodlari ishlab chiqildi va tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4740345

2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. – T.: Fan, 1996. 276-b.

3. Bestujev - Lada I.V. Sotsiologiya semi. – M., 2003.

4. Holland, S. Child and Family Assessment in Social Work Practice (2nd Edition). London: Sage Publications. (2010).

5. Фрэнк С.Л. Духовные основы общества. Введение в социальную философию. - М .: Академия, 2012. - С.112.

6. Радина Н.К., Павлычева Т.Н. Зарубежный и отечественный опыт реализации технологий семейного устройства и воспитания детей-сирот и детей, оставшийся без попечения родителей / “Социальное обслуживание семьи и детей”: Научно-методический, 2016, №7. - С.10-29.

E’zozxon QOBILOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Musiqa ta’lim’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA XALQ MUSIQA AN’ANALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqola yoshlarga xalq musiqa an’analari va ular haqidagi to‘laqonli tasavvur, bilim, malakalar berish asosida kelajak avlod ma’naviyatini shakllantirish masalalariga qaratilgan bo‘lib, unda xalq musiqa an’analari va o‘zbek xalq musiqiy pedagogikasining o‘zaro uzviy mohiyatiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. An’ana, urf-odat, milliy musiqiy pedagogika, xalq qo‘shiqchilik an’analari, musiqaning ta’sir kuchi.

В данной статье затрагиваются вопросы формирования духовности подрастающего поколения на основе передачи им представлений, знаний и навыков о народных музыкальных традиций.

Ключевые слова. Традиции, обыча, национальная музыкальная педагогика, народные певческие традиции, музыкальное воздействие.

The issues of alignment of spirituality of rising generation on the basis of transferring them conceptions, knowledge and skills about local musical traditions are considered in the present article.

Key words. Traditions, custom, local musical pedagogy, local singing traditions, musical impressions.

Ma’naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning eng asosiy masalalaridan biriga aylanib borayotgan hozirgi davrda xalq an’analari, urf-odatlarining nafaqat tiklanishi, balki yosh avlodni milliy an’analarimiz ruhida tarbiyalash vositasiga aylanishi o‘z yechimini topayotgan vazifalardandir.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy an’analar va urf-odatlar vositasida tarbiyalash masalasi o‘zbek milliy pedagogikasida o‘z ifodasini topgan.

Urf-odat esa an’anadan farqli o‘laroq insonlarning ma’lum holatda xalq tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarga qay darajada amal qilishi bilan belgilanadi. Keksa kishilarga izzat-hurmat ko‘rsatish, kattalarning so‘zini bo‘lmaslik, mehmonni el-yurt orasida qabul qilingan tartibda kutish, to‘y-marosimlarni shu hududda qabul qilingan taomillar asosida o‘tkazish kabi qator go‘zal urf-odatlarimiz xalqimizni dunyoga tanitgan.

Qadimda Navro‘z bayramida musiqa asosiy ikki funksiyani bajargan: bayramning umumiy fonida ijro etiladigan musiqa va Navro‘zning maxsus urflari va harakatlarini o‘tkazish uchun ijro etiladigan musiqa. Bunga ataylab kasbiy musiqachilar kuylar bastalaganlar. Sosoniylardan bo‘lgan Xusrov 11 Parvizning saroy musiqachisi – mashhur Barbod Navro‘z mavzuiga atab bir qancha alohida kuylar yaratgan degan taxminlar bor: “Badi Navro‘z”, “Sozi Navro‘z”, “Nozi Navro‘z” va boshqalar VI-VII asrlar musiqa madaniyatida keng tarqalgan.

Xalq donishmandligining va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-

axloqiy hayotning barcha tomonlarini – xalq og‘zaki ijodi, udumlari va marosimlari, diniy-axloqiy ta’limotini o‘zida jo qilgan. Dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo‘shiqlari, asotirlar, naqllar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, hikmatlar, qayrovi so‘zlar, topishmoqlar, erkalamalar, ovutmachoqlar, yalinchoqlar, guldur-guplar, sanamalar, o‘yin-kulgilar bilan bog‘liq lapar, aytishuv, o‘lan, termalar, bolalar qo‘shiqlari, ramazon, boychechak, yomg‘ir, quyosh, yulduz suv aytimlari, tegishmachoqlar, “Navro‘z”, “Mehrjon”, bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo‘shiq ashulalari, dehqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog‘liq nasriy va nazmiy asarlar xalq musiqa pedagogikasining asosini tashkil etadi. Xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo‘lib asrlar davomida yashab kelgan musiqiy pedagogika ajdod-avlodlarning axloqiy, ma’rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Uning ta’sir kuchi, ahamiyati boisi nimada?

– uning hayotiyligi, serqirra, serma’noligi;

– bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida, jonli an’analarda yaratilishi, yashashi, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal etishga qaratilganligi;

– umuminsoniy yo‘nalishga, umumbashariy g‘oya-maqsadlarga qaratilgan bo‘lganligidir.

Shu bois, boshqa xalq musiqa pedagogikasi avlodlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xalq qo‘shiqlarini to‘plash va uning xilma-xil variantlarini yozib olish bo‘yicha yirik hajmdagi bir qator ishlar qilingan. Xususan, folklorshunos olimlar V.A. Uspenskiy, N. Mironov, E. Romanovskaya, I. Akbarov, Y. Rajabiy, M. Yusupov, F. Karomatov va boshqalar xalqimizning musiqiy merosini to‘plashga salmoqli hissalarini qo‘shganlar.

O‘zbek xalq an’analari va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish masalalariga pedagog olimlardan S.Temurova, O.To‘rayeva, Z.Mirtursunov, M.Ochilov, O.Musurmonova va boshqalar ilmiy oydinlik kiritganlar.

Xalq qo‘shiqlaridan tarbiya manbai sifatida foydalanish muammolari bilan A.Hasanov, H. Nurmatov, S. Habibullayeva, F. To‘rayev, R. Tursunov va boshqalar shug‘ullanganlar.

Qo‘shiqlar musiqa merosimizda muhim o‘rin tutib kelgan. Faqat to‘yda va azadagina emas, balki hayotning har sohasida qo‘shiq insonga ruhiy madad, hamdard va hamroh bo‘lib kelgan. Qo‘shiqlar xalq an’analari, urf-odatlari bilan chambarchas bog‘lanib ketadi va ularga fayz kiritadi (“Yop-yor”, “O‘lan”, “Lapar”, “Lirik terma”, “Alla”, “Kelin salom”, “Bayt-g‘azal”, “Xush kelibsiz”, “Yig‘i”). Qadimiy adabiy manbalardan bo‘lib hisoblanadigan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida adabiy termin sifatida “Qoshug‘” shaklida izoh beriladi va u mazmunan she’r, qasida deb ta’riflanadi. Qo‘shiq ijro etuvchilarni ham janr turiga qarab har xil nom bilan atalishi ma’lum: qo‘shiqchi, go‘yandi, ashulakash, laparchi, yallachi, o‘lanchi va h.k.

Yosh avlodga milliy ruh bag‘ishlaydigan bunday ulkan ma’naviy me’rosimizning salmoqli bir bo‘lagini tashkil etuvchi xalq qo‘shiqchiligining ham o‘ziga xos an’analari bor. Ular, birinchi navbatda, kuylash uslublari va xalq qo‘shiqchiligining janr xilma-xilligi bilan belgilanadi. Mavjud qo‘shiqlarni odatda folklorshunos olimlar to‘rtta yirik guruhga ajratishadi (mehnat qo‘shiqlari, mavsum-marosim va urf-odat qo‘shiqlari, lirik qo‘shiqlar va termalar). Bu janrlarga mansub qo‘shiqlar xalq milliy ohanglari asosida milliy bezaklar (nola, qochirim, xonish, nolish, salmoq, titratma, forshlag) bilan kuylanishi milliy bo‘yoq, milliy kolorit beradi va qo‘shiqchilik an’analariga xos milliylik birinchi navbatda shu mezonga asoslanadi. Milliy an’analar ruhida musiqiy tarbiyalash masalasi ham ushbu manbalar zamiridan kelib chiqadi.

Milliy an’analar ruhida tarbiyalash – har qanday narsani idrok qilish qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda quyidagi to‘rt jihatini o‘zida mujassamlantiradi:

• xalq qo‘shiqchiligiga xos bo‘lgan xususiyatlar haqida tushunchaga va bilimga ega bo‘lish;

• bu xususiyatlarni o‘z hissiyotidan o‘tkazib ko‘rish, ularni o‘z ruhiyatiga singdirib borish;

• bu xususiyatlarni egallab, o‘zlashtirishga harakat qilish, undan hayot amaliyotida foydalanish;

• milliy xususiyatlarni qadrlash, saqlab, avaylash, asrab qolish, uni boyitishga harakat qilish.

Odat va an’analar bir-birisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Ayni paytda ulardan har birining o‘z xususiyati va qonuniyatlari bor.

Musiqa olamida odatlarning turlari ko‘p bo‘lib, ular-oddiy stereotip tarzida qaytariluvchi harakatlarni o‘z ichiga oladi va xatto, avtomat tarzda shakllanib, takrorlanadi. Odatga ko‘ra, qo‘shiq kuylashdan oldin ovoz apparatlarini ishchi holatga keltirish uchun ovoz sozlash mashqlari olib boriladi. Bu mashqlar ko‘p marotaba qaytarilib, kuylovchiga shu darajada yod bo‘lib ketadiki, ular o‘z-o‘zidan o‘ylanmasdan qaytariladi.

Qo‘shiqchilik malakalari ana shunday ko‘plab elementlarni odat tusiga kiritish orqali yuzaga keladi. Shunday xususiyatlardan biri unli tovushlarni shakllantirishdan iboratdir. Xalq qo‘shiqlarini kuylash uslubida unlilar o‘ziga xos bir oz ochiqroq tarzda kuylanadi. Yoshlarni tayyorlashda xalq qo‘shiqlarini pardali qilib, madaniylashtirib kuylashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “a”, “e”, “i”, “o”, “u”, “o‘” harflarining talaffuzi ustida tinmay ish olib borish natijasida ularga unli harflarni to‘g‘ri, madaniyatli qilib kuylash malakalarini singdirish mumkin bo‘ladi.

An’analar, shu jumladan, xalq qo‘shiqchiligiga xos bo‘lgan ayrim urf-odat va an’analariga to‘xtalar ekanmiz, biz ularning kelajak avlod ma’naviyatini shakllanishidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan quyidagi xulosalar qilish imkoniga ega bo‘ldik:

- milliy an’analar ruhi inson kamolotida muhim o‘rin egallaydi va u bolalikdan boshlab singdirilishi muhimdir;
- o‘zbek xalq an’analari va musiqa san’ati, xususan, qo‘shiqchilik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan an’analari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi;
- milliy qo‘shiqchilik an’analari ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbekona yuksak insonparvarlik, do‘stlarga sadoqat, Vatanga muhabbat, mehnatga to‘g‘ri munosabat hamda o‘z oriyati, nomusi va vijdonini pokiza saqlash kabi axloqiy xususiyatlarini shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.

2. Nomoddiy madaniy meros bo‘yicha me’yoriy hujjatlar, – T., 2012-y, 2-modda, 1-banddan.

3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. – T.: 1-tom.1999. 357.

Sherzod SULTONOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Elmurod SOTVOLDIYEV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

KASB-HUNAR KOLLEJLARI FAOLIYATINI MEHNAT BOZORI TALABLARI ASOSIDA MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasb-hunar kollejlari faoliyatini mehnat bozori talablari asosida muvofiqlashtirish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kollej, kasb-hunar, mehmondo‘st, mehnat resurslari, muammo, xalqaro standart, texnikumlar.

Данная статья посвящена согласованию профессиональных колледжей в соответствии с требованиями рынка труда.

Ключевые слова. Колледж, профессия, гостеприимство, человеческие ресурсы, проблема, международный стандарт, техникумы.

This article focuses on the coordination of vocational colleges based on the requirements of the labor market.

Key words. College, profession, hospitality, human resources, problem, international standard, technical schools.

Mamlakatimiz o‘zining mehnatsevar, mirishkor va mehmondo‘st xalqi bilan jahonga mashhurdir. Mustaqil vatanimizning taraqqiyoti ko‘p jihatdan tabiiy boyliklarimiz bilan birga mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasiga ham bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Maktab muammosiga birinchi darajali masala deb qarashimiz lozim. Maktab faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur”, – deb yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatishning dolzarb vazifasi ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Darhaqiqat, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab professional ta’lim tizimida yangi shakldagi muassasalar tarmog‘i yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutilgan. Jumladan, xalqaro standartlarga mos 725 ta professional ta’lim muassasalari kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar o‘z faoliyatini boshladi. Ularda 200 mingdan ortiq

o‘quvchilar bugungi talablarga javob beradigan o‘quv dasturlari asosida ta’lim olishmoqda.

Mamlakatimizda tobora chuqurlashib borayotgan bozor munosabatlari mavjud tabiiy, intelluktual, ishlab chiqarish, inson resurslaridan unumli foydalanish mexanizmini yaratish va tatbiq qilishni dolzarb vazifa sifatida taqozo etmoqda.

Ma’lumki, mehnat bozoriga kelib qo‘shilayotgan qo‘shimcha ishchi kuchini ko‘p qismini kasb-hunar kolleji bitiruvchilari tashkil etadi. Kasb-hunar ta’limida asosiy e’tibor o‘quvchilarning kichik ishlab chiqarish korxonalariga jalb etishga qaratiladi. Mazkur kichik ishlab chiqarish korxonalari o‘quvchilarni biznes olamiga olib kirishi orqali amaliy ko‘nikma va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, tashabbuskorlik va ijodkorlikni rag‘batlantirishni ta’minlaydi, ularda mustaqil o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash imkoniyati mavjudligiga ishonchni qaror toptiradi va kasbga yo‘naltirishga yordam beradi.

Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini to‘liq ish bilan ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar, ish bilan ta’minlash bo‘yicha uch tomonlama tuzilayotgan shartnomalar o‘z samarasini bermoqda. Tadqiqotlarimiz natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, moliya, buxgalteriya, kompyuter texnologiyalari va pedagogika yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim olayotgan aksariyat o‘quvchilar kelgusida o‘z bilimini oshirish maqsadida o‘qishni oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish niyatini bildirishgan.

Tikuvchilik, yengil sanoat kabi hunarmandchilik bilan bog‘liq yo‘nalishda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning ko‘pchiligi esa mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlarini bildirishgan. Lekin, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashda mehnat bozorining talablari inobatga olinmay kelinmoqda. Bu esa kelgusida kollejlar bitiruvchilarini to‘liq ish bilan ta’minlanishiga va ishsizlikni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Kasb tanlashga yo‘naltirish ishlarini tashkil etishda mehnat bozori talablarini hisobga olish va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida faoliyatini mehnat bozori talablari bilan moslashtirish bugungi kunda bitiruvchilarni to‘liq ish bilan ta’minlashga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

Mehnat bozori – moliya, mahsulotlar, qimmatbaho qog‘ozlar bozori singari bozor iqtisodiyotining ajralmasi bir qismi hisoblanadi. Tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan ishlab chiqarish sohasi ishchi kuchi oldiga malaka, kasbiy va umumiy tayyorgarlik, ishga ijodiy yondashish, ish sifati kabi yangi-yangi talablarni qo‘ymoqda. Ishlab chiqarish sohasini o‘ziga kerakli kadrlarni o‘qish jarayonida tanlab olish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini amalga oshirishi kuzatilmoqda.

Mehnat resurslari bilan ko‘p ta’minlangan respublikamiz mehnat bozori rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi – mehnatga layoqatli aholi bandligining kamayishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflyatsiyaning mavjudligi, mulkchilikning turli shakllari sekinlik bilan vujudga kelishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning o‘ta sust amalga oshirilishi, haqiqiy daromadlarning kamayishi kabi ishchi kuchi talabini oshirish va taklifini kamaytirish bo‘yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Respublikamiz hududlarida ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi pasayishiga bevosita ta’sir etuvchi omillarni tadqiq qilish eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga talabning oshishini asoslovchi omillarga quyidagilar kiradi: noqishloq xo‘jaligi tarmoqlarda yangi ish joylarini yaratish, mehnat qo‘llaniladigan amaldagi mintaqalarni texnik qayta jihozlash, modernizatsiyalash, qayta ta’mirlash, xorijiy sarmoyalarni kiritish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmatlar ko‘rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati ko‘lamini kengaytirish, kichik va o‘rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish shular jumlasidandir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mehnat bozorining kelgusi talablarini o‘rganish va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi faoliyatini shu talablar asosida muvofiqlashtirish zarur.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda keyingi yillarga kelib, mehnat bozorida texnika sohasida, kompyuter dasturlariga, turizmga, biotexnikaga, axborot xavfsizligiga oid kasblar, endokrinolog, dietolog, lorgoped, psixolog kasblariga bo‘lgan ehtiyoj ortishi kutilmoqda. Shu bilan birga yuqorida ta’kidlaganimizdek, barcha kasb egalarining bilim, ko‘nikma va malakalariga bo‘lgan talablar ham ortib bormoqda. Bu esa o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida olib borilayotgan kasb tanlashga yo‘llash ishlarini mohiyatini mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Kasb-hunar kollejlarida mavjud mutaxassisliklar tarkibiga mehnat bozori talablari tahlili (prognoz)dan kelib chiqqan holda o‘zgartirishlar kiritish yoki mutaxassisliklarni profilini ko‘paytirish lozim. Bunda albatta iqtisodiy hudud talablarini ham hisobga olish zarur. O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimi o‘quv dasturlarini ham mehnat bozori va iqtisodiy hudud talablari asosida moslashuvchan bo‘lishini ta’minlash darkor.

Ushbu jarayonning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni berishni joiz deb topdik:

1. Kasb-hunar kollejlaridagi ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilar o‘z ustida ishlashiga, mustaqil fikrlashga o‘rgatishi, kundalik vazifalar o‘z vaqtida o‘zlashtirilib, intellektual salohiyatlarini oshirib borishga imkon berish.

2. Kasb-hunar kollejlarini tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda o‘quvchining qobiliyatini oldindan baholash, o‘quvchilarning mehnatini uning kuchiga va imkoniyatiga yarasha taqsimlash, iste’dodni rag‘batlantirish, talabchanlik bilan yondashish.

3. “Ustoz-shogird” an’analari asosida hunar o‘rgatishni tizimli, maqsadga muvofiq tashkil etish.

4. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni mehnat bozori talablari darajasida tayyorlashda oilalardagi milliy hunarmandchilik an’analariga tayanib o‘zaro hamkorlik chora-tadbirlarini amalga oshirishga erishish.

Xulosa qilib aytganda, maqsadimiz har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat ekan, qanday kasbni tanlashdan qat’iy nazar, o‘quvchilarning maktabdagi barcha predmetlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga erishish muhim vazifadir. Chunki hozir har qanday kasb ham o‘quvchidan atroflicha bilimdon bo‘lishi talab qilmoqda. Hatto oddiy ish hisoblangan sog‘uvchilik, sartaroshlik ham shu sohaga oid malakadan tashqari, fizika, xususan, mexanika, elektrotexnika bo‘yicha ham tegishli bilimga ega bo‘lishni taqoza etmoqda. Ammo shaxsni har tomonlama shakllantirish deganda, uni har qanday sohaga, har qanday kasbga yaroqli qilib yetishtirish tushunilmaydi. Garchi inson qobiliyatining doirasi har qancha keng bo‘lsa-da, yuksak samaraga, yetuklikka erishish uchun o‘z faoliyati doirasini ma’lum bir sohaga moslab, chegaralab olmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

2. “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.

Saida RASULOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Musiqiy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI JISMONAN TARBIYALASH – SOG‘LOM AVLODNI TARBIYALASHNING MUHIM YO‘NALISHIDIR

Annotatsiya

Maqolada respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan e’tibor, barkamol avlodni voyaga yetkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni sport bilan shug‘ullantirish, sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish, kichkintoylarning qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, “Ilk qadam”, sog‘lom avlod, jismoniy tayyorgarlik, sport.

Статья посвящена физической культуре и спорту в стране, проводимой работе по воспитанию гармонично развитого поколения и важности дошкольников в спорте, здоровом образе жизни, реализации способностей и талантов детей. освещенный.

Ключевые слова. Физкультура, “Первый шаг”, здоровое поколение, физическая культура, спорт.

The article is devoted to physical culture and sports in the country, the work carried out to educate a harmoniously developed generation and the importance of preschoolers in sports, a healthy lifestyle, the realization of the abilities and talents of children. lit.

Key words. Physical education, “First step”, healthy generation, physical education, sports.

Mamlakatimizda jamiyatimizning barcha sohalarda bo‘lgani kabi jismoniy tarbiya hamda sport yo‘nalishlarida ham qizg‘in islohotlar va yangilanish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Buni ushbu sohada erishilgan sezilarli natijalarda ko‘rish mumkin. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport uchun yaratilgan mustahkam poydevor asosida hozirda yosh avlodni ham ma’nan, ham jismonan barkamol insonlar etib tarbiyalash borasida oqilona say-harakatlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 15-fevraldagi PQ-2779-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil etildi. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi faoliyatining asosiy vazifa va yo‘nalishlari belgilab berildi:

– jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar, keksalar, qishloq aholisi o‘rtasida sport tadbirlari, milliy sport turlari bo‘yicha xalq o‘yinlari va musobaqalarini o‘tkazib borish;

– uch bosqichli “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada musobaqalarining o‘tkazilishini tashkil etish;

– milliy olimpiada qo‘mitasi, sport turlari bo‘yicha federatsiyalar va assotsiatsiyalar bilan birgalikda iste’dodli va istiqbolli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirishning uzluksiz tizimini takomillashtirish;

– mamlakatimizda professional sportni rivojlantirish, bolalar sporti va professional sport yo‘nalishlari bo‘yicha moddiy-texnik bazani rivojlantirish va mustahkamlash;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

– sport sohasida davlatlararo va xalqaro sport aloqalarini kengaytirish hamda mustahkamlash kabi qator vazifalarni misol qilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, qarorda “Maktabgacha ta’lim muassasalarida boshlang‘ich gimnastika va harakatli o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish hamda salomatligini mustahkamlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga qiziqishini orttirishga e’tibor qaratish belgib berilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda “Ilk qadam” o‘quv dasturi amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini saqlash va muhofaza qilish, tarbiyalanuvchilar orasida salomatlik va sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, ularni jismoniy rivojlantirish (yirik va mayda motorika, sensomotorikasi) bo‘yicha yil davomida tarbiyaviy vazifalar va tadbir (mashg‘ulot, sayr, o‘yin)lar amalga oshirish belgilab berilgan. Unga ko‘ra bolalar yoshlar doirasida asosiy harakatlarni: yurish, yugurish, sakrash, irg‘itish-emaklash, to‘siqlardan oshib o‘tish, milliy va harakatli hamda tinch o‘yinlarni nomini bilishi va o‘yin qoidalarini bilishi zarur bo‘ladi. Bu esa bolalarni jismonan barkamol bo‘lib yetishishlarini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim sog‘lom avlodni tarbiyalashning muhim bo‘g‘ini ekan, bolalarga jismoniy bilim berishni, sportga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishni maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab bajarayotgan mashqlar qoidalarini o‘zlashtirib olgan bolada sportga nisbatan qiziqish uyg‘onadi, sportga mehr qo‘yadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari xilma-xil bo‘lib, bular bir haftada ikki marta muntazam o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, har kuni ertalab tashkil etiladigan badan tarbiya, har kuni sayr vaqtida o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar va jismoniy mashqlardir.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilangan – bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

• jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;

• ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

• nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;

• bilish jarayonining rivojlanishi;

• ijodiy rivojlanish;

• Shuningdek, “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” sohasi kompetensiyalarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola;

• o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;

• turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;

• turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;

• o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
• shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi;
• sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
• xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda ularni yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlar mazmuni o‘yin shaklida yoritilib, bolalarni qiziqtiradigan harakat jarayonlaridan tashkil topmog‘i kerak. Ma’lumki, kichik yoshdagi bolalar atrofdagi barcha jarayonlarni kuzatib, taqlid qiladilar. Bunday murakkab bo‘lmagan harakatlarni o‘z xohishlari bilan bajaradilar va tez o‘rganadilar. O‘yin mazmunidagi mashg‘ulotlar orqali bolalarning xotirasi rivojlanib, jamoaga uyushish fazilatlari shakllanib boradi.

Bolalarga jismoniy mashqlarni bajartirish jarayonida xavfsiz harakatlanishi uchun quyidagilarga rioya qilish lozim:

• mashqlarni me’yorda bajartirish;
• charchashning oldini olish;
• mashg‘ulot jarayonida bolaning holatiga e’tibor berish;
• turli jarohatlanishlardan asrash;
• ob-havoning noqulay sharoitidan va baxtsiz hodisalardan muhofaza qilish;
• guruhda, o‘yin maydonchasida va suzish havzalarida bolaning hayoti xavfsizligini ta’minlash.

Katta guruh uchun mashg‘ulot

Mavzu: “Quvnoq xalqalar”

Maqsad: Bolalarni tarqalib yurish va yugurishga, beto‘xtov 1,5 m gacha yugurishga mashq qildirish, qiya qilib qo‘yilgan taxtadan yurishda muvozanat saqlashni o‘rgatishni davom ettirish, g‘o‘lachalardan sakrab o‘tish va to‘rga to‘p tashlashni mashq qildirish.

Kerakli jihozlar: Bolalarning soniga qarab gardish, 6-8 ta, g‘o‘lacha, 2-4 ta taxta, bir nechta katta to‘p (diametri 20-25 sm).

Kutilayotgan natijalar:

• qiya qilib qo‘yilgan taxtadan qo‘llarni yon tomonga uzatib yurish;
• g‘o‘lalardan sakrash;
• to‘pni 2m. masofadan ikki qo‘llab bosh orqasidan to‘rga tashlash;

Kirish qismi:

Bir qator bo‘lib, yurish. Tarbiyachining ishorasiga binoan tarqalib yurish, bir qator bo‘lib saflanish, harakat yo‘nalishini o‘zgartirib mo‘tadil sur’atda 1,5 m gacha yugurish; bir qator bo‘lib yurish. Uch qatorga qayta saflanish.

Asosiy qism gardish bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar.

1. D. h.: asosiy tik turish, gardish pastda (gardishning ikki yonidan ushlash),

1-gardishni oldinga uzatish; 2-gardishni yuqoriga ko‘tarish, 3-gardishni oldinga uzatish, 4-dastlabki holatga qaytish (6 marta).

2. D. h.: asosiy tik turish, gardish pastda. 1-gardishni yuqoriga ko‘tarish,

2-o‘ngga egilib, qo‘llarni to‘g‘ri tutish, 3-gardish yuqorida, 4-dastlabki holatga qaytish. (Shuning o‘zini chapga egilib bajarish (6 marta)

3. D. h.: asosiy tik turish, gardish bukilgan qo‘llarda, ko‘krak oldida

1-2-o‘tirish, gardishni oldinda tutib turish, dastlabki holatga qaytish (6 marta).

4. D. h.: polda o‘tirib, qo‘llarni bukib gardishni ko‘krak oldida tutish. 1-oldinga o‘ng oyoqqa engashish, 2-dastlabki holatga qaytish. Shuning o‘zini chap oyoqqa engashib bajarish (6 marta).

5. D. h.: chalqancha yotib, gardish ushlagan qo‘llarni bosh tomonga uzatish (o‘rtasidan ushlanadi). 1-2-oyoqni tizzadan bukib, gardish chetini tekkizish, 3-4-dastlabki holatga qaytish (5-6 marta).

6. D. h.: gardish ichida turish. Ikki oyoqda gardish ichiga sakrashni va undan sakrab chiqishni tarbiyachining 1-8 sanog‘i ostida bajarish, buni gardish ichida yurish bilan navbatlashtirish (3-4 marta).

7. D. h.: gardishni ikki qo‘lda pastda ushlash (yon tomonlaridan ushlangan). 1-gardishni oldinga uzatib, o‘ng oyoq uchini orqaga qo‘yish, 2-dastlabki holatga qaytish. (Shuning o‘zini chap oyoqda bajarish (6 marta).

Asosiy harakat turlari

1. Qiya qilib qo‘yilgan taxtadan (kengligi 15 sm, balandligi 30 sm) qo‘llarni yon tomonga uzatib yurish (2-3 marta).

2. To‘pni 2 m. masofadan ikki qo‘llab bosh orqasidan to‘rga (gardishga) tashlash (5-6 marta).

“Ovchilar va quyonlar” harakatli o‘yini

Yakuniy qism: Kam harakatli o‘yin va nafas mashqlarini bajarish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim maskanlarida kelajagimizning ertangi kuni egalari tarbiyalanayotgan ekan demak, barcha harakatlar va bor kuchimizni ana shu tizimga qaratish lozimligini, bugungi kunda jahon andozalariga mos maktabgacha tarbiya tizimi va zamonaviy boshqaruvga o‘tishi vaqti kelganligini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Qabul qilinayotgan qaror, farmon va farmoyishlar o‘z samarasini natijalarini erta namoyon etmoqda, birgina qamrovni o‘zigina oshib boryotganligi ham quvonarli holat. Mamlakatimizning chekka qishloqlarida ham zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalarini qurilishi va ko‘plab maktabga boradigan 3-7 yoshdagi bolalalarni o‘z bag‘riga olayotgani ertangi kunning samarasi, kichkintoylarning maktabga sifatli tayyorlanib borishini ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan muassasada tashkil etilgan sharoitlar, kun tartibiga rioya etish va ratsional ovqatlantirishni tashkil etilishi, aqliy, jismoniy va ma’naviy tadbirlarning o‘z vaqtida malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi ham bolalarni maktabga jismonan va aqlan chiniqib borishini ta’minlaydi.

Har bolaga shaxsiy yondashuv, guruhlardagi rivojlantiruvchi muhitning yaratilganligi, bolalar jamoasidagi ijobiy holatlar, muloqotga kirishish va o‘z fikrini mustaqil bayon etish bola shaxsini yuksaltirib, uning ijtimoiy hayotga qadam qo‘yishiga va kelajakda o‘z o‘rnini egallashiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. www.lex.uz

2. Azizova R. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi.// O‘quv-qo‘llanma. – T., 2010. 326-b.

3. “Ilk qadam” dasturi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: Xalq so‘zi, 2017- yil 8-fevral.

Dilfuza MADGAFUROVA,
Dilorom XOSHIMOVA,
Dilshod YO'LDOSHEV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti,
"Fakultetlararo pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchilari

O'QITUVCHINING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRADIGAN ASOSIY MEZONLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada mualliflar o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama yetuk va ma'nan barkamol bo'lib ulg'ayishida o'qituvchining tutgan o'rni haqida o'z mulohazalarini bildirib o'tganlar. Shuningdek, hozirgi zamon pedagogi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligiga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Milliy urf-odatlar, dunyoqarash, tafakkur, jamiyat, ma'naviyat, iste'dod, tarbiya.

В данной статье авторы во всех отношениях обсуждают роль учителя в развитии подрастающего поколения. Здесь также обсуждаются качества, которыми должен обладать современный педагог.

Ключевые слова. Национальные традиции, мировоззрение, мышление, общество, духовность, талант, воспитание.

In this article, the authors discuss in all respects the role of the teacher in the development of the younger generation. It also discusses the qualities that a modern educator should have.

Key words. National traditions, worldview, thinking, society, spirituality, talent, education.

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chorlaydi. Shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.

Ma'naviyatning yana bir muhim jihati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilishida yorqin namoyon bo'ladi. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Vijdoni uyg'oq pedagog yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi.

Bunday ezgu maqsadlarga esa, o'qituvchilarimiz faqat yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqaligina erishish mumkin. Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi,

bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi.

Biz pedagoglarimizning ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Endilikda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa ana shu yuksak tushunchalar bilan birga milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning ma’no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Shu boisdan ham, o‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqlol yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi.

Shuni aytish lozimki, o‘qituvchilarimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday islohotning eng muhim samarasi avvalo xalqning ma’naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz amalga oshirilayotgan islohotlarimizda ana shunday natijalarga erishish uchun barcha o‘zgarish va yangilanishlarning markaziga shaxs va uning manfaatlarini qo‘ydik.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma’noda, globallashuv – bu avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Ta’bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin. Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan

dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini uzoq tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. O‘tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro‘y bergan, biz bevosita o‘z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to‘g‘ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Har qaysi inson va jamiyatning ma’naviy dunyosiga aynan shunday ko‘z bilan qarash, odamni ongli yashashga, yetuklikka chorlaydigan bunday beqiyos qudrat manbaining hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini chuqur va atroflicha tahlil qilish muhim bir haqiqatni, ya’ni yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch ekanini anglatadi va tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san’atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Bu haqida gapirganda, shuni ta’kidlash joizki, ana shu soha vakillari, ya’ni o‘qituvchi va murabbiylar, yozuvchi va jurnalistlar, kino va teatr ahli, musiqachilar va rassomlar, umuman, ziyolilarimiz xalqimiz uchun yangicha voqelik bo‘lmish bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida jamiyat oldidagi ma'naviy burchini chuqur his etgan holda, o‘z iste’dod va mahoratini ayamasdan astoydil mehnat qilmoqda.

Yangi jamiyat bunyodkori bo‘lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma’noda o‘zini o‘zi boshqarish idorasiga aylantirishga katta hissa qo‘shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilarining ijobiy ta’siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko‘ngliga yo‘l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo‘lib, o‘z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to‘g‘ri va o‘rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorimizda tinchlik va osoyishtalik, o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o‘ziga munosib o‘rin topishida bu fidoyi va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o‘ynayotganini hurmat bilan e’tirof etishimiz lozim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televideniye va radiosiz umuman tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o‘zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, xato bo‘lmaydi.

Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o‘z kelajagini o‘ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas.

Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so‘z erkinligi prinsiplarini amalda ta’minlashga erishish, matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri

bo‘lib qolmoqda.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo‘lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televideniye va radio sohasida xizmat qilishga o‘zini bag‘ishlagan, yetuk mutaxassis bo‘lishga ahd qilgan va bu sohada o‘z kelajagini ko‘rmoqchi bo‘lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Jahon tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qalbida, yuragida ana shunday jasorat hissi nihoyatda kuchli bo‘lgan insonlar har qanday murakkab vaziyatda ham adolat va haqiqat yo‘lida o‘zini ayamay, el-yurt uchun, Vatan uchun qanday ibratli ishlarni amalga oshirganini ko‘rish mumkin. Aynan ana shunday odamlarning ma’naviy fazilatlari tufayli ezgu his-tuyg‘ular, muqaddas va ulug‘ tushunchalar dunyoda hanuz barqaror bo‘lib kelmoqda. Bunday benazir zotlarning barcha xalqlar va millatlar orasida ko‘plab topilishi ma’naviy jasorat tuyg‘usi butun bashariyatga xos xususiyat ekanidan dalolat beradi.

Ulkan ma’naviy jasorat sohiblari bo‘lgan bunday alloma zotlar dunyoning qayerida yashamasin, ezgulik va ma’rifat yo‘lida doimo odamlarga ibrat bo‘lib kelgan.

Butun umr oddiy va kamtarona, lekin ezgu g‘oyalar yo‘lida tinimsiz kurashib yashagan bu zotning falsafiy-siyosiy qarashlarida insoniyat uchun ibratli jihatlar ko‘p. Jumladan, uning turli muammo va ziddiyatlarni kuch ishlatmasdan, tinch yo‘l bilan hal qilishga oid fikrlari dunyo davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda, ijtimoiy hamkorlik masalasida bugun ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmasdan kelmoqda.

Ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi.

Bugungi kunda ma’naviyat dunyosiga nisbatan mavjud bo‘lgan xavf-xatarlardan albatta ko‘z yumib bo‘lmaydi, lekin bizning ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan ma’naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko‘rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Chunki xalq bamisoli ulug‘ va sharafli yo‘ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo‘ldan chalg‘itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘lishi mumkin. Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne ajdodlardan meros yengilmas kuch – ma’naviyat bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ –T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 592-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: Adolat, 2017. 112-b.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2000. 80-b.

Nasimjon MADAMINOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Musiqa ta’limi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

YOSH AVLODNING BARKAMOL VOYAGA YETISHISHIDA MUSIQA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif yosh avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishishlarida musiqaning ahamiyati haqida o‘z fikr va qarashlarini bayon qilgan. Shuningdek, muallif musiqa darslarining sifatli bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor qaratilishi lozim ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, ijodiy faoliyat, ijro, insonparvarlik, musiqa xarakteri, ohang.

В этой статье автор делится своими мыслями и взглядами на важность музыки в гармоничном развитии подрастающего поколения. Автор также подчеркивает, что следует учитывать при качественных уроках музыки.

Ключевые слова. Музыка, творческая деятельность, перформанс, человечность, музыкальный персонаж, мелодия.

In this article, the author shares his thoughts and views on the importance of music in the harmonious development of the younger generation. The author also emphasizes what to consider when quality music lessons.

Key words. Music, creativity, performance, humanity, musical character, melody.

Jahonda art-terapiya, musiqiy info-kognitiv texnologiyalar, instrumental madaniyatning jamoaviy va individual musiqiy ijodkorlikni shakllantirishga ta’siri, bolalar ijodkorligining reproduktiv va produktiv darajalarini modellashtirish, xalq cholg‘u asboblari vositasida yosh-avlodni metroritmik ko‘nikmalari, kognitiv, intellektual va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida shakllanayotgan zamonaviy ta’lim tendensiyalari xalq cholg‘u asboblari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim mazmuni va metodik ta’minotini modernizatsiyalash, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish hamda musiqa rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Ijod – insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni musiqa olamiga yetaklar ekan, ularga ana shu musiqa hayotimizning ajralmas bir bo‘lagi ekanligini, shuning uchun u doimo bizga hamroh,

dilimiz va qalbimizdan o‘rin olgan, musiqa bilan do‘stlashish, uni chuqur tushunish va undan maroq olish inson uchun katta baxt ekanligini uqtiradi. O‘quvchilar birinchi darslardanoq musiqani tushunish uchun uni diqqat bilan tinglashi, musiqaning xarakteri, janri, undagi ifodaviy vositalarni farqlay olish uchun esa tinmay mehnat qilish kerakligini tushunib oladilar. O‘qituvchi esa o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma hamda zaruriy malakalarni bevosita musiqiy misollarda, jonli ijro asosida va ayni bir paytda bolalarning idrok etish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirib boradi.

Musiqa darsining o‘zga darslardan farqi yana shundaki, bu dars ijod darsi bo‘lganligi uchun erkin, sinfda yaxshi kayfiyat va ko‘tarinki ruh hosil qilish orqali olib boriladi. O‘quvchilarning dars davomida faolligi, o‘qituvchi bilan erkin muloqoti, musiqa natijasida hosil bo‘lgan fikr va mulohazalarini doimo ifoda etib bora olishlari, ijodiy tortishuv va bahslashuvlar darsni yanada jonli va ta’sirchan qiladi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

Darsda o‘qituvchi tomonidan ijro etiladigan har bir musiqa yoki qo‘shiq doimo xush soz va xushohang bo‘lishi, mahorat bilan ijro etilishi lozim, aksincha ohangini buzib, e’tiborsiz ijro etilgan musiqa asari yosh tinglovchilarda hech qanday taassurot qoldirmaydi, ayni paytda ularning badiiy va estetik didlarini tarbiyalab borishda ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ham o‘qituvchi doimo ijodiy izlanishda bo‘lishi, soz va qo‘shiqdan uzoqlashmasligi, uzluksiz o‘zining ijro mahorati ustida mehnat qilishi lozim.

O‘zi qiziqmagan narsaga o‘zgani qiziqtirishga urinish – bu har doim zoya ketadigan natijasiz mehnatdir. Bu musiqa o‘qituvchisi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabda o‘qituvchi faoliyatining (xususan musiqa fani o‘qituvchisini) yuksakligi va unumdorligi, uning yuksak estetik madaniyatliligiga bog‘lik. O‘qituvchining estetik madaniyati birinchi navbatda uning ma’naviy dunyosi, bilim va qiziqish ko‘lamining kengligi, didning yuksakligi, estetik ehtiyoj darajasi, go‘zal xulqi, shirin muomalasi kabi qator sifatlarda namoyon bo‘ladi. Bunday o‘qituvchi o‘z sinfida o‘quvchilar bilan tez til topisha oladi, o‘quvchilarga katta hurmat ko‘zi bilan qarash, keng fikr yuritish, chuqur mushohada qilish, voqea va hodisalarga go‘zallik nuqtayi nazaridan yondashish, dars materiallarini mantiqli, ixcham va lo‘nda bayon eta olishi kabi qator fazilatlari orqali tez orada o‘quvchilarni hurmat va ishonchini qozonadi.

O‘quvchilar odatda yaxshi va bilimli o‘qituvchiga ergashadilar, unga taqlid qiladilar, o‘xshashlikka intiladilar. Bunday holat ayniqsa kichik yoshdagi o‘quvchilarda alohida yorqin ko‘zga tashlanadi. Shuni hisobga olgan holda o‘qituvchi eng avvalo, o‘zining tashqi ko‘rinishiga, xatti-harakatiga, turish-o‘tirish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish va ayniqsa, o‘z darsiga bo‘lgan munosabati bilan sinfga namuna bo‘lishlik uchun harakat qiladi. “Aqlli, fikran boy, bag‘rikeng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqtirmaydi, o‘zini ortidan ergashtira olmaydi ham... aql bilan tarbiyalanadi, vijdon-vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan ...”, – deb ta’kidlagan edi atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy. Maktab sharoitida ana shunday inson – bu o‘qituvchi. U o‘zining butun borlig‘i, kundalik hayoti, ma’naviy madaniyati bilan o‘quvchiga o‘rnak bo‘ladi va o‘z ortidan ergashtiradi.

Ta’lim va tarbiya jarayoni har bir o‘qituvchidan katta aql-zakovat, sabr-matonat, o‘quvchilarga va o‘z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo‘lishlarini talab etadi. O‘qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo‘lishi, o‘quvchilarni chuqur tushunishi, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o‘sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda so‘z, ish yoxud amaliy

harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta’lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillardir.

Tajribali o‘qituvchilar o‘quvchilarni darsga qiziqtirishga katta e’tibor beradilar. O‘qituvchi o‘z faoliyatida o‘rganilayotgan har bir qo‘shiq va musiqa asariga katta e’tibor berishi kerak. Masalan, o‘quvchilar tomonidan ijro etish, chuqur tahlil qilish hamda estetik nuqtayi nazaridan baholab borish kabi muhim omillardan keng foydalanib boradi, bu o‘quvchilarda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirib borishida yordam beradi.

Masalan: Sen qaysi qo‘shiqni, nima uchun yoqtirasan? - savoliga o‘quvchilar shunday javob beradilar:

– Men “O‘zbekiston” qo‘shig‘ini ijro etganimda poyonsiz adirlar, go‘zal bog‘lar, dalalarda momiqdek ochilib, husn taratib yotgan oppoq paxtalar ko‘z oldimga keladi. Bu qo‘shiqni shuning uchun yoqtiraman. O‘zbekistonimiz chindan ham go‘zal diyor, – deb ijro etgan qo‘shiqqa o‘z fikrini bildirdi o‘quvchi Saodat (4-sinf).

– Menga “Kimning xati chiroyli?” qo‘shig‘i yoqadi. Chunki bu qo‘shiqda o‘quvchilarning chiroyli xati haqida, kuylanadi, qo‘shiq ohangi ham juda yoqimli. Men ham chiroyli yozishga o‘rganganman. – deydi o‘quvchi Gulbahor (3-sinf).

– Menga esa “Do‘stlik” qo‘shig‘i yoqadi – deydi o‘quvchi Sobirjon. Chunki do‘stlik – bu yaxshi narsa. Biz hammamiz do‘st bo‘lib yashashimiz kerak (3-sinf).

– Men “Dutor bayoti” kuyini yoqtiraman, chunki u dutorda chalinadi, dutorning tovushi chiroyli. Meni opam ham dutor chalishni biladilar, – deb tinglangan kuyga o‘z munosabatini bildiradi o‘quvchi Ulug‘bek (2-sinf) va h.k.

Sinfdagi shunga o‘xshash ijodiy holatlar o‘qituvchi tomonidan darsni qiziqarli tashkil etilganligi, darsda o‘quvchilar musiqani tahlil etishda faol ishtirok etishlari, ko‘plab ifoda etilgan fikr va mulohaza ayni bir paytda o‘quvchilarni darsdan darsga estetik jihatdan ham shakllanib borayotganliklariga asos bo‘la oladi.

Musiqa darslari quyidagi talablar asosida amalga oshirilishi lozim.

Birinchidan, o‘quvchilarga beriladigan bilim aniq, tushunarli va ilmiy asoslangan bo‘lishi, pedagogika, psixologiya va musiqashunoslik fanlarining qonun va talablariga mos bo‘lishligidir.

Ikkinchidan, darsda foydalanadigan musiqiy materiallar g‘oyaviy va pedagogik yo‘nalishga ega bo‘lishi, asarlardagi badiiy obrazlarni o‘quvchilar uchun yorqin va tushunarli bo‘lishi. Mazmunan sayoz, g‘oyasiz, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lmagan ayrim asarlar dasturga kirib qolmasligi lozim.

Uchinchidan, o‘quvchilarga beriladigan musiqiy bilimlar tizimli, uzluksiz davom etadigan, pishiq-puxta hamda muayyan sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlariga mos kelishi lozim.

To‘rtinchidan, har bir musiqa darsi o‘quvchilarda idrokning emotsional ongli va faol bo‘lishligini ta’minlashi lozim. Musiqani diqqat va e’tibor bilan tinglash darkor, chunki “quloq ilib olmagan” narsani qaytarish imkoniyati chegaralangan, shu sababli ongli va faol idrok katta ahamiyatga molik.

Beshinchidan, o‘quvchilar dars jarayonida olgan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarini bevosita amalda qo‘llay olishlari: dars mazmuniga kirgan qo‘shiqlarni aniq, xush soz va xushohang qilib badiiy darajada ijro etish, tinglagan musiqa asarlarini esa estetik elementlariga mos tarzda tahlil etish va uni baholash qobiliyati tarkib toptirilishi lozim.

Oltinchidan, o‘qituvchi musiqa darsini olib borar ekan, o‘z darsi xususiyatlaridan

kelib chiqqan holda jamoa tarzida ishlashni yakka tartibda ishlash bilan mutanosib amalga oshirib borishi maqsadga muvofiq.

Maktabda musiqa darslari orqali o‘quvchi yoshlarda estetik madaniyat shakllantirilib borilar ekan, bu o‘rinda erishilishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

– dars va bevosita musiqaga bo‘lgan qiziqishi havas va muhabbat;

– sinf xorining va har qaysi o‘quvchining alohida xushohang qo‘shiq aytish malakasi;

– musiqani diqqat bilan tinglash, undagi go‘zallikni his etish, chuqur tahlil etish orqali asarni baholash qobiliyati;

– musiqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning kengayib borishi, o‘quvchilarda sevimli asarlar, sevimli kompozitor va bastakor, xonanda va sozandalarning paydo bo‘lishi;

– o‘quvchilarning musiqiy rivojlanib borishi: chalish va tinglash, aytish malakasi, musiqiy o‘quv, musiqiy xotira, musiqiy diqqat, musiqiy idrok kabi zaruriy malakalarni tarkib topishi;

– musiqa darslarida shakllangan estetik did va estetik madaniyatning kundalik hayotda, amaliyotda foydalanish malakasi;

– o‘quvchilarda san’atga, musiqaga va umuman go‘zallikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojni tarkib topaborishi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlarga erishish borasida mehnat qilar ekan, darsda o‘rganilayotgan har bir kuy, har bir qo‘shiq o‘quvchilar ruhiyatini ko‘tarishga, ularda ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otishga, estetik bilim, tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirib borishga, go‘zallik va san’atga nisbatan ehtiyoj uyg‘otib borishga, yosh qalblarda odamiylik, mehribonlik, ochiqko‘ngillik, poklik, halollik, vatanga sodiqlik kabi hislarni tarbiyalab borishga xizmat qilish kerakligini doimo yodda tutmoq lozim. Ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshirib borishda o‘qituvchining yuksak estetik madaniyati musiqa san’ati orqali o‘quvchilarda ham yuksak estetik madaniyat shakllanib borishida asosiy ta’sirchan omil bo‘lib xizmat qiladi. Hech shubhalanmasdan aytish mumkinki, musiqa darslari o‘zining betakror xususiyatlari bilan maktabning ta’lim-tarbiya tizimida salmoqli o‘rin tutadi va o‘quvchi yoshlarni har tomonlama kamol topib borishlarida o‘zining sezilarli hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. // Yangi fikrlash va ishlash – davr talabi.– T., 1997.

2. Xalilov F.N. // Cholg‘u mahoratini oshirishning didaktik asoslari (O‘quv-qo‘llanma) – T., 2002/

3. Raximov Sh.I., Nurmatov X.N. // Cholg‘u tarixi (O‘quv-qo‘llanma)–T., 2009.

4. Sharipova G.J. // Musiqa o‘qitish metodikasi (O‘quv-qo‘llanma) – T., 2008.

Oygul SOBIROVA,
Qo‘qon davlat dedagogika instituti,
‘‘Musiqa ta’limi’’ kafedrasi din fani o‘qituvchisi

INSON RUHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada milliy musiqa ohanglarining inson ruhiyatiga ta’siri tadqiq etilgan bo‘lib, musiqa vositasida davolash, Sharq va G‘arb olimlarining shu sohaga oid falsafiy qarashlari, yevropa musiqa cholg‘ularining inson organizimiga ta’siri, insonlarni ruhiy tetiklashtirishda musiqadan foydalanish amaliyoti, Sharq tabobatida musiqadan foydalanish hamda musiqa vositasida davolashga ixtisoslashgan zamonaviy klinikalar kabi masalalar atroflicha ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, mumtoz, shifo, ushshoq, sezgi, ritm, musiqali ritsept, stress, sdepressiya, afsun.

Эта статья посвящена влиянию национальних мелодий на психологию человека, музыкальную терапию, философские взгляды восточных и западных ученых, влиянию европейских музыкальных инструментов на организм человека, использованию музыки психологических спусках, использовании музыки в восточной медицине и музыке. Специализированные клиники, специализированные клиники и специализированные клиники широко освещались теоретически.

Ключевые слова. Музыка, классика, исцеление, соблазнение, хитрость, ритм, музыкальный ритуал, стресс, депрессия, заклинание.

This article is devoted to the influence of national melodies on human psychology, music therapy, philosophical views of Eastern and Western scientists, the influence of European musical instruments on the human body, the use of music in psychological descent, the use of music in Eastern medicine and music. Specialized clinics, specialized clinics and specialized clinics were widely reported theoretically.

Key words. Music, classics, healing, seduction, cunning, rhythm, musical depression, spell, ritual, stress.

Musiqaning inson organizmiga ta’siri ko‘pgina manbalarda yozib qoldirilgan. Ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sinoning “Ash-shifo”, “Tib qonunlari” kitobilarining bir necha qismlarida musiqa xatto ruhiy bemorlarga “shifo dasturi” sifatida tavsiya etiladi. Xususan, olim: “Sezgi a’zolariga ta’sir qiladigan narsalardan biri tovush bo‘lib, u o‘ziga xos yoqimliligi bilan ajralib turadi. Inson qalbi har bir yoqimli nag‘madan orom oladi” deya ta’kidlaydi o‘z asarida.

Ibn Sino bemorlarning tomir urishiga mos musiqalarni tanlab bergani haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, Abu Nasr Farobiyning “Musiqa haqida katta kitob” (“Kitabul musiqa al-Kabir”), Abu Ali ibn Sinoning “Shifo kitobi” (“Kitob ash-shifo” ushbu kitobda musiqaga oid maxsus bo‘lim bor), “Najot kitobi” (“Kitabul najat”), “Donishnoma”, Al-Xorazmiyning “Bilimlar kaliti” (“Mafatixul ulum”), Sayfuddin Urmaviyning “Oliyjanoblik haqida kitob”, “Sharafiya kitobi”, Abdurahmon Jomiyning “Musiqa haqida risola”, Najmiddin Kavkabiy Buxoriyning “Risolai musiqiy”, Darveshali Changiyning ”Tuxfat

us-surur", "Risolai musiqiy" kabi asarlarida musiqa va uning insonga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirishgan. Qadimiy "Shashmaqom" kuylari, shuningdek, "Ushshoq" lar yangraganida inson g'am tashvishlarini unutib, ruhi ko'tarilib, qalbi shodlikka to'la boshlaydi. Go'yo lazzatli "darmondori" iste'mol qilayotgandek tuyuladi. Aslida musiqiy tabobat X-XI asrda Movarounnahrda rivojlangani tarixiy manbalardan ma'lum. Buxorolik mashhur muhaddis Kalobodiy o'z davrida musiqaning ruhga ta'sirini shunday ifodalaydi:

"Ot-ulovlarga qaraginki, to'xtab qolgan chog'da kishi unga qo'shiq aytsa, samo' quvvatidan ("samo'" – eshitish orqali qabul etiluvchi ilohiy xitob) kuchayib, yukni yana ancha joyga eltadi. Bolaga qaraginki, belanchakda yig'lab turgan holda onasi unga alla aytsa, samo' quvvatidan u orom olib, uxlab qoladi. Ko'pgina devonalarni samo' bilan davolashadiki, to ular shifo topib hushlariga qaytadilar..."

Maqomlarning kishi ruhiyatiga ta'sir etish xususiyatlarini ko'plab olimlarimiz o'z asarlarida qayta-qayta uqtirib o'tganlar. Masalan, "Ushshoq, Navo maqomlari kishini shijoatlik va jasoratga undaydi. Iroq, Isfahon huzur, xush kayfiyat bag'ishlaydi. Buzruk, Zirafkand, Raxoviy, Zangula maqomlari esa g'amginlik, ruhiy xorg'inlik, alamni ifodalaydi. Hijoziy, Husayniy maqomlari eshituvchida ham quvonch, ham qayg'u kayfiyatini uyg'otishga qodir."

Musiqa insonni xotirjam qilishi, ovutishi yoki aksincha bezovta qilishi, asabiylashtirishi mumkin. Xursand bo'lishga yoki yig'lashga ham majbur qila oladi. Musiqaning ushbu imkoniyatlaridan kimdir ko'proq kimlardir kamroq foydalanadilar. Dunyo olimlarining izlanishlari natijasida musiqaning nafaqat kayfiyat ko'taruvchi, tetiklashtiruvchi ekanligi, balki, uning jiddiy kasalliklarga davo ekanligi isbotlandi.

Qadimgi Misr va Yunonistonda tabiblar bemorlarni turli tovushlar bilan davolashgan hamda uning ta'siri haqida keng ko'lamli bilimga ega bo'lishgan. Qadimgi Xitoy tabiblari musiqa orqali istalgan kasallikni davolash mumkin deb hisoblashgan va xatto u yoki bu organga ta'sir etuvchi "Musiqali ritsept" yaratishgan. Rossiyaning shimoliy hududlarida, masalan: Evenkiya, Yakutiya, qolaversa, Laplandiya va Alyaskada tabiblar dori-darmonning ta'sirini kuchaytirish maqsadida o'zlarining kasallikni daf etuvchi afsun va duolarini past ovozda kuylashgan, shamanlar esa baraban hamda childirma tovushlari bilan ularga jo'r bo'lishgan.

XIX asr oxirlarida shifokor-nevropatolog Jeyms Korning ilk bora jiddiy tarzda musiqaning inson organizmiga sog'lomlashtiruvchi ta'sirini o'rgandi. U inson ruhiy holatining buzilishini davolashda Vagner musiqasidan foydalandi. Shifoxonada kompozitorning musiqiy asarlari bemorlarga eshittirilganda a'lo darajadagi natijani bergan. Shundan so'ng bu yerda maxsus davolovchi konsertlar o'tkazishni boshlashgan. Yuz yil o'tgandan keyin bu usul ya'ni musiqa terapiya dunyoning ko'plab qismlarida, xususan, Amerika va yevropada keng qo'llanila boshlandi.

Mutaxassislarning fikricha, kompozitorlardan Borodina, Shopen, Betxoven musiqalari insonning o'zini anglashiga, o'z tuyg'ularini fahmlashiga yordam beradi. Chaykovskiyning simfoniyasi ko'ngilni darddan va yoqimsiz xotiradan "tozalaydi". Brams, Bax hamda Listning mayin kuylari uyalchanglik, tortinchoqlikni yengishga, dilidagini ochiq ifoda etishiga ko'maklashadi. Shostakovichning musiqasi salbiy hissiyotlar(kek, adovat, xusumat, gina, g'azab, qahr, jizzakilik)ni nazorat qilish uchun qulay. Motsart va Bizening asarlari, Shtraus, Kalma hamda Legarning raqs musiqasi insonda hayotga umid bilan qarashni shakllantiradi, Shopen va uning fortepiano uchun konsertini tinglash esa insonni o'rab turgan olamga nisbatan mehri-muhabbatini oshiradi. Musiqaning

davolovchi ekanligiga yana bir asosiy sabab uning ritmidir, deb ta’kidlashadi ayrim mutaxassislar. Chunki, ritm “musiqaning yuragi”, demak, uning asosiy davolovchi kuchi ham ritmlaridadir. Tabiatdagi barcha narsalar aniq bir ritmga bo‘ysunadi. Inson organizmi ham bundan mustasno emas. Vujuddagi har bir a’zo o‘z tebranishiga mos keladigan ma’lum tovushlar va cholg‘u asboblarining ritmi hamda quvvatini tanlaydi. A’zo faoliyati buzilsa, u boshqa bir ritmda ishlashni boshlaydi, uning tebranish kuchi va chastotasi o‘zgaradi. Agar inson og‘riyotgan a’zo ritmi qaysi cholg‘u asbobidan yangrayotgan ritm bilan o‘zaro mosligini bilsa va doimiy tarzda “shifo” ritmlarni eshitsa, a’zo yana oldingi holatidagi faoliyatiga qaytadi.

Inson yuragining tebranish chastotasiga yaqin cholg‘u asbobi yevropada gitara hisoblansa, bizda esa tanbur. Bejiz “Tanbur” xalqimiz orasida “yurak tirnovchi” musiqa asbobi deya e’tirof etilmasa kerakda.

Amerikaning Illinoys shtatidan neyrobiolog Djon Xyudjes o‘g‘ir shakldagi tutqanoq kasalligiga uchragan 36 nafar mijoziga Motsart asarlarining ta’sirini tekshirib ko‘rdi. Olim kuzatuv jarayonida Motsart musiqasining ta’sirini, uni eshitish va ungacha bo‘lgan davrda mijozlarining bosh miya biotoklarini yozib oldi. Ushbu guruhdagi 29 nafar bemorda tutqanoq tutgan paytda, Motsart musiqasi eshittirilganda, ko‘p o‘tmay xuruj pasayib, kechish vaqti ham kamaygani kuzatilgan. Kompozitorning asari eshittirilmaganda esa bemorlarda hech qanday o‘zgarish sezilmagan. Bundan ko‘rinadiki, mumtoz asarlar haqiqatdan ham bosh miyadagi nosozliklarni bartaraf etadi.

2009-yili Motsart musiqasi vaqtidan oldin (chala) tug‘ilgan bolalar organizmida moddalar almashinuvi jarayonini tezlashtirishi haqida ma’lumot olindi. Buni Isroil olimlari Tel-Aviv tibbiy markazida ochiq holatda bajarishdi. Chala tug‘ilgan chaqaloqlarga Motsart musiqasini ketma-ket ikki kun 30 minutdan eshittirishgan va ularning modda almashinuvini o‘lchashgan. Mutaxassislar shuni aniqlashdiki, Motsart musiqasini eshitayotgan paytda o‘rtacha 10-30 minut davomida chaqaloqlarda modda almashunivi jarayoni tezlashgan.

Sharq allomalari tomonidan yozib qoldirilgan musiqa bilan davolashga oid manbalar yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan bu merosni yanada chuqqurroq o‘rganish va bu ishga yoshlarimizni ham jalb etish, musiqaning davolovchi xususiyatini kengroq bilish maqsadida G‘arb olimlarining bu boradagi izlanishlarini ham o‘rganish zarur. Osiyo va yevropa musiqa cholg‘ularining inson ruhiyati va salomatligiga ta’sirini aniqlash hamda ularning o‘zaro farqli jihatlarini o‘rganish, musiqashunos, ruhshunos hamda nevrologlar o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy tibbiyot bilan hamkorlikda musiqaning inson ruhiyatiga ta’sirini aniqlovchi bir qator tajribalar o‘tkazish, yurtimizda musiqali terapiya klinikalari faoliyatini yo‘lga qo‘yishni targ‘ib qilish. Shuningdek, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanadigan bir qator uyushmalar, birlashmalar hamda markazlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017-y.

2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. (Tuzuvchilar: U. Karimov, X. Xikmatullayev). J. 1, – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1993.

3. Abu Bakr al-Kalobodiy. “At-taoarruf” kitobi.

4. Rajabov I. Maqomlar. – T.: San’at nashiryoti. 2006.

Qahramon FOZILOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Musiqa ta’limi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHI-YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY MUSIQA SAN’ATINING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy musiqa san’atining o‘rni yoritilgan. Xususan, musiqaning xalq ta’limidagi o‘rni, o‘quvchi yoshlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini o‘stiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar. Musiqa ilmi, talaba, “Munojot”, kuy, ma’naviy-ma’rifiy, mutafakkir.

В статье рассматривается роль национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся. В частности, роль музыки в государственном образовании рассматривается как средство повышения уверенности учащихся в будущем.

Ключевые слова. Музыковедение, студент, “Муножот”, мелодия, духовно-просветительский, мыслитель.

This article discusses the role of national music in shaping the spiritual and moral qualities of students. In particular, the role of music in public education is seen as a means of boosting students' confidence in the future.

Key words. Musicology, student, “Munojot”, melody, spiritual-enlightenment, thinker.

Musiqa san’ati o‘z tabiatiga ko‘ra inson hayoti, uning voqelikka bo‘lgan munosabatini ohanglar, tovushlar vositasida ifoda etadi. Dilrabo kuy, jozibali ohanglarning inson ma’naviyatiga, his-tuyg‘ulariga ta’siri beqiyosdir. Zero, musiqa eng qadimiy, ayni chog‘da zamonaviy, xalq ruhiga yaqin san’at turlaridan hisoblanadi.

Buyuk alloma bobomiz Abu Nasr Farobiyning “Sadoqatli do‘stlar maktubi” nomli asarida musiqa naqadar ta’sirchanligi, cholg‘uchining yuksak mahorati haqida hikoya qiluvchi shunday rivoyat keltiriladi: kunlardan bir kuni podshoh musiqa ilmining bilimdonlarini, mohir sozandalarni o‘z huzuriga chorlaydi. Shu payt saroyga juldur kiyingan, darveshsuvrat bir kishi kirib keladi. Yig‘ilganlarni hayratga solib, podshoh uni eng to‘rga taklif etadi va bu iltifot sababini davra ahliga ma’lum qiladi:

– Bu kishining sozandalik mahorati beqiyosdir. Hozir o‘zingiz buning guvohi bo‘lasiz... Podshoh shunday deb, mashshoqdan bir kuy ijro etishini so‘raydi. U qo‘ynidan sozini olib shunday bir kuy chaladiki, uning sehridan majlis ahli tamomsel bo‘ladi. Mehmon kutilmaganda boshqa bir kuyni chala boshlaydi. Kuy shunchalik mungli va hazin

ediki, barcha behad chuqur qayg‘uga botadi. Nihoyat, u uchinchi kuyni ijro etar ekan, yig‘ilgan sozandalarning barchasi uxlab qoladi. Shundan so‘ng notanish mashshoq jimgina saroydan chiqib ketadi.

Bu rivoyatda mubolag‘a ustunligi ko‘rinib turibdi, ammo shunisi aniqki, chinakam musiqa tinglovchining eng nozik qalb torlarini chertib yuboradi. Uning tafakkuri va ichki olamini to‘lqinlantiradi, o‘ylashga, fikr qilishga, xulosa chiqarishga undaydi. Zotan san’atning bunyodkorlik qudrati ham ana shundadir.

Tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sinoning hayot yo‘liga nazar solsak, u keng xalq orasida faqat mohir tabib emas, balki adabiyot va san’at fidoyisi bo‘lgani, katta obro‘ qozonganini ko‘ramiz. U donishmand faylasuf, mutafakkir shoir sifatida, san’at, xususan, musiqa jozibasiga juda yuksak baho bergan. Chunonchi, “Ash-shifo” asarida Abu Ali ibn Sino musiqa san’ati tarixi, kuy va ohanglarning bola qalbiga ta’siri to‘g‘risida qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Olimning ta’kidlashicha, inson o‘z tabiatiga ko‘ra musiqaga moyil. Musiqani tinglashga ishtiyoq, sozandalikka mehr yurakda qancha erta uyg‘otilsa, bu go‘zal san’at olamiga u shunchalik tez ko‘nikadi, uning qobiliyati barvaqt namoyon bo‘ladi. Mutafakkir bobomiz musiqa mashg‘ulotlarini jismoniy tarbiya bilan bog‘lab o‘tkazishning ahamiyatini aholiga ta’kidlaydi.

Musiqa kishilarning his-tuyg‘ularigagina emas, balki, nafas olish, qon aylanish tizimlari, yurak urishi, mushaklar harakati va bosh miya faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda isbotlangan. Mohir sozanda, respublikada xizmat ko‘rsatgan artist Turg‘un Alimatovning tanbur va satoda ijro etgan “Cho‘li Iroq”, “Munojot”,“Tanovor” kabi kuylari kishini chuqur o‘yga toldiradi, uzoq o‘tmishni, hayot kechinmalarini eslashga undaydi. Sozanda Tohir Rajabovning qashqar rubobida ijro etgan sho‘x va dilrabo kuylari esa tinglovchiga zavq - tariximizga bir nazar, uning chehrasini ochadi, kayfini ko‘taradi. Agar o‘z tariximizga bir nazar tashlasak, musiqashunos olimlarimizning ta’kidlashicha, bizning eng qadimgi cholg‘u asboblardan birlari karnay va surnay ham xalqimiz o‘rtasida keng qo‘llanib kelgan. Masalan, A.F. Eyxgorning: “Turkistonliklarning puflab chaladigan asboblari Nodirshoh, Dariya, Chingizxon, bobokalonimiz Amir Temur ham askarlari tomonidan jang maydonlarida, dushmanga hujum va qo‘rqitish maqsadida keng foydalanganlar va bu uslub yaxshi natija bergan. 1865-yilgi general Chernyayev tomonidan kibizga olingan Toshkent shahrida, Qo‘qon shohining askarlari ham shu uslubdan keng foydalanganlar”, – fikrlari ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda ushbu asboblar “Navro‘z” bayramlarida, “Mustaqillik kunlarida”, “Hosil bayramlarida”, “To‘ylarida” va har xil anjumanlarda keng qo‘llanib kelinmoqda.

Jumhuriyatimiz mustaqillikka erishishi munosabati bilan milliy qadriyatlarimizni tiklash, uning sobiq Ittifoq davrida vayron bo‘lgan imoratini qayta ta’mirlash ishiga bo‘lgan harakat keng avj olib ketdi.

O‘zbek tiliga davlat maqomining berilishi, xalqning diniy e’tiqodiga erkinlik kiritishi, qadimiy urf-odatlarning tiklanishi yanada rivoj topa boshladi.

O‘zbek xalqi nafaqat boy yer osti zaxiralariga, balki u juda katta tarixga ega bo‘lgan xalqdir. O‘zbek xalqi aql-zakovatga ega bo‘lgan, dunyoni boshqarish qudratiga ega bo‘lgan Amir Temur kabi buyuk sarkardalarni, at-Termiziy, al-Buxoriy, Hazrat Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi din ulamolari va targ‘ibotchilarini, al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi ensiklopedik olimlarni, al-Xorazmiy, Sayfiddin Urmoviy, Hofiz Sheroziy kabi buyuk musiqashunos olimlarni ham yaratgan xalqdir.

Shunday buyuk xalq sobiq Ittifoq davrida, totalitar tuzumining siquvi ostida o‘z tarixi va madaniy merosini o‘rganishdan mahrum bo‘lgan edi. Xususan, xalqimizning boy musiqiy merosi bo‘lgan maqomlarni o‘rganish taqiqlangan, hatto, tanbur, qonun kabi musiqa asbobini chalish qat’iy qoralangan edi. Xalqimiz mustaqillika erishgan hozirgi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodlarning musiqiy tarbiyasi davrimizning tabiiy, muhim talablaridan biridir. Har bir avlod bu masalani o‘z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy shart-sharoiti bilan bog‘liq holda hal etadi.

O‘quvchi-yoshlarni musiqa yordamida tarbiyalashdagi asosiy vazifa, ularga o‘zbek musiqasining bugun rivojlanib tarixi davomida to‘plangan barcha musiqiy madaniyati boyliklarni yetkazish va ularning ongiga singdirish lozim. Zotan, shu jarayonida milliy asoslar o‘quvchi yoshlarning musiqiy qobiliyatlarini o‘stirishda tabiiy va qulay zamin yaratadi. Bu o‘zbek musiqasi mazmunining shakl janrdagi emas, balki ta’lim (o‘qitish) uslubida ham namoyon bo‘ladi.

Musiqa o‘z-o‘zini tarbiyalashning qudratli vositasidir. Xalqimiz milliy mustaqillikka erishgan hozirgi kunda el-yurtning haqiqiy ovozi: navro‘zlarda, Mustaqillik bayramlarida, hosil to‘ylarida, shirinjon bayramlarida va turli bellashuvlarda rivojlantirib borilmoqda. Musiqiy madaniyatimiz har tomonlama rivojlanib va shakllanib bormoqda. Buning uchun birinchi o‘rinda, albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy tarbiyalash jarayonida dastlab milliy qadriyatlarning qaysi qismida foydalanishni aniqlab olish muhimdir, maktab yoshidagi o‘quvchilarni musiqiy tarbiyalashning tizimi mazmunini, shaklini va uslubini yaxshi o‘rganish kerak. Bu, albatta, juda ham kamlik qiladi va oldimizga qo‘yilgan vazifalarimizni yechish uchun qoniqtirmaydi. Shuningdek, sinfdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari ham olib boriladi. Musiqa bilan bog‘liq faoliyatning, ashula, musiqa, tinglash turlari asosiy hisoblanadi.

Yuqoridagi hamma fikr mulohazalarni yechish o‘rnida o‘qituvchi eng mas’ul vazifani ado etadi, u insonni shakllantiradi va inson ruhini tarbiyalaydi. Hozirgi qiyin sharoitida xalq uchun fidokorona xizmat qiladigan o‘qituvchilar kerak. Hozirgi qiyin iqtisodiy paytda o‘qituvchilarning ishi ancha murakkablashgan, o‘qituvchi yetarli darajada madaniyatli kishi bo‘lmog‘i lozim.

Musiqa yoshlarni go‘zallik, yaxshilik, insoniylikka jalb etishda kuchli ta’sir kuchiga ega ekanligini nazarda tutib, maktab hayoti qanday musiqa ruhi bilan sug‘orilganligiga ahamiyat berish zarur. Bolalar uchun to‘g‘ri tanlash, ularda shu musiqa asarlarini qayta yozadigan kuy, qo‘shiqlarni tanlash, ularda shu musiqa asarlarini qayta-qayta tinglash istagini uyg‘otish, har gal yangi taassurotlarga ega bo‘lishlariga erishish kerak.

Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko‘zi bilan qaraydilar.

Bolalarga atalgan qo‘shiq va kuylar bilan bir qatorda folklor qo‘shiqlar, serqirra ohanglarga boy bo‘lgan o‘zbek milliy cholg‘u va klassik qo‘shiqlarini talabalarga o‘rgatish bu asarlarning o‘rta maktablarga kirib borishiga, o‘quvchilarda bu san’at merosimizga ixlos, muhabbat uyg‘otishga, uni hurmatlashga o‘rgatadi.

Masalan, al-Farobiy o‘zining musiqaga bag‘ishlangan asarlarida o‘tmishning musiqa merosiga katta e’tibor berib, har bir yetuk san’atkor uch narsaga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi:

1. Har bir bilimning usul va qoidalarini to‘la bilishi lozim.

2. Shu bilimning turli holatlarida hosil bo‘lgan usul va qoidalarning natijalarini sharh va izohlashga qodir va iste’dodli bo‘lishi kerak.

3. Musiqa san’ati haqida noto‘g‘ri nazariyaga ega bo‘lgan yozuvchilarning noto‘g‘ri

nazariyalarini tanqid eta bilsin, hatto, to‘g‘ri nazariyalar o‘rtasidagi farqni ko‘rsata bilsin va xatolarni oydinlashtira olsin.

Bu so‘zlar bugungi kunimizda ham o‘z ma’nosini yo‘qotmagan. Xalq ta’limini yanada takomillashtirish, maktab va maktabdan tashqari ishlarda ta’lim – tarbiya jarayonining usul va vositalarini yangicha tashkil qilishga o‘rganib, tijoratga berilib, zamonaviy kishi bo‘laman, deb chet el ansambllariga taqlid qilish, tushunib-tushunmay xorijiy qo‘shiqlarni aytish, milliy madaniyatimizga yengil yoki befarq qarash odat tusiga kirib qolishi bu sohada ishlovchilarga katta vazifa yuklaydi.

O‘zbek milliy qo‘shiqlarini maromiga yetkazib kuylash, tinglovchi yuragiga ta’sir qildirish – bir san’at, u sa’natdan bahra ola bilish ham katta iste’dod bo‘lib qoldi. Shuning uchun keksa san’at ustalarimizni tinglay olish, ularni ardoqlash, e’zozlash, oqibatli bo‘lishni yoshlarimizga o‘rgatish biz o‘qituvchilarga katta vazifa yuklaydi. O‘qituvchi-ustozning mahorati o‘z shogirdini har bir ishni bajarishga majbur etishda emas, balki, uni bu ishni o‘z xohish-irodasi bilan, tushunib, quvonch bilan bajarishga rag‘batlantirishadi. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki:

1. Ijodkor keksa avlodlarimiz asta-sekin hayotdan o‘tib ketishyapti. Ulardan foydalanib qolish, ularning ishini davom ettiruvchilarni tayyorlash kerak.

2. Hozirgi kunda radio va televideniyening musiqali eshittiruv ko‘rsatuvlari sifat darajasi oshganligini hisobga olib undan unumli foydalanish zarur.

3. O‘quvchi-yoshlarning ijod ishiga jalb qilish uchun ularning yosh xususiyatlarini inobatga olib tanlovlar o‘tkazib borish, sahna mahoratini o‘rgatish.

4. Yetakchi sozanda-xonandalar bilan uchrashuvlar, suhbatli kechalar o‘tkazish.

5. Tarix, san’at muzeylariga sayohatlar uyushtirish.

6. Maktablardagi musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarni uzviy bog‘lab olib borish, unda musiqa maktablarida o‘qiydigan o‘quvchilarning faol ishtirok etishlarni tashkil qilish.

7. Sharq allomalarining musiqa va musiqiy tarbiyasiga bag‘ishlangan asarlaridan keng foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov Sh.N, Nurmatov X.N “Cholg‘u ijrochiligi tarixi”. O‘quv-qo‘llanma. – T., 2009.

2. Lutfullayev A. “O‘zbek xalq cholg‘u asboblari tarixidan”. O‘quv-qo‘llanma. – T., 2010.

E’zozxon QOBILOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
“Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda musiqa ta’limining ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Musiqa ta’limi, bola shaxsi, kamolot, musiqa san’ati, kuylash, tinglash, ritmik harakatlar.

В данной статье рассматривается сущность музыкального образования в всестороннем совершенствовании личности ребёнка.

Ключевые слова. Музыкальное образование, личность, совершенство, музыкальное искусство, пение, слушание, ритмические движения.

This article examines the essence of music education in the comprehensive improvement of the child’s personality.

Key words. Musical education, personality, excellence, musical art, singing, listening, rhythmic movements.

Milliy ma’naviyatimiz rivojida boshqa san’at turlari qatorida musiqa san’ati ham muhim o‘rin tutadi. Milliy musiqa san’atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalaridan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma’naviyatimizga ta’sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan.

Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta’sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin, degan fikrni ilgari surgan edi.

Farobiy esa musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo‘libgina qolmay, amaliyotchi ham bo‘lgan. Uning o‘zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo‘jizakor ta’siri haqida fikr yuritib, Farobiy “Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida” asarida shunday yozadi: “Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi”.

Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg‘ular, zavq-shavqli g‘oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni manaviy jihatdan boy, sof barkamollik darajasiga yetkazadi.

Bola hali qo‘liga qalam ushlashni, o‘qib yozishni bilmay turiboq musiqani his qila oladi. Ko‘pincha shu dastlabki taassurotlar musiqaga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Shuning uchun umumiy ta’lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlarida musiqa ta’limiga ham e’tibor berilgan. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg‘ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko‘pgina insoniy fazilatlarni uyg‘otadi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport

va boshqa sohalar katta o‘rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma-yon yashaydi. Musiqani his etish tabiat taassurotlari ostida tug‘iladi, qolaversa, bog‘cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o‘quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma’noda manaviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, ne-ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o‘ylari va intilishlarini mujassam etgan kuy-qo‘shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi ta’lim muassasalari o‘quv dasturlaridan kengroq joy olsa yaxshi bo‘lar edi. Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov “Kunda” romanida yozadi: “... hayot, o‘lim, muhabbat, shavq va ilhom hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz”.

Xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari har bir faoliyatimizda, har soniyada – tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma’lum darajada o‘z ifodasini topadi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalardagi go‘zallikni idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma’naviy olamni kengaytiradi. Shu bois, musiqani “tilsiz falsafa” deb bejiz aytishmagan. Musiqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr-muhabbat va rahmdillik tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin. Shu bilan birga, maqomlar mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo‘lgan tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini badiiy ifoda etish vazifasi ham qo‘yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqiq etish har tomonlama yetuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalari bolalari uchun musiqiy bilimlar mazmunini belgilash bir qator psixologik xususiyatlarni e’tiborga olishni talab etadi. Zero, musiqiy bilimlarni egallash avvalo, shaxsning ruhiy olami bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham B.M.Teplov tomonidan berilgan tezislarni bu jarayonda yo‘naltiruvchi deb idrok etish mumkin. Unda quyidagilarga e’tibor qaratilgan:

1. Musiqiy kechinmalar tabiatdan olingan kechinmalardir... Musiqani tushunish, agarda musiqiy asarning ichki tuzilishini nazarda tutmasak, doimo his-hayajon tushunchalaridir.

2. Musiqiy kechinmalar faqat his-hayajondan iborat bo‘lishi kerak emas. U his-hayajondan boshlanadi, lekin tugamaydi. His-tuyg‘ular orqali biz hayotni anglaymiz. Musiqa – dunyoni his-tuyg‘ular orqali anglashdir.

3. Musiqaning asl mazmunini chuqur anglash qiyin. Uni bilishning boshqa vositalari orqali o‘rganish mumkin. Musiqiy obrazlar olami “o‘z-o‘zidan oxirigacha tushunarli bo‘lmaydi”.

B.M.Teplovning nuqtayi nazari insonning estetik ongi shakllanishini ilk bora o‘rgangan buyuk yunon faylasufi Arastuning fikri bilan hamohangdir: “Paydo bo‘lgan narsalarning biri oddiy yo‘l bilan paydo bo‘lsa, boshqasi san’at orqali yuzaga keladi, uchinchisi o‘z-o‘zidan yaraladi… San’at orqali inson ruhidagi mavjud hissiyot shakllanadi”. Inson ruhiyatida mavjud bo‘lgan narsalarga Arastu quyidagilarni kiritadi: o‘sish qobiliyati; intilish qobiliyati; his qilish qobiliyati; harakatlanish qobiliyati; fikrlash qobiliyati. Shaxsning estetik ongi tarkibiy qismlari ko‘rinishini V.G.Mozgot o‘zining ilmiy ishida sodda va tushunarli qilib bergan: – “…zamonaviy yoshlarning estetik ongini muvaffaqiyatli shakllantirish jarayoni, mamlakatdagi ijtimoiy-psixologik muhit, siyosiy va madaniy sharoitga bog‘liqdir...”, deydi. Shaxsning estetik ong komponentlari (V.G. Mozgot konsepsiyasi)

Musiqiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirishda musiqa

ta’limining ahamiyatini musiqa mashg‘ulotlarini tahlil qilish orqali ko‘rishimiz mumkin.

Demak, musiqiy mashg‘ulotlar davomida:

1. Qo‘shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo‘shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi. Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o‘lchov, lad, temp, nota yo‘li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo‘lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o‘z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

2. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi

3. Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida o‘quvchilarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o‘zlari bevosita musiqiy asarga jo‘r bo‘ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko‘radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko‘rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo‘r bo‘lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. O‘quvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalarda cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o‘zlari bevosita musiqiy asarga jo‘r bo‘ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko‘radilar (musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko‘rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo‘r bo‘lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Bola bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo‘lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o‘tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo‘lsa ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Jumladan, musiqiy his-tuyg‘ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiy musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu esa barkamol shaxsning rivojlanishi va tarbiyalanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega jihatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – T., 2016.

2. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – T.: Sharq, 1994.

3. Ochilov M.“Muallim qalb me’mori. Saylanma. – T.: O‘qituvchi. 2000.

4. Sharipova G., Najmeddinov G‘.“Musiqa o‘qitish metodikasi” darslik. – T., 2018.

Dilorom NAMOZOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Musiqa o‘qitish metodikasi“ kafedrasi o‘qituvchisi

MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada muallif musiqa o‘qituvchining ijodiy qobiliyatini o‘rganish, uni shakllantirishning amaliy muammolarini hal qilishi haqida fikr yuritgan. Shuningdek, o‘qituvchilik mahoratining turlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlilik va ilmiy-professional mahoratning ijodiy jihatlarini ochib bergan.

Kalit so‘zlar. Musiqa o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi, rivojlantirish, hamkorlik pedagogikasi, kreativ, texnologiya, mahorat, jihat.

В статье рассматривается способность изучать творческие способности учителя музыки, решать практические проблемы его формирования. Также объясняются виды педагогических навыков, художественные аспекты профессиональной компетентности, а также научные и профессиональные навыки учителей музыки.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность учителей музыки, развитие, педагогическое сотрудничество, креативность, творчество, технология, мастерство, аспект.

The article provides the ability to study the creative abilities of the teacher, to solve practical problems of its formation. It also explains the types of pedagogical skills, artistic aspects of professional competence, and the scientific and professional skills of secondary school teachers.

Key words. Professional competence of teachers, development, creativity, technology, skill, aspect, creativity.

Dunyoda bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik o‘zgarishlar ta’lim tizimiga yangi murakkab talablarni qo‘ymoqda. Bunday talablar kasbiy, psixologik va ijtimoiy zarur shaxs sifatlarini uyg‘unlashtiruvchi “kompetentlik” tushunchasi bilan aniqlanadi. Ta’limning maqsad va vazifalarini yangidan anglanishi, mehnat bozorini “bilimli” bitiruvchidan kompetentli bitiruvchi tomon o‘zgarganligi ko‘plab ilg‘or xorijiy davlatlarning, ya’ni AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya ta’lim tizimlarini kompetentlik yo‘nalishida isloh qilishning asosiy sabablari hisoblanadi. Islohotlar ta’limning maqsad va mazmunini, o‘qitish usullari va texnologiyalarini, o‘qish natijalarini kompetentlik talablariga asosan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Jahonda kompetentlik – bu kasbiy faoliyat mohiyatini tashkil etuvchi funksional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etadigan bilimlar, malaka, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning tizimli ravishda namoyon bo‘lishi, o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda motivlashtirishni

takomillashtirishda musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, ya’ni ularning professionalligi, kompetentli bo‘lishi alohida e’tirof etiladi. Bunda ilg‘or ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlilik borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining innovatsion xarakteri, uning yuqori bilim darajasi, bitiruvchilarni tayyorlash masalalarining ahamiyati pedagogga bo‘lgan talablarning o‘zgarishiga va yuqori malaka hamda kasbga bo‘lgan ijodiy yondashuvning ahamiyatini oshirishga olib kelmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta’limni tijoratlashtirishning ortib borishi musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirishda muhim omil bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan “jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash”[1] masalalari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ilmiy va pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi insonning shaxsiy malakasi majmuasi sifatida ustunlikka ega.

Tadqiqotlar bizga “kompetentlik” tushunchasini kompleks sifat tariqasida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu alohida shaxs xususiyatlarining o‘zaro aloqasi va ta’sirini o‘z ichiga oladi: tadqiqot, ilmiy va professional, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va mafkuraviy. Shaxsning har bir sifati, tarkibi va mazmuni professional faoliyat yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgaruvchan qismlar bilan tavsiflanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun pedagogning o‘zi yuqoridagi xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan, ta’lim-tarbiya psixologiyasi uchun amaliy vazifa sifatida pedagogik faoliyatda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va o‘qituvchining ijodiy kompetentliligini shakllantirish masalasi ko‘ndalang turadi. Kasbiy kompetenlilikda ijodkorlik xususiyati pedagog tomonidan bajarilgan ishlarning sarhisobini beruvchi hamda yangi kasbiy mahsulotlar yaratish uchun vosita va shaxsning ijodiy qobiliyatini ishga solgan holda yuqori natijalarga erishish zamirini yaratuvchi tizim sifatida xarakterlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi va maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisining kasbiy faoliyatining ijodiy mahsuloti o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, unda qabul qilingan qarorlarning foydaliligi, shuningdek, pedagogik faoliyatning umumiy samaradorligi hamda energiya sarfini minimallashtirishni hisobga olgan holda faoliyatni maqbul tashkil etishda ifodalanadi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim musiqa o‘qituvchisining kreativ kompetentliligi hisoblanadi.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olishdir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi musiqa o‘qituvchisining kasbiy ijodkorlik muammosi deyarli o‘rganilmagan. Garchi pedagogik faoliyat sohasidagi psixolog-mutaxassislarning ko‘pchiligi – ijodkorlikni pedagogik faoliyatning mohiyati deb hisoblasada (N.V. Kuzmina, G.S.Suxobskaya, Y.N.Kulyutkin, V.V. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, L.M Mitina, M.M. Kashapov va boshqalar) professional ijodkorlik nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan muammo hisoblanadi.

Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘ladi, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisidir.

O‘qituvchining o‘zi o‘quvchilarga o‘rgatmoqchi bo‘layotgan barcha kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Bunda, pedagog uchun zaruriy bo‘lgan tayanch kompetensiya bu – pedagogning ijodiy qobiliyatidir. Demak, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetentli yondashuvlarni taqqoslash bizga, pedagoglarning ijodkorlik mahoratlarini shakllantirish uchun qator asosiy qoidalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

1. Pedagogik ijodkorlik – bu hashamat emas, balki, maktabgacha ta’limdan boshlab, to oliy ta’limgacha bo‘lgan bo‘g‘inlariga raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish uchun muhim omildir.

2. O‘qituvchi kreativ qobiliyatining kasbiy faoliyati tarkibida o‘qituvchilik muvaffaqiyatining ko‘rsatkichlaridan biri – bu o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini talab darajasida ta’lim olishlarini ta’minlashi uchun zarurdir.

3. Ijodiy barkamollikni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan kurslar universitetlarda o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarida, shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarida majburiy kurslar sifatida kiritilishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, biz ijodkorlikning ikki bosqichini ajratamiz: potensial (o‘qituvchining yangi g‘oyalar, yondashuvlar, ish usullari va ularni ishlab chiqish zaruriyati xususiyati) va dolzarbligi (yuqorida aytib o‘tilgan ehtiyojni ro‘yobga chiqarish va tegishli harakat usullari va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga tayyorligini tavsiflash).

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlilik jihatlari: metodologik jihati; kommunikativ jihati; madaniy jihat; predmet-professional jihat; didaktik jihat; psixologik jihat; kreativ jihat.

O‘qituvchining ilmiy-professional salohiyatining ijodiy mahorati – uning pedagogik ijodiyot darajasini, turli xil qiziqarli, hayajonli, intellektual va hissiy jihatdan boy tadbirlarni rejalashtirish qobiliyatidir. O‘qituvchining ijodiy mahorati quyidagi xususiyatlarga ega.

Ilmiy-kasbiy mahoratning ijodiy jihatlari:

– ilmiy va psixologik fikrlash;
– pedagogik mahoratning yuqori darajasi;
– ma’lum bir ilmiy jasorat;
– ishlab chiqilgan pedagogik hissiyot;
– tanqidiy tahlil qilish qobiliyati;
– ijodiy xususiyatlarning asosiy jihatlari;
– ma’lum bir shaxsning yangi yoki sezilarli rivojlanishini ta’minlash;
– faoliyatning o‘ziga xosligi, faoliyat mahsuloti va uning natijalari takrorlanmasligi;
– ijodkorlik (o‘z ustida ishlash) bilan o‘zaro bog‘liqlik.

Ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirishda bunday yondashuv professional bilim va ko‘nikmalar darajasini sezilarli darajada oshirishi, zamonaviy o‘qituvchining mahoratli faoliyatida qobiliyat va tayyorligini shakllantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

Go'zal NAZIROVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi v.v.b dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda tarbiyalanuvchilarni ko'proq muloqotga chorlovchi, ko'proq mustaqil fikrlashga undovchi va ularning kelgusi hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi obyektiv xulosalarni mustaqil ravishda shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalardan keng foydalanish lozimligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, pedagogik jarayonlar, intellektual, ijodiy, obyektiv, kreativ texnologiyalar, diversifikatsiya.

В статье отмечается, что для обеспечения эффективности педагогических процессов, организуемых в дошкольных образовательных организациях, необходимо использовать широкий спектр средств, стимулирующих педагогов к большему общению, стимулирующих более самостоятельное мышление и служащих самостоятельному формулированию объектов, имеющих большое значение в их будущей жизни.

Ключевые слова. Дошкольное образование, педагогические процессы, визуальные, творческие, объектные, креативные технологии, диверсификация.

The article notes that to ensure the effectiveness of pedagogical processes organized in preschool educational organizations, it is necessary to use a wide range of tools that encourage teachers to communicate more, stimulate more independent thinking and serve as an independent formulation of objects that are of great importance in their future life.

Key words. Preschool education, pedagogical processes, visual, creative, object, creative technologies, diversification.

Dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta'limning sifat menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot-metodik tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy-innovatsion kompetentliligini rivojlantirish va baholashning

samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan barcha shakllardagi mashg‘ulotlar va tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tizimli yondashuvni joriy qilishda pedagogik ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar majmui yaxlit tizim, ya’ni tarbiyalanuvchilar shaxsiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadigan murakkab pedagogik tizim sifatida inobatga olinishi muhim sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga tizimli yondashuvni tatbiq etishda inobatga olish zarur bo‘lgan omillardan biri murakkab pedagogik tizim komponentlari hisoblanadigan turli shakllardagi ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar, pedagogik tajriba-sinov ishlari, pedagogik amaliyot va uzluksiz malaka oshirish jarayonining tizimga xos xususiyatlari bo‘lib, ular aloqadorlik, bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir, integratsiya, yaxlitlik, izchillik kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Mazkur jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi hamda izchillik va integratsiyaga moyilligi ularni yaxlit tizim komponentlari sifatida tasavvur qilish uchun asos bo‘ladi.

Dunyoning ko‘pgina davlatlarida maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimining dastlabki bo‘g‘ini hisoblanadi. Mazkur tizimga mahalliy hokimiyat organlari, sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari, diniy va jamoat tashkilotlari, jismoniy shaxslar tomonidan e’tibor ko‘rsatiladi. Tarbiyaviy ishlarning maqsadi bolalarning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hisoblanib, u ta’lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi. Barcha davlatlarda pedagogik xodimlarni tayyorlash tizimi mavjud (kurslar, o‘rta maxsus, oliy ta’lim muassasalari). Maktabgacha ta’limning har bir milliy tizimi o‘ziga xosliklar va o‘z ilg‘or tajribalariga ega. Shu jihatdan xorijiy davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimi tajribalari o‘rganildi va tahlil qilindi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo‘nalishiga ko‘ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: maqsadi, vazifasi va shakliga ko‘ra turli mashg‘ulot jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish; modellashtirish, ya’ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilar uchun zaruriy shart-sharoitlarni

yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni oldindan belgilash; yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko‘ra tarbiyalanuvchilar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag‘batlantirish.

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish, balki tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini muvofiqlashtirish, tarbiyalanuvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalashga xizmat qiluvchi motivlashtirish jarayonlarini tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiyaviy muhit hamda unda o‘zaro ta’sir jarayonlarini keng qamrovliligiga bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta’minlashda tarbiyalanuvchilarni ko‘proq muloqotga chorlovchi, ko‘proq mustaqil fikrlashga undovchi va ularning kelgusi hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi obyektiv xulosalarni mustaqil ravishda shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalardan keng foydalanish muhim bo‘lib, bunday vositalardan foydalanishning ahamiyatliligi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Olib borilgan ishlar natijasida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar, ilmiy-amaliy yondashuvlar ishlab chiqilishi hamda tegishli soha mutaxassislarini tayyorlashda OTMga joriy qilinishini ta’minlash zarur;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonini rivojlanishi; ijodiy rivojlanishlariga tizimli yondashuvni tatbiq qilish maqsadga muvofiq;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari o‘quv mazmuniga tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga oid ilmiy nazariy yondashuvlarni kiritish kerak;

– maktabgacha ta’lim muassasalari va ota-onalar hamkorligi yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3261-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil., 6-son, 70-modda.

Xusnida HO‘JAMATOVA,
Qo‘qon universiteti “Ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA TASHKILOTLARI DIREKTOR VA XODIMLARIDA MENEJERLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha tarbiya tashkilotlari direktor va xodimlarida menejerlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek muallif, maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va xodimlarining menejerlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, menejerlik ko‘nikmalari, iqtisodiy bilimlar, zamonaviy bilimlar, boshqaruv faoliyati.

Статья посвящена вопросам развития управленческих навыков у руководителей и работников дошкольных организаций. Также автор даёт рекомендации по вопросам развития управленческих навыков директоров и работников дошкольных организаций.

Ключевые слова. Дошкольное образование, управленческие навыки, экономические знания, современные знания, управленческая деятельность.

The article is devoted to the issues of development of managerial skills in directors and employees of preschool organizations. Also the author, directors and employees of preschool organizations have come up with their opinions and comments on the development of management skills.

Key words. Preschool education, management skills, economic knowledge, modern knowledge, management activities.

Davlatimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod ta’lim tarbiyasi mamlakatimiz siyosatining eng dolzarb masalalaridan biri desak, xato qilmaymiz. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabr farmoniga, asosan, mamlakatimizda “Maktabgacha ta’lim vazirligi” tashkil qilindi hamda uning vazifalari etib mamlakatda o‘zaro raqobatdosh davlat va nodavlat MTMlar tarmog‘ini yaratish orqali bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalari bilan qamrab olinish hajmini oshirish, shuningdek, amaliyotga maktabgacha ta’lim tizimida muqobil vositalarini joriy etish belgilandi. Bundan tashqari vazirlikning vakolatlarida zamonaviy texnologiyalar va metodlar yordamida rahbarlar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, shuningdek, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish uchun munosib sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, fizio-psixologik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish bo‘yicha ta’lim dasturlari joriy etilmagan. Umuman, bog‘chalar “ota-ona ishda bo‘lgan vaqtda bolaga qarab

turadigan muassasa”ga aylandi. Har qanday davlatning rivojlanishi o‘sha davlatda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya natijasiga bog‘liq ekanligi ma’lum. Bu narsa bizning Respublikamiz uchun ham xosdir. Ta’lim-tarbiyani takomillashtirmay ma’naviy boy, barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bozor iqtisodi sharoitda va keyingi rivojlanishda ham yoshlarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhimdir. Bu sohada hukumatimiz g‘amxo‘rlik ko‘rsatmoqda va pedagoglarimiz tadqiqotlar olib bormoqda. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olishni kamol toptirish demakdir. Bu esa o‘z o‘rnida yoshlarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga olib keladi. Avvalo, o‘quvchilar iqtisodiy tarbiya haqida mukammal, to‘la tushunchaga ega bo‘lmog‘i darkor.

Maktabgacha ta’lim muassasalari (MTM) rahbarlarining asosiy funksiyasi, ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda, ta’lim muassasasi hayotiy faoliyatini ta’minlash bo‘yicha boshqaruv yo‘nalishidagi masalalarning ijobiy yechimini topish, hamda uni hal etish hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshqaruv faoliyati yoki ixtiyoriy faoliyat insonning boshqa bir shaxs bilan munosabati, shuningdek, insonning tashqi muhit bilan munosabatlari, tarbiyaviy munosabatlar tarzida, ya’ni shaxsning ehtiyojlari talablaridan kelib chiqib ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishdagi o‘zaro aloqalar asnosida tahlil qilinadi va o‘rganiladi. Faoliyat maqsadi obyektiv bo‘lib, o‘z o‘rnida, shaxs tomonidan belgilanadi va u shaxs faoliyatining asosiy komponenti hisoblanadi. Shuningdek, faoliyat subyektni ma’lum bir harakatga keltiruvchi sabablarni aniqlaydi va unda aniq bir shaxsning faoliyati va maqsad ifodalanadi. Ma’lumki, boshqaruv faoliyati subyektlar tomonidan lavozimi yo‘nalishidagi funksiyalarni bajarishlari jarayonida amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyati oldindan belgilangan xatti-harakatlar majmuasi, shuningdek, boshqaruv jarayoni bosqichlari sifatida, maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlarining maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatlarining tuzilmasi boshqaruv predmetlari orqali belgilanadi. Demak, boshqaruv o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular maqsadga erishishda, harakatlar izchilligi bilan belgilanadi. Bu jihatlar, o‘z-o‘zidan maqsadga ko‘ra aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi shart-sharoitlar orqali namoyon bo‘ladi. Ya’ni, vaqt o‘tishi bilan belgilangan maqsad o‘zgarmasa-da, maqsad belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar hamda harakatlar tarkibi o‘zgarib boradi. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmunini takomillashtirish yo‘nalishidagi ixtiyoriy innovatsion faoliyat MTM rahbarlari boshqaruv faoliyatlarining ma’lum bir izchillikda amalga oshirilishini talab etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini innovatsion boshqarishda demokratik va insonparvarlik tamoyillariga muvofiq ish ko‘rish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashga yordam beradi. Demokratik boshqaruvda rahbarlar bilan jamoa o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat qaror topadi, bir-birlarini tushuna olgan holda yagona maqsad yo‘lida birgalikda harakat olib boriladi, jamoaning har bir a’zosi (xoh rahbar, xoh xodim, xoh o‘quvchi bo‘lishidan qat’iy nazar) o‘z zimmalaridagi vazifalarni bajarishga mas’uliyatli yondashib, ularni sidqidildan, vijdonan, halol bajaradilar.

Tashkilot negizida faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari, ota-onalar kengashi, metodik birlashma o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik mavjud emas, ular alohida-alohida ish ko‘radi, ular o‘rtasidagi aloqa sust bo‘lib, o‘zaro axborot almashish murakkablashgan. Muassasa boshqaruv organlarining har biri alohida maqsadlarga ega.

Avtoritar boshqarishga asoslangan umumiy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kundalik, mayda muammolarni hal qilish muhim sanaladi. Ularning faoliyat tarzi an’anaviy qoidalardan chetga chiqishga asoslanadi va o‘zgarishlar qo‘llab-quvvatlanmaydi.

Boshqaruv faoliyati algoritmi – bu maktabgacha ta’lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatlarining izchilligi bo‘lib, u yettita bosqich:

– pedagogik jarayonning holati to‘g‘risida ishonchli axborotlar to‘plash;

– qayta ishlash va obyektiv baholash;

– boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash;

– boshqaruv faoliyatini oldindan anglash va rejalashtirish;

– kadrlar tanlash va ularni joy-joyiga qo‘yish;

– jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxis; jamoa a’zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

– maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat.

Mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ma’muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to‘plash metodlarini qo‘llash asnosida boshqaruv funksiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi.

Germaniya amaliyotidan foydalanish uchun bizga malakali mutaxassislar, ayniqsa, zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbarlar kerak bo‘ladi. Buning uchun MTMlarga rahbar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ularni tayyorlash uchun yangicha yondashuvlar va menejment ko‘nikmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shularni hisobga olgan holda bir necha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Milliy reytinglash tizimi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan MTMlarni “Best preschool awards” xalqaro tanlovida ishtirok etishini ta’minlash hamda “Xalqaro Grand” va “Exchanging experience” tizimini yaratish orqali grand yutgan MTMning na’munali rahbar va xodimlarini chet elga malaka oshirish uchun yuborish.

2. Rahbarlarni tayyorlash uchun har 5 yilda chet el rahbar tayyorlash markazlariga yuborish hamda eng yaxshi xodimlarni shu davlatda (misol uchun Germaniya yoki Koreya) 1 – 3 yilgacha mazkur davlat MTMlarida ishlab, malakalarini oshirib qaytishlarini yo‘lga qo‘yish.

3. Har yil rahbar xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish.

4. Attestatsiyadan o‘tkazish uchun chet ellik mutaxassislarni jalb qilish.

5. Mamlakatimizga eng mashhur va malakali chet ellik mutaxassislarni davlat MTM xodimlariga treninglar o‘tkazishini yo‘lga qo‘yish.

Bunda, albatta, moliyalashtirish tizmini isloh qilish hamda kerakli mablag‘larni jalb qilinishini yo‘lga qo‘yish eng muhim masala hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan eng malakali iqtisodchilarimiz hamda xorijiy ekspertlardan tashkil topgan guruhni tuzish orqali zarur moliyaviy operatsiyalar tizimini yaratish kerak.

Fikrimizcha, mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq qilinishi MTM rahbarlari hamda muassasalarning faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Matnazarova K.O., Abdullayeva M.O. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi.” –T., 2015.

Ozodaxon TOLIPOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
‘‘Fakultetlararo pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA JARAYONIDA BOLALAR BILAN O‘TKAZILADIGAN MASHG‘ULOTLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning ongida g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha tarbiya, sog‘lom bola, innovatsion pedagogik texnologiyalar, milliy qadriyatlar, jarayon, mezon.

Статья должна быть направлена на предотвращение возникновения идеологических пробелов в сознании детей в дошкольном образовании, воспитание их в духе любви и преданности Отечеству и воспитание гармонично развитого поколения, которое будет служить развитию нашей страны. задумался над задачами.

Ключевые слова. Дошкольное образование, здоровый ребенок, инновационные педагогические технологии, национальные ценности, процесс, критерии.

The article should be aimed at preventing the emergence of ideological gaps in the minds of children in preschool education, educating them in the spirit of love and devotion to the Fatherland and educating a harmoniously developed generation that will serve the development of our country. thought about the tasks.

Key words. Preschool education, healthy child, innovative pedagogical technologies, national values, process, criteria.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta’lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarildi. Ta’lim muassasalari faoliyatini me’yorlashtiruvchi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida Nizom”, “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari” va shu kabi ko‘plab hujjatlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi barpo etildi. Mana shunday bir sharoitda zamonaviy teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarga o‘zining mukammal bilimi bilan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bosh maqsadlarning biriga aylandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko‘ra, ta’limning poydevori qo‘yiladigan dastlabki bo‘g‘ini maktabgacha ta’lim – bolani sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning ongida g‘oyaviy bo‘shliq

paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘lidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha jabhalarini qamrab olishi zarur bo‘lib, mazkur ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘rganilayotgan tushunchalarga, hodisa yoki voqelikka nisbatan tarbiyalanuvchilarning qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda ularning faolligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Bog‘cha yoshidagi bolalar juda sinchkov va qiziquvchan. Ular ko‘p savol berishadi va hamma narsani bilishni xohlaydi. Ba’zida ularning savollariga javob topish mushkul ham bo‘lib qoladi. Tarbiyachi esa bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh jihatlarini e’tiborga olgan holda osoyishta javob berishi lozim. Bolalarning bunday qiziquvchanligi yaxshi albatta, chunki bola ulg‘aymoqda va u o‘zining bilimlari natijasida yangi olamni yaratayapti.

Maktabgacha ta’lim muassasasi bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi. Bolada o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Mazkur tizimda tarbiyani rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning biri zamonaviy o‘quv-qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarishdir.

O‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim ahamiyatga egaligini esdan chiqarmaslik lozim. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular tarbiyachi va bolalarning o‘zaro muloqoti hamda bir-birlari bilan o‘tkazilgan savol javoblari asnosida amalga oshiriladi. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko‘rinishidirki, uning yordamida insonlar bir-biri bilan o‘zaro axborot almashadi, bir-biriga ta’sir o‘tkazadi, bir-birini his qiladi va tushunadi. Innovatsion texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirish ularni dars jarayonida samarali foydalanilishni taqozo qiladi.

Tarbiyachilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko‘rishlari lozim. Bu o‘z navbatida, ta’limni rivojlantirishga qaratilgan rejalarni tuzishda asosiy e’tiborni tarbiyachilarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun zamin yaratish hamda tushuntirish ishlarini olib borishga qaratishlarini talab etadi. Ma’lumki, maktabgacha tarbiya jarayonida ko‘rgazmali harakat va ko‘rgazmali obrazli tafakkur turlari ustuvor ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar salohiyatini rivojlantiruvchi madaniy-ma’rifiy tadbirlar hamda rivojlantiruvchi o‘yinlar shular jumlasidandir.

O‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda kattalar tomonidan qo‘llaniladigan samarali hamda ijobiy faoliyatlardan biridir. Ushbu jarayon bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim olishiga keng imkoniyatlar ochib beradi. O‘yin nafaqat bolada shakllangan bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi, balki bolaning faol bilish jarayonining o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda bola tarbiyachi rahbarligida yangi bilimlarga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, bolaning maktabga tayyorlanish jarayoniga poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, didaktik o‘yin o‘ynash orqali bola bevosita bilim olishga kirishadi.

Didaktik o‘yinlarda bilim jarayoni o‘yinlar bilan bevosita bog‘langan. Didaktik o‘yin bolani aqliy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ta’lim olishga yo‘naltirilgan o‘yinlar bolalarda ruhiy bilish jarayonlarini, fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim jihati bolalarning fikrlash faolligini, mustaqilligini va nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bolaning nutqini o‘stirishda mazkur o‘yinlardan foydalanilsa, samarali natija beradi.

O‘yin davomida bola o‘zining harakatlarini sharhlaydi, berilgan topshiriqni qanday bajarganligini yoki bu muammoli vaziyatdan qanday chiqib ketganligini gapirib beradi, kattalarning savoliga javob beradi, o‘z tengdoshlari bilan muloqot qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur, nutq, muloqot xususiyatlarini shakllantirish, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini tabiiy ehtiyoj sifatida tarkib toptirish bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘yinlarni uch turga bo‘lish mumkin:

1. Didaktik.
2. Tarbiyaviy.
3. Rivojlantiruvchi o‘yinlar.

Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish natijasida insonda o‘z vaqtida o‘zini anglash hissi vujudga keladi. Bolada o‘zini anglash tuyg‘usi qancha erta uyg‘onsa, shaxsiy nuqtayi nazar, o‘z huquqini his etish, o‘zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo‘ladi. Har qaysi davrda bolalar rivojlanishining o‘ziga xos qulay holatidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Aqliy o‘yinlar ta’lim jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bolaning dunyoqarashini tubdan o‘zgartiradi va ularni fikrlashga chorlaydi. Aqliy o‘yinlar tarbiyalanuvchilarning tevarak-atrof to‘g‘risidagi bilimlarini hamda o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini kengaytirishga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga, uni bilishga o‘rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatini, nutq jarayonini, shu jumladan, aqliy tafakkurini rivojlantirib, olgan bilimlarini tartibga soladi. Bu kabi o‘yinlarni olib borishda quyidagi talablarga rioya qilib borish zarur:

– tanlangan aqliy o‘yinlar tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos kelishi;

– har bir aqliy o‘yinlar pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan bo‘lishi;

– bir xildagi o‘yinlarni ko‘p marta takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– o‘yinning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlariga e’tiborni qaratish;

– o‘yin yakunida g‘olib chiqqan bolalarni rag‘batlantirib borish.

Shu tariqa bolalar bilan olib boriladigan aqliy o‘yinlar murakkablashib, barcha tartib-qoidalarga rioya qilib o‘tkazilsa, tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib borishi shubhasizdir. Tarbiyachilar esa mashg‘ulotlar, ko‘ngilochar o‘yinlar, didaktik va harakatli o‘yinlardan hamda boshqa faoliyatlardan unumli foydalanishlari lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, 2016-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror uzluksiz ta’lim tizimining ilk bo‘g‘inini yanada takomillashtirish va yangi bosqichga ko‘tarishga, bolalarimizni sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishlariga xizmat qiladi. Biz maktabgacha ta’lim muassasasi rahbarlari va xodimlarini o‘z faoliyatimizga yanada jiddiy yondashishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma’naviyat. 2008.

2. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston. 1992. 78-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-202-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2016-yil 29-dekabr.

Vazira G‘ANIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Masofaviy ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari o‘z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, tarbiyachi kompetentligi, raqobatbardosh, ko‘nikma, malaka, mezon.

Статья посвящена вопросам развития профессиональной компетентности педагогов дошкольных образовательных организаций. Она основана на том, что воспитатели дошкольных образовательных учреждений обладают необходимыми навыками и умениями вступать в личностные, социальные, экономические и профессиональные отношения в своей деятельности, занимать свое место в обществе, решать возникающие проблемы, а главное быть конкурентоспособными в своей области, профессии.

Ключевые слова. Дошкольное образование, компетентность педагога, конкурентоспособность, навыки, квалификация, критерий.

The article is devoted to the development of professional competence of teachers of preschool educational organizations. It is based on the fact that teachers of preschool educational institutions have the necessary skills and abilities to enter into personal, social, economic and professional relations in their activities, take their place in society, solve emerging problems, and most importantly be competitive in their field and profession.

Key words. Preschool education, teacher competence, competitiveness, skills, qualifications, criteria.

Ta’lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etildi. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish vazifalari belgilangan. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar

malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish sharoitida ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnasevar, barkamol inson qilib o‘stirish tarbiyachi zimmasiga yuklatilgan.

Kompetentli yondashuv tarbiyachilarning ijtimoiy, kommunikativ, informatsion, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, tarbiyachidan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalanuvchilarga oddiygina yetkazish bo‘libgina qolmasdan, balki ularda kasbiy bilimdonlikni rivojlantirishni va kafolatli o‘zlashtirilishini ham taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog kadrlari ish faoliyatining izchilligini ta’minlash maqsadida quyidagi tayanch va qo‘shimcha vazifalarni o‘zida mujassam etishi kerak:

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq, tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

– ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

– mavjud axborot-kommunikatsiya manbalaridan foydalana olish;

– zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

– ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

– kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish;

– shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy kamolotga intilish;

– hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

– o‘z xatti-harakatini baholash, o‘zini nazorat qila bilish;

– jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

Shuningdek, ularning har tomonlama yuksak kasb egasi bo‘lish uchun ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarga e’tiborli bo‘lish lozim:

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

– orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;

– umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

– o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

– xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Yana shuni qayd etish joizki, tarbiyachilar kasbiy faoliyatining sifat mezonlaridan biri ularning malaka saviyasiga qarab belgilanadi.

Tarbiyachining pedagogik mahorati quyidagi tizim asosida shakllanadi:

– soha bo‘yicha ilmiy-metodik bilimga ega bo‘lish;

– turli xil faoliyatni bajara olishi (namuna misol keltira olishi);

– muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy faoliyat asosida yondashish;

– jamiyat va insonlarga, ota-onalar va bolalarga ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish tajribasi.

Yuqorida keltirilgan tizim doirasida tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarni amalga oshiradi:

1. Tarbiyachi – bolalarni ijtimoiy va maktab hayotiga tayyorlaydi.

2. Ta’lim muhitida boshqaruvchi va yetakchi-guruhda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta’sir ko‘rsatadi.

3. Metodist – ta’lim jarayonida bolalarga muammoni yechishda yordam beradi va qo‘llab-quvvatlaydi.

4. Faylasuf – bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o‘z qarashlarini asoslaydi;

5. Tajribali yaqin do‘st – bolalarni oldidagi to‘siq va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

6. Tadqiqotchi-novator – yangilik yaratuvchi-muntazam ravishda o‘z ustida ishlaydi, yangi g‘oyalar yaratadi va tatbiq etadi.

7. Tarbiya jarayonini rahbari va uni rag‘batlantiruvchi – maqsadga yetish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, ta’lim berish uslublarini tanlaydi, bolalarni o‘qishga o‘rgatadi va ijodiy yondashadi.

8. O‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi – jamoa bo‘lib ishlay oladi va ishlashga o‘rgatadi;

9. Maslahatchi – bolalarga shaxsiy namuna bo‘ladi.

10. Bolalarni jismonan, aqliy va ma’naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.

11. Psixolog – bolalar psixologiyasini yaxshi biladi va tushunadi.

12. O‘zgarishlarga yo‘naltiruvchi – bolalarni hayotiy ko‘nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi.

13. Ma’lumotlarni taqsimlovchi – bolalarga asosiy, yangi ma’lumotlarni yetkazadi va amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatadi.

Demak, tarbiyachining kasbiy kompetentliligi turli shakllardagi pedagogik jarayonlarda shakllanib, rivojlanib boradi va mazkur jarayonlarda tarbiyaviy munosabatlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, buning eng asosiy sababi tarbiyachilar o‘zaro bir-birini va ustoz pedagoglarning xatti-harakatini, pedagogik faoliyatini kuzatadi, fikrlaydi hamda ularning qilgan va qilayotgan ishlaridan xulosalar chiqaradi, dunyoqarashi o‘zgaradi, tushunchalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. 56-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. Вдовина С.А. Профессионально-педагогическая компетентность и ее структура // Современные направления развития педагогической мысли и педагогика И.Е.Шварца. Материалы международной научно-практической конференции. (1-2 июня 2009 г., г. Пермь.) Часть I.– Пермь: 2009. – С.161-166.

Dilfuzaxon YO‘LCHIBOYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLA SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM DASTURINI AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim dasturini amaliyotga tatbiq etishning samarali usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, bola shaxsi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv strategiyalar, rivojlanish, mustaqillik, ijod, tarbiyachi, zamonaviy yondashuv.

В данной статье освещены эффективные методы внедрения в практику опорной программы личностно-ориентированное образование в учреждениях дошкольного образования.

Ключевые слова. Личность, личностно-ориентированное обучение, интерактивные стратегии, развитие, свобода, независимость, творчество воспитательница, современный подход.

In this article it is spohen a bout. The effective ways the putting into practice the education program directed to a child’s individuality in pre-school institutions.

Key words. Person, child’s, indivuality perfect generaldducation, upbringing, education directed to a person, development, freedom, independence, creation, preschool institution, an education, modern approach.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi zamonaviy mezonlar darajasida rivojlanib bormoqda. Bu jarayon hozirgi kunda ayniqsa o‘ziga xos samaraga ega bo‘lib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimuni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi.

Qarorda belgilangan vazifalardan biri maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoit yaratish ko‘rsatib o‘tilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilari ta’lim jarayonida bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limdan samarali foydalansalar maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Farzandlarimizni kelajakda kutayotgan muammolarning yechimini topishga tayyorlash uchun ularni hayot davomida tinmay o‘qishga o‘rgatish lozim. Bola tarbiyasi hech qachon bugunchalik murakkab bo‘lmagan. Buning sababi shundaki, jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatdagi ota-onalar va tarbiyachilarning bola tarbiyasi masalasiga kelganda ko‘pincha boshlari qotib qolmoqda. Natijada, ular ko‘pincha “Bolalarimiz bugungi kun talablariga javob berishlari uchun ularni qanday tarbiyalashimiz kerak?” deb o‘ylanib qolmoqda.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida bola shaxsining har tomonlama, ya’ni huquqiy, ma’naviy, ijtimoiy himoyasi ta’minlanadi. Bolaning ta’lim-tarbiyasi, jismoniy, ruhiy va ma’naviy kamolini ta’minlash kabi umummilliy maqsadning ro‘yobga chiqishida uning ta’limga qiziqishini oshirish asosiy omil hisoblanadi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim modelining maqsadi – bu bolani shaxs sifatida to‘liq shakllanish omili bo‘lib, belgilangan standart bo‘yicha uni o‘zgartirish emas, balki uni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishdir.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish pedagogik tenglik g‘oyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu tenglik tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatini ifodalaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishda “shaxs” tushunchasining mohiyati va o‘ziga xosligini anglab yetish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachilar bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning amalga oshirilishida quyidagilarni bilishi lozim:

• har bir bolaga buyuk shaxsdek qarash, hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish;

• ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bola o‘zini shaxs deb sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin;

• bolaga tazyiq o‘tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo‘rttirmaslik; o‘zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

• har bir sohada “muvaffaqiyat muhiti”ni tashkil etish, bolaga muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. Bolaga atrofdagilarning har biri o‘zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish;

• bolaning hurmati va ishonchini qozonish, o‘ziga ham shaxs nuqtayi nazaridan qarash.

Hozirgi zamonda ta’lim tizimining barcha turlarida bola shaxsi ta’lim jarayonining obyektivligidan o‘zining tarbiyalanishi va bilimlarini o‘zlashtirishi jarayonida bevosita faoliyat yuritishi lozim bo‘lgan subyekt darajasiga ko‘tarilmoqda. Endi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda tarbiyachi yolg‘iz o‘zi emas balki, bola bilan hamkorlikda harakat qiladi.

Ta’lim jarayoni bugun bola shaxsini tarbiyalashga, o‘qitishga emas, balki uni o‘z-o‘zini tarbiyalashga, bilimlarni o‘zi mehnat qilib o‘zlashtirishga qaratilgan. Bugungi pedagogikada insonni ma’naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalash yetakchilik qilmoqda. Chunki ma’naviy kamolot yo‘lini tutgan inson, ta’limni o‘zi qidirib, izlanadi va o‘z ustida mehnat qiladi.

Tarbiyashunoslik tajribasida shunday haqiqat mavjud: bola eshitsa unutadi, ko‘rsa eslab qoladi, bevosita ishtirok etsa o‘zlashtiradi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida bolaga nasihatlar qilavermay, bilimlarni mashg‘ulot jarayonida tayyor beravermay, bola o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan insoniy sifatlarni, hayotiy haqiqatlar va bilimlarni uning oldiga muammoli masalalar, o‘ylashga majbur qiladigan savol-topshiriqlar, o‘zi his qilishiga, sinab ko‘rishiga yo‘naltiradigan vazifalar tarzida berish lozim. Uning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga, bilimlarni o‘zi mehnat qilib o‘zlashtirishga imkoniyat yaratish kerak.

Bugun o‘z sohasi bo‘yicha bilganlarini bola xotirasiga yaxshilab joylab qo‘yadigan tarbiyachi yaxshi tarbiyachi hisoblanmaydi. Istiqlol davri tarbiyashunosligi amaliyoti uchun o‘z sohasini yaxshi biladigan, xonadagi har bir bolani har xil yo‘l, usul va vositalar ko‘magida mehnat qildirib bilim olishga, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga yo‘naltira oladigan, bilimlarni bolaning xotirasiga emas, ruhiyatiga singdirishni biladigan tarbiyachi zarur.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishda interaktiv strategiyalardan o‘rinli foydalanish zarur. Interaktiv strategiyalarning ikkita muhim maqsadi bor:

1. Ta’lim olishda bolaning faol o‘rni.

2. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot o‘rnatishi.

Interaktiv strategiyalarga quyidagilar kiradi:

– turli mashg‘ulotlarni uyushtirganda bolalarni kichik guruhlarga bo‘lish (muhitni bolalar kichik guruhlarda birga ishlay oladigan qilib moslash);

– bolalar o‘rtasida hamkorlikni talab qiladigan mashg‘ulotlardan foydalanish (biror narsani qurish);

– doira shaklida o‘tirib faktlar, hodisalar bilan bo‘lishish;

– biror masalada fikr almashishlaridan oldin vaqt va imkoniyat berish;

– bir-biridan o‘rganish (vazifani bajarayotganda bolalar bir-birlariga yordam berishlariga yo‘l qo‘yib berish);

– muammoli vaziyatlarga birgalikda yechim izlash;

– bolalar bilan mavzuga doir loyihalar ishlab chiqish.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bola shaxsi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida tinimsiz izlanish zarur. Shaxsning ongiga ta’sir etish yo‘llarini belgilashdan oldin uning ichki aloqa elementlarini aniqlash zarur. Bular uning layoqati, imkoniyatlari, ehtiyoji, mavjud bilimlari va qobiliyatidir. Insondagi qobiliyat, layoqat o‘rganilib, undagi bilim o‘zlashtirish uchun mavjud bo‘lgan imkoniyatlar aniqlanib, uning ehtiyojiga e’tibor qaratiladi. Ma’lum maqsad asosida ta’sir choralarini belgilash bu elementlarda o‘zgarish bo‘lishiga olib keladi. Shunday ta’sir natijasida shaxsning rivojlanishida tub o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bog‘cha yoshidan boshlaboq bolalarning qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojini aniqlab qilingan amaliy ta’sir zoye ketmaydi. Bolaning intellektual imkoniyatlari haqida birdan xulosa chiqarish yaxshi natija bermaydi. Chunki insondagi intellektual imkoniyatlar birdaniga ko‘zga tashlanmaydi. U asta-sekinlik bilan ro‘yobga chiqishi mumkin.

Tarbiyachi bolalardagi o‘ziga xoslikni bilishi va shu asosda faoliyatni tashkil etishi bola shaxsida bor bo‘lgan imkoniyatlarning ro‘yobga chiqishiga sabab bo‘ladi. Tarbiyachi mahorati bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish orqali bola faolligini oshirishga qaratiladi. Agar bolalar o‘quv-biluv faoliyatiga qiziqsalar bu ta’lim samaradorligini va bolalarning intellektual rivojlanish darajasini ta’minlaydi, bilimga qiziqish va ehtiyojini shakllantiradi. Ayniqsa, keyingi hayot yo‘lini tanlashda bu qiziqishlar asos vazifasini o‘tashi mumkin.

Maktabgacha ta’lim bu tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlama ta’lim-tarbiya berish va bog‘cha sharoitida ta’lim-tarbiya ishi mazmunini tashkil etadi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

– malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

– maktabgacha ta’limning samarali pedagogik-psixologik uslublarini izlash va joriy etish;

– bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;

– zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo‘yicha malakali maslahat xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratish;

– maktabgacha tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasalari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagog-tarbiyachi bola uchun doimo namunadir.

Lekin bu holatni bir “tarbiyachi – bola ustidan doim nazorat qilib, barcha harakatlar tarbiyachi aytganidek bo‘lishi shart”, degandek tushunib kelganmiz. Bu, albatta, ko‘pchilikning tushunchalarida o‘rnashib qolgan stereotip. Maktabgacha ta’lim muassasasida pedagoglar tarbiyalanuvchiga teng hamkor sifatida muloqot qilishi, erkin fikrlashga omil bo‘ladigan jihatlardan bolaning “MEN”ini inkor etmasdan suhbat qurishi, mashg‘ulotlarni bola qiziqishlarini e’tiborga olgan holda o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalarini keng qo‘llagan holda faoliyat olib borishlari zamonaviy ta’lim tizimining bugungi talabidir. Bu degani, har bir bola takrorlanmaydigan individ ekanligini anglash va esda tutish, qiziqish va manfaatlarini hurmat qilgan holda unga hamkor sifatida munosabatda bo‘lish demakdir.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan faoliyat – bola shaxsiga qaratilgan yangi ta’lim modeli sifatida maktabgacha ta’lim pedagogikasiga kirib kelgan. Bu ta’limning natijasi bo‘lib, “bola mehribon, xayrixoh, dilkash, vijdonli, to‘g‘riso‘z, maqsadga intiluvchan, tashabbuskor, qat’iyatli, uyushqoq, mehnatsevar, mas’uliyatli, ziyrak, vazmin, dovyurak, mustaqil, ishchan, kuzatuvchan, bilimdon” kabi sifatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Tarbiyalanuvchi bilan tarbiyachining doimiy yaqin muloqotda bo‘lishi, har kuni alohida har bir bola bilan fikr almashib, uning fikrini eshitishi bolaning shaxsiy qarashi va munosabatlarini shakllantirib borishiga katta zamin yaratadi hamda bolada himoyalanganlik tuyg‘usini mustahkamlab, mustaqillikka keng yo‘l ochadi. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim modelining maqsadi – bu bolaning shaxs sifatida to‘liq shakllanish omili bo‘lib, belgilangan standart bo‘yicha uni o‘zgartirish emas, balki uni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishdir.

Biz kattalar, bolalarni bilimi kam, malakasini past, ko‘nikmalari rivojlanmagan obyekt sifatida qabul qilishga o‘rganib qolganmiz. Tengqur sifatida munosabatda bo‘lishdek oson va qulay vaziyatning o‘zi yo‘q. Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘z ishining ustasi bo‘lmish pedagog 3 asosiy jihatlarga ahamiyat berishi lozim: nazariy, ruhiy, amaliy.

Nazariy jihati – bu tarbiyachining pedagogik va psixologik bilimlarini tizimiy ravishda o‘z mehnat faoliyatiga moslash;

Psixologik jihati – bu bolalar bilan kun davomida o‘zaro munosabat o‘rnatish, muloqotda bo‘lish jarayoni uchun sharoit yaratish.

Amaliy jihati – bu bola bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish davomida bilim va tajribasiga tayanib, barcha malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash.

Bu uchala jihatlarning o‘zaro mantiqan bog‘liqligi ta’lim jarayonini nazariy bilimlardan foydalangan holda amaliyotda qo‘llash uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tarbiyalanuvchilarga individual yondashishga, bolani shaxs sifatida shakllantirishga undaydigan dastur bo‘lib, bunda pedagog tarbiyachilar bolaning shaxsiy sifatlari, iqtidori, qiziqishi, intilishlaridan kelib chiqqan holda, indikatorlardan foydalanib bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021-yillarda “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // “Ma’rifat” gazetasi. 2016. 31-dekabr.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari uchun o‘quv modullari – T., 2012. 9-18-betlar.

3. Maktabgacha ta’lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo‘yicha trening moduli. –T., 2016.

Nigora ERKABOYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” fakulteti dekani p.f.d., dotsent
Muzaffarjon UMARALIYEV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Pedagogika va psixologiya” fakulteti talabasi

MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALAR KITOBXONLIGINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad va vazifalari, maktabgacha yoshdagi bolaning o‘qish ko‘nikmalariga qo‘yiladigan Davlat talablarining mazmuni, uni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar bayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kitobxonlik madaniyati, bolalar kitobxonligi, davlat talablari, asar janrlari.

В статье описаны цели и задачи формирования навыков чтения у дошкольников, содержание Государственных требований к навыкам чтения у дошкольников, изложены рекомендации по их реализации.

Ключевые слова. Культура чтения, детское чтение, государственные требования, жанры произведений.

This article describes the goals and objectives of the formation of reading skills in preschool children, the content of the State requirements for reading skills of preschool children, a statement of recommendations for its implementation.

Key words. Reading culture, children’s reading, state requirements, genres of works.

Mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga xususan, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani, xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarda bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo‘llarida mustahkam zamin bo‘ladi. Bu haqida Amir Temur o‘gitlarida “Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir. Hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”, deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qaroriga ko‘ra qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil sifatida kitob mutolaasi, kitobxonlikni yoshlar

ma’naviy-axloqiy kompetentligining asosi sifatida shakllantirishga e’tibor qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayonda maktabgacha yosh davridan boshlab bolada kitobga ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish o‘ta muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu munosabat bilan bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzusida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha maktabgacha ta’lim tashkilotini o‘zbek milliy ertaklari, afsonaviy qahramonlar, buyuk bobolarimiz, milliy Vatan timsollari asosida bezash, jihozlash orqali ham bolalarda yoshga doir ma’naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Badiiy asarlar bolalarni xalqimizning so‘z san’ati, badiiy ijod namunalari bilan tanishtiradi, odob-axloq insonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, mardlik, jasurlik, ona Vatanga muhabbat, xalqparvarlik, halollik, nutqiy ziyraklik, hozirjavoblik kabi ma’naviy xislatlarni tarbiyalaydi.

Maktabgacha ta’limda bolalar adabiyoti asarlari, xalq og‘zaki ijodining bolalarbop materiallarini o‘rgatish maqsad qilib olingan, bunda quyidagilar nazarda tutiladi.

1. Badiiy asarlarning bolalarning yoshi xususiyatlariga mos bo‘lishi, voqea-hodisalar bolalar hayoti, kechinmalari, faoliyatlari va taassurotlarini ifoda etishi, bolalarni so‘z san’atiga qiziqtira olishi zarur.

2. Maktabgacha ta’limda bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari tanlanishi (ertak, hikoya, rivoyat, doston, she’r va h...) va ularning bolalarda ma’naviy, aqliy va nafosat his-tuyg‘ularini shakllantirishi lozim.

3. Badiiy asarlar mazmuni, badiiy ifodalanishi, obrazliligi bilan bolalarga ijobiy ta’sir etishi, bolalarning asar qahramonlaridan ibrat olishi, unga taqlid qilishi, asar qahramonlaridek bo‘lishga intilishi, ularda badiiy adabiyotga qiziqishni uyg‘otishi, badiiy so‘zni o‘rganishga intilishini orttirish zarur.

4. Badiiy asardagi voqea-hodisalarning qiziqarli, bolalarga tushunarli, ravon tilda bo‘lishi, bolalar nutqini o‘stirishga yordam berishi talab etiladi.

5. Badiiy asar janrlari bolalarning tinglash, eshitish, tushunib olish, ijro etish va asar qahramonlarining xususiyatlarini tushunish, ular xususiyatlarini farqlay olish, baholay bilishga mos bo‘lishi lozim. Buning uchun esa badiiy asarlarni tanlash talablariga amal qilish maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdagi asosiy vazifalar quydagilardan iborat:

1. Kichik guruhlardan boshlab bolalarda badiiy adabiyotni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish.

2. Bolalarda ertak, hikoya, rivoyat she’r va shu kabi badiiy asar namunalarini berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ishtiyoqini tarbiyalash, ular yuzasidan mulohaza qilish, asar qahramonlari harakatiga baho berishni shakllantirish.

3. Asar mazmuni yuzasidan savollarga javob berish, asar qahramonlari harakatlari, ruhiy kechinmalarini, ma’naviy sifatlarini ta’riflash, to‘g‘ri baholashga o‘rgatish.

4. Asar janrlari, tili haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo‘lish, asar g‘oyasi, tasviriy vositalarini yoshiga mos holda tushunish, o‘z qarashlari, mulohazasini bildirishga o‘rgatish.

5. Badiiy asarni hikoya qilish, uning mazmunini so‘zlab berish, she’rni ifodali yod aytish orqali nutq ohangi, ovoz kuchi, to‘xtam va ifodalilikni tushunish, unga rioya

qilishni shakllantirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda “O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”da bolalarning nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi bo‘yicha o‘qish ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablarni bolalar tomonidan egallab olinishi muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining kichik va o‘rta guruh bolalarining o‘qish ko‘nikmalariga qo‘yilgan Davlat talablarining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitob haqida tushunchaga ega bo‘lishi, bolaning yoshiga mos kitoblarni ko‘rib chiqishi, kitobdagi matn va rasm o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnata olishi, o‘ziga tanish bo‘lgan ertak qahramonlarini suratidan tanishi, eshitgan hikoyasiga munosabat bildirib kattalarga savollar berishi, eshitgan hikoyasining asosiy joylarini suratlar bo‘yicha aytib bera olishi, yoshiga mos she’rlarni yoddan aytib bera olishi, kitob bilan batartib munosabatda bo‘la olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Katta va tayyorlov guruhiga kelgan bolalar quyidagi o‘qish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari “Ilk va yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” da belgilab berilgan.

So‘zdagi birinchi tovushni tanish, kitobni mustaqil tarzda ko‘rib chiqish, tovushning farqini bilish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratishi, nutqning dialogik shaklidan foydalanib savollar berishi, she’rlarni yod olib, ifodali o‘qib bera olish, ba’zi badiiy asarlar, ertaklar, hikoyalarning nomi va muallifini bilishi, tengdoshlariga kitob mazmuni haqida yodida qolganlarni hikoya qilib berishi, bo‘g‘inlar ifodalangan kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzishi kitoblarning nomlari, surat ostidagi yozuvlarni o‘qiy olishi, taniqli bolalar yozuvchilari va shoirlarining ism-sharifini, so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha davlat talablarini bajarish uchun tarbiyachi avvalo, nutq o‘stirishga doir talablarni aniq belgilab olishi, uning bajarilishiga doir mashqlarni tanlashi, har bir mashg‘ulotda bolalarning maktabda o‘qib ketishlari uchun muhim bo‘lgan davlat talablariga muvofiq tarzda bilim va malakalarni berishga erishishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 5-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”.

3. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat dasturi. –T., 2018-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. –T., 2018-yil.

Gavxar RADJABOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
"Maktab menejmenti" kafedrasi katta o'qituvchisi
Xilolaxon SAIDOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti "Maktab menejmenti" kafedrasi o'qituvchisi

RAQAMLI IQTISODIYOT VA TA'LIM: O'ZARO TA'SIR MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ta'lim muassasalarini rivojlantirish imkoniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish natijasida kutilayotgan katta o'zgarishlar kabi masalalar raqamli iqtisodiyotga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Raqamlashtirish, raqamli asr, ta'lim texnologiyalari, axborot texnologiyalari, bilimlar iqtisodiyoti, "Industriya 4.0".

В статье освещается взаимосвязь между современными цифровыми технологиями и возможностями развития образовательных учреждений, а также основные изменения, которые ожидаются в образовательной среде в результате цифровизации в ближайшем будущем, путем анализа научных подходов к цифровой экономике.

Ключевые слова. Цифровизация, цифровая эпоха, образовательные технологии, информационные технологии, экономика знаний, "Индустрия 4.0".

The article highlights the relationship between modern digital technologies and the development opportunities of educational institutions, as well as the main changes that are expected in the educational environment as a result of digitalization in the near future, by analyzing scientific approaches to the digital economy.

Key words. Digitalization, digital age, educational technologies, information technologies, knowledge economy, ''Industry 4.0''.

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga faol kirib bormoqda. Axborot resurslarni barcha toifadagi fuqarolar: yosh bolalardan tortib, nafaqaxo'rlargacha barcha birday egallay olish imkoniyatining mavjudligi, axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantirdi.

Yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar kutilmoqda. Elektron ta'lim tizimi yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta'limga oid muammolarni hal etish, ta'lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini ko'paytirish kiradi.

Raqamli tizim tufayli bugungi kunda har bir kishi ilgari faqat mutaxassislar va olimlar uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Ta'lim va ilm olami globallashdi. Misli ko'rilmagan o'zgarishlar jarayonida ko'plab universitetlar o'zlarining noyob fazilatlari va raqobatbardosh ustunliklarini saqlab qolish bilan birga, global ilmiy va ta'lim xaritasida o'z o'rnini topishga harakat qilmoqda.

“Raqamlardan” foydalanishga asoslangan joriy etilayotgan texnologiyalarning so‘zsiz foydasi bilan birgalikida, axloq qoidalari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o‘rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari va boshqalar bilan bog‘liq muammolar tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda.

Ta’lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda bo‘lishi mumkin:

– ma’ruzalar, taqdimotlar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini o‘z ichiga olgan mavjud o‘quv materiallarini elektron muhitga tarjima qilish;

– o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar uchun interaktiv elektron muhitni shakllantirish, shu jumladan o‘qituvchilar uchun elektron sinflar yaratish, veb-seminarlar, munozarali forumlar o‘tkazish va h.k.;

– yangi turdagi o‘quv vositalarini yaratish: elektron darsliklar, elektron muammoli kitoblar, video ma’ruzalar, kvestlar, kompyuter o‘yinlari;

– elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’limning tubdan yangi shakllarini yaratish, xayoliy ma’lumotlarni uzatish spektrini kengaytirish, rolli o‘yinlar jarayonida turli vaziyatlarni modellashtirish, raqobatbardosh o‘yinlarga taqlid qilish va h.k.;

– sun’iy intellekt qobiliyatlarini o‘quv jarayoniga kiritish.

Hozirgi vaqtda elektron ta’lim iste’molchilar uchun muhim bo‘lgan bir qator xususiyatlar bo‘yicha oflayn ta’limdan ancha past. Biroq, o‘z vaqtida onlayn ta’lim bozorida o‘rnini egallashi va tegishli xizmatlarning doimiy ravishda yaxshilanib boradigan sifatini bozorga taklif qila oladigan ta’lim tashkilotlarigina kelajakda ta’lim makonida qolish imkoniyatiga ega.

Elektron ta’limning afzalliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1) Ta’lim olishni boshlash bilan bog‘liq muammolarni hal qilish: bilim olishga kirishish uchun hududiy to‘siqlarni bartaraf etish; vaqt cheklovlarini olib tashlash - foydalanuvchi uchun qulay vaqtda kirish; sinflarni bloklarga ajratish hisobiga kasrli (drob) kirish imkoniyati; yuqori malakali o‘qituvchilarning bilimlaridan foydalanish.

2) tanlash imkoniyatlarini kengaytirish: o‘qituvchini tanlash qobiliyati va materialni taqdim etish usuli; mantiqqa, tasvirlarga (uyushmalarga) yoki amaliyotga (holatlar, vazifalar) e’tibor berish; materialni assimilyatsiya qilish usulini tanlash qobiliyati: eshitish, vizual, motorli ko‘nikmalar yoki interaktiv ishtirok etish orqali; materialni assimilyatsiya qilish chuqurligi – keng ko‘lamli kurslarni tanlash qobiliyati; bilimlarni boshqarish uchun qulay usulni tanlash qobiliyati: testlar, topshiriqlar, bepul insholar, loyihalar, sun’iy intellekt bilan interaktiv suhbatlar va h.k.

3) bilimlarni uzatish shakllari va vositalarini kengaytirish: an’anaviy ma’ruzalar, spektakllar va seminarlar, loyiha ishlari, guruh bahslari, rol o‘ynash va raqobatbardosh o‘yinlar, shu jumladan virtual ishtirokchilar bilan o‘yinlar va boshqalardan foydalanish.

4) Ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklar: manfaatlarning ijtimoiy intellektual tarmoqlarini shakllantirish imkoniyati; nisbiy arzonlik (yuqori sarmoyalar va past operatsion xarajatlar).

Onlayn ta’lim tizimining asosiy muammolari:

– kunduzgi ta’limga taqlid qilish istagi, bu holat asl nusxasi bilan solishtirganda nusxasining sifati yomonlashishiga olib keladi.

– ta’lim mahsulotlarining sifatsiz nazorati.

– past interaktivlik.

– vakolatlarni primitivlashtirish. Elektron yordamchilar, shu jumladan, kalkulyatorlar, navigatorlar, lug‘atlar, buxgalteriya hisobi va yuridik dasturlar va boshqalar o‘z foydalanuvchilarining ko‘plab vakolatlarini keng jamoatchilikka taqdim etadi, ularni

dunyodagi o‘zlarining yaxlit siyratlarini shakllantirishdan xalos qiladi.

– ijtimoiylashuv muammosi.

– bilvosita ma’lumot uzatish muammosi. Devid Bromvich ta’kidlaganidek, o‘qitish nafaqat dalillarni uzatish, balki intellektual izlanish san’atidir, bu talabalar bilan yuzma-yuz muloqot qilishni talab qiladi.

Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo‘lishi va ularning ta’lim texnologiyalari bilan “birlashishi” o‘qitishda tub o‘zgarishlarga olib keldi:

Birinchidan, ta’lim vositalari axborot texnologiyalari (AT) ga asoslangan o‘quv vositalaridan foydalanishni boshladilar: doska, onlayn kurslar, simulyatorlar, onlayn dunyolar va boshqalar.

Ikkinchidan, axborot texnologiyalari ta’limning mazmuni va o‘quv jarayoni talabalar ehtiyojlari va ularning individual xususiyatlariga (o‘quv tezligi, ta’lim shakliga ustunlik berish va h.k.) moslashtirilgan holda individuallikni yaratdi.

Uchinchidan, o‘qitiladigan fanlarni yanada samarali va har tomonlama o‘zlashtirishga imkon beradigan o‘yinli ta’lim shakllari ta’limga faol ravishda joriy etila boshlandi.

To‘rtinchidan, ta’lim, ayniqsa, universitet talabalari va kattalar uchun avvalgiga qaraganda ko‘proq mavzuga va amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lib qoldi; ta’lim markaziga tinglovchilarning boshlang‘ich tashkilotlari, biznes loyihalari, biznes-rejalar va boshqalar kabi haqiqiy loyihalarni yaratish kabi masalalar qo‘yiladi.

Nihoyat, ta’lim bolalik va o‘spirinlik davridan o‘tdi. Bu insonni butun hayoti davomida birga olib boradigan doimiy jarayonga aylandi. Ushbu o‘zgarishlar axborot jamiyatining bosqichi va axborot yoki raqamli iqtisodiyotning boshlanishi bilan bog‘liq. Axborot iqtisodiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot tovarlari iqtisodiyoti sifatida tavsiflanadi. Axborot iqtisodiyoti konsepsiyasi rivojlanib borar ekan, tobora ko‘proq tadqiqotchilar har qanday ma’lumot hech qanday holatda iqtisodiy o‘sishning dvigateli bo‘lishi mumkin emas, balki faqat yangi bilimlarning o‘sishi, uning texnologiyasida o‘z ifodasini topishi mumkin degan fikrga to‘xtalishdi. Ushbu jarayonlar “bilimga asoslangan iqtisodiyot” yoki “bilim iqtisodiyoti” atamalarining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Yevropaning bir qator yetakchi mamlakatlari, Yaponiya va AQSh “Industriya 4.0” yoki “Milliy texnologiya tashabbusi” kabi texnologiyalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqdilar. Ular ta’lim texnologiyalari qanday rivojlanishini va ularning jamiyat va davlatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga qanday ta’sir qilishini aniqlashga qaratilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yuqori texnologiyalarga asoslangan biznes va ta’limning strategik sherikligi orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish rejalashtirilgan. Davlat yuqori texnologik mahsulotlarni yaratishda ta’lim muassasalari va biznes tuzilmalari ishtirok etishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos “inkubatorlar”ni yaratishi kerak. Analitik tadqiqotlar shuni ta’kidlaydiki, yangi iqtisodiyot ta’limga yangi turdagi kompetensiyalar va ta’lim standartlari sohasida talablar qo‘yadi.

Amaldagi ta’lim tizimining imkoniyatlari zarur mutaxassislarni tayyorlash uchun yetarli bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonida milliy ta’lim modelining asosini tashkil etishi kerak bo‘lgan yangi usul va texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha talab shakllanmoqda. Bundan tashqari, global tendensiyalarni tushunish ta’lim modelini global va mintaqaviy bozorlarga yo‘naltirishga yordam beradi. Ta’lim muassasalari vaqt o‘tishi bilan qanday rivojlanib borishi va ular ilmiy-texnikaviy inqilobning yangi bosqichi talablariga muvofiq tezda qayta tuzilishi mumkin bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qanday ta’sir qilishini tushunish muhimdir.

Texnologik inqiloblar doimo bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarning, ayniqsa,

ta’limning rivojlanishi bilan birga yuzaga kelgan. Sanoatning rivojlanishi bilan bir qatorda ta’lim texnologiyalari va o‘quv jarayonining mazmuni rivojlanmoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobi “kiber-fizik tizimlar”ning zavod jarayonlariga kuchaytirilgan integratsiyasi orqali sanoat ishlab chiqarishi va texnologiyasining raqobatbardoshligini oshirishga asoslangan.

Axborot jamiyatini tadqiq qilishda katta hissa qo‘shgan ingliz olimi T. Stonye birinchi bo‘lib axborot va bilimlarni muhim strategik resurslar sifatida ko‘rib, ularni kapital bilan aniqlab berdi: “... axborot ham kapital singari to‘planishi va saqlanishi mumkin”. Stoniyer “axborot iqtisodiyoti” atamasini postindustrial iqtisodiyotning bir tarmog‘i sifatida ko‘rib chiqadi. Ikkinchisi muallif tomonidan “bandlik va uning milliy mahsulotdagi ulushi jihatidan sanoat xizmat ko‘rsatish sohasiga birinchi o‘rinni beradigan va xizmat ko‘rsatish sohasi asosan axborotni qayta ishlashga mo‘ljallangan iqtisodiyot” deb ta’riflanadi. U “ma’lumotlar”, “ma’lumot” va “bilim” kabi toifalarni ajratib turadi. Shu bilan birga bu farqning o‘zboshimchalik bilan ekanligini ta’kidlaydi. Umuman olganda, biz Stoniyer axborot iqtisodiyotini “postindustrial iqtisodiyot”ning kengroq toifasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, bilim iqtisodiyoti bilan aniqlaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

L.P. Pidoimo va E.V. Buturlakinlar boshqacha fikrni ilgari surishadi. Ular ma’lumot va bilimni qat’iyan farqlaydilar. “Rasmiylashtirilgan bilim” deb qaraladigan ma’lumotlar bilim bilan taqqoslaganda yetakchi omil sifatida baholanadi. Shunday qilib, ular bilim iqtisodiyoti haqida emas, balki axborot iqtisodiyoti haqida gap yuritishadi.

Tadqiqotchi axborot iqtisodiyotini axborot-kommunikatsiya inqilobining mazmunli tarkibiy qismi sifatida tasavvur qiladi, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hamma joyda, birinchi navbatda, iqtisodiy jarayonlarga kirib borishi natijada ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida axborotning o‘rni o‘zgaradi. Chumachenko yangi iqtisodiyotni “axborot iqtisodiyotining asosiy oqimida qo‘zg‘atilgan jarayonlarning ta’siri, butun iqtisodiy tizim, ijtimoiy sferani aks ettirish natijasi” deb izohlaydi va yangi iqtisodiyotning xususiyatlari bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, faqat axborot texnologiyalari va axborot iqtisodiyoti bilan chegaralanib qolmasligini ta’kidlaydi.

Demak, raqamli jarayonlar muvaffaqiyatining asosiy omili – bu yuqori malakali kadrlarning yetarli hajmda va tegishli ish joylarida bo‘lishi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ma’lum vakolatlarga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimining mavjudligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulyamov S.S., Abdullayev A.M. Iqtisodiyotda zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: Impress Media, 2018. 8.

2. Ходиев Б. Ю. Цифровая экономика в Узбекистане. //Мировая экономика, 2017, №12.

3. Ayupov R.X. , Baltabayeva G.R. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. –T.: Fan va texnologiya, 2018, 232-bet.

4. Ayupov R.X. , Baltabayeva G.R. Uzbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. – T.: Iqtisod-moliya, 2015, 144 bet.

5. Salixov S.A. va boshqalar. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: “Iqtisodiyot”, 2013.

Dilorom SALIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

O‘SMIR SHAXSINING IJTIMOIY DEZADAPTATSIYA NATIJASIDA VANDALIZMNING RIVOJLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘smirlik davrida bolalaning ijtimoiy munosabatlarga moslasha olmaslik, psixik buzilishlar, hamda xarakter aksentuatsiyasini shakllanishi jarayonida vandalizm, internet olamidagi xakkerlik, ksenofobiya rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, dezadabtatsiya mohiyati bo‘yicha ijtimoiy moslashmaganlik o‘zida ijtimoiy rivojlanish jarayonining bosqichlarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Dezadabtatsiya, mohiyat, vandalizm, internet olamidagi xakkerlik, ksenofobiya rivojlanishi, jarayon.

В статье рассматривается развитие вандализма, хакерства и ксенофобии в мире подросткового возраста, неспособность ребенка адаптироваться к социальным отношениям, психические расстройства, а также формирование акцентуации характера. Социальная несовместимость по характеру дезадаптации также указывает на этапы процесса социального развития.

Ключевые слова. Дезадачность, сущность, вандализм, взлом в мире интернета, развитие ксенофобии, процесс.

The article examines the development of vandalism, hacking and xenophobia in the world of adolescence, the child's inability to adapt to social relations, mental disorders, and the formation of character accentuation. Social incompatibility by the nature of maladjustment also indicates the stages of the process of social development.

Key words. Disappointment, essence, vandalism, hacking in the world of the Internet, development of xenophobia, process.

O‘smir shaxsning tarkib topishida axloq, odob, o‘ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarning axloqiy tushunchalarni o‘zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o‘ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni o‘quvchidagi ishonch, aqida, nuqtayi nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko‘nikmalarni egallash unga kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada, favqulotdagi holatlarda katta yoshdagi odamlarning tutgan yo‘li va uslubini baholash kabi hayotiy ko‘nikmasi tarkib topa boshlaydi.

Dezadabtatsiya mohiyati bo‘yicha ijtimoiy moslashmaganlik o‘zida ijtimoiy rivojlanish jarayonining buzilishini aks ettiradi, o‘zgarishlarning darajasi va chuqurligiga qarab, uni 2 bosqichga ajratish mumkin:

1-bosqich: maktabga ijtimoiy moslashmaganlik yoki pedagogik qarovsizlik o‘smirning maktab dasturidagi qator predmetlar bo‘yicha surunkali ortda qolish, pedagogik ta’sirga

qarshilik ko‘rsatish, o‘qituvchilarga qo‘pollik qilish, o‘qishga salbiy munosabatda bo‘lish, axloqsizlik so‘kinish, chekish, bezorilik harakatlari, dars qoldirish, o‘qituvchi, sinfdoshlari bilan nizoli munosabat kabi shakllari bilan xarakterlanadi. Bunda o‘qishda ortda qolishiga qaramay pedagogik qarovsiz o‘quvchilarning ahamiyatli qismi jismoniy mehnatga bo‘lgan muhabbati bilan ajralib turadi, aniq kasbiy maqsadga ega, ishchi kasbi, iqtisodiy mustaqillikni egallashga intiladi;

2-bosqich: nafaqat o‘quv fanlari bo‘yicha surunkali qoloqlik va pedagogik ta’sirga qarshilik ko‘rsatish, balki kasbiy yo‘nalganlik, foydali jamoatchilik malaka va ko‘nikmalarining yo‘qligi, bilishga doir qiziqishlar muhitining torligi bilan bog‘liq ijtimoiy qarovsizlik. Bunday o‘smirlar oila va maktabdan begonalashishi bilan xarakterlanadi, ularning ijtimoiy rivojlanishi asosan asotsial, kriminogenli o‘smirlar guruhi ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Ularga turli jiddiy ijtimoiy og‘ishishlar ichkilikbozlik, giyohvandlik, huquqbuzarlik, axloqsizlik va hokazolar xosdir. Har bir xulqning bahosi qaysidir norma bilan solishtiriladi. Muammoli xulqni odatda deviant, og‘ishgan xulq deb atashadi.

Inson shakllanishida o‘smirlik davri uzoq vaqt portlovchi, himoyasiz, qiyin, og‘ir, inqiroz, o‘tish davri deb nomlangan, chunki shaxsiyatning faol shakllanishi, odamning jadal jismoniy o‘sishi, psixikada o‘zgarishlar yuzaga kelish davri hisoblanadi. Bu yoshda, voyaga yetmaganning jismoniy va ma’naviy rivojlanishi hali to‘liq emasligi, bu uning harakatlarining tabiatida aks etadi. Balog‘atga yetmagan bolalar jinoyati masalasini tahlil qilayotganda, ijtimoiy xavfli qilmishida amalga oshiriladigan motivlar va rag‘batlantirishlar uchun jinoiy niyat paydo bo‘lishining xususiyatlarini doimo yodda tutish kerak.

Balog‘atga yetmagan bolalar jinoyati masalasini tahlil qilayotganda, ijtimoiy xavfli qilmishda amalga oshiriladigan motivlar va rag‘batlantirishlar uchun jinoiy niyat paydo bo‘lishining xususiyatlarini doimo yodda tutish kerak. Bunday jinoyatlarning katta qismi vaziyatni noto‘g‘ri baholash, buzg‘unchilik, “erkak” fe’l-atvorini isbotlash, o‘spirin uchun juda yoqimli narsaga ega bo‘lish istagi va hokazolarga bog‘liq. Voyaga yetmaganlarning jinoiy faoliyatining eng ko‘p uchraydigan sabablari – bu o‘zlarining tengdoshlariga taqlid qilib, jasoratini namoyish etish uchun har qanday holatda (shu jumladan, jinoiy qonunni buzgan holda) istakda namoyon bo‘ladigan g‘ayriinsoniy, ba’zan ma’nosiz xatti-harakatlarining bajarishidir.

O‘smirlik davrida bolalarning ijtimoiy munosabatlarga moslasha olmaslik, psixik buzilishlar, hamda xarakter aksentuatsiyasini shakllanishi jarayonida vandalizm, internet olamidagi xakkerlik, ksenofobiya ham rivojlanishi mumkin.

Vandalizm bu insonni buzadigan (buzuvchi) deviant xatti-harakatlarining shakllaridan biri bo‘lib, uning mazmunida san’at va madaniyat obyektlarini vayron qilinadi yoki tahqirlanadi. Laruss “Vandalizm – bu go‘zal narsalarni, xususan, san’at asarlarini yo‘q qilishga majburlaydigan ongli holat” ekanligiga e’tibor qaratadi.

Ingliz manbalari vandalizmning huquqiy tomoniga e’tibor qaratadilar: “Vandalizm – bu xususiy yoki jamoat mulkini qasddan yo‘q qilish yoki shikastlash”. Vandalizmni o‘rgangan A.Golshtayish (vandalizm deb atalgan qismida) o‘t qo‘yishning zamonaviy tendensiyasini aniqladi. 1965-yilda 1 nafar ayol 12 nafar hibsga olingan erkak qamoqdagilarga to‘g‘ri keladi va 1993-yilda bu nisbat 6 dan 1 ga teng edi.

Vandalizmning motivatsion tipologiyasi S.Koyen tomonidan tahlil qilib berilgan va vandalizmni egallash usuli sifatida quyidagicha ko‘rsatib o‘tilgan;

- Taktik vandalizm.

- Mafkuraviy vandalizm.
- Vandalizm qasos sifatida.
- Vandalizm o‘yin kabi.
- Yovuz vandalizm.

Vandalizm sabablarini tasniflash D.Kanter tomonidan quyidagicha izohlangan.

- Jahl;
- Zerikish;
- Izlanishlar;
- Estetik tajriba;
- Ekzistensial o‘rganish;

Vandalizm bizning davrimizda fenomen sifatida keng tarqalgan bo‘lib, ommaviy axborot vositalarida berilgan ma’lumotlardan, shuningdek, o‘zingizning uyingizdan chiqmasdan duch kelishingiz mumkin bo‘lgan voqealar bilan tasdiqlanadi. Ko‘pincha o‘smirlar o‘zlarining tasavvurlari va badiiy iste’dodlarini namoyish etib, turar-joy binolarining kirish devorlarini odobsiz, behayo iboralar va chizmalar bilan bo‘yashadi, lift uskunalarini yoqishadi, avtobus bekatlariga zarar berish, lampochkalarni va deraza oynalarini sindirishadi. O‘z harakatlarini amalga oshirayotganda, ular bino va inshootlarning ahamiyatiga, madaniy yoki ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor bermaydilar, o‘z shaharlaridagi ko‘chalarning estetik ko‘rinishi haqida o‘ylamaydilar.

Qoidaga ko‘ra, voyaga yetmaganlarda vandalizmning namoyon bo‘lishi guruhiy xarakterga ega va bu harakatlar asosan balog‘atga yetmagan bolalarning barqaror norasmiy guruhlari, kamroq asotsial, vaziyatli, tasodifiy uyushmalar tomonidan amalga oshiriladi. Vandalizmni sodir etilishi ayniqsa, beparvo skinxedlar, panklar, fanatlar guruhlarida kuzatiladi. Voyaga yetmaganlarning antisotsional namoyon bo‘lishining bir qismi millatlararo to‘qnashuvlar asosida yuzaga keladi. Sotsiologiya va psixologiya sohasidagi tadqiqotlar va statistika shuni ko‘rsatadiki, vandalizm aktlarining aksariyati 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tomonidan sodir etiladi.

Sotsiologlar tomonidan o‘tkazilgan voyaga yetmaganlarni so‘rov natijalariga ko‘ra, vandal xatti-harakatlariga moyillikning cho‘qqisi 11-14 yoshda bo‘ladi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi vandalizmni sodir etish uchun qonun hujjatlarida jinoiy javobgarlik yoshini kamaytirgan jinoyatlar orasida tasniflaydi. Agar aksariyat jinoyatlar uchun javobgarlik 16 yoshdan kelib chiqsa, u holda vandalizm uchun odam 14 yoshdan boshlab javobgarlikka tortilishi mumkin.

Vandalizmning namoyon bo‘lishi jamiyat va davlatga juda katta moliyaviy zarar hamda salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Shunday qilib, ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, uy-joy-kommunal sohasidagi ta’mirlash xarajatlarining 30 foizi vandalizm oqibatlarini bartaraf etish hisobiga qoplanadi. Temir yo‘llarda, metroda va boshqa transport turlarida har yili katta miqdordagi moddiy zarar yetkaziladi: yumshoq o‘rindiqlar, divanlar, astarlar o‘g‘irlanadi va buziladi, avtoulovlarning oynalari singan, devorlari shafqatsiz yozuvlar bilan ifloslanadi.

Vandalizm kabi hodisaning mohiyatini aniqlash uchun olimlar mulkni yo‘q qilishning turli tasniflaridan foydalanadilar. Masalan, vandalizmning instrumental va instrumental bo‘lmaganlarga ajratiladi. Instrumental vandalizm – bu birovning mulkini qasddan yo‘q qilish hisoblanadi. Instrumental bo‘lmagan vandalizm – harakatning aniq sabablari bo‘lmagan taqdirda mulkni yo‘q qilish (masalan; elektr poyezdlaridagi qo‘pol divanlar, singan avtobus bekatlari va boshqalar). Bundan tashqari, vandalizm quyidagi shakllarni olishi mumkin.

a) buzuvchi - mavjud mulkka yetkazilgan zararni keyinchalik yo‘q qilishdan iborat (masalan, avtobus o‘rindig‘idagi teshik odamning say-harakatlari bilan kattalashganda);

b) birga kelgan – boshqa jinoyatlarga (masalan, o‘g‘rilikka) hamrohlik qiladi, chunki o‘g‘rilar topilgan narsalardan qoniqish hosil qilmaydilar;

c) qasos – masalan, o‘z qarzini to‘lamagan va norozilikni shu tarzda bildirgan aniq bir shaxsga qarshi operatsiya tayyorlanayotganda;

d) beparvolik – vandalizm, unda tajovuzkorlik moyilligi va hayajonlanishni izlash natijasi topiladi. Bir qator olimlar vandalizmni tajovuzkorlik nazariyasi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqmoqdalar va bu harakatni tajovuzkor noqonuniy xatti-harakatlar deb talqin qilmoqdalar.

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, buzg‘unchi xatti-harakatlarning asosi o‘smirlarning o‘zlarini ishontirishga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lib, bu har qanday shaxsga xosdir, ammo o‘smir shaxsida o‘zini oilada, maktabda, sinfdoshlar orasida o‘zini munosib tarzda topa olmasa, vandalizm kabi bunday xunuk sifatlar shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Maktab muhitida buzg‘unchi xulq-atvor mavzularini ko‘plab tadqiq qilish shuni ko‘rsatdiki, vandallar o‘z tengdoshlari kabi aql-idrokka ega, ammo ular maktabda juda yomon ish qilishadi, g‘oyib bo‘lishadi, vaqtini bekorga sarflashadi, keyinchalik o‘z tengdoshlari bilan birga ko‘chalarda beg‘ubor yurishadi. Shunday qilib, o‘qishning past darajasi, maktabga tez-tez qatnashmaslik o‘smir vandalizmini aniqlaydigan eng muhim omillardir. Aksincha, maktabdagi yutuqlar, sevimli mashg‘ulotlariga qiziqish, sportga bo‘lgan qiziqish o‘smirlarning jinoiy moyillik namoyon bo‘lish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu sababli, sirtdan o‘qish bilan kurashish, bilimlardagi bo‘shliqlarni bartaraf etish o‘smir vandalizmining oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

A.E. Donchenko vandalizm uchun jinoiy javobgarlik yoshini pasaytirish asossiz deb hisobladi. U o‘z fikrini ma’lum bir san’atning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli asoslab bergan. Vaziyat bo‘yicha tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, vandalizmni sodir etganlarning 16,4 foizi 14-15 yoshda bo‘lgan. Vandalistik harakatlarning o‘zi hech qanday maxsus tayyorgarlikni, jinoiy bilimlarni, ko‘nikmalarni, tajribani talab qilmaydi, boshqa ko‘plab jinoyatlar bilan solishtirganda maxsus texnik vositalardan foydalanishni talab qilmaydi, ya’ni ular 16 yoshgacha bo‘lgan jinoyatchilar uchun ochiqdir. Vandalizm, o‘spirinlar orasida ma’lum darajada va ommabop bo‘lib, bu yoshdagi odamlar orasida antisotsional xatti-harakatlarga moyillikni rivojlantirish va hissa qo‘shadi, ularning ba’zilari uchun kriminal pog‘onaga tushishda bir qadam bo‘ladi, shuning uchun vandalizmning aniq ko‘rinishiga qarshi kurashish juda muhimdir.

Chet el tadqiqotlariga ko‘ra, vandalizm uchun hibsga olingan o‘spirinlarning yarmidan ko‘prog‘i keyinchalik yanada jiddiy jinoyatlarga yoki 6 yoshdan 17 yoshgacha vandalizmni sodir etganlar, odatda 21 yoshga to‘lganlardir. Allaqachon jiddiy jinoyat olamida ularning o‘rni mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun bolalar va o‘spirinlar o‘rtasida buzg‘unchi xatti-harakatlarning erta namoyon bo‘lishida ularning motivatsiyasini tushunish, bunday harakatlarning sabablarini o‘z vaqtida aniqlash va yo‘q qilish, keyinchalik ular tomonidan yanada jiddiy jinoyatlarning oldini olish juda muhimdir.

Shunday qilib, vandalistik xususiyatini shakllantiruvchi jinoyatlar bilan o‘ta noqulay vaziyat bilan bir qator salbiy ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri tavsiflanadi hamda ushbu jinoyatlarning tarkibiy qismi bilan tasdiqlanadi:

1) yosh chegarasining pasayishi;

2) guruh jinoyatlarining og‘irligi va shafqatsizligi, ijtimoiy xavflilik darajasi va o‘spirinlarning jinoiy guruhlarining tayyorgarligi;

3) katta yoshdagi uyushgan jinoyatchilik qonunlariga muvofiq jinoyatlarning qo‘l yozuvi takrorlanishi;

4) huquqni muhofaza qilish organlariga bo‘ysunmaslik va ijtimoiy keskin vaziyatlarda, ayniqsa millatlararo tusda ishtirok etish;

5) ichki ishlar organlarida bunday jinoyatlar uchun qat’iy hisobga olishning yo‘qligi;

6) bunday jinoyatlar uchun jinoiy ish qo‘zg‘atilmasligi (agar ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, ko‘pincha jinoyatlarning oldini olish va voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha komissiyalarga murojaat qilish bilan tugaydi);

7) voyaga yetmaganlarning guruhiy jinoyatlarining, shu jumladan, antisotsional yo‘naltirilgan norasmiy birlashmalarning doimiy ravishda yuqori darajasi;

8) voyaga yetmaganlarni etnik va etnik nizolarga, siyosiy kurashga jalb qilish;

9) giyohvandlar hamda ularning sonini ko‘payishi, ichkilikbozlik va o‘spirinlarning jinsiy zo‘ravonligi bilan bog‘liq murakkab vaziyat, bo‘sh vaqtni o‘tkazish shakllaridan biri sifatida sadizm va zo‘ravonlik, vandalizm, qimor o‘yinlari holatlarining ko‘payishi;

10) vandalizmning oldini olish uchun samarali tizim yo‘qligi shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makarenko M.M. Vandalizm uchun jinoiy javobgarlik: Dis. ... sham. qonuniy fanlar. - M., 2001.

2. Rusakov A.P. Jinoyat huquqi va vandalizmga qarshi kurashning kriminologik muammolari: Dis. ... sham. qonuniy fanlar. - M., 2001-yil.

3. Skoroxodova A.S. Vandalizm // Sotsiologik jurnal. 1999. № 3-4. Hanigan P. Qiyin yoshdagi yoshlar: yordam berishni tushuning / Per. fr bilan A.M. Gertsik. - M., 1999.

4. Cheremnova N.A. Vandalizm uchun jinoiy javobgarlik: Dis. ... sham. qonuniy fanlar. - Omsk, 2004. Bibliografiya.

5. A. Donchenko. Jazosiz vandalizm // Rossiya adliya. 1998. № 6. P. 22.

Shaxnoza IBRAGIMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QITUVCHI SHAXSINI KASBIY YO‘NALGANLIGINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘qituvchi shaxsini kasbiy yo‘naltirilganligining psixologik tahlili yoritilgan. Xususan, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda bilimlarni egallash ko‘nikma va malakalarni oshirishga bo‘lgan talablarni shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratish o‘qituvchi faoliyatida chuqur o‘rin egallashi lozimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, ta’lim, salohiyat, qadriyat, kamolot, yangilik.

В статье проводится психологический анализ профессиональной ориентации учителя. В частности, внедрение общечеловеческих ценностей, богатая культура нашего народа, формирование требований к приобретению знаний, навыков и умений, создание условий для их поддержки должны сыграть глубокую роль в работе учителей. выделено.

Ключевые слова. Учитель, образование, потенциал, ценность, зрелость, новаторство.

This article provides a psychological analysis of a teacher’s professional orientation. In particular, the introduction of universal values, the rich culture of our people, the formation of requirements for the acquisition of knowledge, skills and abilities, the creation of conditions for their support should play a deep role in the work of teachers highlighted.

Key words. Teacher, education, potential, value, maturity, innovation.

Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda o‘qituvchi, tarbiyachi hamda ta’lim sohasidagi mas’ul xodimlarining xizmati kattadir. Yuksak saviyali, yuqori darajada kasbiy mahorat va kompetentlikka ega o‘qituvchilargina xalq orzusidagi barkamol shaxsni tarbiyalaydi.

O‘qituvchi kasbi dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati hech qaysi davrda kamaymagan va so‘nmagan. Chunki ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. Bunda o‘qituvchining bilimi, mahorati beqiyosdir. O‘qituvchining bilim darajasi, sharqona fikr yurita bilishi, ish bilan harakatining birligi yoshlarda o‘z-o‘zini idora va nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda ijodiy fazilatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda bilimlarni egallash ko‘nikma va malakalarni oshirishga bo‘lgan talablarni shakllantirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish, o‘quvchi-yoshlarning ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratish o‘qituvchi faoliyatida chuqur o‘rin egallashi lozim. Shu bois, xalqimizning “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”, degan naqlini o‘quvchilar qalbiga singdirish mas’uliyati o‘qituvchiga topshirilgan.

Maktab amaliy psixologlari ko‘pincha tipik pedagogik deformatsiyani yuzaga chiqaruvchi, shaxsga ta’sir etuvchi kasbiy faoliyatlar mexanizmlarini aniqlashda, o‘qituvchini kasbga kirish bosqichini baholash muammolariga duch keladilar.

Biroq, ko‘p miqdordagi mezonlar va pedagoglar professiogrammasining turlarini ko‘pligi bu tekshirishlarni qiyinlashtiradi. Chunki turli metodikalarda pedagogik qobiliyatlar tarkibi turlicha differensiyallashgan sifatlardan iborat bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchining o‘rganilishi kerak bo‘lgan sohasini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Bizning misolimizda o‘qituvchining yo‘nalganlik sohasi va tipologiyasini tadqiq etish ko‘zda tutilgan. Bunda ba’zi o‘qituvchilar faoliyatining turli qirralarini o‘rganish ularning muvaffaqiyatga erishishlari uchun imkoniyatlar yaratishi mumkinligini ta’kidlab o‘tish joizdir. O‘qituvchi tipologiyasi turlicha bo‘lib, ular quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladilar: ba’zilar yoshlarning maslahatchisi va do‘stiga aylanishadi, boshqasi o‘quvchilarni mustaqil va qat’iyatli qilib shakllantirishga moslashadilar, yana boshqalari bo‘sh o‘quvchilarga o‘zlarining kamchiliklarini sababini yo‘qotishga yordam beradi, bulardan tashqari kirishimli, tashkilotchi, fanga yo‘naltirilgan, intelligent, qo‘llab-quvvatlash motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarga bo‘linadilar. O‘z navbatida, bu faoliyat turlarini bittasini ustun qo‘yib bo‘lmaydi, chunki hammasi keraklidir.

“Tashkilotchi” tipidagi o‘qituvchining psixologik tomonini talabchanlik, tashkilotchilik, kuchli iroda, shijoatlilik sifatlari tashkil qiladi. Bu sinfdan tashqari ishlarning faoliyat yo‘nalishiga ega bo‘lgan “toza tashkilotchi” degan tabaqalanishga yo‘l qo‘yadi.

Predmetga yo‘nalgan o‘qituvchi uchun kuzatuvchanlik, kasbiy kompetentlik, ijodga intilish xosdir. Predmetga yo‘nalganlik o‘quvchilarni predmetga qattiq yo‘naltirishni va ularni faoliyatini aynan fan bilimlari ichida tashkil qilishda ko‘zga tashlanadi.

Kommunikator o‘qituvchi tipini psixologik tuzilishi kirishimlilik, rahmdillik, tashqi tomondan o‘ziga jalb qilish, yuqori odoblilikda ko‘zga tashlanadi. Bunday sifatlarga yana hissiyotlilik va xatti-harakatlarni nafisligini ham kiritish mumkin.

Intelligent tipi yuqori intellekt, umumiy madaniyat, odoblilik bilan xarakterlanadi. Bu yerda intelligent tipni namoyon qiluvchi oraliq “Intelligent-optimist” tipi borligini ham unutmaslik kerak.

Yuqoridagilardan tashqari fan bilimlari bazasiga asoslangan pedagoglarni ma’lum tiplarga ajratishda har xil yo‘nalishni o‘z ichiga olgan “predmetik-kommunikator”, “predmetik-ma’rifatchi” kabi oraliq tiplar mavjudligini hisobga olish lozim. Shu bilan birga “intelligent-tashkilotchi” ham bo‘lib, nazariy tomondan bu tiplar birlashishi mumkin.

Ko‘rsatib o‘tilgan o‘qituvchilar tiplari (kommunikator predmetik, tashkilotchi intelligent) o‘zining ish uslubi, mexanizmlari va tarbiyalovchilik kabi ta’sir kanaliga egadirlar.

Shunday qilib kommunikator-o‘qituvchi ekstrovertligi, mojarolarga kam aralashishi, xayrixohligi, empatiyaga qobilligi, bolalarni sevishligi bilan ajralib turadi. U o‘zining tarbiyalash ta’sirini o‘quvchiga mos kelishi, shaxsiy hayotdagi birlashish nuqtalarini izlash yo‘li bilan amalga oshiradi. Tabiiyki, bu ta’sirlar o‘quvchining “hayotiy” yurish-turishga ko‘proq o‘zgarishlar kiritadi.

Hayotda bilimning kerakligi va ahamiyatliligida qattiq ishongan ratsionalist, predmetik-o‘qituvchiga o‘quvchini dunyoni ilmiy ko‘rinishini qabul qilinishini o‘zgarishi, to‘garak ishlariga jalb qilish va boshqalar bilan o‘qilayotgan predmet vositasida tarbiyalash ko‘proq xarakterlidir.

Bolalar va jamoa orasida faol hisoblangan “tashkilotchi-o‘qituvchi” o‘zining shaxsiy fazilatlarini sinfdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan tadbirlarda namoyon qiladi. Shuning

uchun uning ta’sir etish natijalari hamkorlik ishlarida, jamoat qiziqishlarida, tartib-intizom va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Prinsipialligi, aqliy normalarga qat’iy amal qiluvchi “intelligent-o‘qituvchi” yoki “ma’rifatchi” yuqori intellektual ma’rifiy faoliyat, o‘quvchilarga odob-axloqni o‘rgatish, ma’naviylik, ozodalikni his qilishi bilan o‘zligiga ega bo‘ladi.

Kasbiy faoliyat bilan birga mutaxassisning shaxsiy xususiyatlarini o‘zgarishi kuzatiladi, bir tomondan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga moslashgan sifatlarning intensiv rivojanishi kuchayadi, boshqa tomondan bu jarayonda ishtirok etmagan sifatlarni o‘zgarishi susayishi va hatto yo‘qolishi amalga oshishi ehtimoli bor.

Agar bu kasbiy o‘zgarishlar salbiy deb baholansa, u holda shaxs mukammalligini buzilishiga, uni moslashuvchanligini va turg‘unligini kamayishiga kasbiy deformatsiya sifatida qarash mumkin.

Bu xususiyatlar aksentuatsiyada shaxsda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni eslatuvchi, shaxs tuzilishiga kirish mumkin.

Pedagogik kasb namoyondalarida shaxs faoliyatini deformatsiyasi to‘rtta bosqichda namoyon bo‘ladi:

1. Umumpedagogik deformatsiya. Bu deformatsiya pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha odamlarda uchraydigan shaxs o‘zgarishining o‘xshashligini xarakterlaydi.

2. Shaxs xususiyatlari bilan pedagogik faoliyatning funksional tuzilishini qo‘shilishidan hosil bo‘lgan tipologik deformatsiya.

3. O‘ziga xoslik yoki predmetlik deformatsiya. O‘qitiladigan fanning o‘ziga xosligiga bog‘langan. Hatto, tashqi ko‘rinishga qarab bu o‘qituvchi qaysi fandan dars o‘tishini aniqlash mumkin: tasviriy san’atdanmi yoki jismoniy tarbiyadan, matematikadanmi yoki rus tilidan.

4. Individual deformatsiyalar. Ular shaxs tuzilishi va tashqi ko‘rinish bilan pedagogik faoliyatga bog‘liq bo‘lmagan jarayonlar bilan sodir bo‘ladi.

Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, shaxsning shakllanishi birinchi navbatda, o‘qituvchi bajaradigan usullar, operatsiyalardagina emas, balki shaxs yo‘nalganligiga ham bog‘liq.

Maktab amaliy psixologlari pedagog shaxsining yo‘nalganligining ustun tomonini o‘rganib, uni targ‘ib qilishi va boshqalarda shakllantirishga, hamda kamchiliklarini yo‘qotishda turli treninglar, seminarlar uyushtirishi, pedagoglarga maslahatlar, amaliy yordamlar berishi kerakdir. Chunki pedagoglar jamoasining psixologik muhiti, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari, bolalarning ruhiy sog‘lig‘i, oilada, bolalar jamoasida, jamoatchilik joylarida o‘zini tutishi, fikr bildirishi, dunyoqarashini o‘sishi va ko‘plab boshqa narsalar shunga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.S. Atayeva. Umumiy pedagogika. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2012-yil, 576-bet.

2. Abdulla Sher. Filosofiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010-yil, 192-bet.

Dilmurod NOSIROV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Musiqa ta’limi” kafedrasi mudiri

OILADA YOSHLAR G‘OYAVIY-SIYOSIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH SHAXS KAMOLOTINING MUHIM MEZONI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish shaxs kamolotining muhim mezoni sifatida talqin etilgan. Shuningdek, yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda ota-onaning vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Oila, yoshlar, g‘oyaviy-siyosiy madaniyat, tarbiya, komil inson tarbiyasi, davlat, jamiyat, rivojlanish.

В этой статье интерпретируется идейно-политическая культура молодежи в семье как важный критерий качества. А также роль родителей в формирование идейно-политической культуры у молодёжи анализа в семье.

Ключевые слова. Семья, молодежь, идеологическое и политическое культура, образование, государство, общество, развития.

This article interprets the ideological and political culture of youth in the family as an important criterion of quality. And also the role of parents in the formation of ideological and political culture among young people in analysis in the family.

Key words. Family, youth, ideological and political culture, education, state, society, development.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-sentabr “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining №O‘RQ-406 qabul qilinganligi yoshlarning huquqlari va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, yoshlarni o‘z iqtidor va salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish, yoshlarni ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy faolligi va g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini rivojlantirishga muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2017-2021-yilgi taraqqiyot strategiyasida yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazish yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy

madaniyati darajasini yuksaltirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Yoshlarda g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish asosida uni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini tarkib toptirish oilaning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’lim ya’ni bog‘cha yoshidagi bolalarni g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish o‘yinlar jarayonida va mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi va bu bevosita ota-onalarimizdan maktabgacha ta’lim muassasasi bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi. G‘oyaviy tarbiya – ta’lim oluvchilarga mafkuraviy bilimlarni berish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mustaqillik mafkurasining bosh va asosiy g‘oyalari, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi mafkurasi mazmunini o‘rganishni ta’minlash asosida ta’lim oluvchilarda mafkuraviy faoliyat ko‘nikma va malakalarini qaror toptirish, mafkuraviy madaniyatni shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinflarda bu tarbiya jarayoni o‘quv mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng mas’uliyatli davrdir. G‘oyaviy-siyosiy madaniyati shakllanishi natijasida bolalar atrof-olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o‘rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari hosil bo‘la boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziquvchanlik va taqlidchanligini inobatga olgan holda, ota-onalarimiz ularning yosh xususiyatlarini, individual imkoniyatlari, qobiliyatlariga mos tarbiya metodlaridan o‘rinli foydalanishlari lozim. O‘smirlik davrida bolalarning fikrlash jarayoni va dunyoqarashida tabiati va fe’l atvorida sezilarli o‘zgarishlarni kuzatamiz va ularda milliy g‘urur, milliy iftixor tushunchalarini singdira boramiz.

G‘oyaviy-ma’naviy tahdidlar nimalarda ayon bo‘lishini tahlil qilib ko‘raylik. Bu tahdid, birinchi galda, tili, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, har qaysi shaxsning tom ma’nodagi ozod inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy olamini izdan chiqarish maqsadini ko‘zlaydigan mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot xurujlari tariqasida yuzaga chiqadi.

Ilmiy tahlillarda g‘oyaviy-ma’naviy tahdidlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– insonning erkinligiga daxl qiladi, uni fikriy jihatdan qaram qilishni ko‘zlaydi;

– insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan mafkuraviy, g‘oyaviy va axborot xurujlari shaklida amalga oshiriladi;

– turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostiga yashiriladi;

– katta ma’naviy yo‘qotishlarga olib keladi, xalqlarning milliy va diniy tomirlariga bolta uradi;

– yot g‘oya va zararli dunyoqarashni avvalo beg‘ubor yoshlarning ongiga singdirishga qaratiladi;

– mamlakat xavfsizligi va milliy manfaatlariga tahdid soladi, jamiyatni inqirozga olib keladi.

Ko‘rinib turibdiki, g‘oyaviy-ma’naviy tahdidlar dunyoning barcha mamlakatlari, xalqlari hayotiga daxldor masala sanaladi. Demak, g‘oyaviy-ma’naviy tahdid qaysi davlat yoki xalqqa qarshi qaratilishidan qat’iy nazar, butun insoniyatda birdek tashvish va xavotir uyg‘otishi kerak.

Bunday murakkab zamonda ma’naviyat va ma’rifat masalasi naqadar dolzarb, hal qiluvchi masalaga aylanib borayotganini ko‘pchilik hamon teran anglab yetgani yo‘q. Takror aytish foydadan xoli emaski, agar ma’naviyatni yo‘qotsak, o‘zimizni va

o‘zligimizni yo‘qotib qo‘yishimiz mumkin. Aksincha, ma’naviyatimizni yanada yuksaltirsak, o‘zimizning maqsad vazifalarimizga yetish uchun kuchli va ishonchli madad topa olamiz.

O‘sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular axborot makoniga kirganda, faqat o‘zi uchun zarur va foydali narsani olsin, internetdan foydalanish madaniyatini o‘rgansin. Bu masalada internet tizimi orqali mentalitetimizga mutlaqo yot mafkura va dunyoqarashni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga urinayotganlar borligi, ayniqsa, xatarli ekanligidan barchamizni ogoh bo‘lishimiz zarur. Zero, biz bu masalada hamisha ogoh va hushyor turmasak, mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini zaharlashi, “ommaviy madaniyat” deb atalayotgan illat xalqimizning ma’naviy boyligi bo‘lgan odob-axloq, ibo, or-nomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizni nursizlantirib, ko‘p mingyillik milliy qadriyatlarimizga putur yetkazishimiz mumkin.

O‘zbekiston erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan yutuqlarning negizida turgan asosiy omil insondir. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan so‘zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Shundan kelib chiqib, buyuk kelajak sohibi bo‘lgan yurtimiz yoshlarini barkamol shaxs qilib tarbiyalash har birimizning sharafli burchimizga aylanmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, har bir davr, zamon va makon o‘zgarishlari, unga bo‘lgan ishonch va e’tiqod zaruratini doimo saqlab qoladi. Faqat uni yangi sharoitda yangicha yondashuv, yangicha texnologiyalarni joriy etish asosidagina o‘sib kelayotgan yosh avlod, farzandlarimiz ongi va tafakkuri, ishonch va e’tiqodi bilan bog‘liq ma’naviy-ruhiy olamining negizi bo‘lgan g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish uzluksiz ravishda mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar startegiyasi to‘g‘risida”, PF-4947

2. Milliy g‘oya va mafkuraning falsafiy-huquqiy fanlar rivojidagi ahamiyati. (M.Quronov muharrirligi va muallifligida) T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008-y. 412-b.

3. Rajab Qilichev. Milliy g‘oya va mafkura: asosiy tushuncha va tamoyillar. “Durdona” nashriyoti 2014-y. 57-b.

Eminjon ERGASHEV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHI-YOSHLARDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLAR ORQALI INFORMATSION TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil qilish orqali informatsion tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish muammolariga bag‘ishlangan.
Kalit so‘zlar. Informatsion tahdidlar, ma’naviy tarbiya, ma’rifiy tadbirlar, axborot, qobiliyat, g‘oya, jarayon.

Статья посвящена проблемам формирования навыков противодействия информационным угрозам через организацию духовно-просветительской деятельности в учреждениях непрерывного образования.
Ключевые слова. Информационные угрозы, духовное воспитание, образовательная деятельность, информация, способность, идея, процесс.

The article is devoted to the problems of formation of skills to combat information threats through the organization of spiritual and educational activities in continuous educational institutions.
Key words. Information threats, spiritual upbringing, educational activities, information, ability, idea, process.

Bugungi dunyo boshidan kechirayotgan globallashuv jarayoni insoniyat uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Lekin, shunday kuchlar paydo bo‘lmoqdaki, ular dunyoni yanada murakkablashtirishga harakat qilayapti. Xususan, doimo zo‘ravonlik va gegemonlik hisobidan boylik orttirib kelgan kuchlar turli axborotlarni tarqatish orqali o‘quvchi-yoshlarning ongiga salbiy g‘oyalarni singdirish maqsadida keng targ‘ibot qilmoqdalar.

Kimki yolg‘on axborotlar ortidan ergashsa, o‘zining ijodiy qobiliyatidan yiroqlashadi va tayyor madaniy mahsulotlar “iste’molchisi”ga aylanib qoladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, informatsion tahdid, asosan hayotiy tajribasi kamroq yoshlarni ohangrabodek o‘ziga tortadi.

Shularni inobatga olgan holda, kasb-hunar kolleji o‘quvchilarini darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ijodiy to‘garaklarga jalb qilish orqali, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, o‘zlari qiziqqan kasb sirlarini mukammal o‘rganishlari uchun shart-sharoit yaratish muhim. Jarayonlarni muvaffaqiyatli olib borilishi, bugungi kunda o‘quvchilar ongiga xavf-xatar solayotgan – informatsion

tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirib borishda samarali natija beradi.

O‘quvchilarda informatsion tahdidga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarning qurilish mazmuni, shakli va usullari, uslub natijasi aqliy va tarbiyaviy ahamiyati zanjiri samaradorligi unga rahbarlik va nazorat qilish bilan xarakterlanadi.

O‘quvchilarda informatsion tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash ishlariga rahbarlik qilishning mazmuni, shakli va usullari birligini ta’minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati, ta’lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshirish alohida ahamiyatga ega.

Buning uchun o‘qituvchi nafaqat o‘z mutaxassisligi doirasidagi bilimlarga, balki informatsion tahdid ko‘rinishlari, ularning turlari haqida keng ma’lumotga, faol tashkilotchilik xislatlariga ham ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Darsdan tashqari o‘tkaziladigan o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni pedagogik talablar va shart-sharoitga tayangan holda, ta’lim texnologiyalari elementlari bilan (shakllari, usul va vositalarini) birgalikda amalga oshirish lozim. Bu tadbirlarni ommaviy (guruhlararo); guruhlar bilan; yakka (individual) tartibda o‘tkazish mumkin.

Dars va darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning har uchala guruhi monologik shaklda (tarbiyaviy tadbirlarning borishida notiq mahorati asosiy o‘ringa qo‘yiladi, adabiy kecha, yozma ijodiy ishlar musobaqasi va boshqa tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishda ma’ruza, axborot, ma’lumot berish) tashkil etiladi. Ikkinchi, dialog shaklidagi tadbirlar (munozara, uchrashuv, sayohat, savol-javob kechalari, suhbat)ni o‘tkazishda, o‘zaro muloqot, savol-javobdan iborat bo‘lib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi va muloqot madaniyatini tarbiyalaydi.

O‘quvchining informatsion tahdidlarga qarshi g‘oyaviy immunitetini shakllantirishga yo‘naltirilgan mafkuraviy targ‘ibot shaklidagi tadbirlar jarayonida monologik va diologik nutqlar, kompleks shaklidagi tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchining faolligini ta’minlaydi, bilim saviyasini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Kasb-hunar kollejlarida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quvchilarni turli yot g‘oyalar, informatsion tahdidlar ta’siridan himoyalashda quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

• informatsion tahdidlarning manbalari, ildizi qayerlarda mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish;

• informatsion tahdidlarning salbiy oqibatlarini nimalardan iborat ekanligini hayotiy misollar asosida o‘quvchilar ongiga chuqur singdirish;

• informatsion tahdid va uning salbiy oqibatlarini ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish;

• darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda o‘quvchi-yoshlarni informatsion tahdidga qarshi kurashish ko‘nikmalarini shakllantirish mezonlarini ishlab chiqish;

• informatsion tahdidlarni oldini olish samaradorligini oshirish uchun undan zarar ko‘rgan insonlarning hayoti, salbiy oqibatlarini yoshlarga filmlar orqali aniq faktlar va misollar bilan namoyish qilishga asosiy e’tiborni qaratish;

• o‘quvchilarni darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalab, axborot xurujlariga qarshi kurashishning nazariy va eksperimental-metodik asoslarini yanada kengroq tadqiq

etish;

• pedagog kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari o'quv rejalarida axborot xavfsizligi va unga qarshi immunitetni o'quvchilar ongiga shakllantirish yo'llari, metodlarini o'rgatish maqsadida informatsion tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion yo'llari mavzusini o'quv dasturiga kiritish va bu borada o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish;

• o'quvchilarning yoshga oid psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning informatsion tahdidlarga qarshi immunitetini shakllantirishda xalqimizning, milliy qahramonlarimizning milliy merosi va tajribasi, urf-odatlar, an'analar va milliy qadriyatlar aks etgan badiiy ijod namunalarini yaratish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ma'naviyatga tahdid kelajakka tahdid, demakdir. O'zbekiston xalqi jahon taraqqiyotiga ulkan ulush qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, buyuk imomlar al-Buxoriy, Moturidiy, at-Termiziy, hazrat Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburlarning avlodidir. Ular va boshqa ulug'larimizning ma'naviy merosini butun dunyo ahli hayrat bilan o'rganayotgan bir paytda bizning zamonaviylik, madaniyatlilik niqobi ostida turli yengil-elpi, ma'naviyatsizlikni targ'ib etuvchi omillarga berilishimiz kechirilmas holdir. Bunday salbiy illatlarga qarshi immunitetni shakllantirish, ularga qarshi kurashish bugunning dolzarb vazifasi bo'lmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov S.Y., Umaraliyeva M.A, Karimova G.K. Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlardagi informatsiyaviy tahdidlar monitoringi: tahlil, rejalashtirish va amalga oshirish/Uslubiy tavsiyanoma/S.Y. Maxmudov va b. –Toshkent; T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti bosmaxonasi, 2015.116-b.

2. Qodirov U.D. "Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida destruktiv g'oyalarning ta'siri" Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. – T., 2017. – №1. – B.106.

Зиёда МИРЗАЮНУСОВА,
Преподаватель кафедры "Русский языка и литература" Кокандского государственного педагогического университета

НАУЧНО-ТВОРЧЕСКИЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'qituvchilarning ilmiy, ijodiy va texnologik qobiliyatlarini o'quvchi-yoshlarga berayotgan ta'limi to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. O'qituvchi, o'quvchi, natija, tajriba, samaradorlik, bilim, jarayon, ta'lim, qobiliyat.

В этой статье описываются научные, творческие и технические навыки учителей и образование, которое они дают молодежи.

Ключевые слова. Учитель, ученик, результат, опыт, эффективность, знания, процесс, образование, способности.

This article describes the scientific, creative and technical skills of teachers and the education they provide to young people.

Key words. Teacher, student, result, experience, efficiency, knowledge, process, education, ability.

В настоящее время наблюдается существенный разрыв между теоретическими достижениями педагогической науки, психологии и методики и опытом учебно-воспитательной работы школ и вуз. Ликвидация этого разрыва во многом зависит от того, как педагогические коллективы изучают достижения педагогической науки, передового опыта школ, которые критически оценивают и пересматривают свою собственную практику. Особая роль в этих условиях принадлежит преподавателям психолого-педагогических дисциплин, направляющим и организующим систему самостоятельной работы будущих учителей.

Из основных характеристик личностной ориентации современного педагога проявляется способность создания в образовательном процессе ситуаций, которые запускалибы механизмы развития личности, то есть ставили студента в позицию, когда они сами сознательно принимают решения относительно заданной ситуации, излагают свою точку зрения, берут на себя ответственность за представленное решение – словом, приобретают опыт личностных проявлений.

За этой характеристикой стоят различные технологии практической деятельности педагогов, последовательное создание в аудиторном процессе специальных ситуаций, требующих и развивающих личностное начало в студентах.

Педагогическая технология – специфический инновационный подход к обучению и воспитанию.

Деятельность педагога требует умения наблюдать, анализировать, исследовать, вскрывать имеющиеся противоречия в учебном процессе и находить оптимальный выход из них. Педагогическая технология – это инновационный подход к

обучению, который призван стандартизировать обучение. В основе педагогической технологии лежит методика полного усвоения данного материала. В определении педагогической технологии ключевыми словами являются “системный подход”, все остальные слова характеризуют компоненты педагогической технологии как системы. Специфика педагогических технологий состоит в том, что в ней конструируется и осуществляется учебный процесс, который дает гарантию достижения учебных целей.

Технологический подход проявляется в том, что студенты сами должны конструировать и создавать модели.

Цель занятий, текущая проверка, разбивка обучения на отдельные обучающиеся элементы – все это позволяет воплотить в жизнь фрагменты занятия, основными из которых являются:

1. Общая постановка цели обучения.
2. Переход к ее осуществлению.
3. Предварительная оценка уровня обучения учеников.
4. Оценка результата.

Исходным моментом методики полного усвоения является общая установка, которой должен проникнутся учитель, работающий по этой системе: все ученики способны полностью усвоить необходимый материал; его задача – правильно организовать учебный процесс, чтобы дать им такую возможность.

Затем учителю необходимо определить, в чем состоит полное усвоение, какие результаты были достигнуты всеми.

Точное определение критериев полного усвоения учебного материала является важным моментом перечисленной выше системы обучения.

Новые педагогические технологии являются инновацией, т.е. новшеством в системе образования. Мы говорили о системном подходе в определении новых педагогических технологий, и это является главным отличительным признаком педагогической технологии от других подходов в обучению.

Инновационный метод существует не только в обучении, но и воспитании.

Таким образом, мировая педагогическая наука, испытывая воздействие научно-технического процесса и интегрируя успехи психологии, кибернетики, теории управления и других наук, находится в фазе активных инновационных процессов и дает богатый выход в практику эффективного развития человеческих ресурсов.

Потребность в творчестве принадлежит к числу наиболее естественных человеческих потребностей. Наличие этой потребности учащихся любого учебного заведения уже само по себе приводит к целенаправленному самостоятельному развитию умственной деятельности, связанному с системой профессионального воспитания и самовоспитания. Для любого учителя или преподавателя в этих условиях возникает проблема совершенствования педагогического мастерства, изучения особенностей педагогического воздействия на развивающуюся личность, выбора наиболее эффективных форм, методов и приемов раскрытия творческих потенциальных сил и способностей учащейся молодёжи. В условиях независимости создаются наиболее благоприятные факторы для развития нового профессионального творческого мышления, научных интересов, склонностей, способностей как педагога, так и его учеников.

Учитель является ключевой фигурой, так как ему принадлежит стратегическая роль в развитии личности в ходе профессиональной подготовки. Следовательно,

необходимо поднять на качественно новый уровень квалификацию самих педагогов. Ведь от того, кто именно передаёт будущим поколениям сокровища социального опыта, мудрость предков, зависит во многом успех реализации Национальной программы по подготовке кадров и национальной идеологии. Лишь высокопрофессиональный труд, труд каждого педагога может обеспечить формирование интеллектуального, духовно-нравственного потенциала нации, необходимого и соответствующего требованиям и уровню общественного прогресса. И чтобы выполнить эту творческую миссию учителю необходимо:

– обладать не только суммой знаний, но и способностью воспринимать мир как единую сложную и постоянно развивающуюся систему;

– обладать глубокими психолого-педагогическими, культурологическими знаниями;

– иметь высокую общечеловеческую и политическую культуру, гуманистические, социальные и личностные качества;

– владеть новими технологиями и методами интенсивного творческого обучения, воспитания и развития подрастающего поколения.

Указанные требования ставят каждого перед необходимостью не только иметь соответствующие знания, умения и навыки, но и постоянно их совершенствовать.

Несмотря на то, что в практике внедрение технологий развивающего обучения приобрело широкий характер, проблема подготовки творческого человека не только не подвергается должному исследованию, но и не поставлена. Это одно из многих противоречий школьного и педагогического вузовского образования, необходимость разрешения которого давно назрела.

Формирование творческого человека обеспечивается на основе программно и системно организуемой учебно-воспитательной деятельности в процессе его профессионально-педагогической подготовки.

Творчество человека в контексте предполагает особое мастерство, умение осмыслить, принять и реализовать теории и методические системы развивающего обучения, требующие структурной и содержательной перестройки осмысления и осознания противоречий в теориях и практике жизни. Творчество человека, способного организовать успешно развивающее общества, представляет собой своеобразную культуру.

Для формирования педагогической культуры учителя, его готовности к успешной организации развивающего общества разработана дидактическая разноуровневая система (содержательно-целевой, методический, процессуальный аспекты) его подготовки к развивающему обучению.

Разработана модель теоретической и практической подготовки учителя, включающая:

усвоение теоретических знаний по проблемам развивающего обучения на лекционных и практических аудиторных занятиях;

наблюдение, фиксацию, анализ образовательного процесса в условиях развивающего обучения на лабораторно-практических занятиях в школе;

конструирование дидактических моделей “развивающего урока” в контексте содержательно-целевого, методического, процессуального и практически-результативного аспектов на аудиторных лабораторно-практических занятиях;

проведение, анализ и самоанализ “развивающего” урока студентами в аудиторных семинарских и лабораторно-практических занятиях;

самостоятельную работу по изучению первоисточников, программ и учебников по дидактическим системам развивающего обучения и проведение коллоквиумов по самостоятельной работе (по сетевому графику).

Опытно-экспериментальная проверка подтвердила высокую эффективность разработанной дидактической системы подготовки будущего учителя к развивающему обучению. Проведенное исследование позволило сформулировать педагогические условия, обеспечивающие подготовку учителя к успешной организации развивающего обучения. Исследование создает предпосылки для дальнейшего изучения области вопросов по проблеме подготовки учителя к развивающему обучению:

– соотношение теорий развивающего обучения и теории проблемного обучения в подготовке учителя;

– контроль качества знаний, умений и навыков учащихся в системе развивающего обучения;

– коммуникативная деятельность в условиях развивающего обучения;

– формирование опыта эмоционально-ценностного отношения учащихся к миру.

Использованная литература:

1. Александрова, Л. А. Развитие личности школьника в условиях новой образовательной среды // Образование в современной школе. – 2005. – № 5. – С.56.

2. Вялкова, Г. М. Новые образовательные стандарты. Русский язык. 5–11 классы // Использование технологии “Коллективный способ обучения”. – М.: Планета, 2012. – С.96.

3. Дружинин, В. Н. Психология творчества. – 2005. – Т. 26. – № 5. – С.258.

4. Горбич, О. И. Современные педагогические технологии обучения русскому языку в школе // Дистанционный курс повышения квалификации. – М.: Первое сентября, 2009. – С.78.

5. Калганова, Т. А. Сочинения различных жанров в старших классах. – М.: Просвещение, 2002. – С.192.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV,
Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Jurnalning ushbu sonini nashrga tayyorlashda tahririyat hamda mualliflar bilan bevosita ishlagan shuningdek, maqolalarni tahrir qilish ishlarida ekpert – retsenzent sifatida faoliyat ko‘rsatgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Nazirova Go‘zal Malikovnaga minnaddorchilik bildiramiz.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Qarshiboyeva Hilola Murtazayevna

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2020.